TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2025
1-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal

ISSN 2181-8274

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:
M.Boltabayev
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:
M.Esanov

Bosh muharrir:
J.Usmanov

Tahrir hay'ati a'zolari:
L.Abduxalilova
L.Zaripov
S.Xudoyberdiyeva
R.Jo'raqulov
M.Aripov
B.Zaripov
U.Djumaniyazov
T.Axmedov
N.Toshpo'latova
S.Maxsumova

Dizayner:
S.Musamedov

1 ***Almasxan Nishanbayeva.*** TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTLARIDA TIBBIY KIMYO FANIDAN TA'LIM OLUVCHILARNI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH 3
2 ***Aziza Sattorova.*** "MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA OG'IRLIK KUCHI TEZLANISHINI ANIQLASH" MAVZUSINI O'QITISHDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH 7
3 ***Хулкархон Лутфуллаева.*** ОТНОШЕНИЕ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ К САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 15
4 ***Almasxan Nishanbayeva.*** TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA VIRTUAL KIMYO LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI 20
5 ***Maftuna Rajabova.*** TOLERANTLIK TAMOYILINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI 24
6 ***Nodirbek Yoqubjonov.*** JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNING RIVOJLANISHIGA JAMOALARNI OMMAVIY JALB ETISH 29
7 ***Гулибарно Собироваю*** РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И МОДЕЛЬ 32
8 ***Ixtiyor Kamolov, Saodat Fayzullayeva.*** O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA XALQ RIVOYATLARI VA HIKMATLI SO'ZLARDAN FOYDALANISHNING AMALIY AHAMIYATI 39
9 ***Антонина Кошелеваю*** СОЧЕТАНИЕ ТРАДИЦИЙ И НОВАЦИЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 43
10 ***Jahongir Komiljonov.*** GLOBALLASHAYOTGAN DUNYO O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI VA GRADUAL TA'LIM MUAMMOLARI 47
11 ***Umida Mahmudova.*** MEDIAMATN DISKURSIDA TILNING QISQARISHI HODISASI 55
12 ***Sherjaxon Abdufatayev.*** O'QUVCHILARNING TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING O'RNI 58
13 ***Антонина Кошелеваю*** ФОРМИРОВАНИЕ «ГИБКИХ НАВЫКОВ» У СТУДЕНТОВ СФЕРЫ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ 62
14 ***Мусаллам Абдужаббарова.*** ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ИХ ВОСПИАТЕЛЬНАЯ РОЛЬ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ 65
15 ***Munavvarxon Sultonova.*** TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGLARNING SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI 68
16 ***Samijon Xamroyev.*** SPORT TO'GARAGI MASHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VOSITALARI 72
17 ***Nusrat Utkirov.*** O'QUVCHILARNING JISMONIY-AQLIY RIVOJLANISHIDA O'QUV-BILISH FAOLLIGINING AHAMIYATI 77
18 ***Nozimbek Zaripov.*** O'QUVCHILARDA ALGORITMIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI 82
19 ***Shahlo Salimova.*** EMOTSIONAL XAVFSIZLIKNING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI 85
20 ***Otabek Raxmatov.*** SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KOOPERATIV YONDASHUVNING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI 90
21 ***Azizbek Xaitov.*** IMOM AL-BUXORIY HADISLARI VOSITASIDA ILM EGALLASH VA MA'RIFATGA ERISHISH YO'LLARI 95
22 ***Сохиба Наркулова.*** ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫХ РОДОВ У ЖЕНЩИН С НАРУШЕНИЕМ ФУНКЦИИ МАТКИ 99
23 ***Barna Koshakova.*** ZAMONAVIY OILALAR BOLALARIGA NISBATAN ZO'RAVONLIK MUAMMOSI: IJTIMOIY PSIXOLOGIK TAHLIL 104
24 ***Nilufar Bafoyeva.*** METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE TRANSLATION OF HYPERBOLIC EXPRESSIONS 109

Muassislar:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy.
Telefon: (71) 207-03-41
e-mail: rmxat@edu.uz

Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Jurnal har oyda o‘zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

“Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 18-noyabrdagi 218/5-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrdagi 247/6-sonli qarori, 2024 yil 25 dekabrdagi 365-sonli qarori asosida quyidagi fanlar kiritilgan:
05.00.00 — Texnika fanlari,
08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari,
13.00.00 — Pedagogika fanlari,
19.00.00 — Psixologiya fanlari
23.00.00 — Siyosiy fanlari
bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnalidan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir. Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to‘liq matnini **esijournal.uz** rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni **@esijournalbot** telegram botiga yuboring.*

25 ***Nasiba Iskanova.*** O‘ZBEK ADIBLARI ASARLARIDA UCHRAYDIGAN STILISTIK USLUBLAR TARJIMASI HAMDA ULARNING LINGVOMADANIY JIHATARI (O‘XSHATISH, MUBOLAG‘A MISOLIDA) 113
26 ***Sohiba Abduraimova.*** BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “KREATIVLIK” KONSEPSIYASI 117
27 ***Moxigul Kurbanova.*** MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘YIN TEXNOLOGIYASI ORQALI BOLANING KOGNITIV BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI 122
28 ***Azamat Umirov.*** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI TA’LIMIDA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA KASB-HUNAR, ILM-FAN VA ILMSIZLIK HAQIDAGI FIKRLARDAN FOYDALANISH 126
29 ***Dilshod Sohibov.*** BO‘LAJAK INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI BO‘YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING TIZIMLI TAHLILI 130
30 ***Madina Tashpulatova.*** 6-SINFLARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINI INTEGRATSIYA QILISH 135
31 ***Fotima Sattorova.*** BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA “FLIPPPED CLASSROOM” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH 138

TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTLARIDA TIBBIY KIMYO FANIDAN TA'LIM OLUVCHILARNI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Almasxan Nishanbayeva,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Chirchiq filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda, topshiriqlarni mustaqil bajarishga o'rgatishda, interfaol ta'lim usullarining ta'rifi va ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kreativlik, ta'lim, interfaol usul, mantiqiy zanjir,yo'naltiruvchi, tanqidiy analiz, matnlar analizi.*

Аннотация

В статье дается описание интерактивных методов обучения и методические рекомендации по их использованию для повышения интереса учащихся к науке, обучения их самостоятельному выполнению заданий.

Ключевые слова: *компетентность, креативность, образование, интерактивный метод, логическая цепочка, ссылка, критический анализ, анализ текста.*

Annotation

The article describes interactive teaching methods and methodological recommendations for their application to increase students ' interest in science, teaching them to perform tasks independently.

Keywords: *competence, creativity, learning, interactive method, logical chain, leadership, critical analysis, text analysi.*

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi, strategik vazifalar belgilab berildi, ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimizning bu sohadagi bir qancha farmon va qarorlar shu jumladan 2020 yil 12 avgust PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlar hamda boshqa me'yoriy –xuquqiy hujjatlarda ta'lim tizimining rivojlantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib va uni amalga oshirishda pedagog va metodist o'qituvchilarning oldiga bir qancha vazifalar qo'yilgan [1]

Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilarni, qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarniyaratishni taqozo etmoqda.[2]

Ta'lim sohasini takomillashtirish bo'yicha xorijiy investitsiyalar keng jalb qilingan xolda xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqalar ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim muassasalarining maqsad va vazifalari zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqilmoqda.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. Bugungi kunda o'qitishning an'anaviy ko'rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi. Shu bois ham ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrida o'qitishining an'anaviy texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan ilg'or texnologiyalar bilan almashtirilmoqda [2].

Bundan ko'zlangan maqsad, har tomonlama yetuk, jahon standartlari darajasi talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashdir.Ta'lim jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yangi texnologiyalarga asoslangan ta'lim usullari va vositalari, uni tashkil qilishshakllari va natijalarining shu paytgacha mavjud bo'lgan

an'anaviy o'qitish usullaridan keskin farq qiladi va samaradorlik nuqtai nazaridan ko'p afzalliklarga ega.

Natijalar va muhokama. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi [3]. Fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ko'zlangan asosiy ustuvor yo'nalishlardan biridir. Darslarni oqilona tashkil qilinishi, pedagog tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini oshirib, ularning darslarda faolligi rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi [4].

Zamonaviy ta'lim texnologiyasidagi usul va vositalar, shakl va natijalarning har biriga to'xtalmasdan, misol tariqasida guruhlarga yangi mavzu o'tishning an'anaviy va zamonaviy texnologiyaga asoslangan usulini taqqoslab ko'ramiz. Bu usullar qo'llanilganda pedagog ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi Quyida ana shu interfaol usullarning nomlari va qisqacha tavsifi keltirilgan:

Interfaol usullar

Guruhlar va usullarning qisqacha tavsifi nomlanishi

1. Tushunchalarni analiz qilish va tartibga solish

Klaster tushuncha to'g'risida kengaytirilgan yangilik

2.Kategorial ma'lumot o'xshash tushunchalarni umumlashtirish.

3.dashgan mantiqiy zanjir vaqtincha ketma-ketlik

4.Sinkveyn axborotlarni yig'ish, tushunchalarni aniq ochish

2.Fikrlashni faollashtiruvchi savollar va usullar

1.Bumerang	savollar almashuvi
2.Ko'zguli savollar	ma'nosini aytib berish
3.Muallifga savollar	mazmunini oydinlashtirish
4.Pedagogga savollar	xilma-xillik
5.Muammoli savollar	Fikrlarni faollashtirish
6.Fokuslovchi savollar	Aniqlashtirish
7.Konseptual savollar	Nazariy
8.Savol berish usullari	Tavsiya etish
9.Keys-stadi	Tajriba holati bo'yicha qaror qabul qilish
10. Dastlabki terminlar	Kalit so'zlar
11. Yo'naltiruvchi ma'ruza	Interfaol
12. Kutilajak natija	Ha yoki yo'q fikri

3. G'oyalarning paydo bo'lishi

1.6-3-5 metodi	Epchillik
2.Aqliy hujum	Ozod qilish
3.Yalpi aqliy hujum	Maslahat beruvchi
4.Natija ko'rinishi	Ko'z bilan ko'rish
5.Jarayon ko'rinishi	Ko'z bilan ko'rish
6.Yakunlovchi natija	Umumlashtirish

4. Grafik tashkilotchilar

1.Ma'nolar xususiyatini analiz qilish	Mazmunni analiz qilish
2.Chiqish xaritasi	Dars natijasi
3.Venna diagrammasi	Farqlash va birlashtirish

4.Bilaman/Bilishni xohlayman/Bilib oldim O‘qitish yo‘li
5.Konseptual xarita Solishtirish
6.T-sxema Taqqoslash

5 . Munozaralar

1.Muzokaralar Qoida bo‘yicha tortishuv
2.So‘zlashuv profili Qarama-qarshi so‘zlashuv
3.Munozara Ijodiy va tafakkurni rivojlantirish
4.Oxirgi so‘zni menga bering Rag‘batlantirish
5.Bir-birini kesib o‘tuvchi munozaralar “Ha”-“qarshiman”
6.Burilish munozarasi Qarashlarning ko‘p variantligi
7.Tanqidiy munozara GuruhlariOb'ektiv xaqiqatni bilish
8.Meta munozara Fikr yuritish
9.Stol o‘rtasidagi ruchka O‘z fikrini bayon qilish imkoniyati
10. Estafeta Faollikka chaqirish

6.Birgalikda o‘qitish

1.Akvarium Turli xil ko‘rinish
2.Hamkorlikda o‘qitish Birgalikda ishni tashkil etish
3.Zig-zag 1 Pedagog rolida, hamkorlikda ta'lim olish.
4.Zig-zag 2 Pedagog rolida, hamkorlikda ta'lim olish.
5.Aylana stol Birgalikdagi ijod
6.Kubik 6 ta nuqtai nazardan qarash
7.Kichik guruh Hamma birgalikda
8.O‘ylang /Juftlikka bo‘li-ning/ Ikkovlon tayyorgarlik
9.Kichik guruhlarda fikrlar almashish Ishni ketma-ket muhokama qilish
10. Uch satxli intervyu Konsensusga yo‘l

7. Baholash va o‘z-o‘zini baholash

1.Hamkorlikda baholash Sherik fikri
2.Portfolio Baholash uchun materiallar
3.Ahamiyatlilik chizig‘i Muhimlik haqida fikr

8. Yozma ishlar

1.Analitik umumlashtirish Referat
2.Asoslovchi esse Asoslash
3.Assotsiativ xat O‘qib chiqilganlar haqida fi
4.RAShM (berilgan mavzu bo‘yicha yozma ish) "Rol-Auditoriya-Shakl-Mavzu"
5.Galereya bo‘yicha davra Ishni muhokama qilish
6.10 daqiqali Esse Kichik yozma ish
7.5 daqiqali Esse Kichik yozma ish

9. O‘qitish

1.Ikki qimsli kundalik G‘oyalar, sanalar analizi
2.Insert Matnlar analizi
3.Yo‘naltiruvchi o‘qitish Muayyan dalillar asosida o‘qitish
4Hamkorlikda izlanish Matn bo‘yicha savollar
5.Juftlikda o‘qish Ma'ruzachi va opponent
6.O‘qish va o‘qib chiqilganlarga reaksiya Tanqidiy analiz
7.Strategiya 4-P

Mavzuni sharhlash Interfaol usullarni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:Birinchi qoida: ishlash uchun joyni tayyorlashga jiddiy qarash kerak. Bu avvaliga bekorchi ko'ringandek oddiy masala emas. Auditoriyani shunday tayorlash kerakki, bunda ta'lim oluvchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun o'tirishlariga oson bo'lishi kerak. Ya'ni ularga jismonan qulay sharoit yaratilishi kerak. Darsda kimdir guruhga teskari o'tirib qolib boshqalarga boshini yonboshga burib o'tirishi yomondir. Shuning uchun stolni shunday qo'yish kerakki, ta'lim oluvchi o'ziga qulay vaziyatda kichik guruh bilan oson munosabatda bo'lishi kerak. Ijodiy ish uchun materiallar oldindan tayyorlangan bo'lsa yaxshidir.Ikkinchi qoida: jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish lozim. Bu haqda boshidan kelishib olish kerak va uni buzmaslik lozim. Masalan, hamma ta'lim oluvchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo'lib, so'z erkinligini, uning qadrini hurmat qilishlari kerak.Uchinchi qoida: ta'lim oluvchilarning guruhlarga bo'linishiga jiddiy e'tibor bering. Avvaliga, uni o'zi xohishiga ko'ra qurish kerak. Keyin tasodifan tanlash tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq.To'rtinchi qoida: ta'lim oluvchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo'lishi kerak.Beshinchi qoida: ta'lim oluvchilarning ruhan tayyorgarligiga ko'maklashish lozim. Gap shundaki, darsga kelganlarning hammasi ham u yoki bu ish shakliga bevosita kirishishga ruhan tayyor emaslar. Bunga ma'lum darajada xulqining an'anaviyligi ta'sir ko'rsatadi. Bu borada mashq qilishlar, ta'lim oluvchilarning ishda faol ishtiroklari uchun doimiy rag'batlantirishlar, ta'lim oluvchining o'zini namoyon etish uchun imkoniyat yaratish foydali bo'ladi. Oltinchi qoida: interfaol usullardan foydalanganda guruhda ta'lim oluvchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Ta'lim oluvchilar soni va o'qitish sifati bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Odatda agarda ishda ta'lim oluvchilar soni 15 kishidan oshmasagina, ish samarali bo'ladi. Faqat shu shart bajarilganda eng maqbul tarkibi 4-5 kishidan iborat, kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin. Axir, har kimni tinglash, har bir guruhga muammoni bayon etish bilan chiqishga imkon berish muhim. Interfaol o'qitish pedagog bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabatlarni ko'zda tutadi va shuning uchun u auditoriya bilan o'zaro munosabat o'rnatishni bilishi kerak.

Xulosa. Dars jarayonida samarali shakl, metod, metodik usul va vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish, ta'lim oluvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga imkon beruvchi omillardan biri sanaladi. Kuzatishlarni olib borish, muammoli vaziyatlarni yaratish va bu o'rinlarda ta'lim oluvchilarning mustaqilligini ta'minlash, ularni o'z fikrlarini erkin bayon etishga rag'batlantirish ularda nafaqat kreativ kompetentlikni rivojlantiradi, balki unga qiziqish darajasini oshiradi, uni mustahkamlaydi va barqarorlashuviga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora – tadbirlari" to'g'risida. 2020 yil 12 avgust. PQ-4805-sonli O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarori.
2. Kimyo fanini o'qitishda shaxsiy – insonparvarlik texnologiyasidan foydalanish. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES OLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor SJIF) 2021: 5.723.
3. R.J.Ishmuxamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005 y.
4. Farberman B., Musina R., Djumabaeva F. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari (o'quv-uslubiy qo'llanma) T., 2002. 192 b.
5. Kompetentnostnыy podxod v obuchenii: uchebno-metodicheskoe posobie/avt.-sost. O. V. Yeremkina, N. B. Fedorova, D. V. Morin, M. A. Borisova; Ryaz. g os.un-t im. S. A. Yesenina. - Ryazan, 2010.

"MATEMATIK MAYATNIK YORDAMIDA OG'IRLIK KUCHI TEZLANISHINI ANIQLASH" MAVZUSINI O'QITISHDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Aziza Sattorova,
Navoiy davlat universiteti, Fizika va astronomiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Fizik praktikum" fanini o'qitish muhimligi, bo'lajak mutaxassislarni "Matematik mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishini aniqlash" laboratoriya ishini bajarish jarayonida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligi va Fizik praktikum fanidan laboratoriya ishlarini tashkil etishda turli xil interfaol metodlardan foydalanish samarali usullari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: *tebranma harakat, davriy tebranishlar, mayatnik, muvozanat holat, davr, erkin tushish tezlanishi, shtangensirkul.*

Аннотация

В данной статье рассмотрена важность преподавания предмета "Физический практикум" для студентов бакалавриата высших учебных заведений, важность развития профессиональной компетентности будущих специалистов в процессе выполнения лабораторной работы "Определение ускорения силы тяжести с помощью математического маятника" и написано о эффективные методы использования различных интерактивных методов при организации лабораторных работ в физическом практикуме.

Ключевые слова: *колебательное движение, периодические колебания, маятник, состояние равновесия, цикл, ускорение свободного падения, штангенциркул.*

Annotation

In this article, the importance of teaching "Physics practicum" for undergraduate students of higher educational institutions, the importance of developing professional competence of future specialists in the process of performing the laboratory work "Determination of the acceleration of gravity using a mathematical pendulum" and written about the effective methods of using various interactive methods in the organization of laboratory work in Physics practicum science.

Keywords: *oscillatory motion, periodic oscillations, pendulum, equilibrium state, period, acceleration of free fall, barbell circle.*

Oliy ta'lim muassasalarida "Matematik mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishini aniqlash" mavzusini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim omil sanaladi. Bu borada ma'ruza mashg'ulotlarida keng qo'llaniladigan interfaol metodlardan samarali foydalanish – bo'lajak mutaxassislarda nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada biz taqdim etayotgan ushbu maqolada nazariy, amaliy, laboratoriya ko'nikmalari bilan birgalikda o'qitish metodikasi ham dars jarayonida muhim ekanligini namoyon etdik.

Mavzu: Matematik mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishini aniqlash.

Ishning maqsadi: "g" ning qiymatini tajribada aniqlash, "g" ning fizik ma'nosini talabalarga tushuntirish.

Kerakli asbob va qurilmalar: Matematik mayatnik, sekundomer, chizg'ich (o'lchov tasmasi) va shtangensirkul [3; 85-86].

Nazariy qism: Ma'lum vaqt oraliqlarida takrorlanib turadigan harakat tebranma harakat yoki tebranishlar deyiladi. Bunday harakatlarga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, musiqa asbobi torlarining, soat mayatnigining, yurakning harakatlari misol bo'ladi. Tebranishlar mobaynida o'zgarayotgan fizik kattaliklarning son qiymatlari teng vaqtlar oralig'ida takrorlanib tursa, bunday tebranishlarga davriy tebranishlar deyiladi [1; 15775-15776].

Odatda, ipga osilgan yoki o'qqa o'rnatilgan va og'irlik kuchi ta'siri ostida tebranadigan jism mayatnik deb ataladi. Mixga osilgan chizg'ich, shipga osilgan qandil, tarozining shayini va shu kabilarni mayatnik deb atash mumkin.

Matematik mayatnik deb, vaznsiz va cho'zilmaydigan uzun ipga osilgan va og'irlik kuchi ta'sirida tebranma harakat qila oladigan moddiy nuqtaga aytiladi. Uzun ingichka ipga osilgan kichikroq og'ir sharcha matematik mayatnik bo'la oladi. Ip vertikal holatni egallaganda mayatnik tinch holatda bo'ladi. Buni muvozanat holat deyiladi. Agar mayatnikni chetga tortib turib qo'yib yuborilsa, u tebrana boshlaydi. Muvozanat holatda ipga $\vec{F_o}$ og'irlik kuchi va $\vec{F_e}$ elastiklik kuchi (1-rasm) ta'sir qiladi.



1-rasm.

Endi mayatnikni φ burchakka og'diraylik (2-rasm). Yukka avvalgidek o'sha kuchlar ta'sir etadi, biroq, ularning $\vec{F}$ teng ta'sir etuvchisi nolga teng emas.



2-rasm

Mayatnik uncha katta bo'lmagan burchakka chetlatilganligi tufayli kuch mazkur yoyni tortib turuvchi vatar chizig'iga yaqin bo'lgan urinma bo'yicha yo'naladi. Xuddi shu $\vec{F}$ teng ta'sir etuvchi kuch yukni tezlanish bilan

muvozanat holatga tomon harakatlanishga majbur etadi. Bu kuch $\vec{F} = \vec{F_o} = \vec{F_e}$ (1) ga yoki yoy urinmasiga proyeksiyasida $F_{ur} = (F_o)_{ur}$ (2).

Bu ifodadan elastiklik kuchining urinmaga perpendikulyar bo'lganidan uning proyeksiyasi nolga teng ekani, ya'ni $(F_e)_{ur}=0$ hisobga olindi. BDC uchburchakdan (burchak BDC ham φ ga teng) og'irlik kuchining yoy urinmasiga proyeksiyasini topish mumkin. U $F_0 sin\varphi$ yoki $mgsin\varphi$ ga teng. Uchburchak OAB dan esa $sin\varphi=x/l$ bunda x – mayatnikning siljishi. Shunga ko'ra, teng ta'sir etuvchi kuchning urinmaga proyeksiyasi [2; 6]: $F_{ur} = -\frac{mg}{l}x$ (3).

"Minus" ishora F kuch yo'nalishi siljish yo'nalishiga qarama-qarshi ekanligini bildiradi. Berilgan mayatnik uchun $\frac{mg}{l}$ - o'zgarmas kattalik, uni k harfi bilan belgilab, ya'ni $k = \frac{mg}{l}$ (4).

Bundan, $F_{ur} = -kx$ deb yozishimiz mumkin. Elastiklik kuchi singari F kuch ham x siljishga proporsional bo'lib, unga qarama-qarshi yo'nalgan. (1) va (4) formulalardan matematik mayatnikning xususiy tebranishlari chastotasi va davri quyidagicha bo'ladi:

$$\omega_0 = \sqrt{\frac{g}{l}} \qquad (5)$$

$$T = 2\pi\sqrt{\frac{l}{g}} \qquad (6)$$

Oxirgi formuladan ko'rinadiki, matematik mayatnik tebranishlarining davri kvadrat ildiz ostidagi mayatnik uzunligiga to'g'ri, og'irlik kuchi tezlanishiga teskari proporsional bo'lib, mayatnik tebranishlarining amplitudasi va massasiga bog'liq emas [4; 120-122].

Bir marta to'la tebranishning davom etish vaqti ***tebranish davri*** deb ataladi. Tebranish davri T harfi bilan belgilanadi va u sekund hisobida ifodalanadi: $T = \frac{t}{N}$; $[T] = 1s$.

Matematik mayatnikning tebranish davrini (6) formula orqali aniqlash mumkin. Bu ifodadan ko'rinadiki, matematik mayatnikning tebranish davri mayatnik uzunligi va erkin tushish tezlanishiga bog'liq bo'lib, tebranish amplitudasi hamda sharcha massasiga bog'liq emasligini ko'ramiz. (5) ifodadan erkin tushish tezlanish uchun quyidagi formulani keltirib chiqaramiz.

$T = 2\pi\sqrt{\frac{l}{g}}$ tenglikdan foydalanib, tenglikning ikki tomonini kvadratga oshiramiz:

$$T^2 = \frac{4\pi^2 l}{g}$$

ifoda hosil bo'ladi va bundan foydalanib quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$g = \frac{4\pi^2 l}{T^2} \qquad (7)$$

Bunda – matematik mayatnik uzunligi $l = l_0 + \frac{d}{2}$ (l_0 - ipning uzunligi, d - sharchaning diametri) formula orqali topiladi [2; 6].

Ishni bajarish tartibi

1. Avvalo millimetrli chizg'ich bilan mayatnik ipining OB orasidagi ℓ uzunligini o'lchab, (1-rasm) dagidek qurilma yig'iladi.

2. Sharchaning diametri shtangensirkul yordamida qayta-qayta o'lchanib, o'rtacha qiymati topiladi va radiusi aniqlanadi. U vaqtda mayatnik uzunligi quyidagicha hisoblanadi:

$$l = l_0 + \frac{d}{2} \text{ yoki } l = l_0 + r \qquad (8)$$

3. Mayatnik tebranish davrini topish uchun, sharchani bir tomonga taxminan 5-6^0 burchakka og'dirib, sekingina qo'yib yuborilib tebrantiriladi. Shu paytning o'zida sekundomerni ham ishlatib yuboramiz. Tebranish uchun ketgan vaqt aniqlanadi.

4. Mayatnikning tebranish davrini topish uchun, mayatnik tebranishini kamida uch marta takrorlash kerak va (7) formuladan hisoblanadi.

Xatolikni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar:

1. Ip uzunligini o'lchashda aniqlikka rioya qiling.
2. Vaqtni o'lchashda inson reaksiyasidan kelib chiqadigan kechikishlarni minimallashtirish uchun sekundomer yordamchisidan foydalaning.
3. Mayatnik harakatini juda kichik burchaklar ostida boshlang, chunki katta burchaklar davrning aniqligiga ta'sir qiladi.

O'quv topshirig'i [5; 48-49]

1. Matematik mayatnikning ishlash prinsipini o'rganing.
2. Matematik mayatnikni kompyuterda ish holatiga tayyorlang.
3. Yo'riqnoma asosida ishni bajaring. Olingan natijalarni "Ishchi daftarga" yozing.
4. Olingan natijalar asosida ma'lumotlarni 1-jadvalga kiriting.

№	l(m)	N(ta)	t(s)	T(s)	$g\ (\frac{m}{s^2})$	$\Delta g\ (\frac{m}{s^2})$	$\Delta g_{o'rt}\ (\frac{m}{s^2})$	ε (%)
1.	1,4	10	23,63	2,363	9,88	0,004	0,025	0,25
2.	1,4	20	47,58	2,379	9,75	0,056		
3.	1,4	30	71,21	2,373	9,79	0,016		

1-jadval

1-tajriba:

$N_1 = 10\ ta$ $l = 1{,}4\ m$ $t = 23{,}63s$ $T_1 = ?$ $g_1 = ?$	$T_1 = \frac{t_1}{N_1}$ $g_1 = \frac{4\pi^2 l N^2}{T^2}$	$T_1 = \frac{23{,}63}{10} = 2{,}363s$ $g_1 = \frac{4 \cdot 3{,}14^2 \cdot 1{,}4 \cdot 10^2}{2{,}363^2} = 9{,}88 \frac{m}{s^2}$

2-tajriba:

$N_2 = 20\ ta$ $l = 1{,}4\ m$ $t = 47{,}58s$ $T_2 = ?$ $g_2 = ?$	$T_2 = \frac{t_2}{N_2}$ $g_2 = \frac{4\pi^2 l N^2}{T^2}$	$T_2 = \frac{47{,}58}{20} = 2{,}379s$ $g_2 = \frac{4 \cdot 3{,}14^2 \cdot 1{,}4 \cdot 20^2}{2{,}379^2} = 9{,}75 \frac{m}{s^2}$

3-tajriba

$N_3 = 30\ ta$ $l = 1{,}4\ m$ $t = 71{,}21s$ $T_3 = ?$ $g_3 = ?$	$T_3 = \frac{t_3}{N_3}$ $g_3 = \frac{4\pi^2 l N^2}{T^2}$	$T_3 = \frac{71{,}21}{30} = 2{,}373s$ $g_3 = \frac{4 \cdot 3{,}14^2 \cdot 1{,}4 \cdot 30^2}{2{,}373^2} = 9{,}79\frac{m}{s^2}$

$$\Delta g_1 = |g_{o'rt} - g_1| = |9{,}806 - 9{,}81| = 0{,}004\frac{m}{s^2}$$
$$\Delta g_2 = |g_{o'rt} - g_2| = |9{,}806 - 9{,}75| = 0{,}056\frac{m}{s^2}$$
$$\Delta g_3 = |g_{o'rt} - g_3| = |9{,}806 - 9{,}79| = 0{,}016\frac{m}{s^2}$$
$$\Delta g_{o'rt} = \frac{g_1+g_2+g_3}{3} = \frac{0{,}004+0{,}056+0{,}016}{3} = \frac{0{,}076}{3} = 0{,}025$$
$$\varepsilon = \frac{0{,}025}{9{,}806} \cdot 100\% = 0{,}25\%$$

Laboratoriya mashg'ulotida egallangan bilimlarni mustahkamlash maqsadida quyidagi sinov savollarini tavsiya etamiz:

1. Fizik va matematik mayatnik nima?
2. *"g"* ning fizik ma'nosi?
3. Erkin tushish tezlanishi nima va nimalarga bog'liq?
4. Davr, chastota va amplituda haqida tushuncha bering?
5. Ishchi formulani keltirib chiqaring?

"Fizik praktikum" fani talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va ularning ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu fan nafaqat fizik hodisalar va qonuniyatlarni amaliy tadqiq etishga yo'naltirilgan, balki talabalarning ijodiy fikrlashi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois, fizik praktikumni yo'naltirilgan, balki talabalarning ijodiy fikrlashi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi [7; 177]. Shu bois, fizik praktikumni o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablarga moslashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Fizika tabiatning eng muhim va umumiy qonuniyatlarini o'zida mujassam etgan, doimo rivojlanishda bo'lgan fundamental fan sifatida har qanday amaliy sohalarning asosini tashkil etadi. Hozirgi kunda zamonaviy fizika darslarida talabalar passiv tinglovchi emas, balki o'quv jarayoning faol ishtirokchisi sifatida ishtirok etishlari muhim hisoblanadi. Guruhda muhokama qilish, amaliy tajribalar va muammoni yechish kabi faol ta'lim usullari talabalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish va tushunchalarni chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bu tamoyil ayni paytda biz ko'zlagan maqsad, ya'ni bo'lajak mutaxasislarning kasbiy kompetentligini oshirishda samarali natijalar beradi. Ayniqsa fizik praktikum darslarida bu usulni keng qo'llasa bo'ladi. Faol ta'limda ishtirokchi va boshqaruvchi tamoyili asosida mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Bunda talaba faol tarzda darsda qatnashadi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri taqsimlagan holda dars davomida o'zining pozitsiyasini o'zgartirib turadi.

Fizika fanida laboratoriya ishlarini tashkil etishda turli xil interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalar olishda yordam beradi. Fizika laboratoriya darslari talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Fizik praktikum darslarida bir qancha samarali usullarni qo'llash mumkin. Jumladan, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish usul va vositalari, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasida aloqa va aloqadorlik o'rnatish uchun qo'llaniladi. Biz quyida ushbu usullarning bir nechtasini keltirib o'tamiz, bular: insert jadval, klaster, bingo usullari.

INSERT JADVAL USULI

V	+	-	?
Erkin tushish tezlanishi	Uzunlikga bog’liq	Massaga bog’liq	Vaqtga teskari proporsiona



KLASTER USULI

Klaster tuzish qoidasi:

1. Aqlingizga kelgan barchani yozing. G’oya sifatida muhokama qilmang, ularni oddiy holda yozing.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e’tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to‘xtatmang. Agarda aqlingizga g’oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qig’ozga rasm chizing, qachonki yangi g’oyalar paydo bo‘lmaguncha.
4. Ko‘proq aloqa bo‘lishiga harakat qiling. G’oyalar soni, ular oqimi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikka chegaralanmang.





BINGO USULI

Bingo usuli — bu talabalarni interfaol tarzda o'qitish uchun ishlatiladigan pedagogik usul. Bingo o'yini, odatda, o'quv jarayonida bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi.

BINGO metodining asosiy xususiyatlari:

B – Bilimlarni tekshirish;

I – Individual yondashuv;

N – Noan'anaviy yondashuv;

G – Guruh ishini rag'batlantirish;

O – O'zaro o'qitish.

Bingo o'yinida talabalarga kartochkalar taqdim etiladi va kartochkada turli savollar yoki so'zlar bo'ladi. O'qituvchi berilgan savollarni yoki ma'lumotlarni aytadi, va talabalar mos keladigan so'zni kartochkalarida belgilashadi. O'yin maqsadi — birinchi bo'lib, kartochkasidagi barcha joylarni to'ldirish yoki "Bingo" deb chaqirish. Bu metod talabalarni qiziqtiradi, interfaol usulda darslarni o'rgatadi va bilishlarni mustahkamlaydi. Talabalar o'zaro raqobatlashadilar, bu esa ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

$x = A\cos(\omega_0 t +$	matematik mayatnik	$T = 2\pi\sqrt{\frac{m}{k}}$	a_m=-A ω_0^2
siklik chastota	ϑ_m=A ω_0	garmonik	$T = 2\pi\sqrt{\frac{l}{g}}$
tebranma	$E_p = \frac{kx^2}{2}$	amplituda	$T = 2\pi\sqrt{\frac{l}{g}}$
$\omega = \frac{2\pi}{T} = 2\pi$	sekund	$\omega_0 = \sqrt{\frac{g}{l}}$	prujinali mayatnik

"Bingo" jadvali savollari:

1. Tebranish davrining birligi?

2. Tebranayotgan nuqtaning muvozanatdan chetga maksimal siljish kattaligiga nima deyiladi?
3. Garmonik tebranma harakatda maksimal tezlik formulasi?
4. Prujinali mayatnikning tebranish davri formulasi?
5. 2π sekunddagi tebranishlar soni nima deyiladi?
6. Absolyut elastik prujinaga berkitilgan va elastiklik kuchi $F=-kx$ ta'sirida garmonik tebranma harakat qiladigan m massali yukka nima deyiladi?
7. Matematik mayatnikning siklik chastotasi formulasi?
8. Siklik chastotaning davr va chastota bilan ifodalanish formulasi
9. Garmonik tebranma harakatda maksimal tezlanish formulasi?
10. Cho'zilmaydigan, vaznsiz ipga osilgan va og'irlik kuchi ta'sirida tebranma harakat qila oladigan moddiy nuqtaga nima deyiladi?
11. Yurakning urishi, arg'umchoqning harakati qanday harakatga misol bo'ladi?
12. Muvozanat vaziyatidan chiqarilgandan so'ng tashqi ta'sirlarsiz sodir bo'ladigan tebranishlar qanday tebranish hisoblanadi?
13. Prujinali mayatnikning potensial energiyasi formulasi?
14. Matematik mayatnikning tebranish davri formulasi?
15. Sinus yoki kosinus qoidasiga bo'ysunuvchi tebranishlar qanday tebranishlar?
16. Garmonik tebranishlar tenglamasi ifodasi?

Bo'lajak mutaxassislarni "Matematik mayatnik yordamida og'irlik kuchi tezlanishini aniqlash" laboratoriya ishini o'rganish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu laboratoriya ishlari Talabalarga nafaqat fizika va matematika sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish, balki ilmiy izlanishlar olib borish, tajriba o'tkazish va olingan natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu ishni bajarish orqali talabalar quyidagi kasbiy kompetentliklarni rivojlantiradilar:

1. Nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish**:** Matematik mayatnik yordamida og'irlik kuchi va tezlanishni aniqlash, talabalarga fizik qonunlar va matematik formulalarni amaliyotda qo'llashga imkon beradi. Bu ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliyotga tadbiq qilishni o'rganishlariga yordam beradi.

2. Tajriba va kuzatish ko'nikmalarini oshirish: Laboratoriya ishida tajriba o'tkazish orqali talabalar o'z ko'zlari bilan ilmiy jarayonlarni ko'rib, fizik hodisalarni o'rganishning amaliy usullarini o'zlashtiradilar. Bu kasbiy ishda kuzatish, tajriba o'tkazish va olingan natijalarni tahlil qilishda katta rol o'ynaydi.

3. Analitik fikrlash va muammolarni hal qilish: Natijalarni tahlil qilish jarayonida talabalar o'quv jarayonidagi xatoliklarni aniqlash, matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish va nazariy natijalar bilan tajriba natijalarini solishtirish orqali analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Ilmiy metodologiyalardan foydalanish: Laboratoriya ishlari talabalarga ilmiy usullarni qo'llashni, eksperimentlarni to'g'ri tashkil etishni, olingan natijalarni izchil va ilmiy tahlil qilishni o'rgatadi. Bu esa ularning ilmiy ishlar olib borishdagi yondashuvlarini takomillashtiradi.

Shu bilan birga, laboratoriya ishlari, talabalarda, kelajakda o'z kasbiy faoliyatlarida amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi bilimlarni mustahkamlash va texnikaviy ko'nikmalarni rivojlantirishda zarur bo'lgan kompetentliklarni shakllantirishga yordam beradi. Matematik mayatnik mavzusidagi laboratoriya ishining natijalari talabalarga fizik va matematik bilimlarni o'z kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli qo'llashga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.M.Sattorova. "Methods of Improvement and Implementation of the Educational Purpose in the Lessons of Physics". "International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology". Vol. 7. Issue 11. November 30. 2020. pp. 15775-15777.

2. D.I.Kamalova va b. "Matematik amallar yordamida fizika fanini o'qitish metodikasi" elektron o'quv qo'llanmasi. №DGU 11713. 30.06.2021.

3. D.I.Kamalova va b. "Umumiy fizika fanidan laboratoriya ishlari" (Mexanika). O'quv qo'llanma. Ro'yxatga olish raqami №233-0115. 2022.

4. D.I.Kamalova va b. "Mexanika va molekulyar fizika". Darslik. Ro'yxatga olish raqami №302-0754. 2022.

5. D.I.Kamalova va b. "Fizika fanidan maktab laboratoriya mashg'ulotlari" (7-9 sinf, 10-11 sinf). Uslubiy qo'llanma. Dekabr. 2022.

6. D.I.Kamalova va b. "Fizika fanini o'qitishda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanishni takomillashtirish" elektron darsligi. №DGU 29606. 21.11.2023.

7. A.M.Sattorova. "The role of logical quality issues in the development of thinking skills in practical training in physics". "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №12. 2024. 176-182 bet.

ОТНОШЕНИЕ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ К САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хулкархон Лутфуллаева,
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми
Кафедра иностранных языков,
старший преподаватель

Annotatsiya

Maqolada tibbiyot yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatiga munosabati bo'lajak shifokorlar malakasini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi va tibbiy bilim hamda texnologiyalarning jadal yangilanishi sharoitida mustaqil ta'limning ahamiyati ta'kidlanadi. Maqolada shuningdek talabalarni mustaqil bilim olishga undashning asosiy motivlari, to'siqlari va yo'llari aniqlangan. Mustaqil ta'lim faoliyatining o'quv faoliyati va kasbiy tayyorgarligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan so'rovnomalar va tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan. Tibbiyot yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan samarali metodikalarni ishlab chiqish hamda ushbu faoliyatni ta'lim dasturlariga kiritish zarurligi to'g'risida xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim, bo'lajak shifokorlar, tibbiy ta'lim muassasalari, kasbiy kompetensiyalar, ta'lim texnologiyalari*

Аннотация

В статье рассматривается отношение студентов медицинских вузов к самообразовательной деятельности, как одному из ключевых факторов профессионального становления будущих врачей. Подчеркивается важность самообразования в условиях быстрого обновления медицинских знаний и технологий. Выявляются основные мотивы, препятствия и способы стимулирования студентов к самостоятельному обучению. Анализируются результаты опросов и исследований, направленных на изучение влияния самообразовательной активности на академическую успеваемость и профессиональную подготовку. Делается вывод о необходимости разработки эффективных методик, направленных на повышение интереса к самообразованию среди студентов-медиков, а также интеграции данной деятельности в образовательные программы.

Ключевые слова: *процесс самообразования, самостоятельное обучение, будущие врачи, медицинские учебные заведения, профессиональные компетенции, образовательные технологии*

Annotation

The article examines the attitude of medical students to self-education activities as one of the key factors in the professional development of future doctors. The importance of self-education in the context of rapid renewal of medical knowledge and technologies is emphasized. The main motives, obstacles and ways to stimulate students to self-study are identified. The results of surveys and studies aimed at studying the impact of self-education activity on academic performance and professional training are analyzed. A conclusion is made about the need to develop effective methods aimed at increasing interest in self-education among medical students, as well as integrating this activity into educational programs.

Keywords: *self-education process, independent learning, future doctors, medical educational institutions, professional competencies, educational technologies*

Введение. Современная медицинская практика требует от специалистов не только глубоких теоретических знаний, но и способности постоянно обновлять и совершенствовать свои навыки. В условиях быстрого прогресса медицинских технологий и изменений в законодательстве становится очевидной необходимость в непрерывном самообразовании. Это особенно важно для студентов медицинских вузов, которым предстоит не только освоить объемный учебный материал, но и подготовиться к дальнейшему профессиональному росту.

Самообразование представляет собой важную составляющую образовательного процесса в медицинских учебных заведениях, поскольку позволяет студентам развивать критическое мышление, способность к самостоятельному поиску и анализу информации. Однако отношение студентов к данной деятельности не всегда носит позитивный характер: на практике многие сталкиваются с трудностями, связанными с нехваткой времени, мотивации или с недостаточной подготовленностью к самостоятельной работе. Целью данного исследования является анализ отношения студентов медицинских вузов к самообразовательной деятельности, а также выявление факторов, влияющих на их мотивацию к этому процессу. Исследование направлено на определение роли самообразования в формировании профессиональных компетенций будущих медиков и его значимости для их дальнейшей карьеры.

Литературный обзор. В последние десятилетия важность самообразования в системе высшего образования, особенно в медицинских вузах, привлекает внимание исследователей по всему миру. В условиях непрерывного роста объема информации и быстрого развития медицинских технологий самообразование становится неотъемлемой частью профессиональной подготовки студентов. Исследования, проведенные в различных странах, показывают, что самообразование способствует развитию ключевых навыков, таких как критическое мышление, способность к анализу и синтезу информации, а также повышает качество учебного процесса [1, 25], [2, 14]. В медицинской сфере самообразование студентов приобретает особую значимость, поскольку требует не только освоения теоретических знаний, но и их практического применения в условиях реальной клинической практики.

Основные проблемы, с которыми сталкиваются студенты медицинских вузов в процессе самообразования, включают нехватку времени, отсутствие мотивации и правильных методов организации учебной деятельности. По данным Никифоровой [3, 19], большинство студентов не имеют четкого понимания того, как эффективно организовать самостоятельную работу, что может привести к снижению их академических результатов. Также наблюдается дефицит индивидуального подхода со стороны преподавателей, который мог бы стимулировать студентов к более активному и глубокому обучению.

Некоторые исследования фокусируются на мотивации студентов медицинских вузов к самообразованию. Способность к самоорганизации, целеустремленность и интерес к будущей профессии играют решающую роль в успешности самообразовательной деятельности [4, 37]. В то же время, как утверждают Кузнецова и Мартынова [5, 22], значительная роль в мотивации студентов принадлежит образовательному процессу, который должен не только передавать знания, но и развивать у студентов интерес к самостоятельному обучению.

Современные исследования также показывают, что использование современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) оказывает положительное влияние на эффективность самообразования студентов медицинских вузов. Внедрение онлайн-курсов, виртуальных симуляторов и других образовательных технологий значительно облегчает процесс поиска информации и освоения нового материала [6, 41].

Таким образом, можно заключить, что несмотря на ряд проблем и трудностей, самообразование является неотъемлемой частью образовательного процесса в медицинских вузах. Улучшение условий для самообучения, а также повышение мотивации и разработки соответствующих образовательных методик могут значительно повысить качество подготовки будущих медицинских специалистов.

Материалы и методы исследования. Для исследования отношения студентов медицинских вузов к самообразовательной деятельности был выбран комплексный подход, включающий количественные и качественные методы. Это позволило получить более полное и объективное представление о факторах, влияющих на самообразование, а также выявить потребности и проблемы, с которыми сталкиваются студенты в процессе самостоятельной работы.

Для сбора данных был проведен анкетный опрос среди студентов медицинских вузов, охватывающий различные курсы и специализации. Опрос включал вопросы, направленные на выявление уровня осведомленности студентов о важности самообразования, их отношения к этому процессу, а также на определение факторов, влияющих на мотивацию к самостоятельному обучению. Вопросы анкеты затрагивали следующие аспекты:

- Оценка значимости самообразования в обучении.
- Оценка мотивации и источников стимуляции.
- Проблемы, с которыми сталкиваются студенты в процессе самообучения (время, ресурсы, методы).
- Стратегии и методы, используемые студентами для эффективного самообразования.

Для дополнения количественных данных были проведены полу структурированные интервью с преподавателями медицинских вузов. Цель интервью заключалась в том, чтобы выявить мнение преподавателей о готовности студентов к самообразованию, а также понять, какие методы они используют для поддержки и развития самостоятельной работы студентов. Интервью касались следующих тем:

- Роль преподавателей в процессе самообразования студентов.
- Оценка эффективности различных методов обучения, стимулирующих самостоятельную работу.
- Проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели при организации самообразовательной деятельности студентов.

Для понимания контекста, в котором происходит самообразование, был проведен анализ учебных планов и образовательных программ медицинских вузов. Это позволило оценить, в какой степени самообразование интегрировано в учебный процесс, а также насколько образовательные программы способствуют развитию навыков самостоятельной работы у студентов. Особое внимание уделялось дисциплинам, которые ориентированы на самообразование, а также наличию вспомогательных ресурсов, таких как онлайн-курсы, библиотеки и базы данных.

Для теоретической основы исследования был проведен обзор научной литературы, посвященной проблемам самообразования в высшем медицинском образовании. Внимание уделялось как отечественным, так и зарубежным исследованиям, анализирующим мотивацию, барьеры и методы эффективного самообразования студентов медицинских вузов. Качественные данные, полученные в ходе интервью с преподавателями, были обработаны с использованием метода контент-анализа, что позволило выделить ключевые темы и тенденции в отношении преподавателей к самообразовательной деятельности студентов. Количественные данные, полученные в ходе анкетирования, были проанализированы с

помощью статистических методов, включая описание статистических характеристик и выявление зависимостей между переменными.

Результаты исследования. В результате проведенного исследования были получены данные, которые позволяют оценить отношение студентов медицинских вузов к самообразованию, выявить основные проблемы, с которыми они сталкиваются, а также проанализировать факторы, влияющие на мотивацию к самостоятельной учебной деятельности.

Общее количество респондентов составило 300 студентов медицинских вузов, обучающихся на разных курсах и специализациях. Анализ анкет показал следующие результаты:

- 78% студентов считают самообразование важной частью их подготовки, подчеркивая его значимость для профессионального роста.
- 15% респондентов выразили сомнения в эффективности самообразования, считая, что оно не всегда способствует глубокой подготовке.
- 7% студентов не видят необходимости в активном самообразовании, полагая, что достаточно знаний, полученных в рамках учебного процесса.

Основными источниками мотивации для студентов в отношении самообразования являются:

- Желание быть компетентным и успешным специалистом (48%).
- Необходимость быть в курсе современных медицинских достижений (35%).
- Подготовка к экзаменам и сдача тестов (17%).

Однако 40% респондентов указали, что испытывают трудности в организации собственного учебного процесса, из-за чего их мотивация к самообразованию снижается. Наиболее часто встречающиеся проблемы, с которыми сталкиваются студенты при организации самообразования, следующие:

- **Нехватка времени** (55%) — из-за высокой учебной нагрузки и ограниченного времени для самостоятельной работы.
- **Недостаток ресурсов** (33%) — проблемы с доступом к учебным материалам, литературы и базам данных.
- **Отсутствие эффективных методов организации учебного процесса** (25%) — студенты часто не знают, как правильно структурировать свое обучение, что приводит к беспорядочному усвоению материала.

В интервью с преподавателями выяснилось, что большинство из них (68%) признают важность самообразования для студентов, однако лишь 25% преподавателей активно поддерживают студентов в этом процессе, предлагая дополнительные ресурсы и методические рекомендации. Преподаватели чаще всего ограничиваются рекомендациями по использованию учебников и литературы, но редко направляют студентов на использование дополнительных образовательных технологий и ресурсов (например, онлайн-курсов, виртуальных симуляторов).

Среди наиболее популярных методов самообразования, используемых студентами, выделяются:

- Использование интернет-ресурсов и онлайн-курсов (37%).
- Самостоятельное чтение научной литературы и учебников (30%).
- Практическая работа на базе клиник и стажировок (18%).
- Обсуждения и группы по интересам (15%).

Из анализа учебных планов медицинских вузов видно, что большинство образовательных программ включают элементы самостоятельной работы, такие как курсовые и дипломные проекты, а также обязательные клинические стажировки. Однако существует дефицит дисциплин, направленных непосредственно на развитие навыков самообразования, а также отсутствие четких рекомендаций для студентов по организации самостоятельного обучения.

Анализ показал, что использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) оказывает положительное влияние на эффективность самообразования. 40% студентов отметили, что использование онлайн-ресурсов, видео лекций и виртуальных симуляторов существенно облегчает процесс обучения и помогает лучше усваивать материал.

Выводы. В ходе проведенного исследования было выявлено, что студенты медицинских вузов осознают важность самообразования для своей профессиональной подготовки, однако сталкиваются с рядом проблем, которые затрудняют эффективную организацию самостоятельной учебной деятельности. Основными барьерами являются нехватка времени, недостаток ресурсов и отсутствие эффективных методик самостоятельного обучения. Мотивация студентов к самообразованию во многом зависит от их личных стремлений и восприятия важности самообразования для будущей карьеры.

Несмотря на выявленные проблемы, большинство студентов медицинских вузов стремятся развивать свои знания и навыки вне рамок традиционного учебного процесса, активно используя различные методы и ресурсы для самообразования, в частности, интернет-ресурсы, онлайн-курсы и клинические стажировки. Однако роль преподавателей в поддержке и организации самообразовательной деятельности студентов остается недостаточно активной, что требует пересмотра подходов к обучению и взаимодействию с учащимися.

Таким образом, результаты исследования подчеркивают необходимость улучшения условий для самообразования в медицинских вузах и активной работы с мотивацией студентов. Важно разработать эффективные методики и поддерживающие ресурсы, которые будут способствовать развитию самостоятельной учебной деятельности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Костина, Т. В. Проблемы самообразования в высшем медицинском образовании. Москва: Издательство "Медицинский университет", 2018.
2. Сидорова, Н. А. Самообразование студентов медицинских вузов: теория и практика. Санкт-Петербург: Научная книга, 2020.
3. Никифорова, Л. В. Мотивация студентов к самообразованию: психолого-педагогический аспект. Екатеринбург: Уральский университет, 2019.
4. Дмитриева, И. Е. Методы и технологии самообразования в образовательном процессе. Новосибирск: Сибирское образовательное издательство, 2017.
5. Кузнецова, М. И., Мартынова, О. С. Самостоятельная работа студентов в медицинском образовании: проблемы и пути решения. Казань: Медицинский факультет Казанского университета, 2021.
6. Алексеева, О. В. Информационно-коммуникационные технологии в образовательном процессе: возможности для развития самообразования. Москва: Академический проект, 2022.

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA VIRTUAL KIMYO LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Almasxan Nishanbayeva,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Chirchiq filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Simulyatsiyalar ta'limda muhim rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat talabalar real dunyoni boshdan kechirishlari uchun o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin bo'lgan real modellarni taqdim etadi, balki ular talabalar jarayonlarni hech qanday xavf-xatarsiz takrorlashlari, sodda tushunchalar va nazariyalarni idrok etishlari uchun xavfsiz muhit yaratadi.Virtual reallik immersiv va interaktiv xususiyatlarni qo'llabquvvatlaydigan yuqori realistik 3D simulyatsiyalarni ishlab chiqish orqali o'quv jarayonini osonlashtiradigan muhim texnologik yutuq sifatida keng e'tirof etilgan. Ushbu maqolaning maqsadi Tibbiy kimyo fanini o'qitishda virtual reallikdan foydalanish ta'sirini tahlil qilish, shuningdek, kimyoviy tajribalarni simulyatsiya qilish uchun integratsiyalashgan veb-ta'lim muhitini taqdim etishdir.

Kalit so'zlar: *Virtual laboratoriya, Tibbiy kimyo, PheT simulations, PraxiLabs, Royal Society of Chemistry's Virtual laboratory, titrimetrik analiz, kislota asosli titrlash.*

Аннотация

Симуляции играют важную роль в образовании, поскольку они не только предоставляют реалистичные модели, с которыми студенты могут взаимодействовать, чтобы познать реальный мир, но и позволяют студентам воспроизводить процессы без какого-либо риска и изучать простые концепции и теории. Виртуальная реальность широко признана как значительный технологический прорыв, который облегчает процесс обучения за счет разработки высокореалистичных 3D-симуляций, поддерживающих иммерсивные и интерактивные функции. Целью данной статьи является анализ влияния использования виртуальной реальности на преподавание медицинской химии, а также предоставление интегрированной веб-среды обучения для моделирования химических экспериментов.

Ключевые слова: *виртуальная лаборатория, медицинская химия, моделирование PheT, PraxiLabs, виртуальная лаборатория Королевского химического общества, титриметрический анализ, кислотно-основное титрование.*

Annotation

Simulations play an important role in education because they not only provide realistic models with which students can interact to experience the real world, but they also create a safe environment for students to replicate processes without any risk, and to grasp simple concepts and theories. Virtual reality is widely recognized as a significant technological breakthrough that facilitates the learning process by developing highly realistic 3D simulations that support immersive and interactive features. The aim of this paper is to analyze the impact of using virtual reality in teaching Medicinal Chemistry, as well as to provide an integrated web-based learning environment for simulating chemical experiments.

Keywords: *Virtual laboratory, Medicinal chemistry, PheT simulations, PraxiLabs, Royal Society of Chemistry's Virtual laboratory, titrimetric analysis, acid-base titration.*

Kirish. Ma'lumki Oliy yoki o'rta maxsus ta'limida bo'ladimi Kimyo fanlarini o'qitish o'z navbatida kimyoviy jarayonlarni tushuntirishda chuqur nazariy bilim hamda amaliy laboratoriya ko'nikmalarini ham o'tkaza olishni talab qiladi. [2- 5] Ammo ta'lim muassalarida bajarilishi kerak bo'lgan laboratoriya mashg'ulotlarining ko'pgina qismi laboratoriyada xavfsizlik talablari talab darajasida emaslgi, kerakli zamonaviy jihozlarning yetarli emasligi, vaqt va joy borasidagi bir qanchakamchiliklar sababli muhim tajribalarda natijalarining xato chiqishi yoki amaliymashg'ulotning kutilgandek bajarilmasligiga sabab bo'ladi. Shunga qaramasdan,tajribalar kimyo ta'limida nazariy jarayonlar mohiyatini tushunishda hamda turlimalaka va ko'nikmalarni egallashda kimyo

ta’limining ajralmas qismihisoblanadi.Bundan tashqari talabalarining fan yuzasidan masalalarni yechishidayoki ularning ilmiy ishlarida sintezlangan moddalarni kvant kimyoviy xossalarni,moddalarining biologik aktivliklari kabi ko‘rsatkichlarini oldindan hisoblash ham bir muncha maxsus jihozlangan laboratoriya hamda uzoq vaqt ham talab qilishimumkin.[6-8] Shunga ko‘ra yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni yechish muqobil ta’limiy yondashuvni ya’ni virtual laboratoriyalarni, kompyuterga asoslangan xossalarni oldindan aytish imkonini beruvchi dasturlarni talab qiladi va bu o‘z navbatida talabalar uchun qo‘shimcha to‘ldiruvchi yoki pandemiya davridagi kabi holatlarda onlayn ta’lim, virtual laboratoriyalar talabalarning nazariy bilimlarni birmuncha mustahkamlashda qo‘l kelganidek qulay masofaviy ta’lim resursi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Virtual reallik texnologiyasi ta’limning yangi shaklini taqdim eta oladigan ilg‘or texnologik yutuqlaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa Kimyo fanida virtual laboratoriyaning potensiali o‘rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqgan holda an’anaviy ta’lim metodlari qo‘yadigan chegaralarni yengib o‘tishi mumkin. Virtual kimyoviy laboratoriya dasturi animatsion tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo‘lgan reaktsiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to‘plamiga ega. Virtual laboratoriya 19- asr o‘rtalaridan boshlab ta’lim jarayonida Yevropa va AQSH universitetlarining ta’lim muassasalari tomonidan qo‘llanila boshlangan. Virtual Reallik asosida yaratilgan laboratoriya dasturi turli moddalar bilan tajribalarni vizual (ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladigan qilib) o‘tkazish imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Turli dasturlar - virtual laboratoriyaning dasturiy ta’minoti qo‘shimcha o‘ziga xos xususiyatlarga yega. Dastur bilan ishlashni osonlashtirish uchun uchun “assistant” tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o‘zgartirigichlar majmui, tajribalarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud. Virtual tajribalar kontsepsiyasi taxminan 20 yil oldin paydo bo‘lgan, bunda interfeysdan faol foydalanilganda dasturiy ta’minotga o‘qituvchi o‘zi qo‘l bilan ko‘proq kimyoviy modda va reaksiyalar qo‘shishishlari mumkin va shu bilan Talabalar tajribasi oshiriladi. Shunday qilib, virtual laboratoriya mashg’ulotlarini “interaktiv modellashtirilishini” ta’minlaydi.Virtual laboratoriyalarni kimyo ta’limida qo‘llashning effektivligi, kamchilik va yutuqlari bo‘yicha tadqiqotlar ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan o‘tkazilgan tadqiqodlar natijalariga ko‘ra VL (virtual laboratoriya) ilovalaridan foydalanish talabalarning fanda yutuqlarini oshiradi. Bundan tashqari VL lardan foydalangan o‘qituvchi va talabalar multimedia orqali ta’limni foydali deb hisoblashadi (Bakar&Zaman , 2007), Virtual laboratoriyalardan foydalangan talabalar laboratoriya ishi bajarish bilan bog‘liq barcha texnik va nazariy jarayonlar bilan bog‘liq savollarga aksariyati to‘g‘ri javob erishga hamda tajribaning mohiyatini to‘liq tushunishgani haqida xulosalar olingan (Harrison ,2009).[9] Ushbu Pedagogik tadqiqotda talabalarning Tibbiy kimyo bo‘yicha bilimini baholash maqsadida hamda talabalarda laboratoriya mashgulotini bajarishdan oldingi ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida xorijiy fakultetning MBBS yo‘nalishda tahsil olayotgan har biri 15 nafar talabadan iborat bo‘lgan 4 ta guruh sinov tariqasida olindi. Guruhlarning ikkitasida amaliy mashg‘uloti onlayn virtual laboratoriya orqali , qolgan ikkitasi esa an’anaviy usulda dars jarayoni tashkil etildi. Tadqiqot uchun quyidagi virtual laboratoriyalardan foydalanildi: Royal Society of Chemistry’s Virtual laboratory (https://virtual.edu.rsc.org/titration/experiment/2/5) va PraxiLab (https://praxilabs.com)

1-rasm. Virtual laboratoriyalarning interfeys oynasi: a- PraxiLab b – RSC

Ushbu turdagi dasturlar asosan Ingliz tilidagi bo'lganligi bois pedagogik tadqiqot uchun sinov tariqasida xorijiy guruh talabalari olindi. Virtual reallik jihatidan PraxiLab kabi dasturlar bir qancha ustunliklarga ega bo'ladi. Negaki deganda foydalanuvchi talaba o'zini haqiqiy laboratoriya muhitida his qilishi uchun jihozlar va asbob uskunalar 3D o'lchamda tasvirlangan. Dastur foydalanuvchi oynasi ochilganda virtual assistent talabaga har ishning har bir bosqichi bajarish tartibi bo'yicha ko'rsatma berib boradi. Dasturni dars jarayonida qo'llagan guruh talabalaridan anonim tarzda online darslar uchun mo'ljallangan telegram guruhida so'rovnomalar yaratildi. Bundan tashqari qo'llanilgan metoding effektivligini solishtirish maqsadida an'anaviy tarzda amaliy mashg'ulot olib borilgan guruh talabalari hamda online virtual laboratoriya qo'llangan guruh talabalariga amaliy mashg'ulotlardan oldin hamda keyin mavzuga oid nazorat savollari berilib , ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari olindi. Talabalar tajriba davomida Tibbiy kimyo fani modulidagi Titrimetrik tahlil metodlaridan biri bo'lgan kislota - asosli titrlash mavzusida atsetat kislota miqdorini aniqlashni ekvivalent nuqtani aniqlash orqali kislota konsentratsiyasini hisoblab topish bajardilar. Dasturning nazorat savolli bo'limlaridagi savollarga javob berish orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar. Talabalarning baholari bo'yicha statistik ma'lumotlarini qayta ishlash uchun MS Exel 2019 dasturidan foydalanildi.

Virtual dasturiy ta'minot vositalarini joriy etish talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Interaktiv laboratoriya dasturlari jarayonni nafaqat ko'rinishini oshirish, balki talabalarnitushunish qulay bo'lgan ma'lumotlar bilan ham ta'minlaydi. Shuningdek ularda tegishli kompetensiyalar shakllanishiga aloqador bo'lgan hamda fanni o'qitish soatlarini kamayishi, mustaqil ta'lim tashkillashtirish, baholash, mustahkamlash kabi didaktik muammolarni yechishda ham muhim rol o'ynaydi.[10] Virtual laboratoriya ishlarini qo'llashning dolzarbligi yana shundan iboratki, unda laboratoriya tajribalarini tashkil qilish uchun murakkab qurilmalarni yasash, qurilmalarni va reaktivlarni saqlash, almashtirish shart yemasligi bilan bir qatorda ta'mirlash ishlari, kimyoviy idishlarni yuvish kabi ishlar bajarilishi shart yemas. Hamma laboratoriya ishlari kompyuter xotirasida yoki tashqi xotirada elektron variantda va bir joyda saqlanadi. Kompyuter qurilmasi xavfsiz, ishlatish qiyin yemas va shu bilan birga foydalanuvchidan faqatgina belgilangan mahsus dasturlar bilan ishlash ko'nikmasini talab qiladi. Talabalar shartli ravishda 2 ga ya'ni nazorat va tajriba guruhiga bo'lindi. Nazorat guruhidagilar mavzuni an'anaviy usulda o'qidilar. Tajriba guruhida esa virtual laboratoriyalar va qisqa animatsion video orqali mashg'ulot olib borildi.



***2-rasm**. Guruhlar kesimida Laboratoriya mashg'ulotidan oldingi va keying nazorat savollarga berilgan to'g'ri javoblar o'rtacha ko'rsatkichi*

Ushbu diagrammadan ma'lumki guruhlarda "pre-lab" nazorat savollariga berilgan to'gri javoblar umumiy guruhlar kesimida nisbatan oliganda qariyb bir xil natija qayt etishgan (68%,70%,70% va 67%). Nazorat savollari o'z ichiga mavzuga oid masalalar, nazariy ma'lumotlar hamda ishning bajarilishi bilan bog'liq savollar qamrab olingan. Tadqiqotning keyingi qismlarida tajriba guruhi sifatida olingan MBBS -1 va MBBS -2 guruhlari talabalari mobil telefonlari orqali kirib amaliy mashg'ulotni virtual laboratoriyada bajarishdi. Qolgan 2 ta MBBS -3 va MBBS -4 guruhlarida an'anaviy holda barcha uchun umumiy holda o'qituvchi tomonidan haqiqiy tajribani bajarib ko'rsatilib va 2-3 ta talaba bilan ish takrorlandi. Amaliy mashg'ulot yakunida ikkala guruhdan ham yozma

tarzda "post-lab" nazorat savollari olindi. Bunda olingan natijalar ijobiyligiga ko'ra tadqiqot guruhidagi talabalar ko'rsatkichlari (78% va 80%) nazorat guruhidagi talabalarning ko'rsatkichlari (71% va 72%) ga qaraganda birmuncha yuqori bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqai so'rovnoma natijalariga ko'ra ham so'rovnomada ishtirok etgan talabalarning fikriga ko'ra ham "Virtual laboratoriya ularning mavzuni o'zlashtirish jarayonini ancha osonlashtirganligi" hamda kelgusi amaliy mashg'ulotlar davomida shu kabi interaktiv vositalardan qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risida fikrlar ham bildirishdi. Bundan kelib chiqib Virtual laboratoriyani quyidagi holatlarda ishlatish tavsiya qilish mumkin:

• Talabalarni bajariladigan tajriba texnikasi bilan tanishtirish uchun;

• Tajriba vaqtida qo'llaniladigan asboblar bilan tanishtirish uchun;

• Hisobotlar qilish va kuzatish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida;

Bu kabi ishlar uch o'lchamli animatsiya va tasvirlarni qo'llash orqali amalga

oshiriladi. Ular mahsus dasturlashtirilgan va ovoz bilan ta'minlangan bo'ladi. Bunda ayni mavzuning mazmuni ma'lumotlar, nazorat savollari va turli xil illyustratsiyalardan iborat bo'ladi. Virtual laboratoriyaning imkoniyatlari • Qimmat laboratoriya asboblari sotib olishga yehtiyojning yo'qligi • Laboratoriya shart-sharoitlarida bajarilishi printsipial mumkin bo'lmagan jarayonlarni modellashtirish imkoniyati

• Xavfsizlik

• Vaqt va resurslarning tejalishi

• Bajarilgan laboratoriya natijalarining avtomatik tarzda hisoblanishi

• Virtual laboratoriyalarni masofaviy ta'limda qo'llash imkoniyatining mavjudligi

•Virtual jarayonni boshqarish kompyuterning zimmasiga tushishini hisobga olib, kiritilayotgan parametrlarni o'zgartirib, tajribalar seriyasini o'tkazish imkoniyati mavjudligi

• O'tkazilayotgan laboratoriya tajribasini vaqtning boshqa masshtablarida kuzatish mumkinligi.

Bundan tashqari, virtual axborot-ta'lim laboratoriyasi sharoitida o'quv modellashtirish orqali bilimning yangi sohalarini o'rganishda Talabalarning Tibbiy kimyo fani doirasida qamrab olingan, polifunsional, geterosiklik birikmalar metobolitlar sifatida kabi moddalarning biologik , farmakologik biokimyoviy ta'sir mexanizmlarini atroflicha tushunish imkonini beradi.[11-12] Natijada olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyorlik shakllanadi.

Xulosa. Ushbu yuqorida o'tkazilgan kichik tadqiqotning natijalaridan xamda xorijiy va respublikamiz olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalarini xisobga olgan xolda virtual laboratoriyalarini tibbiy kimyo mashg'ulotlarida qo'llashning samarasi to'g'risida quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

1. Tibbiy kimyo ta'limi jarayonida Virtual laboratoriyalardan foydalanish inson salomatligi uchun zarali bo'lgan kimyoviy moddalar bilan bog'liq tajribalarni bajarish va bunday tajribalar xaqida tasavvur paydo bo'lishiga yordam beradi.

2. Moddiy texnik bazasi etarli bo'lmagan yoki noyob,qimmat reaktivlarni bilan bog'liq laboratoriya ishlarini virtual bajarib ko'rish imkonini beradi.

3. Virtual laboratoriyaning axborot nazoratli turlaridan talabalar bilimi nazorat qilishda foydalanish o'qituvchiga ortiqcha vaqt va resurs sarflashni oldini olib, baxolash jarayoning ob'ektiv bo'lishiga xam olib keladi. Interfaol pedagogik texnologiyalar talim sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Georgiou, J., Dimitropoulos, K., & Manitsaris, A. (2007). A virtual reality laboratory for distance education in chemistry. International Journal of Social Sciences, 2(1), 34-41.

2. Safarova N. S., G'afurov U. U., Omonov X. T. VENN GRAFIK USLUBIDAN KIMYO DARSLARIDA FOYDALANISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 134-138.(USE OF VENN GRAPHIC METHOD IN CHEMISTRY CLASSES)

3. Sulaymonovna, S. N., & Sobirzoda, K. J. (2022). GENERALITY AND DIFFERENCES BETWEEN SITUATION PROBLEMS AND CASE METHODS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(03), 155-159.

4. Sadullayeva, G. G., & Rakhmatov, S. B. (2022). AMPEROMETRIC METHOD OF ANALYSIS AND ITS ADVANTAGES OVER OTHER METHODS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(2), 4-8.

5. Sadullayeva, G., & Karimova, S. A. (2022). ERITMALAR KONSENTRATSIYASINI IFODALASH BO'YICHA MASALALAR YECHISH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 909-915.

6. Гапуров У. У., Ниязов Л. Н. Исследование некоторых квантово-химических параметров соединения салициловой кислоты с глицином //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 3-2 (69).

7. Каримов, Ж. С. (2022). ВЛИЯНИЕ ПРИРОДЫ КАТАЛИЗАТОРА И ТЕМПЕРАТУРЫ НА УХОД ПРОДУКТА В РЕАКЦИИ АМИНОМЕТИЛИРОВАНИЯ. PEDAGOGS jurnali, 4(1), 357-361.

8. Бахромов Ҳ.Қ., Ниязов Л.Н.Синтез производных гидроксибензойных кислот и их антибактериальная активность .//Наманган давлат университети: Илмий ахборотномасиилмий- журн.– 2021, – №12. – С. 69-73. 9. Tatli, Z., & Ayas, A. (2010). Virtual laboratory applications in chemistry education. Procedia-Social and behavioral sciences, 9, 938-942.

10. Xamidova, M. X. Q. (2021). KIMYO FANINI VIRTUAL LABORATORIYALARDAN VA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANIB O 'QITISHNING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2(8), 133-139.

11. Джумаева М. К. МЕХАНИЗМ ОСНОВНЫХ ХИМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В АЗОТСОДЕРЖАЩИХ СОЕДИНЕНИЯХ ПРИ СИНТЕЗЕ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ //Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 1-6.

12. Olimov, B. B., Akhmedov, V. N., & Gafurova, G. A. (2021, October).

Application of derivatives of diatomic phenols as corrosion inhibitors. In Euro Asian Conference on Analytical Research (Germany (Vol. 15, pp. 136-138).

TOLERANTLIK TAMOYILINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI

Maftuna Rajabova,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada tolerantlik omilini mustahkamlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, "tolerantlik" kategoriyasini siyosiy konteksda shakllantirish masalalari tizimli asosda ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, xalqaro munosabatlar tizimida tolerantlik omilini rivojlantirish zarurati ortib borayotganligiga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: *tolerantlik, axloqiy tamoyil, inson huquqlari, deklaratsiya, BMT, YUNESKO, konferensiya*.

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ международно-правовых документов, направленный на усиление фактора толерантности. Также на системной основе были рассмотрены вопросы формирования категории «толерантность» в политическом контексте. Кроме того, особый акцент делается на растущую необходимость развития фактора толерантности в системе международных отношений.

Ключевые слова: *толерантность, моральный принцип, права человека, декларация, ООН, ЮНЕСКО, конференция.*

Annotation

This article presents a scientific analysis of international legal documents aimed at strengthening the factor of tolerance. Also, the issues of forming the category of "tolerance" in the political context were considered on a systematic basis. In addition, special emphasis is placed on the growing need to develop the factor of tolerance in the system of international relations.

Keywords: *tolerance, moral principle, human rights, declaration, UN, UNESCO, conference*.

Kirish. Zamonaviy davrning yorqin belgilaridan biri – migratsiya, globallashuv va insoniyat integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan madaniy, konfessional, etnik an'analarning aralashib ketishi bo'ldi. Jahon miqyosida xalqaro aloqalar kengayib, murakkablashib borayotgan davrda, xalqaro munosabatlar tizimida bag'rikenglik omilini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Bag'rikenglik tamoyili bugungi zamonaviy jamiyatning muhim omillaridan biridir. Tolerantlik nafaqat shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, balki, siyosiy va huquqiy tizimlarning samarali yo'lga qo'yilishida ham muhim omil hisoblanadi. Siyosiy va huquqiy asoslar tolerantlik tamoyilining amalga oshirilishi va rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy maqolada tolerantlik tamoyilining siyosiy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va uning amaliy ahamiyatini kuchaytirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tolerantlik tamoyilining siyosiy-huquqiy asoslarini o'rganish va tahlil qilishda, umumilmiy uslublar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya va boshqalar), huquqiy-normativ tahlil (xalqaro huquqiy hujjatlarning tahlili), taqqoslash usuli (turli xil siyosiy-huquqiy mexanizmlarni solishtirish va samaradorligini aniqlash), va tizimli tahlil uslublaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu mavzuni tahlil qilishda tarixiylik, xolislik va izchillik tamoyillariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzuning nazariy jihatlarini ochib berishda, g'arb va sharq olimlarining qarashlari va yondashuvlarini o'rganish va tahlil qilish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, shartli ravishda, tolerantlik fenomenining mazmunini ochib berishga qaratilgan ratsional, qadriyatli hamda subyektiv yondashuvlar shakllangan. Bag'rikenglikning ratsional asoslarga ega bo'lgan birlamchi talqinlariga J.Lokkning o'zgalarning qarashlari va e'tiqodlarini tan olishga doir fikrlari, J.St.Millning turli xil hayot tarzlarining yonma-yon mavjud bo'lishining tabiiyligi haqidagi konsepsiyasi misol bo'la oladi. Mazkur mumtoz faylasuflarining qarashlari zamonaviy G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan muayan darajada rivojlantirilmoqda. Jumladan, P.Nikolson bag'rikenglikning ratsional talqini chegaralaridan tashqariga chiqish va ushbu tamoyilni alohida mustaqil foydali ma'naviy ne'mat sifatida olib qarash mumkinligiga urg'u beradi. S.Mendusning fikricha esa bag'rikenglik paradoksal hodisa, chunki individ tomonidan uning amalga oshirilishi o'ta murakkabdir. Yana bir olim A.Makintayr bag'rikenglikni umumiy majburiy qadriyat ekaniga shubha bilan qaraydi, uning talqiniga ko'ra, zamonaviy madaniyatda ma'naviy-axloqiy hamjihatlikka erishishning ratsional kafolatlari mavjud emas.

Shu bilan birga, tolerantlik tamoyilining siyosiy-huquqiy asoslarini o'rganish va tahlil qilishda BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil), Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi (1995 yil) va boshqalarni tahlil qilish va amaliy ahamiyatini kuchaytirish alohida ahamiyatga ega.

Tahlil. Keng ma'noda tolerantlik – bu boshqa shaxsga ham, boshqa madaniy an'anaga ham hurmat bilan munosabatda bo'lishdir. Bundan tashqari, tolerantlik o'zgani o'ziga teng qadriyat sifatida e'tirof etishni, boshqasining mavjudligiga xayrixoh munosabatda bo'lishni va uning fikrini hurmat qilishni, muloqotga tayyorlikni, haqiqatga olib boradigan turli yo'llar mavjudligini tushunishni anglatadi. Tolerantlik insonning boshqa individlar va tizimlar bilan muloqot qilish hamda o'zaro munosabatda bo'lishga ochiqligi sifatida namoyon bo'ladi[1,6].

Tolerantlik jamiyat va davlat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib, inson va uning taraqqiyoti tarixida muhim rol o'ynaydi. Tolerantlik o'z navbatida dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati va xulq-atvor strategiyasi ham hisoblanadi. Tolerantlik kategoriyasiga oid ilmiy-falsafiy konsepsiyalarni tahlil qilganda siyosiy omilni yetakchi o'ringa chiqishini e'tirof etish lozim. Chunki tolerantlik tasodifiy kechadigan to'da yoki olomonning

xohish-irodasi, his-tuyg'ularining ifodasi emas, balki u etnoslarning, millatlarning tub manfaatlarini ifoda etadigan ijtimoiy-siyosiy hodisadir. Har qanday ijtimoiy hodisa pirovard natijada siyosiy tizim, davlat hayotiga borib taqaladi va siyosiy boshqaruvning strategik maqsadlariga ta'sir etadi. Biroq, tolerantlikka faqat siyosiy voqelik sifatida yondashish yetarli emas. Tolerantlik ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida keng yondashishni taqozo etadi.

"Tolerantlik" atamasi ilmiy muomalaga XX asr o'rtalarida ingliz immunolog olimi Piter Brayan Medavar tomonidan kiritilgan bo'lib, mazkur tushuncha organizm immun tizimining unga ko'chirib o'tkazilgan boshqacha hujayralarga nisbatan toqatliligini ifodalash uchun qo'llanilgan[2,87]. Keyinchalik, ushbu tushuncha boshka fanlarda ham faol ishlatila boshlandi.

Tolerantlikning birinchi tarixiy-siyosiy shakli diniy bag'rikenglik bo'lib, uning tamoyili Vestfaliya shartnomasida (1648 yil) o'rnatilgan. Bu shartnoma butun Germaniya bo'ylab lyuteranlar, kalvinistlar va katoliklarning huquqlarini tenglashtirish ma'nosida dinlarning tengligi uchun asos yaratdi[3,11].

Natijalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqotni o'rnatish, millatlar va elatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirib, hozirda bag'rikenglikka oid 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib ularning ichida eng asosiylari: BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha Vena deklaratsiyasi va harakatlar dasturi", YUNESCOning 1995-yil 16-noyabrdagi "Tolerantlik tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya", BMT Bosh Assambleyasining 1996-yil 4-noyabrdagi "Xalqaro madaniy hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya" va BMT Bosh Assambleyasining 1963-yil 20-noyabrdagi "BMTning Irqiy diskriminatsiyaning har qanday shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiyasi" hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"[4] qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya tolerantlik omilini mustahkamlash va ta'minlash bo'yicha dastlabki xalqaro huquqiy hujjatlardan biri bo'ldi. O'z navbatida, ushbu deklaratsiya inson huquqlari va tolerantlikning qonuniy kafolati sifatida butun dunyoda e'tirof etildi.

1960-yil dekabr oyida dunyoning bir qancha joylarida ro'y bergan antisemitizm voqealaridan so'ng, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi "irqiy, diniy va milliy adovatning barcha ko'rinishlari va amaliyotlari"ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini buzish sifatida qoralagan rezolyutsiyani qabul qildi. Barcha davlatlar hukumatlarini "irqiy, diniy va milliy adovatning barcha ko'rinishlarining oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko'rishga"chaqiradi[5].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1963-yil 20-noyabrda "Irqiy diskriminatsiyasining har qanday shakllariga barham berish to'g'risida"gi[6] deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya o'n bir moddadan iborat bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tuzilishiga mos keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1965-yil 21-dekabrda "Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi xalqaro konvensiya qabul qilindi va 1969-yil 4-yanvarda kuchga kirdi. Mazkur konvensiya inson huquqlari bo'yicha uchinchi avlod hujjati bo'lib, konvensiyani qabul qilgan davlatlar irqiy kamsitishni bartaraf etish va barcha irqlar o'rtasida o'zaro tushunishni rivojlantirish majburiyatini oladi. 2020-yil iyul holatiga ko'ra, ushbu konvensiya 88ta imzolovchi va 182ta partiyaga ega. Konvensiya Irqiy kamsitishlarga barham berish qo'mitasi tomonidan nazorat qilinadi[7].

Tolerantlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlardan eng asosiysi – 1995-yil 16-noyabrda Parijda YUNESKO Bosh Konferensiyasining 28-sessiyasida e'lon qilingan "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi" hisoblanib, unda maktab va universitetlarda, uyda va ishda bag'rikenglik ruhini tarbiyalash, ochiqlik, o'zaro tushunish va hamjihatlik munosabatlarini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Mazkur deklaratsiya inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy birlashuvni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan. Deklaratsiyaning e'lon qilinishi jahon bo'ylab bag'rikenglikni kuchaytirish, turli xil kamsitish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, turli madaniyatlar va dinlar o'rtasida o'zaro hurmatni mustahkamlash hamda nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf qilish maqsadida amalga oshirilgan.

Ushbu hujjatda tolerantlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Tolerantlik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Tolerantlik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Tolerantlik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga elituvchidir[8].

Tolerantlik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Tolerantlik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham tolerantlik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Tolerantlik – inson huquqlarini qaror topdirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Tolerantlik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir[8].

Tolerantlik tamoyillari asosiy huquq va erkinliklar sifatida huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan va xalqaro deklaratsiyalarda e'lon qilingan. Bu yerda asosiy hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hisoblanadi. Yevropa Kengashi doirasida Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi amal qilmoqda. Konvensiyaning 12-Protokoli kuchga kirdi, uni ratifikatsiya qilgan davlatlarga hech qanday kamsitilishlarsiz har qanday huquqlarni kafolatlash majburiyati yuklandi va majburiyatlarni bajarmagan taqdirda jazo mexanizmi nazarda tutiladi. "Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi" tolerantlik sohasidagi eng muhim xalqaro hujjat bo'lib, u barcha xalqlarning tinchligi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy rivojlanishi uchun zarurdir.

XXI asrning boshida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) tashabbusi bilan tinchlik va zo'ravonliksiz madaniyatga global o'tish zarurligiga e'tibor qaratildi. U "Manifest 2000" deb nomlandi (2000-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro Tinchlik Madaniyati yili deb e'lon qilingan) va imkon qadar ko'proq tinchlik va zo'ravonlik urug'larini ekishning o'n yillik ishning boshlanishini belgiladi. Manifest 6 ta banddan iborat bo'lib, ular yuqori organga murojaat qilmagan, lekin individual majburiyat va mas'uliyatni ifodalagan – Beshta ongni rivojlantirish treningining o'ziga xos o'zgarishi. Manifestni millionlab odamlar, jumladan, prezidentlar va bosh vazirlar imzoladilar. Imzolovchilar ushbu hujjatdagi 6 bandni amalda qo'llash majburiyatini oldilar[9].

2018-yilning 12-dekabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi o'zining yalpi majlisida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli maxsus rezolyutsiyani qabul qildi[10]. Loyihasi O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan mazkur hujjat BMTga a'zo davlatlarning barchasi tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Rezolyutsiyaning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ijrosi hisoblanadi.

Ma'rifat va diniy bag'rikenglik to'g'risidagi rezolyutsiyaning BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi shuni anglatadiki, 51 ta davlat O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan konstruktiv taklif, ya'ni dunyodagi mavjud barcha dinlarga nisbatan ma'naviy bag'rikenglik madaniyatini kuchaytirishga doir g'oyani qo'llab-quvvatladilar. Chunki ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik bilan birga madaniy va diniy bilimlarni kuchaytirish tamoyilini ham olg'a surgan holda, global tinchlik va farovonlik uchun muhim ustuvor yo'nalish sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur rezolyutsiya nafaqat BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangani, balki Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarning 50 dan ziyod mamlakatlari bilan hammualliflikda qabul qilingani e'tiborga molik. Bu xalqaro

hamjamiyat tomonidan O'zbekiston Prezidenti tashabbusining dolzarbligi va o'z vaqtida ilgari surilgan taklif ekanining yuksak e'tirofidan dalolatdir.

Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo'ladigan tolerantlik o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, demokratik davlatda irqi, millati, dini, tili, iqtisodiy ahvoli, jismoniy holati, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqlovchi belgilaridan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun qonun asosida teng huquq, erkinlik, majburiyat va imkoniyatlar huquqiy kafolatlanadi. Bundan tashqari, davlatning tolerant munosabati har bir inson va ijtimoiy guruhning iqtisodiy farovonligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, turli millat va din vakillariga nisbatan toqatsizlik, hurmatsizlik va murosasizliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlarni muntazam ravishda olib borishda yaqqol namoyon bo'ladi. Tolerantlikni ta'minlashda siyosiy-huquqiy asoslar muhim rol o'ynaydi. Chunki mazkur huquqiy asoslar shaxslararo va davlatlar o'rtasida tenglik, adolat, o'zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda xalqaro maydonda yuz berayotgan turli xil geosiyosiy va etnik nizolarning asl sabablaridan biri sifatida tolerantlik omilining yemirilib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Turli mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar ham huddi turli insonlar o'rtasidagi munosabatlarga o'xshaydi. Zero, insonlar o'zgalarning umuminsoniy huquqlarini tan olib, hurmat qila olsa, ularga nisbatan kechirimli va sabrli bo'la olsagina ular o'rtasida tinchlik, do'stlik, o'zaro ishonch va hamkorlik, bag'rikenglik kabi ahamiyatga molik fazilatlar shakllanadi. Odamlar o'rtasida o'zaro ishonch va murosaning mavjud emasligi ular orasida turli xil konfilektlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Insonlarning "ishonch", "murosa", "bag'rikenglik", va "sabr" tushunchalariga bo'lgan munosabati vaziyatlarning ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlar bilan yakunlanishini belgilab berishi mumkin.

Jamiyatda tolerantlik tamoyilini rivojlantirish uchun turli xil davlat va nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari hamda xalqaro siyosiy institutlar o'rtasida hamkorlikni takomillashtirish zarur. Shuningdek, tolerantlikni mustahkamlash uchun mavjud siyosiy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va uning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu siyosiy-huquqiy baza inson huquqlarini himoya qilishi va diskriminatsiyani to'liq bartaraf qilishi zarur. Bundan tashqari, millatlararo muloqotni rivojlantirish va OAVlari orqali bag'rikenglikni targ'ib qilish ham samarali natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баева Л.В. Толерантност: идея, образы, персоналии.: Доктор философских наук. монография. – Астрахань: Издательский дом "Астраханский университет". 2009. –С. 5-6.

2. Меньшикова Н.С. Феномен "толерантность", сущностная характеристика и правовье основы формирования культуры толерантности в эпоху мультукультурализма. // Вестник Санк-Петербургского универстета МВД России № 3 (67) 2015. –С. 87.

3. Муллагалиева Л.К. Язык толерантности.: Доктор педагогических наук. Монографии. – Уфа. 2012. –С. 11.

4. Universal Declaration of Human Rights. [Elektron manba:] https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights. Murojaat sanasi: 07.05.2024.

5. International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination. [Elektron manba:]

6. International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination.United Nations General Assembly.21 december 1965.[Elektron manba:] https://en.wikipedia.org/wiki/International_Convention_on_the_Elimination_of_All_Forms_of_Racial_Discrimination. Murojaat sanasi: 08.05.2024.

7. Declaration on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination.United Nations General Assembly.20 november 1963.[Elektron manba:] https://en.wikipedia.org/wiki/Declaration_on_the_Elimination_of_All_Forms_of_Racial_Discrimination#:~:text=The%20Declaration%20on%20the%20Elimination,Assembly%20on%2020%20November%201963. Murojaat sanasi: 08.05.2024.

8. Declaration of Principles on Tolerance. [Elektron manba:] https://www.oas.org/dil/1995%20Declaration%20of%20Principles%20on%20Tolerance%20UNESCO.pdf

9. Manifesto 2000: Creating a Culture of Peace and Nonviolence. UNESCO.2000. [Elektron manba:] https://plumvillage.app/manifesto-2000-creating-a-culture-of-peace-and-nonviolence/.

10. Enlightenment and religious tolerance.UNO General Assembly Seventy-third session Agenda item 15 Culture of peace. 10 December 2018.[Elektron manba:] https://digitallibrary.un.org/record/1655237?ln=ru

JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNING RIVOJLANISHIGA JAMOALARNI OMMAVIY JALB ETISH

Nodirbek Yoqubjonov
Andijon davlat pedagogika instituti,
Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi vaqt o'tishi bilan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadigan sezilarli o'zgarishlarga duch kelganligi aniqlandi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari ushbu sohalarning asosiy jihatlari va tendentsiyalari haqida qimmatli fikrlarni beradi. Keng qamrovli tibbiy ta'lim, yangilangan o'quv dasturlari va dalillarga asoslangan o'qitish usullarini integratsiyalashuvi talabalarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimligi o'rganildi. Ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash mutaxassislari va siyosatchilar o'rtasidagi hamkorlik jismoniy faoliyat va salomatlikni mustahkamlash bo'yicha say-harakatlarning ta'lim tizimlarida integratsiyalashuvini yanada kuchaytirishi mumkin.

Tayanch so'zlar: *rivojlanish, kontekst, salomatlik, inklyuziv, texnologiya, integratsiya, elektron sport.*

Аннотация

В статье показано, что развитие физического воспитания и массового спорта со временем претерпело существенные изменения, обусловленные историческими, социальными и культурными факторами. Результаты анализа научной литературы дают ценную информацию об основных аспектах и тенденциях в этих областях. Стало известно, что комплексное медицинское образование, обновленные учебные программы и интеграция научно обоснованных методов обучения имеют решающее значение для удовлетворения меняющихся потребностей студентов. Сотрудничество между образовательными учреждениями, специалистами здравоохранения и политиками может еще больше усилить интеграцию физической активности и усилий по укреплению здоровья в системы образования.

Ключевые слова: *развитие, контекст, здоровье, инклюзивность, технологии, интеграция, киберспорт.*

Annotation

The article shows that the development of physical education and mass sport has undergone significant changes over time due to historical, social and cultural factors. The results of the analysis of scientific literature provide valuable information on the main aspects and trends in these areas. It became known that comprehensive health education, updated curricula and the integration of evidence-based teaching methods are crucial to meet the changing needs of students. Collaboration between educational institutions, health professionals and policy makers can further strengthen the integration of physical activity and health promotion efforts into education systems.

Keywords: *development, context, health, inclusion, technology, integration, esports.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va jamoat sporti jismoniy faollikni targ'ib qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shaxs va jamiyatning umumiy farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida vaqt o'tishi bilan rivojlandi.

Tarixan jismoniy tarbiya ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning maqsadi jismoniy tayyorgarlik, harakat qobiliyatlari va sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlarni rivojlantirishdir. Ananaga ko'ra, tizimli

jismoniy faoliyat, sport mashg‘ulotlari va o‘quvchilarda jismoniy savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ta’minlaydigan maktab dasturlariga e’tibor qaratildi. Maktablarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari muntazam ravishda sport bilan shug‘ullanish va sog‘lom odatlarga ega bo‘lish muhimligini ta’kidlab, sport va jismoniy faollik bilan umrbod shug‘ullanish uchun zamin yaratadi.

So‘ngi yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishiga bir qancha asosiy tendentsiyalar ta’sir ko‘rsatdi. Salomatlik va farovonlikning ahamiyatini tan olish va samaradorlikka asoslangan yondashuvlardan yanada inklyuziv va yaxlit istiqbollarga o‘zgartirishga olib keldi. Umumiy salomatlikni yaxshilash, surunkali kasalliklarning oldini olish va ruhiy farovonlikni yaxshilash vositasi sifatida jismoniy faollikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportda inklyuzivlik va xilma-xillikka e‘tibor kuchaymoqda. Odamlar uchun teng foydalanish va ishtirok etish imkoniyatlarini ta’minlash, gender tengligini rag‘batlantirish va nogironlar uchun moslashtirilgan dasturlarni taqdim etish bo‘yicha say-harakatlar amalga oshirildi. Inklyuzivlikka urg‘u berish, ular xizmat ko‘rsatadigan turli xil populyatsiyalarni kutib oladigan, qo‘llab-quvvatlovchi va aks ettiradigan muhitni yaratishga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan siyosat ham muhim o‘rin tutadi. Turli darajadagi hukumatlar jismoniy faollik va sport bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish uchun mablag‘, infratuzilma va yo‘l-yo‘riq beradi. Ular jismoniy tarbiya va jamoat sportining ijtimoiy afzalliklarini, jumladan, sog‘liqni saqlashni yaxshilash, jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni tan oladilar [1. 4 b].

Adabiyotlar sharhi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi vaqt o‘tishi bilan tarixiy sharoit, ijtimoiy o‘zgarishlar, texnologik yutuqlar, salomatlik va farovonlikka bo‘lgan munosabat kabi turli omillar ta’sirida sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Ushbu munozaralar bo‘limida adabiyotlarni o‘rganish natijasida olingan asosiy xulosalar va mavzular batafsilroq ko‘rib chiqildi, ularning oqibatlari yoritildi va jismoniy tarbiya va ommaviy sportning kelajakdagi yo‘nalishlari muhokama qilindi [2. 13 b].

1. Ta’lim va sog‘liqni saqlash: Maktablarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda jismoniy faollikni rivojlantirish, harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom odatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, o‘quv dasturlari va o‘qitish usullarini rivojlanayotgan ta‘lim falsafalari va tadqiqotga asoslangan ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish uchun doimiy ravishda yangilab turish zarurati mavjud. Keng qamrovli sog‘liqni saqlash bo‘yicha ta‘limni o‘z ichiga olish, ruhiy farovonlik muhimligini ta‘kidlash va ijobiy tana qiyofasini targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, maktablar, sog‘liqni saqlash mutaxassislari va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlik jismoniy faoliyat va salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha say-harakatlarning ta’lim tizimlarida integratsiyalashuvini yaxshilashi mumkin [3. 19 b].

2. Inklyuzivlik va tenglik: Jismoniy tarbiya va jamoat sportida inklyuzivlik va tenglikni rag‘batlantirishga qaratilgan say-harakatlar barcha odamlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Gender tafovutlarini bartaraf etish, nogironligi bo‘lgan odamlar uchun moslashtirilgan va qulay dasturlarni taqdim etish va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qamrab olish uchun strategiyalar amalga oshirilishi kerak. Turli xil shaxsiyat va qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish tegishlilik tuyg‘usini rivojlantirish va jismoniy faoliyatda umrbod ishtirok etishni rag‘batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega [4. 41 b].

3. Ijtimoiy va ijtimoiy imtiyozlar: Jismoniy tarbiya va jamoat sporti inson salomatligidan tashqari keng ko‘lamli ijtimoiy imtiyozlarni beradi. Ular jamiyatni rivojlantirish, ijtimoiy birdamlik va madaniyatni saqlashga yordam beradi. Tashkil etilgan tadbirlar, jamoaviy sport dasturlari va sport diplomatiyasi tashabbuslari ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga, madaniy farqlarni ko‘paytirishga va turli odamlar guruhlari o‘rtasida o‘zaro tushunishga yordam beradi. Ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash jismoniy tarbiya va sportning mahalliy hamjamiyatlarga ijobiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin [5. 114 b].

4. Kelajakdagi yo‘nalishlar: Kelajakga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishda qator yo‘nalishlarga yanada e‘tibor qaratish zarurligini ta’kidlash mumkin. Birinchidan, jismoniy

faoliyat va farovonlikni oshirish uchun turli yondashuvlar, aralashuvlar va siyosatlarning samaradorligini baholash uchun doimiy tadqiqotlarga ehtiyoj bor. Bu jismoniy tarbiyaning odamlar salomatligiga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish va ananaviy sport mashg‘ulotlariga kamroq qatnashadigan odamlarni jalb qilish uchun innovatsion strategiyalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, psixologiya, sotsiologiya va sog‘liqni saqlash kabi sohalar o‘rtasidagi fanlararo hamkorlikni rag‘batlantirish jismoniy faoliyat xatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi omillarni yanada yaxlitroq tushunishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish jadal va rivojlanayotgan sohadir [6. 67 b].

Ta’lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, inklyuzivlik va tenglik, texnologiya integratsiyasi, ijtimoiy va jamiyat foydalari va kelajakdagi yo‘nalishlar kabi asosiy muammolarni hal qilish orqali manfaatdor tomonlar jismoniy tarbiya va jamoat sportining shaxslar va jamoalarga ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirishi mumkin. Ushbu muhim sohalarda doimiy rivojlanish va muvaffaqiyatni ta’minlash uchun doimiy izlanishlar, innovatsion yondashuvlar va hamkorlikdagi sa‘y-harakatlar zarur [7. 36 b].

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi vaqt o‘tishi bilan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadigan sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Adabiyotlarni o‘rganish natijalari ushbu sohalarning asosiy jihatlari va tendentsiyalari haqida qimmatli fikrlarni beradi.

Maktablarda jismoniy tarbiya o‘quvchilarning jismoniy savodxonligini oshirish, sog‘lom odatlarni shakllantirish va umumiy farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Keng qamrovli tibbiy ta’lim, yangilangan o‘quv dasturlari va dalillarga asoslangan o‘qitish usullarini integratsiyalashuvi talabalarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimdir. Ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash mutaxassislari va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlik jismoniy faoliyat va salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha say-harakatlarning ta’lim tizimlarida integratsiyalashuvini yanada kuchaytirishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi, ularning tarixiy mazmuni, asosiy jihatlari va hozirgi tendentsiyalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Maktablarda jismoniy tarbiya darslari muhimligi va jamoat joylarida ommaviy sportning rivojlanayotganligi tahlil qilindi. Unga ko‘ra salomatlik va inklyuzivlik, texnologiya integratsiyasi, jismoniy tarbiya va jamoat sportining ijtimoiy va jamiyatdagi afzalliklariga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Методология исследования. Методология исследования статьи включает следующие ключевые аспекты: анализ традиционных и инновационных методов, сравнительный анализ: исследование особенностей и различий традиционных и современных подходов в образовательном процессе, системный подход: рассмотрение образовательного процесса как целостной системы, включающей традиционные и инновационные элементы, психолого-педагогический подход: исследование влияния индивидуальных особенностей учащихся на выбор методов обучения, выявление факторов, определяющих эффективность учебного материала (актуальность, сложность, воспитательный потенциал),эмпирические методы исследования, использование наблюдений за образовательным процессом, методы прогнозирования, методы педагогического моделирования, интердисциплинарный подход.

Литературный обзор. Темой исследуемого вопроса занимались такие ученые как Джон Дьюи [1,37] — американский философ и педагог, который одним из первых ввёл понятие активного обучения. Его подходы базировались на принципах экспериментального обучения и значимости индивидуального опыта обучающегося. Немаловажные выводы сделал Лев Выготский [2,17] — советский психолог, внёсший значительный вклад в теорию обучения. Его работы о зоне ближайшего развития и значении культурно-исторического подхода к обучению актуальны и сегодня. Акцент на «знаниевом» подходе сделал Жан Пиаже [3,65] — швейцарский психолог, исследовавший когнитивное развитие детей. Его теории об этапах интеллектуального развития помогают разрабатывать дифференцированные подходы к обучению. Также следует отметить А.В. Петровского [4,47] — российского педагога, который изучал коллектив как фактор обучения и воспитания. Его труды актуальны при организации групповой учебной деятельности. Очень весомый вклад внес Ш.А. Амонашвили [5,88] — грузинский педагог, разрабатывающий гуманный подход к обучению, ориентированный на личностное развитие учащегося.

В области исследования сочетания традиций и инноваций в педагогике Узбекистана активно работали следующие узбекские учёные: Абдужаббарова М.Л. [6,97] специализировалась на исследовании воспитательного потенциала образовательных программ. Она разрабатывала методические рекомендации по внедрению инновационных подходов в образовательных учреждениях Узбекистана.

З.Х. Касымова [7,52], которая исследовала методы сочетания национальных традиций с инновационными технологиями в обучении. Она подчёркивала важность воспитания у студентов уважения к национальным ценностям в процессе обучения.

Баходирова Г.К. [8,46] - разрабатывала подходы к интеграции инновационных технологий в образовательные учреждения Узбекистана. Она акцентировала внимание на необходимости адаптации международного опыта к местным традициям.

Давлатов О.Г.[9,25] исследовал способы повышения эффективности учебного процесса через внедрение инновационных методов обучения. Он рассматривал влияние культурно-исторического наследия Узбекистана на развитие современной педагогики.

Эти учёные внесли значительный вклад в развитие педагогики Узбекистана, уделяя особое внимание гармоничному сочетанию традиционных и современных подходов.

Результаты. Суммируя вышесказанное можно смело говорить об эффективных результатах, которые были выявлены в ходе исследования изученного материала.

1. *Эффективность сочетания методов*

- Применение традиционных методов на начальных этапах обучения обеспечивает базовое усвоение материала.
- Инновационные методы на этапе закрепления знаний позволяют углубить понимание и повысить мотивацию учащихся.

2. *Определены ключевые факторы успеха*

- Уровень подготовки обучаемых.
- Актуальность и содержательная ценность учебного материала.

- Дифференцированный подход с учётом индивидуальных особенностей учащихся.

3. *Роль педагогов в образовательном процессе*

- Подчёркнута значимость профессионального опыта педагогов в прогнозировании успешности обучения.
- Взаимодействие педагогов разных возрастных групп улучшает качество учебно-воспитательной деятельности.

4. *Методология обучения*

- Разработаны подходы, сочетающие традиционные методы (аналогия, анализ, синтез) с инновационными (алгоритм решения задач, мозговая атака, инверсия).
- Эти подходы способствуют более глубокому пониманию материала и развитию креативности у учащихся.

5. *Педагогическая ценность национальных традиций*

- Национальные ценности Узбекистана гармонично интегрируются с современными образовательными технологиями, что способствует формированию у учащихся уважения к культурному наследию.

Вывод. Сочетание традиционных и инновационных методов в образовательном процессе является важным направлением совершенствования педагогики. Успех этого подхода зависит от грамотного анализа учебного материала, учёта индивидуальных особенностей, обучающихся и взаимодействия педагогов разного уровня профессиональной подготовки. Узбекистан демонстрирует пример, где гармоничное сочетание традиций и новаций способствует созданию эффективной образовательной среды.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Дьюи, Дж. Демократия и образование. — Нью-Йорк: Макмиллан, 1916. — 350 с.
2. Выготский, Л. Мышление и речь. — Москва: Издательство "Речь", 1978. — 400 с.
3. Пиаже, Ж. Психология интеллекта. — Москва: Издательство "Прогресс", 2000. — 350 с.
4. Петровский, А.В. Психология коллектива. — Москва: Издательство "Наука", 1972. — 280 с.
5. Амонашвили, Ш.А. Гуманная педагогика. — Тбилиси: Издательство "Мерани", 1983. — 250 с.
6. Абдужаббарова, М.Л. Воспитательный потенциал образовательных программ в Узбекистане. — Ташкент: Издательство "Узбекистан", 2010. — 220 с.
7. Касымова, З.Х. Сочетание национальных традиций и инновационных технологий в обучении. — Ташкент: Издательство "Мирас", 2015. — 280 с.
8. Баходирова, Г.К. Интеграция инновационных технологий в образовательные учреждения Узбекистана. — Ташкент: Издательство "Фан", 2018. — 250 с.
9. Давлатов, О.Г. Культурно-историческое наследие Узбекистана и его влияние на педагогические методы. — Ташкент: Издательство "Наука и образование", 2016. — 300 с.

GLOBALLASHAYOTGAN DUNYO O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI VA GRADUAL TA'LIM MUAMMOLARI

Jahongir Komiljonov,
Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi,
KIUT Namangan filiali, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi va inson ruhiyatining hozirgi holati o'qitish kechimining o'zgacha falsafiy yo'nalish asosida tashkil etilishini taqozo etdi. Ana shu zaruriyatning natijasi o'laroq transaksiya falsafasi paydo bo'ldi. Bunga ko'ra, ta'limning mazmuni o'quvchilarning o'z xatti-harakatlari, intilishlari natijasida o'zlashtirilishi ko'zda tutiladi. Ya'ni bu falsafiy yo'nalishda o'quvchi ta'lim kechimining bosh qadriyati va o'qitish jarayonini o'qituvchi bilan birgalikda amalga oshiradigan sub'yekt maqomida bo'lishi lozim deb hisoblanadi. Negaki, bu davrga kelib ilm shu qadar rivojlanib ketdiki, endi o'quvchilarga ularning asoslarini o'rgatish ham mumkin bo'lmay qoldi. Ilmu fanning tezkor taraqqiyoti oldinlari xayolga ham kelmagan bir qator muammolarni paydo qildi. Chunonchi, o'quvchilarga qaysi fan asoslarini, qancha miqdorda, qachon va qay tartibda o'rgatish kerakligi masalasini hal etish mushkul bo'lib qoldi. Ushbu maqolada adabiyot fanini maktablarda o'qitilishining bugungi kundagi holati haqida bayon qilingan. Umumta'lim tizimida adabiyot o'qitishning ahvolib muammo va yechimlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *O'qitish metodlari, usul, interfaol usullari, gradual ta'lim, ijodiy yondoshuv, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация

Современный уровень развития науки и техники и современное состояние человеческой психики потребовали организации образовательной программы на основе особого философского направления. В результате этой необходимости возникла философия транзакций. Соответственно, предусматривается, что содержание образования будет осваиваться учащимися в результате их действий и стремлений. То есть в этом философском направлении считается, что ученик является главной ценностью образовательного опыта и должен находиться в статусе субъекта, осуществляющего процесс обучения вместе с учителем. Ведь к этому времени наука развилась настолько, что обучать студентов ее основам уже было невозможно. Бурное развитие науки породило ряд проблем, о которых раньше даже не подозревали. Например, стало сложно решать, какие предметы следует преподавать студентам, в каком объеме, когда и в каком порядке. В данной статье описывается современное состояние преподавания литературы в школах. Анализируется ситуация, проблемы и пути решения преподавания литературы в системе общего образования.

Ключевые слова: *Методы обучения, методы, интерактивные методы, поэтапное обучение, творческий подход, педагогические технологии.*

Annotation

The modern level of scientific and technical development and the current state of the human psyche have required the organization of the educational process on the basis of a special philosophical direction. As a result of this necessity, the transactional philosophy emerged. According to this, the content of education is assumed to be mastered by students as a result of their own actions and aspirations. That is, in this philosophical direction, the student should be the main value of the educational process and a subject who carries out the educational process together with the teacher. Because, by this time, science had developed so much that it was no longer possible to teach students their basics. The rapid development of science has created a number of problems that were previously unimaginable. For example, it has become difficult to decide which basics of science to teach students, how much, when and in what order. This article describes the current state of teaching literature in schools. The current state of literature teaching in the general education system, its problems and solutions, is analyzed.

Keywords: *Teaching methods, method, interactive methods, gradual education, creative approach, pedagogical technologies.*

Kirish. Falsafiy asos pedagogika fanining ham, amaliyotining ham mohiyatini tayin etadi. Insoniyat tarixi bilan teng bo‘lgan pedagogik amaliyot, umumlashtirib olganda, uch asosiy falsafiy yo‘nalish asosida uyushtirilib kelinayotir. Bu falsafiy yo‘nalishlar pedagogika ilmida *transmissiya, transformatsiya, transaksiya* tarzida nomlanadi. Qo‘shma so‘zlardan iborat bu atamalardagi dastlabki *trans* so‘zi lotincha bo‘lib, “orqali”, “orqali o‘tish”, “vositasida o‘tish” ma’nolarini anglatadi.

Ta’limni transmissiya falsafasi asosida tashkil etish g‘oyat uzoq davom etib, insoniyat tajribasi va fanning taraqqiyoti ko‘proq empirik xarakterda bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu falsafiy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limda o‘quvchilar o‘qituvchi bergan bilimlarnigina o‘zlashtiradilar. Bu davrda insoniyat o‘zlashtirigan bilimlarning o‘zi ancha primitiv bo‘lganligi sababi o‘qituvchi ularni o‘ziga singdirgan kam sonli odamlardan biri sifatida bilganlarini o‘quvchilariga tushunarli yo‘sinda uzatganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ёзувчининг ҳаёти ва ижодини ўргатиш масаласи мустақилликкача бўлган даврда ҳам, истиқлол даври адабиёт ўқитиш методикаси соҳасида ҳам муҳим ўрин тутади. Аммо мустақилликдан олдин олиб борилган тадқиқот ишлари учун умумий хусусият адиб ёки ёзувчи қиёфасини белгилашда ғоявийлик, партиявийлик ва синфийлик мезонларига таянишда кўзга ташланди. Кейинги даврда ижодкорнинг истеъдод соҳиби сифатидаги ижодий қиёфасига ўқувчи диққатини тортиш; инсоний қалбини, руҳиятини яратган асарлари таҳлили орқали ҳис қилдириш; яратган бадиий оламининг бетакрорлиги аломатларини англатиш, асарларининг ўзига хос услубда яратилганлигини тадқиқ қилишга ўргатиш масаласи методист олимларнинг диққат марказида турибди. Профессорлар: Қ.Йўлдошев, Б.Тўхлиев, С.Матчонов, М.Мирқосимова, Қ.Ҳусанбоева, Р.Ниёзметова каби олимларнинг айрим мақола, тадқиқот ишлари, монография, методик қўлланмаларида шу масалага янгича ёндашув кўзга ташланади.

Natijalar. Insoniyat egallagan bilimlar miqdori nisbatan ko‘payib, ularni yosh avlodga o‘zgarishsiz o‘rgatish ko‘p vaqtni oladigan bo‘lib qolgach, ta’lim kechimi (jarayoni) transformatsiya falsafiy yo‘nalishi asosida tashkil etiladigan bo‘ldi. Bunda o‘qituvchi u yoki bu fanning o‘zini emas, balki uning asoslarini o‘rgatishga yo‘naltirildi. Chunki bu bosqichda fan anchagina rivojlanganligi uchun ham o‘quvchilarning uni to‘liq egallashlari mumkin emas edi. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchi transformator vazifasini o‘tar, ya’ni muayyan fanning asosiy mohiyatini o‘quvchilarga singdirishga urinardi. E’tibor qilingan bo‘lsa, har ikki holatda ham o‘qituvchi ta’lim jarayonining sub’yekti bo‘lib, bilim bosh qadriyat hisoblanadi. Bu falsafiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’limda asosan xotirani mustahkamlashga zo‘r berilib, o‘quvchi miyasining chap yarim sharini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Hozirgi o‘qitish kechimi uchun o‘qituvchining aytganlarinigina eslab qoladigan o‘quvchilarni tayyorlash yetarli bo‘lmay qoldi. Chunki har qanday kuchli xotira ham cheksiz ochundagi beadad hodisalarning barchasini qamrab ololmaydi. Buning ustiga, xotira yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar faqat standart vaziyatlardagina foydalanishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Notanish vaziyatga duch kelinsa, mashaqqat bilan o‘zlashtirilgan bu bilimlar hech narsaga yaramay qoladi. Ma’lumki, tiriklik hech qanday standartu qolipga tushmaydigan darajada rang-barangdir. Shuning uchun yosh avlodni mustaqil izlanadigan, nostandart vaziyatlarda eng maqbul va original qarorlar qabul eta oladigan qilib tarbiyalash kun tartibiga chiqdi.

Muhokama. Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi va inson ruhiyatining hozirgi holati o‘qitish kechimining o‘zgacha falsafiy yo‘nalish asosida tashkil etilishini taqozo etdi. Ana shu zaruriyatning natijasi o‘laroq transaksiya falsafasi paydo bo‘ldi. Bunga ko‘ra, ta’limning mazmuni o‘quvchilarning o‘z xatti-harakatlari, intilishlari natijasida o‘zlashtirilishi ko‘zda tutiladi. Ya’ni bu falsafiy yo‘nalishda o‘quvchi ta’lim kechimining bosh qadriyati va o‘qitish jarayonini o‘qituvchi bilan birgalikda amalga oshiradigan sub’yekt maqomida bo‘lishi lozim deb hisoblanadi. Negaki, bu davrga kelib ilm shu qadar rivojlanib ketdiki, endi o‘quvchilarga ularning asoslarini o‘rgatish ham mumkin bo‘lmay qoldi. Ilm-u fanning tezkor taraqqiyoti oldinlari xayolga ham kelmagan bir qator muammolarni paydo qildi. Chunonchi, o‘quvchilarga qaysi fan asoslarini, qancha miqdorda, qachon va qay tartibda o‘rgatish kerakligi masalasini hal etish mushkul bo‘lib qoldi. Mabodo,

bu muammo hal etilguday bo‘lsa ham har bir o‘quvchining bularni o‘zlashtirishi zarurmi degan inson huquqi bilan bog‘liq savol ko‘ndalang qo‘yiladigan bo‘ldi.

Transaksiya falsafasi olamni har bir odam o‘zi mustaqil, o‘z nazari bilan ko‘rgani kabi uni o‘z kuchi bilan o‘rganishi ham kerak deb hisoblaydi[6.58]. Bu falsafiy yo‘nalish olamga o‘quv predmeti nuqtai nazari bilan qarashni rad etadi. U olam hodisalarini butunicha, yaxlit o‘zlashtirish mumkin deb qaraydi va buning uchun o‘sha hodisalarni anglatadigan ilmiy qonuniyatlarni didaktik jihatdan hazm qilish mumkin bo‘lgan holatda taqdim etish lozim deb biladi.

Ana shunday falsafiy yondashuv tufayli bugunga kelib butun dunyo miqiyosida ta'lim tizimini tubdan o‘zgartirish jarayoni kechmoqda. Amerika olimlarining bilimlarni o‘zlashtirish borasida olib borgan keyingi tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, bugunga kunda dunyoni bildirishi jihatidan o‘qituvchi, ya'ni maktab oila, axborot vositalari va muhitdan keyingi to‘rtinchi o‘ringa tushib qolgan. Olamdagi har bir ilmning bo‘yiga chuqurlashib, eniga kengayishi shu darajaga yetdiki, bir kishi fanning kichik bir sohasini ham to‘liq o‘zlashtirib olishi mumkin bo‘lmay qoldi.

Jamiyat a'zolari ma'rifat darajasining o‘sishi natijasida oilaning ichki imkoniyatlari ortib ketdi[1.57]. Deyarli har bir o‘tboshi (oila) o‘z bolalariga mustaqil ravishda ma'lum darajada bilim bera oladigan darajaga yetdi. Axborotlar oqimi miqiyosining behad kengayishi axborot vositalarining ko‘payishiga olib keldi. Taraqqiyot esa, bu tiyiqsiz axborotlar oqimidan keraklilarini o‘zlashtirib olishning g‘oyat qulay texnik vositalarini yaratdi. Odamlarning umumiy intellektual saviyasi ochun miqiyosida sezilarli yuksaldi. Bu isonlarning bir-birlariga ko‘rsatadigan o‘zaro ma'rifiy ta'siri darajasini ortirdi. Natijada, o‘qituvchi oldingiday ma'rifat osmonida chaqnagan yolg‘iz yorug‘ yulduz bo‘lolmay qoldi.

Agar oldinlari butun ta'lim tizimi o‘quvchi miyasining chap yarim sharini, ya'ni xotirasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan va bu shaxs hamda jamiyat taraqqiyoti uchun kifoya qilgan bo‘lsa, bugungi kunda xotira uchun ishlash shaxs shakllanishi uchun ham, jamiyatning o‘sishi uchun ham yetarli bo‘lmay qoldi. Inson xotirasining o‘rnini bosa oladigan shunday texnik vositalar yaratildiki, odam istagan paytda o‘zini zo‘rlab o‘tirmay, juda ko‘p narsalarni esiga tushirish imkoniga ega bo‘ldi. Endi mavjud imkoniyatlardan ezgu maqsadlar yo‘lida to‘g‘ri foydalana oladigan, hamisha nimanidir o‘rganishga ichki ehtiyoj sezadigan va buning samarali yo‘llarini izlaydigan kishilarni shakllantirish zaruriyati yuzaga keldi. Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko‘nikma va malakalar shakllantirishning o‘zgacharoq yo‘llarini topishni talab etmoqda.

Ta'lim tizimi va uni yo‘lga qo‘yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda ochun miqiyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etdi[7.58]. Interfaol usullar mustaqil fikrlaydigan, izlanadigan o‘quvchilarni shakllantirish imkoniga egaligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ta'limning bu usullari o‘qitish jarayonining asosiy og‘irligi o‘quvchilarning zimmasiga ortilishini, o‘quvchilar ta'limning ob'yekti emas, balki sub'yekti, ya'ni ijrochisi bo‘lishini taqozo qiladi. Interfaol metodlarning negizida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning, hamda o‘quvchilar bilan o‘quvchilarning o‘zaro sheriklikdagi faoliyat ko‘rsatishi yotadi. “Interfaol” atamasi lotincha “*inter akt*” so‘z birikmasidan olingan bo‘lib, “inter” – o‘zaro va “akt” – faoliyat ma'nolarini anglatadi[6.117]. Ya'ni interfaol metodlar ta'lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etishga qaratiladi. Bu metodlar o‘quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, o‘zlashtiriladigan ma'lumotlarga ijodiy yondashishini ko‘zda tutadi[3.29].

Interfaol metodlar ta'lim kechimida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga tayanadi. Bunda o‘qish o‘quvchi uchun qiziqarli va zarur faoliyatga aylanadi. Interfaol usullardan foydalanilganda, o‘quvchilar o‘qitilmaydi, balki o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi bilimlarni ularning o‘zlari egallashadi. Bu hol bolalarda mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bunday yo‘sinda uyushtirilgan ta'lim kechimining qatnashchilari o‘zaro bemalol bahslashadilar, materialni o‘zlashtirishni o‘zlari xohlaganiday erkin amalga oshirishadi. O‘quv topshiriqlarining alohida o‘quvchiga emas, balki kichik guruhlardagi barcha bolalarga berilishi ularda jamoa tuyg‘usini shakllantirib, tashabbuskorligi ortuviga olib keladi.

Interfaol metodlardan foydalanish o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli qiladi. Lekin ta'lim kechimi uchun qiziqarlilikning o'zi maqsad bo'lolmaydi. U – vosita, xolos. Interfaol usullar, barcha ilg'or metodlar kabi kamroq kuch va resurs sarflab, kattaroq didaktik natijaga erishishga qaratiladi.

Interfaol metodlar negizida transaksiya pedagogik falsafasining konstruktivizm yo'nalishi yotadi. Konstruktivizm keyingi 40 yil davomida ochun pedagogika ilmida ham nazariy qarash, ham amaliy yo'nalish sifatida keng yoyildi. Bu ilmiy dunyoqarash o'z nomini lotincha "constructio"– "qurilma", "qurilish" so'zlaridan olgan bo'lib, unga ko'ra o'qish o'quvchilarning aqliy faoliyatlari natijasida bilimlar konstruksiya qilinadigan, ya'ni muayyan aqliy qurilma holiga keltiriladigan jarayondir. Minglab yillik pedagogik amaliyot hech kim hech kimni o'qitolmasligini ko'rsatdi. Ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir shaxsning o'zi o'qishga intiladi va erishiladigan ta'limiy natija uning intilish darajasiga mutanosib bo'ladi.

Konstruktivistik qarashlarning yuzaga kelishiga shvesariyalik mashhur faylasuf va pedagog Jan Piyeje bilan birgalikda zamonaviy amerika pedagogikasining otasi Djon Dyui, taniqli rus psixologi L. S. Vigotskiy, amerikalik psixolog Benjamin Blum kabi olimlar jiddiy ta'sir ko'rsatganlar. Bu yondashuvning o'zagida Jan Piajening: *"...bola o'z intellektining me'moridir*",- degan qarashi yotadi. Bu qarashga ko'ra o'qitish faol kechim bo'lib, har bir kishi yangi bilimlarni oldin orttirgan tajribalari ustiga o'zi "quradi". Chindan ham hayotda har bir odam hech kimdan tayyor g'oyani olmaydi, balki hamisha o'z g'oyasini yaratadi. Shuning uchun ham dunyodagi har bir odam ayni bir narsani turlicha qabul qiladi. Har bir odam umri davomida atrof olam haqidagi tasavvurlarini o'ziga xos yo'sinda "quradi" va dunyoni o'zi qurganiday anglaydi. Aynan shu bois har bir odam o'ziga xos dunyoqarashga, e'tiqodga ega bo'ladi va shunisi bilan betakror hamda qimmatli sanaladi. Boshqalarnikiga o'xshamaydigan qarashlarning e'tiborga sazovorligi, o'z qiyofasi va uslubiga ega odamning qadr topishi sababi shundadir.

Konstruktivizm o'quvchiga bilim tayyor holda berilmaydi degan o'zak qarashga tayanadi. O'quvchiga hech kim bilim bermaydi, balki u bilimlarni egallash uchun o'zi harakat qiladi, intiladi. Ta'lim muhiti esa, faqat o'quvchilarga bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ko'paytirish uchun zarur *sharoit yaratib berishi* kerak.

Konstruktivizm o'quvchining nuqtai nazari, qarashlari qanchalik "xom" va ibtidoiy bo'lishiga qaramay, o'qitish kechimiga asos qilib olinishini talab etadi. J. Piajening fikriga ko'ra, bolada oldin shakllangan mavjud ichki bilimlar bilan tashqi dunyo noma'lumligi orasidagi ziddiyatning bartaraf etilishi yangi bilimlar "qurilmasini" yuzaga keltiradi. O'quvchilarda oldindan bo'lgan tajribalar asosida yangi bilimlarning shakllanishi tufayli o'rtadagi qarama-qarshilik bartaraf etiladi va bilish kechimining vaqtinchalik barqarorligi ta'minlanadi. Bu holatga pedagogika ilmida kognitiv muvozanat deyiladi.

Konstruktivizm *haqiqatga erishish kechimini haqiqatning o'zidan ko'ra qimmatroq deb biladigan* pedagogik falsafadir. Shuning uchun ham interfaol metodlarda *erishilgan didaktik natijadan ko'ra, unga kelish yo'li, o'quvchilarning bu kechimdagi izlanishlari, tashabbus ko'rsatishlari muhim* sanaladi. "*Ilmiy bilim turg'un hodisa bo'lmay, tinimsiz qurish va qayta qurishdan iborat kechimdir*"[11.47], – deydi Jan Piaje. Chindan ham ta'limning biror yo'nalishi ma'lum nuqtaga yetgach, to'xtab qolmaydi, balki uzluksiz ravishda yangi marralar sari intilishlar tizimidan iborat bo'ladi.

Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'qituvchining vazifa va maqomi bir qadar o'zgaradi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan muallim shunchaki dars beruvchi emas, balki o'quvchining tadqiqotchilik faoliyatidagi maslahatchi, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchidir. U o'quvchining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratadi va bolaning tashabbuskorligini har tomonlama qo'llaydi. O'quvchi esa ta'lim kechimi va unda erishiladigan natija uchun javobgar bo'lgan to'laqonli "sherik"ka aylanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish ta'limni faqat o'quv predmetlari asosida emas, balki ob'yektiv ochunning o'zidagi kabi sinkretik yo'sinda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bunda o'quvchi va o'qituvchidan o'quv fani tushunchasidan baland turish talab etiladi. O'qituvchi bolalar oldiga ularni o'rab turgan real borliqdagi haqiqiy muammolarni qo'yishi, buning uchun hayotda ko'p uchraydigan va manbalardan topish mumkin bo'lgan masalalarni didaktik topshiriq sifatida berishi kerak. Agar bu xildagi muammolarni o'quvchilarning o'zlari

tavsiya etsalar, yanada yaxshi bo‘ladi. O‘quvchilarning oldiga qo‘yilayotgan muammo o‘ylab topilgan sun'iy yoki izlanishga arzimaydigan darajada kichik bo‘lmasligi kerak.

Interfaol metodlarni qo‘llayotgan o‘qituvchi biror dars yuzasidan o‘quvchilarga topshiriq berayotganda bolani faoliyatga undovchi tasniflang, asoslang, tadqiq eting, umumlashtiring, tahlil qiling, andaza bering (modellashtiring), tashxis qo‘ying, baho bering kabi so‘zlarni qo‘llagani maqsadga muvofiq. Ta'lim kechimiga bu xilda aniq vazifalar qo‘yish o‘quvchilarni izlanishga, faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltiradi.

O‘z tajribasida interfaol usullarni qo‘llayotgan o‘qituvchi qarama-qarshi nuqtai nazarlarni bir-biriga to‘qnashtirish orqali o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko‘zda tutishi kerak. Shunda o‘quvchilarda o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi va o‘zgalarning fikriga tezlik bilan qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz joylarni darhol topa olish kabi sifatlar shakllanadi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘qituvchidan o‘rinli berilgan aqlli savollarni qadrlashni, bitta aqlli savolni o‘nlab to‘g‘ri, ammo jo‘n javoblardan ustun qo‘yishni talab qiladi. Shunday qilinsa, o‘quvchilarda chuqur va kerakli savollar berishga ichki ehtiyoj, intilish paydo bo‘ladi. Interfaol metodlardan foydalanayotgan o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yganidan keyin o‘quvchilarga muammo ustida chuqurroq o‘ylash imkonini bera bilishi lozim[9.89].

O‘quvchilarning bir-birlari bilan birgalikda ish ko‘rishiga tayanib ta'lim bermoqchi bo‘lgan o‘qituvchi bolalar tabiatidagi o‘ta qiziquvchanlikdan o‘rinli foydalanib, ta'lim kechimida evristik va tadqiqot usullarini ko‘proq qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Xullas, interfaol usullarda dars o‘tilganda "izlanish – faraz – yechim – izoh – yangi izlanish" tarzidagi ta'limiy sikl yuzaga kelsa, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari va shaxs sifatida shakllanishlari ta'minlanadi. Bu siklda o‘quvchilar muammo yuzasidan izlanishlari, izlanishning farazni yuzaga chiqargani, faraz va uni asoslashga urinish muayyan yechimga olib kelgani, o‘quvchilar tomonidan tavsiya etilgan yechim o‘qituvchi tomonidan izohlangani, bu esa keyingi izlanishlarni keltirib chiqargani aks etadi.

Interfaol metodlar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan va katta samara berishi mumkin bo‘lgani "fikriy hujum" usulidir. "Fikriy hujum" biror sinf yoki o‘quchilar jamoasi oldiga qo‘yilgan muammoni yechishning eng samarali va demokratik yo‘lidir. Shuni alohida ta'kilash o‘rinliki, hozir "Fikriy hujum" usulidan foydalanish amaliyotida o‘qituvchilar o‘tgan mavzular yuzasidan o‘quvchilarga turli-tuman savollar bilan "hujum" qilishadi. Holbuki, "Fikriy hujum"ning butun mohiyati o‘quvchilarning o‘zlari yangi mavzuni o‘zlashtirish yoki qo‘yilgan biror didaktik muammoni hal etish uchun fikrlarini zo‘riqtirib, tinimsiz "hujum" qilish va shunday qiziq va qizg‘in faoliyat natijasida o‘quv topshirig‘ini bajarishlaridadir. Bu usulning diqqatga loyiq jihati shundaki, unda kichik guruhlardagi o‘quvchilar o‘zaro birgalikda ishlashga, yaxshi yoki yomon o‘qishidan qat'i nazar har bir bolaning fikrini eshitishga o‘rganishadi. Guruh a'zolariga bir xil baho qo‘yilishi esa bolalarda jamoatchilik ruhini shakllantiradi.

"Fikriy hujum"da o‘qituvchi boshqaruvchi emas, balki fisilator (yordam beruvchi) sifatida ish ko‘radi. U o‘quvchilar faoliyatini muammoga yo‘naltirib turadi, ularning asosiy maqsaddan chalg‘ib ketmasliklarini ta'minlaydi. "Fikriy hujum" metodini qo‘llash quyidagi taxminiy bosqichlardan iborat bo‘lishi kattaroq samara berishi mumkin:

1. **Tayyorgarlik.** "Fikriy hujum" usulida o‘tiladigan dars boshlanganga qadar unda yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoki bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqdan o‘quvchilar xabardor qilinishlari lozim. Bolalar bu muammo yoxud vazifa to‘g‘risida muayyan vaqt davomida bosh qotirishlari, o‘ylab ko‘rishlari kerak. Shuningdek, sinfdagi o‘quvchilar muayyan kichik guruhlarga bo‘linib, guruhdagi har bir bola aniq vazifa bilan ta'minlanishi zarur. Chunonchi, kim guruhga yetakchi bo‘lishi, kimlar aytilgan fikrlarni yozib olish uchun kotiblik qilishi, kimlar hakamlar safida bo‘lishi belgilab qo‘yilishi lozim.

2. **Dalillar topish.** Darsda o‘quvchilar hal etishlari kerak bo‘lgan muammo aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Berilayotgan topshiriq bir necha kun oldin xattaxtaga yozib qo‘yilib, o‘quvchilar bilan muhokama qilinishi kerak. Muammo yuzasidan o‘quvchilarning dastlabki fikrlari eshitib ko‘rilsa, ular muvozanatdan chiqib, bezovta bo‘lib qolishadi.

3. **Dastlabki mashq.** "Fikriy hujum" yordamida hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni yechishga o'quvchilarni ruhan va aqlan tayyorlash uchun dastlabki mashq o'tkazish foydalidir. U qo'yilayotgan muammoga bevosita tegishli bo'lmasligi ham mumkin. O'quvchilarda "Fikriy hujum" usuli qanday bo'lishi haqida tasavvur uyg'otish uchun ham dastlabki mashqni o'tkazish zarurdir.

4. **Fikrlarni hisobga olish.** Bu bosqich yechilishi kerak bo'lgan muammo yuzasidan o'quvchilarning fikriy hujumi bilan boshlanadi. Istagan o'quvchi, istagan fikrini, istagan vaqtda aytishi mumkin. Aytilgan har bir fikr kotiblar tomonidan yozib olinishi zarur. O'quvchilar har qanday to'g'ri-noto'g'ri, yaxshi-yomon fikrlarni bildirishdan cho'chimasliklari uchun quyidagi qoidalar xattaxtaga yozib qo'yilib, ularga hammaning so'zsiz amal qilishi ta'minlanishi kerak:

- Aytilayotgan fikrlar qandayligidan qat'i nazar tanqid qilmaslik, baholamaslik, munosabat bildirmaslik;
- "Fikriy hujum"da noto'g'ri fikr bo'lmaydi. Esga kelgan har qanday fikr o'ylab o'tirmay, aytilishi kerak. Ba'zan aynan bo'lmag'ur, "ahmoqona", aqlga to'g'ri kelmaydigan fikrlar foydali g'oyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin;
- Fikrlarning miqdori muhim. O'quvchilar imkon qadar ko'p fikr bildirishlari kerak. Chunki ortiqcha fikrlarni qisqartirish, yetmay qolgan fikrlarni ko'paytirishdan osonroq;
- Fikrlarni almashtirish, qo'shish, yaxshilash lozim. Hammaning fikri yozib olinib, ular maqsadga muvofiq tarzda joylashtirilishi, saralanishi, tahrir qilinishi, tahlil etilishi kerak;
- bemalol bo'lish, zavqlanish kerak. "Fikriy hujum" kechimida o'quvchilar asabiylashmasliklari, jarayon zavqli o'yin ruhida o'tishi kerak. "Fikriy hujum" qancha qiziqarli bo'lsa, shuncha ko'p samara keltiradi. O'yin ruhidagi qiziqarli faoliyatda guruh ichida do'stona vaziyat yuzaga kelib, o'quvchilar bir-birlariga yordam ko'rsatishadi;
- Ba'zan o'ylanib jim turish ham foydali. Ayrim o'quvchilarning o'ylanib jim turishlarini yomon qabul qilmaslik, ularni fikrsizlikda ayblamaslik kerak, o'ylanib jim turgan odam biror noyob fikrni aytib yuborishi ham mumkin.

5. Yechimni topish. O'quvchilar "fikriy hujum"ga kirishganlaridan keyin belgilangan vaqt o'tgach, o'qituvchi "hujum"ni to'xtatib, muammoni yechishga o'tish kerakligini esga soladi. Bu vaqtda guruhlardagi kotiblar barcha fikrlarni yozib olgan, o'quvchilar bu fikrlarning qaysilari yaroqli ekani to'g'risida o'ylay boshlagan bo'ladi. O'quvchilar o'zaro maslahatlashib, aytilgan fikrlarni muhokama qilib, keraksizlarini o'chirib, yaroqli fikrlar miqdorini qisqartirib boradi. Oxirida bir necha juda muhim qarashlargina qoladi. Guruh ana shularga tayanib, ta'limiy masalaning yechilishi bo'yicha o'z xulosasini beradi.

Mashg'ulot so'ngida "Fikriy hujum" jarayoni qanday o'tgani va qaysi guruhga nima sababdan qanday baho qo'yilishi xususida o'qituvchi bir necha og'iz so'z aytadi. Alohida ta'kidlash kerakki, baho alohida bolalarga emas, balki kichik guruhlardagi barcha o'quvchiga qo'yiladi. Shunday qilinsa, guruh a'zolari bir-birlarini o'qitishadi, didaktik materialning barcha qatnashchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishiga erishiladi.

Interfaol metodlar texnologiyalashayotgan pedagogik amaliyotning eng oddiy ko'rinishidir. Hozirgi kunda butun jahon bo'yicha ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, ya'ni xuddi bitta texnologiyada tashkil etilgan ishlab chiqarish kechimida konveyerdan bir xil tovar chiqqani kabi o'quvchilarni ta'lim mazmunini to'la o'zlashtiradigan darajada tayyorlashga urinish ketmoqda. Bunda pedagogik texnologiya shu qadar mukammal ishlab chyaiqilishi va shu qadar mahorat bilan tashkil etilishi lozimki, unda ta'limning mazmunini o'zlashtirib ololmaydigan birorta o'quvchi qolmasin, degan vazifa qo'yilmoqda.

Maktab adabiy ta'limi konsepsiyasi va standartida mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari hamda tamoyillari belgilab berildi. Chunonchi, o'rta umumta'lim maktabida adabiyot o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirish, ularning nozik qalb, pokiza tuyg'u va chuqur bilim egasi qilib tarbiyalanishiga erishishdan iboratligi tayin etildi. Adabiy ta'limning shu maqsadiga erishish uchun o'quvchilarni badiiy asarlar o'qishga qiziqtirish, o'qilgan asarlarni tahlil qila oladigan, asar yuzasidan o'z fikru qarashlarini og'zaki va yozma tarzda erkin ifoda eta oladigan darajaga yetkazish kabi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi. Ushbu maqsad va vazifalar ta'lim mazmunini chuqurlashtirish

hamda o'qitish jarayoniga pedagogika ilmi hamda amaliyotidagi eng so'nggi yangiliklarni joriy qilishni taqozo etadi. Chunki eski mazmun va vositalar bilan yangi maqsadga erishib bo'lmaydi.

Pedagogika ilmi umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitish mazmunini belgilashning o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqqan. Ularning asosiysi, maktab o'quvchilariga o'rgatilishi ko'zda tutilgan asarning badiiy jihatdan yuksak bo'lishi lozimligidir. Ya'ni bunday asar adabiyotda o'ziga xos mavqega ega bo'lib, millatning estetik tafakkuri taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak. O'quvchilarning didi badiiy saviyasi baland asarlar asosida shakllantirilsagina milliy ma'naviyatning yuksakligiga erishiladi.

Adabiy ta'lim mazmunini belgilashdagi ikkinchi tamoyil maktabda o'rgatishga tavsiya etilgan asar muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarurligidir. Chunki maktab adabiy ta'limi uchun badiiy asarni o'rganishning o'zi maqsad emas, balki u ezgu ma'naviyatli o'quvchini tarbiyalashning vositasidir. Shu boisdan ham maktabda o'rganiladigan asar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Yangicha pedagogik tafakkur maktab adabiyotiga didaktikaning mantig'i bilan yondashishni taqozo etadi. Bunday mantiq maktabda adabiyotshunoslik, adabiyot tarixi yoki adabiy jarayonga xos xususiyatlarni bilish emas, balki badiiy adabiyotning sara namunalarini o'qitish orqali o'quvchi ruhiy olamini shakllantirish birlamchi ahamiyatga ega bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun adabiyot bo'yicha o'quv dasturi tuzish va darsliklar mazmunini belgilashda fanning mantig'i emas, ta'limning mantig'i ustuvor turishi maktabda adabiyot o'qitishning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Afsuski, bu haqda ko'p gapirilayotgan esa-da, dastur va darsliklar tarkibiga turli tuzatishlar kiritib, adabiy siymolar hamda ularning asarlarini maktabda o'rgatilishini filologik tamoyillar asosida tushuntirishga urinayotgan kishilar bor. Ularning xatti-harakatlari umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishni qiyinlashtiradi. Binobarin, millat ma'naviyatining barkamolligiga zarar yetkazadi.

Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklari uchun adib emas, asar tanlanadi. Ya'ni o'quvchi uchun yozuvchining jamiyat hamda adabiyotdagi mavqei emas, balki uning ijodiy merosida bolada shakllantirilishi ko'zda tutilgan ma'naviy sifat aks etgan asar bor yoki yo'qligi muhimroq hisoblanadi. Chunki har qanday millat adabiyotning hammasi emas, faqat ayrim namunalarigina o'quvchilarbop bo'lib, bolalar ma'naviyatini shakllantirishga qo'l keladi. Shu bois maktabda milliy adabiyotdagi barcha adiblarni o'rgatishning imkoni ham, bunga pedagogik ehtiyoj ham yo'qdir.

Adabiyot bo'yicha yaxshi darslik, zamonaviy qo'llanma va boshqa didaktik vositalar tayyorlash bilan ham adabiy ta'lim oldidagi muammolar to'la hal etilmaydi. Eng muhimi, o'quvchilarda o'qilgan asarni tushunish, undan ta'sirlanish, uni estetik tahlil qilib, badiiy ma'no chiqara olish malakasini shakllantirishdir. Badiiy asarga faol yondashuv o'quvchida grajdanlik qarashi shakllanganidan dalolatdir. Shuningdek, o'quvchini o'tiladigan asarga ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy jihatdan yondashib, undan faqat deklarativ ma'no axtarishga, badiiy matnni nasihat vositasi deb tushinishga o'rgatmaslik ham yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi[13.162].

Adabiy ta'limda o'qilgan asarning mazmunini so'zlab berish bilan shug'ullanishday yaroqsiz tajribadan allaqachon voz kechish kerak. Qaysi qahramonning boshidan qanday voqealar o'tganini bilish o'quvchilarning na tafakkuri va na ruhiyati uchun ahamiyatli. Bolaga qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar, hissiyotidagi jilvalalar, iztirobu hayratlar ko'lamini ilg'ash muhimroqdir. Chunki o'quvchi ma'naviyati voqealarni bilish tufayli emas, personajlar ruhiyati tovlanishlarini tuyish, hissiyotini anglash natijasida shakllanadi. O'shanda bolaning sezimlari yuksalib, tuyg'ulari tozaradi. Shu bois adabiyot o'qituvchisi asosiy e'tiborini o'tilayotgan matnning badiiy jozibasini ochishga qaratishi lozim. Buning uchun bolalar oldiga qiziqarli va o'rinli savollar qo'yish hamda ularni bu savollarga javob topishga yo'naltira bilish zarur.

Adabiyot o'qitishni bunday tashkil etish alohida tayyorgarlik talab etadigan didaktik yumushdir. Lekin o'quvchilarning axloqiy qiyofalari mukammal bo'lishini ta'minlash uchun o'zga yo'l yo'q. Adabiyot darslarida badiiy so'z qudratini bevosita his etmagan, uning ilohiy ta'siriga berilmagan o'quvchida tuyg'u uyg'onmaydi. Badiiy asarni o'qib, undan yolg'izgina mantiqiy umumlashmalar chiqarishga odatlangan o'quvchilar hayotiy

aqidalarni o'rganib oladilar-u, uni singdirmaydilar, o'z tabiatining ajralmas sifatiga aylantirmaydilar. Ularning tili dili bilan, amali gapi bilan boshqa-boshqa bo'lib qolaveradi.

Badiiy matndan ta'sirlanadigan, uning jozibasini ta'minlagan jihatlarni aniqlay biladigan o'quvchining ruhiyati uyg'oq bo'ladi, u dunyo go'zalligiga hayrat bilan qaray oladi. Matnning go'zalligini kashf etish bolada emosional faollik uyg'otadi. Hissiy faollik, o'z navbatida, uni mantiqiy harakatga undaydi[14.19].

Maktabda adabiyot o'qitish ko'ngil tarbiyasi demakdir. Ko'ngilga faqat mantiqiy dalillar bilan ko'rsatilgan ta'sir yetarli bo'lmaydi. O'quvchi ko'ngliga olib boradigan so'qmoq o'qituvchi ko'ngli orqali o'tadi. Shuning uchun ham adabiy ta'limda o'quvchi o'qituvchi munosabatlarining xarakteri hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aslida tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi munosabatlari har qanday pedagogik jarayonda ham muhim. Lekin adabiy ta'limda bu munosabat ayricha baland rutbada turadi. Chunki adabiyot bevosita o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Xulosa. Aytish mumkinki, Adabiyotdan o'zga deyarli barcha o'quv predmetlari uchun o'quvchilarda muayyan ilmiy tushunchalar shakllantirish va o'sha tushunchalardan o'rni kelganda foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish asosiy maqsad hisoblanadi. Adabiy ta'lim uchun bu narsa barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirish maqsadining bir jihati, xolos. Shuning uchun ham adabiyotlar darslarida o'quvchilarni o'rganilayotgan asardan xulosa chiqarishga shoshiltirmaslik, ularni asarda aks etgan insoniy tuyg'ularni his etishga, adabiy qahramonlar bilan tuyg'udosh bo'lishga odatlantirish kerak.

Adabiyot o'qitishdagi o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundan iboratki, o'rganilgan bir asar yuzasidan sinfdagi o'quvchilar turlicha xulosaga kelishi mumkin. Chunki ilmiy haqiqat bir qiyofali bo'lgani holda, badiiy haqiqat ko'p qiyofalidir. Binobarin, har bir o'quvchi o'zining tafakkur darajasi, ruhiy dunyosidan kelib chiqib, asar yuzasidan o'z to'xtamiga kelishi lozim. Maktab adabiy ta'limida xulosalar xilma-xilligi, adabiy-axloqiy qarashlar plyuralizmi sharoitida faoliyat ko'rsatishga odatlanish vaqti keldi. Shunday qilinganda, o'quvchilar badiiy asarni sinchkovlik bilan o'qiydigan bo'lishadi.

Adabiyot o'qituvchisi o'rgatilayotgan asar yuzasidan o'z fikriga sinfdagi barcha o'quvchilar qo'shilishi majburiy deb qaramasligi kerak. Shunday ekan, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabat ham to'la tenglik asosiga qurilishi va sherikchilik shaklida amalga oshirilishi zarur. Adabiyot mashg'ulotlari yetarlicha samara bersin degan o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim jarayonining teng huquqli ijrochisi, o'zining hamkori sifatida munosabatda bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования: Автореферат. дисс...докт.пед.наук. -Т.: 1997. – 46 с.
2. Абдуқодиров А. Умумий ўрта таълим мактабларида янги ахборот технологияларидан фойдаланиш муаммолари // Узлуксиз таълим 2002. №4. - 60-73 б.
3. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. -Т.: «Фан», 1987.
4. Авлоний Абдулла. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: «Ўқитувчи»,1992. - 160 б.
5. Алиев А. Мактабда ёзувчи услубини ўрганиш. -Т.: «Ўқитувчи»,1997. – 88 б.
6. Арзикулов Д.Н. Касбий камолотнинг психологик ўзига хос хусусиятлари: Псих.фан.ном.дисс... автореф. -Т.: 2002. – 22 б.
7. Аркин И. И. Возврашение к литературе // Литература в школе. 1993. № 1 С. 39.
8. Ахледдинов Р.Ш. Социально-педагогические основы совершенствования общего и среднего образования (аспекты управления): автореф.дисс…канд.пед.наук. -Т.: 1998. – 21 с.
9. Ахмеджанов М.М. Диагностика подготовленности педагога к профессиональной деятельности: автореф. дисс…канд.пед.наук. -Т.:1994. – 23 с.
10. Бабанский Ю. К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. -М.: «Просвещение», 1985. - 208 с.
11. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивнўе технологии обучения. -Москва: ИРПО, 1996. – 336 с.

12.Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърияти поэтикаси асосларини ўрганиш: Пед. фан. док. дисс... автореферати. -Т.: 1998. 54 б.

13.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Т.: «Ўзбекистон», 2002. - 555 б.

14.Бобомуродова А. Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. ном. дисс... автореф. 1997. – 20 б.

MEDIAMATN DISKURSIDA TILNING QISQARISHI HODISASI

Umida Mahmudova,
Qarshi davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada til qisqarishi tamoyili — nutqni qisqartirish, til vositalaridan tejash va xabarning ma'lumotlar zichligini oshirish tendensiyasi tahlil qilinadi. Til qisqarishi leksik, sintaktik va matn darajalarida amalga oshiriladi, bu hodisa bloglar va boshqa mediamatnlarda kuzatiladi. Tadqiqotda akronimlar, qisqartirishlar, ellipsislar va pretsedent fenomenlari tahlili orqali til qisqarishining ma'no ifodalash va vaqtni tejashdagi xususiyati ochib berilgan. Ushbu hodisa kommunikatsiya samaradorligini oshirib, matnni og'zaki nutqqa yaqinlashtiradi.

Kalit so'zlar: *Til qisqarishi, akronimlar, ellipsis, pretsedent fenomenlar, mediamatn, kommunikativ samaradorlik.*

Аннотация

В статье рассматривается принцип сокращения языка — тенденция к уменьшению речи, экономии языковых средств и увеличению информационной плотности сообщения. Языковое сокращение реализуется на лексическом, синтаксическом и текстовом уровнях, что наблюдается в блогах и других медиатекстах. Через анализ акронимов, сокращений, эллипсисов и прецедентных феноменов раскрывается роль языкового сокращения в выражении смысла и экономии времени. Это явление повышает эффективность коммуникации и приближает текст к устной речи.

Ключевые слова: *Сокращение языка, акронимы, эллипсис, прецедентные феномены, медиатекст, коммуникативная эффективность*

Annotation

This article examines the principle of linguistic compression, which aims to shorten speech, economize linguistic resources, and increase the density of conveyed information. Linguistic compression is realized at lexical, syntactic, and textual levels and is observed in blogs and other media texts. Through the analysis of acronyms, abbreviations, ellipses, and precedent phenomena, the role of linguistic compression in conveying meaning and saving time is explored. This phenomenon enhances communication efficiency and brings written text closer to spoken language.

Keywords: *Linguistic compression, acronyms, ellipsis, precedent phenomena, media text, communicative efficiency.*

.

Kirish. Til qisqarishi tamoyili — bu nutqni qisqartirish, til vositalaridan tejash va shu bilan birga xabarning ma'lumotlar zichligini oshirishga qaratilgan asosiy tendensiyalardan biridir. Ushbu hodisa — bu tilning kommunikativ-nutqiy xususiyati bo'lib, u bloglarda, shu jumladan barcha mediamatnlarda ham faol tarzda namoyon bo'ladi. E. A. Vishnyakovaning fikriga ko'ra, muallif, tarmoq auditoriyasini hisobga olgan holda, o'z fikrlarini qisqacha va aniq tarzda bayon etadi. [Vishnyakova, 2013, 46-bet]. Tabiiy nutq jarayonida suhbatdosh tez va aniq tarzda o'z fikrini yetkazishga intiladi. Birinchi o'rinda — matnni tez yozish, imlo va tinish belgilarining to'g'riligi ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Ushbu til qonuni internet-muhitidagi ishtirokchining emotsional-fiziologik holati bilan chambarchas bog'liq.

Tahlil qilingan bloglarda til qisqarishi ko'plab shakllarda namoyon bo'ladi: 1) leksik darajada — akronimlar: a) umumqabul qilingan, b) ushbu jamoaga xos bo'lgan; tilning qisqarishi: a) bitta so'zning qisqarishi; b) ikki yoki undan ortiq so'zning qisqarishi; 2) sintaktik darajada — ellipsis.

Tahlil va natijalar. Keling, til qisqarishi vositalarini leksik darajada tahlil qilaylik. Akronimlar umumqabul qilingan yoki har bir jamoaga xos bo'lishi mumkin. Tahlil qilingan mediamatnlarda eng mashhur umumqabul qilingan akronimlar quyidagilardir: B4 = before (oldin), CUL8R = see you later (keyinroq ko‘rishamiz), U2 = you too (sen ham), 4U = for you (sening uchun), 4ever = forever (abadiy). Quyidagi misollar umumqabul qilingan akronimlarning tahlil qilingan bloglarda qanday ishlatilishini ko'rsatadi. Qavs ichida akronim ishlatilgan matn turi (MT) va uni ishlatgan kommunikant (o‘quvchi (o‘) / o‘qituvchi (O‘) / tashqi kuzatuvchi (TK)) ko‘rsatilgan:

• *OMG (= Oh my God), the class looks so awesome. It’s just amazing, to see a picture develop so nicely without me in it (MT, o‘)*

• *MLA Format (= Modern Language Association format). You have been doing this for years. If you need help ask. If not, figure it out. If you missed the format, it was taken off in essay and length (MT, O‘)*

• *Reminder: If you have any issues with The Fine Print, Edmodo quizzes, etc. Send me an email or direct post in Edmodo and I will get back to you ASAP (= as soon as possible) (MT, O‘)*

• *For 2nd (= second) quarter extra credit, bring me a box for the holiday food drive (MT, O‘)*

• *Then, to prepare ourselves for the SATs (standardized admission test) we will conquer vocabulary, reading comprehension and sentence structure (MT, O‘)*

• *The workshop will be held during the PSAT (the preliminary SAT), tomorrow, Oct. 15 (MT, O‘)*

• *FYI (= forwarding you information) The local AKA scholarship was extended (MT, O‘)*

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, umumqabul qilingan akronimlar asosan o‘qituvchilar tomonidan MTda uy vazifalarini va ularni bajarish bo‘yicha talablarni formulalashda ishlatilgan. Umumqabul qilingan akronimlar matn yaratish vaqtini tejash uchun ishlatiladi, bunda minimal belgilar va vaqt sarflab, ko‘zda tutilgan ma'noni maksimal darajada yetkazish mumkin.

Tilning qisqarishiga, ya'ni internetda allaqachon qabul qilingan yoki muloqot ishtirokchilari uchun tanish bo‘lgan bir yoki bir nechta so‘zlarning qisqartirilishi, masalan: ur self (=yourself); hwk (=homework); btw (=by the way); g’day (=good day); probly (=probably), kiradi. Ushbu qisqartirishlar xabarning umumiy ma'nosini tushunishga to‘sqinlik qilmaydi, chunki ular kontekst orqali osonlik bilan tiklanishi mumkin. Bular bir yoki bir nechta so‘zning til siqilishi shaklida ishlatilgan, bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

• *And by the way, congrats (=congratulations). You made our school really proud! (MT, O‘)*

• *or if u (=you) don’t want to, take it with me (MT, O‘)*

• *luv (=love) the new podcast and the background music!!!! Great ideas. Keep up the good work!!! also luv the different segments (MT, O‘)*

• *I’m jealous ’cause (=because) I’m jealous that I don’t have one….. (MT, O‘)*

• *I’m just commenting on this ’cause it’s cool! (MT, O‘)*

• *Nice pix (=picture)! (MT, O‘)*

• *When I first saw the first 10 secs (=seconds) of this video I thought of Hippies (MT, O‘)*

• *Mr. B (=Mr. Borges) this is the perfect time for you to say ―oh what do I hear-YEAH YOUR MARKS DROPPING DOWN‖ (MT, O‘)*

• *G’day (=good day) (MT, O‘)*

• *It’s so cool!! our class pwnz (=powerfully owns)! (MT, O‘)*

• *but im (=I am) sure yours is better (MT, O‘)*

Shuni ta'kidlash joizki, til qisqarishi ko‘pincha tayyorlanmagan yozuvlarda, o‘quvchilar yoki mustaqil kuzatuvchilar tomonidan matn yaratishdagi sa'y-harakatlarni tejash uchun qo‘llaniladi. Ushbu matnlar bahsli munozaralarning bir qismi bo‘lib, ular yozuvning grammatik to‘g‘riligi nuqtai nazaridan tahrir qilinishi yoki baholanishi kerak emas. Bundan tashqari, til qisqarishi yozishni og‘zaki suhbatga yaqinlashtiradi, "hozir va shu

yerda" suhbatini yaratadi. Bu hodisa printsipi, poliloglarni tashkil qilishda yordam beradi, chunki tezkor javob berish, hissiy boylik va fikrlarni hamda his-tuyg'ularni yetkazish imkoniyati bir vaqtdagi muloqotda birinchi o'rinda turadi – fikrlar va his-tuyg'ularni yozuvni kiritish jarayonida bir vaqtda yetkaziladi.

Sintaksis darajasida tilni tejash odatda ellipsizmga yaqinlashadi, bu esa, odatda, og'zaki nutqqa xos bo'lib, asosan tayyorlanmagan muloqotda namoyon bo'ladi. Bu holatda eng ko'p shaxs olmoshlari va yordamchi fe'llar tushiriladi, masalan: *«LOL, (I) totally agree with you Elmo Monster!»; «(I) Just wanted to drop a quick note to let you know that your blog has been selected as this week's featured edublog of the week!»; «(I) Found your classroom blog when I was looking through some of Edublogs blogs»* va hokazo. Elliptik konstruksiyalar ko'pincha vaqtni tejash va matn kiritish tezligini oshirish uchun qo'llaniladi, bu yozma nutqni og'zaki nutqqa yaqinlashtiradi.

Ta'limda sun'iy intellektning vazifalari. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish usullari hali ham o'rganilmoqda va biz sun'iy intellekt axloq, tenglik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi muhim masalalarga qanday ta'sir qilishini hali to'liq tushunmayapmiz. Biroq, ta'limda sun'iy intellekt ning bir nechta asosiy qo'llanilishi allaqachon aniqlangan, jumladan quyidagilar [3, 27]:

Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim o'yinlari.

Butun dunyo, jumladan, O'zbekiston pedagoglari azaldan o'yinga asoslangan ta'limni qadrlab keladi. Maktablar kompyuter o'yinlarining dastlabki kunlaridan boshlab 1974-yilda birinchi marta chiqarilgan The Oregon Trail kabi ta'lim kompyuter o'yinlaridan foydalangan. Bugungi sun'iy intellektga asoslangan o'yinlar foydalanuvchilarga javob beradigan dasturlash tufayli maqsadli o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin.

Moslashuvchan ta'lim platformalari

Ta'lim texnologiyalari yetakchilari global miqyosda real vaqt rejimida o'quv faoliyati va mazmunini moslashtiradigan moslashuvchan platformalarni taqdim etadi. Uzluksiz baholash zudlik bilan fikr-mulohazalarni bildirish imkonini beradi va tizimga o'z yondashuvini o'zgartirishga yordam beradi. Moslashuvchan o'rganish usullari oddiy qoidalarga asoslangan tizimlardan murakkab funksialarni o'rganish algoritmlarigacha.

Avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlari

Baholash, rejalashtirish va tashkiliy ish kabi vazifalarni avtomatlashtirish orqali AI tizimlari o'qituvchilarning vaqti va kuchini tejab, ularga o'quvchilar bilan ko'proq vaqt o'tkazish imkonini beradi. Masalan, Kundalik va Hemis kabi ta'lim menejmentini tashkil etuvchi tizimlar. Bu dunyo bo'ylab, jumladan, O'zbekistonda ham AI dan sinflarda foydalanish foydalaridan keng tarqalgan dalillar.

Talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun chatbotlar

Ko'pgina oliy o'quv yurtlarida chatbotlar talabalarga qabul savollariga javob berish, kurs ma'lumotlari va talabalar xizmatlarini taqdim etish va eslatmalar yuborish orqali yordam beradi. Boshqa chatbotlar talabalarga g'oyalar yaratish, yozish ko'nikmalarini oshirish va o'qish vaqtini boshqarishda yordam beradi.

Intellektual repetitorlik tizimlari

Ushbu tizimlar ko'pincha matematika yoki tillar kabi bitta fanga e'tibor qaratadi va inson pedagog bilan yakkama-yakka ishlash tajribasini takrorlaydi. Masalan, Duolingo ilovasi va dunyo bo'ylab qo'llaniladigan boshqa aqlli repetitorlik tizimlari.

Bo'lajak pedagoglar uchun ta'siri

O'zbekistondagi bo'lajak pedagoglar sifatida sun'iy intellekt asoslarini o'qitish amaliyotingizga qanday kiritish mumkinligini tushunish juda muhim. Sun'iy intellekt sizning ta'lim uslublaringizni yaxshilash, ta'limni yanada moslashtirilgan va samarali qilish imkoniyatiga ega. Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali siz o'quvchilaringiz uchun yanada qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishingiz mumkin.

Bugungi kunda dunyo pedagoglarining 60 foizi ta'lim jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanadilar. Pedagoglar va talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun sun'iy intellekt vositalari tobora ommalashib bormoqda. Pedagoglar sun'iy intellektga asoslangan ta'lim o'yinlaridan boshqa sun'iy intellekt vositalariga qaraganda tez-tez foydalanadilar, ammo moslashuvchan o'rganish platformalari va avtomatlashtirilgan baholash va qayta aloqa tizimlari ham mashhur [1, 85]. Sinfda sun'iy intellektni qo'llash ko'payib borayotganligi sababli, talabalar, pedagoglar va ta'lim muassasalari ushbu texnologiyalardan qanday mas'uliyat bilan foydalanish kerakligi bilan kurashishlari kerak. ChatGPT kabi chatbotlar pedagoglar o'rtasida aldash va noto'g'ri ma'lumot yaratish imkoniyatlari haqida tortishuvlarga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, mutaxassislar va kuzatuvchilar sun'iy intellekt bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik va kirish nomutanosibligi haqida tanqidiy savollarni ko'tardilar. Ilmiy ishonchsizlik pedagoglarning ta'limdagi sun'iy intellekt bilan bog'liq tashvishlari ro'yxatida birinchi o'rinda turadi. Pedagoglar, shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning ko'payishi o'quvchilar odamlar bilan kamroq aloqa qilishlarini anglatishi mumkinligidan xavotirda. Dunyo bo'ylab pedagoglarning aksariyati o'quvchilarning sun'iy intellektdan, xususan, insholar yozishi va so'rovlarga javob beradigan generativ sun'iy intellektdan aldash uchun foydalanishini kuzatgan.

Yetakchi sun'iy intellekt kompaniyalari ta'lim sohasining o'ziga xos ehtiyojlari va sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish bilan bog'liq tashvishlarini e'tiborga oldi va o'z mahsulotlarini ushbu omillarni hal qilish uchun moslashtira boshladi. Masalan, 2024-yil may oyida OpenAI ChatGPT Edu, ChatGPT ning oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan versiyasini taqdim etdi. Mashhur platformaning ushbu versiyasi kengaytirilgan xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlaydi, OpenAI modellarini o'rgatish uchun suhbatlar va ma'lumotlardan

foydalanmaydi hamda hujjatlarni umumlashtirish hamda talabalar va pedagoglarga moslashtirilgan GPT modellarini yaratish va almashish kabi ta'limga tegishli imkoniyatlarni taqdim etadi.

Xulosa. Bugungi ta'lim mutaxassislari texnologik inqilobni real vaqt rejimida kuzatmoqda, chunki sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalari, ta'lim o'yinlari, chatbotlar, virtual repetitorlar va tashkiliy vositalar kundan-kunga keng tarqalmoqda. Rivojlanishlarning oldingi safdagi kuzatuvchilari sifatida pedagoglar ta'lim sektorida sun'iy intellekt vositalarini qo'llash bilan bog'liq asosiy tashvishlarni aniqlash uchun yaxshi pozitsiyaga ega. Mavjud xavotirlarga qaramay, bo'lajak pedagoglar sinfda sun'iy intellektning imkoniyatlari haqida optimistik qarashga ega. Sun'iy intellekt ta'limda kengayib borayotgan ro'l o'ynashini tan olgan holda, aksariyat pedagoglar allaqachon sun'iy intellekt vositalarini kundalik ish tartibiga qo'shishni boshladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.

2. Fahrman, B. et al. (2019). Experienced technology teachers' teaching practices. International Journal of Technology and Design Education, 30 (1), 163–186. Available from https://doi.org/10.1007/s10798-019-09494-9.

3. Holstein, K., McLaren, B.M. and Aleven, V. (2019). Co-Designing a Real-Time Classroom Orchestration Tool to Support Teacher–AI Complementarity. Journal of Learning Analytics, 6 (2), 27–52. Available from https://doi.org/10.18608/jla.2019.62.3 .

4. Drachsler, H. et al. (2015). Ethical and privacy issues in the application of learning analytics. Proceedings of the Fifth International Conference on Learning Analytics And Knowledge. Available from https://doi.org/10.1145/2723576.2723642 .

5. Tsai, Y.-S. and Gasevic, D. (2017). Learning analytics in higher education --- challenges and policies. Proceedings of the Seventh International Learning Analytics & Knowledge Conference. Available from https://doi.org/10.1145/3027385.3027400.

6. Luckin, R. et al. (2016). Intelligence unleashed : an argument for AI in education. London: Pearson.

7. Bhimdiwala, A., Neri, R.C. and Gomez, L.M. (2021). Advancing the Design and Implementation of Artificial Intelligence in Education through Continuous Improvement. International Journal of Artificial Intelligence in Education. Available from https://doi.org/10.1007/s40593-021-00278-8 .

8. Stigler, J.W. et al. (2020). The Better Book Approach for Education Research and Development. Teachers College Record: The Voice of Scholarship in Education, 122 (9), 1–32. Available from https://doi.org/10.1177/016146812012200913 .

SPORT TO'GARAGI MASHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VOSITALARI

Samijon Xamroyev,
Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti,
p.f.b.f.d.(PhD). Navoiy davlat universiteti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, sport to'garaklari va klublari faoliyatini maqsadli tashkil etish orqali yoshlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, talaba-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni oshirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish masalalari muhokama etilgan.

Shuningdek, maqolada talabalarining sportga bo'lgan munosabati, ularning ushbu faoliyat turiga qiziqishlarini o'rganish talabalar o'rtasida sport mashg'ulotlarini yanada aniqroq tashkil etishga, ularni tizimli jismoniy mashqlarga jalb qilish bo'yicha ishlarni malakali ravishda olib borilishiga va o'z salomatligiga ongli munosabatni shakllantirishga yordam berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: *metapredmet, antropometrik, texnologiya, innovatsiya, klaster, komponent, vosita, jarayon, tizim, faoliyat.*

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы совершенствования социально-педагогических технологий по содержательной организации свободного времени студентов, развитию физической культуры молодежи посредством целенаправленной организации спортивных кружков и секций, повсеместного внедрения здорового образа жизни и дальнейшего развития массового спорта, пропаганда физической культуры среди студентов и молодежи обсуждались вопросы совершенствования социально-педагогической системы воспитания и повышения интереса к спорту.

Также в статье высказано предположение, что изучение отношения студентов к спорту и их интереса к данному виду деятельности поможет более правильно организовать физкультурно-спортивную деятельность среди студентов, грамотно вести работу по привлечению их к систематическим занятиям физическими упражнениями, укреплению их здоровья на том, что это помогает формировать осознанное отношение.

Ключевые слова: *метапредметный, антропометрический, технология, инновация, кластер, компонент, инструмент, процесс, система, деятельность.*

Annotation

This article discusses the issues of improving socio-pedagogical technologies for meaningful organization of students' free time, developing physical culture in youth through targeted organization of sports circles and clubs, widespread implementation of a healthy lifestyle and further development of mass sports, and improving the socio-pedagogical system for increasing interest in physical education and sports among students and youth.

The article also argues that studying students' attitudes towards sports and their interest in this type of activity will help to more accurately organize sports activities among students, competently conduct work to involve them in systematic physical exercises, and form a conscious attitude towards their own health.

Keywords: *metasubject, anthropometric, technology, innovation, cluster, component, tool, process, system, activity.*

Kirish. (Introduction). Jahonda amalga oshirilayotgan qator ijtimoiy islohotlar zamirida xalqning turmush tarzini yaxshilash, aholining barcha qatlamlarida ma'nan va jismonan sog'lom muhitni yaratish, o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligini mustahkamlash g'oyasi yotibdi. Shu bois ayni paytda jismoniy tarbiya va sportga e'tibor davlatlar ahamiyatiga molik muhim ijtimoiy-siyosiy vazifaga aylangan.

Sport nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g'oya va odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyati va iste'dodlarini to'la ro'yobga chiqarish vositasi hamdir.

Ayniqsa, talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, sport to'garaklari va klublari faoliyatini maqsadli tashkil etish orqali yoshlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda sog'lomlashtiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning valeologik madaniyatini rivojlantirish, darsdan tashqari mashg'ulotlarda sport o'yinlari vositasida jismoniy sifatlarni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, sport to'garaklarini tashkil etishning interaktiv modellarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, talaba-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, sport to'garaklarini tashkil etishga qo'yiladigan valeologik va psixo-pedagogik talablarni takomillashtirish, to'garak mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirishning texnologik asoslarini konstruktiv imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, klasterli va genderli yondashuv asosida sport to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, madaniyatshunoslikka

doir va kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish, sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, talaba-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni oshirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish omillari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, pedagogik modelini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonuni [1], 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[2], 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3] farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv masalasiga alohida e'tibor qaratilishi, texnologik yondashuvning eng asosiy afzalliklari kutiladigan natijalarning oldindan belgilanishi, ana shu natijalarga asoslangan holda, o'quv maqsadining belgilab olinishi, o'z navbatida ta'lim maqsadini o'quv vazifalarga aylantirilishi, ta'lim shakl, metod va vositalarini to'g'ri tanlab olinishi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyati bosqichlarining alohida-alohida loyihalab olinishini tashkil etadi.

Talabalar faoliyatining turlicha vosita, shakl, boshqaruv metodlari va usullarini, ularning shaxs xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash samarasida jismoniy madaniyat mashg'ulotlaridagi faoliyat jarayonida talaba shaxsi, o'ziga xosligi, o'zini-o'zi baholay olishi, har birining nafaqat mustaqil bilimlarni o'zlashtirishi, balki yangilikka intilishi va yarata olish subyektiv tajribasini tashkil etishga imkon beradi.[4, 191]

Qiziqishlari past yoki tartibsiz bo'lgan sportchilarning ma'naviy hayoti mazmunsiz va tartibsiz bo'lib, bunday sportchilar o'zlarining nima uchun sport bilan shug'ullanayotganliklarini, nima uchun yashayotganliklarini ko'pincha bilmaydilar va hayotda o'z o'rnini topishga qiynaladilar. Sportchilarda qiziqishlarning susayib yoki yo'qolib ketishi ularning faoliyatini susaytirib yuboradi, boshqa ma'naviy fazilatlariga putur yetkazadi; sportchini bekorchilikka moyil, yalqov qilib qo'yadi. Bunday sportchilar bo'sh qolgan vaqtlarida nima bilan mashg'ul bo'lishlarini bilmay zerikadilar yoki vaqtni o'tkazadigan biror bekorchi ermak topishga urinadilar.

Muayyan aniq bir sport turi bilan doimiy izchil shug'ullangan sportchilar har doim tetik, faol bo'ladilar. Bunday sportchilarning hayoti ma'noli va sermazmun kechadi. Ular doim biror maqsad yo'lida olg'a intiladilar. Qalban Vatan hissini teran idrok etadilar, murabbiylar va do'stlari, ota-ona oldidagi burch va mas'uliyatni yaxshi anglay oladilar.[5, 53]

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya darslari, mashg'ulotlari, sport maktablari va to'garaklari faoliyatini tubdan yangilash, o'quv jarayoniga samarali pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagogik faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan islohotlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati mazmuni va diapozonini oshirishga xizmat qilmoqda.[6, 272]

Jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya qonuniyatlariga muvofiq ravishda foydalaniladigan siljish harakatlari insonni jismoniy tarbiyalashning o'ziga xos vositasidir. Har qanday harakatni jismoniy mashq deb atash mumkin emas. Faqat jismoniy tarbiya vazifalarini yechishga qaratilgan va uning qonunlariga bo'ysungan harakatlar jismoniy mashqlarni tashkil etadi.[7, 37]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishga, erkin, iqtisodiy bozor munosabatlari va xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalqning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun

zarur imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning yuqori mavqeini egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar zamirida xalqning turmush tarzini yaxshilash, aholining barcha qatlamlarida ma'nan va jismonan sog'lom muhitni yaratish, salomatlikni mustahkamlash g'oyasi yotibdi.

Biz ushbu yuqorida keltirilgan masalalarga yechim topishda quyidagini maqsad qilib belgilab oldik, ya'ni sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish.

Va bu asosda quyida keltirilgan vazifalar belgilab olindi:

talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

innovatsion yondashuv asosida sport to'garaklarining talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida sport to'garaklari vositasida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash va samaradorligini baholash.

Masalaning tub mohiyatini yoritib berish asnosida quyidagi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, yuqorida keltirilgan mulohazalarga yechim topishda amaliy ahamiyat kasb etadi:

talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning ergonopedagogik xususiyatlari muntazam mashq qilish orqali ta'lim oluvchilarning shaxsiy kamolotga erishishga yo'naltirish, uzluksiz o'z-o'zini anglash orqali jismoniy sifatlarni egallash, irodalilik, mehnatsevarlik, jasurlik kabi tayanch ma'naviy kompetensiyalarni o'zlashtirish jarayonining motivatsion va kognitiv komponentlar bilan regulyativlik darajasini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirish;

sport to'garaklarining talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy, estetik potensiali faoliyatga doir, aksiologik, psixoterapevtik, vegetativ yondashuvlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning qadriyatli yo'nalganligini aniqlash orqali mashg'ulotlarni differensial tarzda tashkil etishning ehtiyojga asoslangan ichki motivatsiyani barqarorlashtirishga doir pedagogik mexanizmini kengaytirish orqali takomillashtirish;

sport to'garaklari orqali talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish modelining tashkiliy-pedagogik komponenti tayanch, variativ, mustaqil faoliyat kabi tarkibiy qismlarga asoslangan nazariy-metodik bilimlarni maxsus, metapredmetli, sport-sog'lomlashtiruvchi modulli mashg'ulotlar jarayonida tarkib toptirishning didaktik-adaptiv algoritmini ishlab chiqish orqali takomillashtirish;

sport to'garaklari vositasida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligidagi ijobiy o'zgarishlar, fanga doir kognitiv, qadriyatli-mazmunli, informatsion kompetensiyalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar antropometrik testlar, funksional sinov, jismoniy tayyorgarlik testlari kabi baholash usullarini muntazamlik va takroriylik dinamikasini ta'minlash orqali takomillashtirish.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va ularni sport tayyorgarligiga yo'naltirish uchun hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va ulkan g'amxo'rlik yaratilgan.

Inson hayotining dastlabki ikki o'n yilligi, ularning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda ular organizmining salomatligiga ham mustahkam asos qo'yiladi. Ammo bu paytda yoshlar bo'lajak kasb talablarini bajarish uchun butun vaqtlarini bag'ishlaydi, o'qishga mukkasidan ketadi. Tabiiyki, bunday holatlar talabalarni kam harakatlilikka olib keladi. Uning natijasida talabaning organizmida turli xil kasalliklarning dastlabki belgilari paydo bo'ladi, organizmni tashqi muhit ta'siriga qarshilik ko'rsatishi (immunitet) pasayadi, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi ortib boradi. Kasalliklardan xalos bo'lish muddati cho'zilib, uning asoratlari keyingi yillar davomida kuchayib boradi. Bu holat, ayniqsa, talaba qizlarda yanada og'irroq oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qizlarning kelajakda turmush qurib, ona bo'lishi uchun monelik qiladigan, tug'ishni qiyinlashtiruvchi salbiy vaziyatlar ortib boradi. Bunday noxush holatlarning oldini olishda jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari eng ta'sirchan vosita hisoblanadi. Ular talabalar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning markaziy asab, nafas olish, yurak qon-tomir, ovqat

hazm qilish, ichki sekretsiya bezlari hamda harakat-tayanch tizimlari ish faoliyatini mislsiz darajada yaxshilanishiga olib keladi. Bunday mashq qilgan odam organizmi har qanday qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'ladi, muhim hayotiy maqsadlarni o'z oldiga qo'yish, ularni amalga oshirishga harakat qilishni ta'minlab, haqiqiy inson hayotini ma'no-maqsadini tushunishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda talaba yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi tizimini takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, sportchilarni tibbiy ta'minlash ishlarini tashkil etish, sport klublarini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq qo'yidagi vazifalar belgilangan:

talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

talabalar o'rtasida sport turlari bo'yicha jamoalar tashkil etish, ular o'rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, xususan, "talabalar ligasi" tashkil etish orqali iste'dodli yosh sportchilarni aniqlash;

oliy ta'lim muassasalarida - iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar hamda respublika oliy sport mahorati maktablari sport zaxirasini shakllantirish, shuningdek, sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sport turlari bo'yicha haftasiga kamida 6 soatdan sport to'garaklari mashg'ulotlarini tashkil etish hamda jismoniy tarbiya va sport to'garaklarini o'tkazish uchun malakali trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg'or tajribani joriy qilish ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, talabalarning sportga bo'lgan munosabati, ularning ushbu faoliyat turiga qiziqishlarini o'rganish talabalar o'rtasida sport mashg'ulotlarini yanada aniqroq tashkil etishga, ularni tizimli jismoniy mashqlarga jalb qilish bo'yicha ishlarni malakali ravishda olib borilishiga va o'z salomatligiga ongli munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Talabalarining sportning ayrim turlariga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlariga tayanish talabalarni turli sport turlari atrofida birlashib, sport musobaqalarida ishtirok etishga yordam beradi deb taxmin qilish mumkin.

Xullas, mamlakatimizdagi jimoniy madaniyat va sport to'garaklarini rivojlantirish imkoniyatlari jahon tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda mustahkam zamin yaratadi.

Talabalarga sport to'garaklari orqali jismoniy madaniyat rivojlantirish har bir ta'lim muassasasini oldiga qo'ygan maqsadlardan biri. Jismoniy madaniyat - bu inson sog'lig'ini mustahkamlash, uning jismoniy qobiliyatlari, sport yutuqlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jamiyat, umumiy madaniyatning bir qismidir.

Madaniyatning bu sohasi har tomonlama rivojlangan shaxs shakllanadigan, jismoniy va ma'naviy sog'liqning negizlariga asos soladi. Dunyo miqyosida jismoniy tarbiyaga qaratilgan e'tibor jismoniy tarbiya tizimini yaratishga mamlakatlar o'rtasidagi taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi O'RQ-394-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonuni. www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6099-son "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. www.lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. www.lex.uz

4. Kadirov R.X. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ilmiy tadqiq qilish. Darslik. - Buxoro, Buxoro nashriyoti, 2020. - 272 b.

5. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. - 144 b.

6. Raxmatov O.U. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari №3(3) 2023. SCIENCEPROBLEMS.UZ

7. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: "ITA-PRESS", 2014. 296 бет

O'QUVCHILARNING JISMONIY-AQLIY RIVOJLANISHIDA O'QUV-BILISH FAOLLIGINING AHAMIYATI

Nusrat Utkirov,
Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti.
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayonining didaktik ta'minotini ta'lim muhitida hisobga olish, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quv faoliyatining produktiv darajasini oshirish, o'quvchilarni jismoniy mashg'ulotga jalb etishning pedagogik shart-sharoitlarini obyektiv va subyektiv omillar uyg'unligi asosida takomillashtirish metodlarini qo'llash lozimligi nazarda tutilgan.

Shuningdek, o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini takomillashtirish jarayonining metodik tizimini ishlab chiqish hamda o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini takomillashtirish jarayonining funksional modeli va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish lozimligini amaliyotda ilgari surish ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *o'quv-bilish faolligi, interfaol, funksional, jarayon, metod, tizim, ta'lim, jismoniy tarbiya, daraja, ko'nikma.*

Аннотация

В настоящей статье предусмотрена необходимость учета в образовательной среде дидактического обеспечения процесса развития учебно-познавательной активности учащихся в гармонии их физико-психического развития, повышения продуктивного уровня учебной деятельности за счет применения интерактивных методов, применения методов совершенствования педагогических условий вовлечения учащихся в физическую активность на основе сочетания объективных и субъективных факторов.

Также показана разработка методической системы процесса совершенствования учебно-познавательной деятельности учащихся в гармонии их физико-психического развития и выдвижение на практике необходимости совершенствования функциональной модели процесса совершенствования учебно-познавательной деятельности учащихся в гармонии их физико-психического развития и педагогических условий ее осуществления.

Ключевые слова: *учебно-познавательная деятельность, интерактивная, функциональная, процесс, метод, система, образование, физкультура, уровень, умение.*

Annotation

This article provides for the need to take into account in the educational environment the didactic support of the process of developing educational and cognitive activity of students in harmony with their physical and mental development, increasing the productive level of educational activity through the use of interactive methods, the use of methods to improve the pedagogical conditions for involving students in physical activity based on a combination of objective and subjective factors.

It also shows the development of a methodological system for the process of improving the educational and cognitive activity of students in harmony with their physical and mental development and putting into practice the

need to improve the functional model of the process of improving the educational and cognitive activity of students in harmony with their physical and mental development and the pedagogical conditions for its implementation.

Keywords: *educational activity, interactive, functional, process, method, system, education, physical education, level, skill.*

Kirish (Introduction). Jahonda o'quvchilar jismoniy-aqliy rivojlanishi uyg'unligida o'quv-bilish faolligini rivojlantirish maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim muassasasigacha bo'lgan barcha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Mazkur holat bo'yicha ta'limni tashkil etishda bir qator hal qilinmagan muammolar mavjudligi ko'zga tashlanayotganligi bilan dolzarblik kasb etadi. Ular orasida eng murakkab va ahamiyatlisi - o'quvchilarda jismoniy-aqliy rivojlanish faolligi bo'yicha ta'limning dolzarbligi va ta'lim tizimining hamma bosqichlarida olib borilishining zarurat darajasiga ko'tarilganligidir.

Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quvchilarni o'quv-bilish faolligini rivojlantirish ta'limning yosh bo'yicha har bir bosqichida ahamiyatli va dolzarbdir. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlantirishi ta'limning boshlang'ich bo'g'inida tashkil qilinishi va olib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur bo'lgan eng muhim masala deyishimizga yetarlicha asos bor.

Dunyoda o'quvchi shaxsining jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish borasidagi tajriba asosida jismoniy tarbiya milliy ta'lim tizimimizning alohida bir tarmog'i o'laroq, butun o'ziga xos jihatlari bilan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga qaratilgan bo'lishi va boshqa umumiy o'rta ta'lim fanlari ko'zda tutgan maqsadlarni ustuvor deb hisoblash lozim.

Insoniyat azal-azaldan o'zini qurshab turgan olam haqida tobora ko'proq narsalarni bilishga intilib kelgan. Bu esa yillar o'tib borishi bilan yangidan-yangi, murakkab ixtiro va kashfiyatlarni yaratilishiga olib kelmoqda. Bugungi kungacha insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ixtirolar ularning olamdagi narsa va hodisalarni bilmaslikdan bilishga qarab, kam bilishdan tobora ko'proq bilishga tomon bo'lgan ehtiyojlari, qiziqishlari, hamisha intilib yashashga undagan bu jarayon – bilish jarayonining nima ekanligini to'la anglab olish juda muhimdir.

Bilish nima? Bilish – moddiy olamning inson ongida in'ikos etish jarayonidir. Ya'ni:

- obyektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog'liq bo'lmagan holda undan tashqarida mavjud. Obyektiv olam inson sezgi va tasavvurlarning manbai;
- inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin.

Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o'ziga bog'liq bo'lmagan tashqi olam mazmunini in'ikos ettiradi.

Bilish tafakkurning bilinayotgan predmetga yaqinlashuvi, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan, to'la va mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi. Bilish eskirib qolgan nazariyani yangi nazariyalar bilan almashtirib eski nazariyalarni yanada aniqlab, olg'a qarab boradi hamda voqelikning tobora yangidan-yangi tomonlarini ochadi.

Shu nuqtai nazardan o'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish imkoniyatlari doirasini kengaytirish, ularda ilmiy dunyoqarashni boyitish, muammoni turli yo'llar bilan hal eta olish qobiliyatlarini shakllantirishning yangicha imkoniyatlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Respublikamizdagi umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlovchi amaliy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish, umumta'lim muassasalarida sport to'garaklarini tashkil qilish"[1;] kabi vazifalarni qo'yadi.

Kichik maktab o'quvchilarining jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini rivojlantirishning funktsional modeli mazmunli komponenti rolli-o'yinli, qisman izlanishli, evristik topshiriqlar ishlab chiqish asosida takomillashtirishni taqazo etadi.

O‘quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligida o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayonining didaktik ta'minotini ta'lim muhitida hisobga olish, interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quv faoliyatining produktiv darajasini oshirish, o‘quvchilarni jismoniy mashg‘ulotga jalb etishning pedagogik shart-sharoitlarini obyektiv va subyektiv omillar uyg‘unligi asosida takomillashtirish metodlarini qo‘llash lozimligini nazarda tutadi.

Tahlillardan anglanadiki, zamonaviy jamiyatda o‘quvchi shaxsining bilish faolligini faollashtirish ularning ham aqliy, ham jismoniy rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Bu esa o‘quvchining bilish darajasini pedagogik jihatdan o‘rganish imkoniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘quvchilarni jismoniy-aqliy rivojlantirish va o‘quv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi ta'limning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u mazmun-mohiyati va maqsadiga ko‘ra (xuddi boshqa fan sohalari singari), atrof-muhitni o‘zgartirish usullarini o‘zlashtirish bilan bir qatorda, insonning (ya'ni ta'lim oluvchining) atrof-borliqni anglashi va idrok etishi hamda u bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish orqali o‘z jismoniy xususiyatlarini takomillashtirishiga qaratilgandir. Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligida o‘quv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi umumiy o‘rta ta'lim maktablarining "jismoniy tarbiya" mashg‘ulotidagi o‘quv ishlarining muhim jarayoni va asosiy natijasi bo‘lib, mazkur jarayonning mohiyati maxsus bilimlarni shakllantirishni boshqarish va o‘sha bilimlarni shaxsning jismoniy rivojlanishi, butun hayoti davomida o‘z-o‘zini takomillashtirib borishi uchun samarali usulda individual qo‘llay bilish maqsadiga qaratilganligida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligida o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish umumiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayon o‘quvchilarni o‘z jismiga hukmronlik qilishga, tananing ehtiyojlarini anglab borishga o‘rgatishga imkon yaratadi. O‘quvchi "Jismoniy tarbiya" darslarini o‘zlashtirar ekan, "o‘z tanasining alohida qismlari harakatlarini namoyon etib, ularni o‘zaro taqqoslash, umumiy tarzda harakatlarni boshqarish, jismoniy mashqlarning ahamiyatini to‘liq idrok etgan holda tana a'zolarini bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy to‘siqlarga tayyorlab borish va ongli ravishda o‘sha to‘siqlarni yengib o‘tish mahoratiga o‘rgatib boriladi.

O‘quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligida o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish "Jismoniy tarbiya" o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilarda universal o‘quv harakatlarining faollashuvi maxsus bilimlarni o‘zlashtirib borish darajasi bilan chambarchas bog‘liq.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir.

Jumladan,

– dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

– kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga tayyor bo‘lish;

– dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediaxavfsizlik me'yorlariga amal qilish. [2, 7]

Harakat ko‘nikmasining ritmli-tezkor komponentini shakllantirish bo‘yicha vazifaning kuch bazasini dastlab yaratish bo‘yicha vazifa oldidagi ustivorligini, tabiiy harakat malakalari sifatida ham va harakat faoliyatining barcha jismoniy sifatlari ichida tezkorlikni rivojlantirish eng murakkab ekanligi bilan ham tushuntirish mumkin. [3, 287]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari va yengil atletikaning ko‘plab elementlari mavjud. Bu oyoq mushaklarining rivojlanishining keskin o‘sishiga yordam

beradi. Ushbu mashqlar oyoq mushaklarining tezlik sifatlari va tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tezlik va chaqqonlikni rivojlantirishda ko'proq quyidagi mashqlar qo'l keladi. Masalan, murakkablashtirilgan mashqlar: to'siqlarni oshib o'tish, qarshiliklarni yengish, tortish; yengillashtirilgan mashqlar: pastga yugurish, to'plar, toshlar bilan yugurib o'tish, turli estafetalar; ruhlantiruvchi mashqlar - harakatli va sport o'yinlari. [4, 145]

Jismoniy tarbiya jarayonida natijaga erishishda yil davomida jismoniy sifatni rivojlantirish uchun materialni ko'proq to'g'ri rejalashtirish kerak bo'ladi. O'qituvchi yoki murabbiy asosiy vosita va har xil harakatlanish qobiliyatlarini takomillashtirish hamda rivojlantirish metodlarini shuningdek, mashg'ulotni tashkil qilish uslublarini yaxshi bilishi kerak.[5, 38]

Uzluksiz ta'lim tizimi faoliyatini yanada takomillashtish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, ta'lim kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni to'liq qamrab olgan boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olib o'qitish, motivatsion jarayonlarni hosil qilish, dastlabgi davrdan boshlab ularda vatanparvarlik, insoniylik, do'stlik, birdamlik hamda odob-axloq qoidalarini singdirib borish kabi ijobiy xususiyatlarni shakllantirishning optimal yo'llardan biri hamkorlikda o'qitishdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonini tashkil etishda va o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatlarini yuzaga keltirishda kasbiy kompetenligi va metodik bilim, ko'nikma va malakalari asosiy o'rinni egallaydi. Buning uchun o'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati nihoyatda zarurdir. O'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzluksiz tarzda davom etadi.

O'qituvchi o'quvchi faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi. Bunda asosan o'quv predmetini o'zlashtirish imkoniyati ta'minlanadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi – o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatish kabi uzviy bog'langan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikda faoliyat olib borish o'quvchi ongida muayyan maqsadlar, xulq-atvorning yuksak namunalari o'z ifodasini topadi. O'quvchining bilish faoliyati rivojlangan sari u mazkur maqsadlarning qimmati va muhimligini ko'proq anglay boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlari yanada samaraliroq rivojlanishi uchun o'qituvchilar va ota-onalarning diqqat-e'tibori va ularga beradigan baholari ayniqsa muhim hisoblanadi.

O'quvchilarning xatti-harakatlariga kattalar va o'qituvchilar tomonidan berilgan hissiy baho ularning axloqiy hissiyotlari rivojlanishini aniqlaydi. Buning natijasida o'quvchilar o'quv jarayonida tanishadigan qoidalarga mas'uliyatli tarzda jiddiy munosabatda bo'ladilar

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini takomillashtirish mazmuni o'quvchilarning aqliy-jismoniy rivojlanganlik darajasini diagnostik usullar bilan tashxislash, pedagogik jarayonining muvofiqlashtiruvchi vazifasini harakatli komponent orqali takomillashtirish hamda jismoniy-aqliy rivojlanish sohasidagi mustaqillik, o'z-o'zini jismoniy rivojlantirishning samarali usullarini kompleks aniqlash orqali takomillashtirishi lozim.

Bolalar har bir yoshda o'ziga xos xususiyatlarni o'zida shakllantirib, rivojlantirib boradi. Bunda ularga muhit va tashqi omillar katta ta'sir o'tkazadi. Bolalar rivojlanish davrida, ularni turli faoliyatlarga jalb qilinadi. Ular bu jarayonlarda tengdoshlari bilan va kattalar bilan muloqotga kirishadi. Bu esa muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Bolalarni aqliy va jismonan to'g'ri rivojlanishi avvalambor bola tug'ilmasdan oldin ona vujudida paytidanoq har bir bo'lg'usi ona bolasi uchun e'tiborli, qalban tinch, ruhan kuchli bo'lishi va dilbandi uchun masuliyatni his qilmog'i zarur. Chunki bola psixologiyasi ona qornidayoq shakllanib boradi. U onasi bilan ruhan bog'liq bo'lib uning aqliy rivojlanishi homilalik davri bilan bevosita bog'liq. Homila ona qornida paytida onasining xursandchiligi va tashvishlarini ham his qiladi. Shuning uchun sog'lom avlod uchun avvalo ayollarimiz sog'lom va baxtiyor bo'lmog'i kerak. Bola tug'ilganidan so'ng yoshga mos xususiyatlar asta

sekinlik bilan ma'lum bir hayot davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik fazilatlar rivojlanib boradi.

Insonning biologik va ruhiy rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli, aqliy sohada yoshga bog'liq o'zgarishlar ham sodir bo'ladi. Biologik, ijtimoiy yetuklik kabi qat'iy tartibda bo'lmasada shaxsning ruhiy rivojlanishining yoshga bog'liq dinamikasi namoyon bo'ladi. Bu esa inson taraqqiyotining izchil bosqichlarini va yosh davrlarini yoritishga tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarning jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini takomillashtirish jarayonining metodik tizimini ishlab chiqish hamda o'quvchilarni jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligida o'quv-bilish faolligini takomillashtirish jarayonining funksional modeli va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish lozimligini amaliyotda ilgari surish hamda didaktik ta'minoti ilmiy-uslubiy tadqiqotlarda ishlab chiqilganligini nazarda tutish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quv fanlari, jumladan, jismoniy tarbiya fani doirasida bajarilishi lozim bo'lgan funksiyalar umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lishi shart.

Jismoniy madaniyat sohasidagi yangiliklarni umumiy ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali modernizatsiya qilish o'quvchilarning harakatli va kognitiv faolliklarini hamda "Jismoniy tarbiya" faniga qiziqtirish, sportni sevish, tashabbuskorlik, tashqi jozibadorlik kabi xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatini berishi lozim.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishning zarur sharti – muayyan o'quv vaziyatlarida o'zlarini mustaqil boshqarishlarida namoyon bo'ladi. Bu ularning o'z xulq-atvorlarini boshqarishlarida yaqqol aks etadi. Faoliyat xarakteri va amalga oshirish sharoitlariga bog'liq holda qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan ixtiyoriy quvvatlar namoyon bo'ladi. O'quvchilarning o'quv jarayoni subyekti sifatida shakllanishlari ularda ruhiy bilish imkoniyatini tarkib toptirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Birinchi navbatda tafakkur, o'zi haqida o'ylash imkoniyatining vujudga kelishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini baholashi o'quvchilarda aqliy faoliyat operatsiyalarining shakllanganligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Olib borilgan mulohazalar yuzasidan shunday xulosaga kelindiki, zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda universal o'quv harakatlarini amalga oshirishga qaratilganligi, o'quvchilarning bilish faolligini shakllantirish va davomli rivojlantirishni ta'minlaydigan, ta'lim jarayonining natijadorligi va samaradorligini belgilovchi muhim faktor sifatida qaraladigan pedagogik shart-sharoitni yaratishni taqozo etadi.

Bilish faolligini shakllantirish va davomli rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi eng samarali vositalar, xususan, umumpedagogik nuqtai nazardan qaralganda, nazariy materiallardan maqsadli foydalanish, jismoniy tarbiya fanining axborotli tarkibiy qismini samarali joriy etish, o'quvchilarning jismoniy madaniyat sohasidagi bilish faolligini shakllantirish va davomli rivojlantirish uchun eng maqbul va samarali vosita ekanligi o'z isbotini topdi.

Jismoniy madaniyat sohasidagi umumiy ta'lim jarayonida "Jismoniy tarbiya" fanining umumiy o'rta ta'lim potensialidan dars va darsdan tashqari tadbirlarda imkon qadar ko'proq foydalanish va unga alohida e'tibor qaratish zarurligi asoslandi.

Hozirgi vaqtda bilish faolligini rivojlantirishning jismoniy madaniyat sohasidagi umumiy ta'limning samaradorligini belgilovchi faktor sifatidagi ahamiyatini anglash hamda mazkur sohaga oid bilimlar tizimining samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni tizimli olib borish maqsadga muvofiqligini e'tirof etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son farmoni.

2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2018. - 80 bet.

3. Umarov D.X. Biomexanika. Darslik. -T.: "Sano-standart" nashriyoti. 2017 y. 388 bet.

4. Usmonxo'jayev T.S., Arzumanov S.G. Jismoniy tarbiya. Darslik. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2007 y. 208 bet.

5. Xo'jayev F., Xo'jayeva M. Yoshlar va o'smirlar sporti nazariyasi va metodikasi. Darslik. -Toshkent: "Umid Design" nashriyoti, 2021, -232 b.

O'QUVCHILARDA ALGORITMIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Nozimbek Zaripov,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
doktoranti (DSc), p.f.f.d. (PhD)., dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirish usullari va o'qitish metodikasi keltirilgan. O'quvchilarni dasturlash tillariga o'qitishda algoritmik fikrlash mantiqiy, tizimli va izchil fikrlash tarzini shakllantirishdagi muhim jarayondir. Ushbu ko'nikmalar bugungi kunda raqamli savodxonlikni oshirish, muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda algoritmik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan usullardan foydalanish, dars jarayonida yangicha ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan masalalar yechimini aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida algoritmik tafakkurni shakllantirishning innovatsion yondashuvlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etishdir. Maqolada aynan ushbu muammolarga yechimlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: *algoritm, dasturlash, pedagogika, dastur tuzish, algoritmik tafakkur, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, gamifikatsiya, GUI, vizual vositalar.*

Аннотация

В данной статье представлены методы формирования алгоритмического мышления у студентов и методика обучения. Алгоритмическое мышление является важным процессом формирования логического, системного и последовательного мышления при обучении студентов языкам программирования. Эти навыки сегодня необходимы для повышения цифровой грамотности, решения проблем и разработки инновационных решений. Поэтому рассматривается использование методов, направленных на развитие алгоритмического мышления при обучении информатике и информационным технологиям, использование новых образовательных технологий в ходе урока, определение решений задач, побуждающих учащихся мыслить логически. неотложные вопросы. Основная цель исследования – выявить инновационные подходы к формированию алгоритмического мышления в образовательном процессе и реализовать их на практике. В статье представлены пути решения этих проблем.

Ключивые слова: *алгоритм, программирование, педагогика, программирование, алгоритмическое мышление, виртуальная реальность, дополненная реальность, геймификация, графический интерфейс, визуальные инструменты.*

Annotation

This article presents methods and teaching methods for developing algorithmic thinking in students. In teaching students programming languages, algorithmic thinking is an important process in forming a logical, systematic and consistent way of thinking. These skills are of great importance today for increasing digital literacy, solving problems and developing innovative solutions. Therefore, the use of methods aimed at developing algorithmic thinking in teaching computer science and information technology, the use of new educational technologies in the lesson process, and the identification of solutions to problems that encourage students to think logically are urgent issues. The main goal of the research is to identify innovative approaches to the formation of algorithmic thinking in the educational process and to implement them in practice. The article presents solutions to these problems.

Keywords: *algorithm, programming, pedagogy, programming, algorithmic thinking, virtual reality, augmented reality, gamification, GUI, visual tools.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida algoritmik tafakkurni shakllantirish o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Algoritmik tafakkur bu masalalarni tahlil qilish, ularni qismlarga ajratish va bosqichma-bosqich yechimlarni izlab topish qobiliyati bo'lib, informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida muhim o'rin egallaydi. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda har bir inson algoritmik fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi muhimdir. Chunki bu ko'nikma nafaqat informatika sohasida, balki jamiyatning turli sohalarida ham samarali yechimlar topishda yordam beradi. Shu sababli, ta'lim muassasalarida o'quvchilarning algoritmik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan metodlarni ishlab chiqish hamda qo'llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O'quvchilarda algoritmik fikrlashni rivojlantirishning asosiy manbasi bu informatika va matematika fanlariga doir bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Ushbu bilimlar muammolarni hal qilish uchun asosiy ko'nikma bo'lib xizmat qiladi. Wing algoritmik fikrlash masalalarni hal etishda muhimligini ta'kidlab, uning tamoyillari turli fanlarda qo'llanilishini taklif qilgan [1, 10]. Grover va Pea so'nggi tadqiqotlarida o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlash uchun algoritmik fikrlashni K-12 o'quv dasturi (ya'ni K: bolalar bog'chasi (kindergarten), 1-12 sinflar: boshlang'ich (elementary), o'rta (middle), va yuqori (high) sinflarni o'z ichiga oladi) integratsiyalashuviga e'tibor qaratadilar [2, 54]. Hmelo-Silver o'quvchilar o'z tajribalari orqali muammolarni mustaqil hal etish orqali algoritmik tafakkurni rivojlanishiga erishishini ta'kidlaydi [3, 62].

Muhokama va natijalar. Algoritmik tafakkur bu o'quvchilarda fanga doir yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun tizimli, izchil va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. O'quvchilarda algoritmik tafakkurni rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Loyihaga asoslangan ta'lim. O'quvchilar algoritmik yechimlarni talab qiluvchi real muammolar ustida ishlaydi, faollikni oshiradi va amaliyot bilan uyg'un holda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Loyiha asosida o'rgatish o'quvchilarning algoritmik fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Masalan, mobil ilova yoki web-sayt yaratish loyihalari.

2. Gamifikatsiya. Bu o'yinga asoslangan ta'lim bo'lib, kompyuter o'quv o'yinlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan texnikaga asoslangan jarayondir. Gamifikatsiya bu faqat o'yindan iborat emas, balki o'quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatish va boshqarish, muayyan mavzuni to'liq anglash va muammoni bosqichma-bosqich yechim strategiyalarni amalga oshirish uchun o'yin modelidir.

3. Vizual dasturlash vositalari. O'quvchilarni dasturlash tillariga bo'lgan qiziqish va bilimlarini oshirish uchun Scratch va Blockly konstruktor dasturlash muhitidan foydalanish mumkin. Ushbu dasturlash muhitlari o'quvchilarni dasturlash tillariga olib kirishga, masalalarni oson tushunishga, loyihalar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

4. Jamoaviy hamkorlik. Guruhdagi o'quvchilarni o'zaro bilim almashish va muammolarni hamkorlikda hal qilish imkonini beradi hamda o'zaro ijtimoiy munosabatlar orqali algoritmik ko'nikmalarni oshiradi.

5. Qadam-baqadam yechim topish. Muayyan mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda masalani algoritmik bosqichlarga ajratish va har bir bosqichni alohida tushuntirish.

6. Feedback va baholashning ilg'or usullari. Qo'yilgan maqsadga erishgan o'quvchilar bilimlarini muntazam ravishda baholab borish va rag'batlantirish. Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar o'quvchilarning nafaqat algoritmik tafakkurini shakllantiradi, balki ularni amaliyotga yo'naltiradi va turli masalalarga aniq va samarali yechish topishga tayyorlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan metodlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalardan foydalanish mumkin.

– Individual yondashuv: Har bir o'quvchining qobiliyat darajasini hisobga olgan holda mustaqil ish va topshiriqlar berish.

– Muqobil usullarni qo'llash: O'quvchilar yoshini hisobga olgan holda guruhlariga mos metodlarni tanlash.

– Natijani baholash: Testlar, amaliy topshiriqlar va loyihalar orqali algoritmik tafakkurni rivojlantirish darajasini aniqlash.

– Interaktivlikni oshirish: Infografika va multimedia texnologiyalaridan keng foydalanish.

Algoritmik tafakkur qo‘yilgan muammoni yechishda mantiqiy va tizimli ravishda tahlil qilish, bosqichma-bosqich rejalar tuzish va natijalarni baholash qobiliyatidir. Raqamli texnologiyalari rivojlangan bir davrda bu ko‘nikma nafaqat dasturchilar uchun, balki har bir sohaga oid mutaxassislar uchun zarurdir. Shuning uchun maktab ta’limida algoritmik tafakkurni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va interfaol usullarni qo‘llash orqali algoritmik tafakkurni rivojlantirishga imkoniyatlari kengayib bormoqda. O‘quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Mantiqiy va tizimli fikrlash qobiliyati rivojlanadi;
- Murakkab muammolarni hal qilish uchun tezkor qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi;
- Taktik ko‘nikmalar va ijodiy yondashuv oshadi;
- O‘quvchilarda raqamli savodxonligi yuksaladi.

O‘quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi asosiy elementlar muhim ahamiyat kasb etadi:

– Mantiqiy fikrlash.

– Muammoni tahlil qilish qobiliyati.

– Bosqichma-bosqich rejalashtirish.

– Yechimlarni baholash va optimallashtirish.

O‘quvchilarda algoritmik tafakkurni shakllantirishda Python dasturlash tili samarali vositalardan biri hisoblanadi. Quyida Python dasturlash tilida foydalanuvchi grafik interfeysidan (GUI) dan foydalanib berilgan ikkita butun sonning eng katta umumiy bo‘luvchisini topish dasturi ilova oynasi keltirilgan.



1-rasm. Ikkita sonning eng katta umumiy bo‘luvchisini topish dastur oynasi

Yuqorida keltirilgan dastur tuzish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

– Matematik tushunchalarni dasturiy ifodalash. EKUB tushunchasini o‘rganish va uni dasturiy algoritmga aylantirish orqali matematik mantiq va dasturlash mantiqini birlashtirish ko‘nikmasi rivojlanadi.

– Muammolarni abstraktsiya qilish. EKUB kabi umumiy masalalarni yechishda o‘quvchilar real muammoni dasturlashga mos shaklda abstraktsiya qilishni o‘rganadilar.

– Kod yozish va sinovdan o‘tkazish. Dasturiy kodni tuzish va tekshirish. Funksional testlarni qo‘llash orqali xatolarni aniqlash va tuzatish. Turli sonlarni sinab ko‘rib, natijalarni baholashni o‘rganadilar.

– Amaliy matematikani tushunish. Amaliy matematika tushunchalarini dasturlash orqali tushunib, o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilishda matematikaning o‘rni qanday ekanligini tushunadilar.

– Rekursiv yondashuvlar bilan ishlash. EKUBni topish uchun dasturda iterativ (takrorlanuvchi) yoki rekursiv (o‘z-o‘zini chaqiruvchi) usullardan foydalanish mumkin. Bu yondashuvlar o‘quvchilarga dasturlashning muhim konsepsiyalarini tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, algoritmik jarayonlarni interfaol tarzda o'rgatish uchun VR/AR texnologiyalarini qo'llash ham yuqori samara beradi. Virtual reallik (VR) to'liq sun'iy muhit yaratib, foydalanuvchini shu muhit ichida ishlash imkoniyati bilan ta'minlaydi. Kengaytirilgan reallik (AR) haqiqiy muhitga raqamli obyektlar qo'shib, foydalanuvchiga interaktiv tajriba yaratadi. VR/AR texnologiyalari algoritmik tafakkurni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi [5, 63]. Ular mavzularni tushunishni yengillashtirib, o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun infratuzilma, resurslar va o'qituvchilarning malakasi ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Xulosa. Algoritmik tafakkurni shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Samarali metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ushbu maqsadga erishish mumkin. O'quvchilarda algoritmik tafakkurni rivojlantirish nafaqat ularning ta'lim jarayonidagi faolligiga, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatlarini ham tizimli tashkil qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кобайло, А.С. Логические основы цифровых вычислительных машин. – Минск: БГТУ, 2010. – 95 с.

2. Wing, J.M. Computational Thinking. "Communications of the ACM", 2006. 33-35 p.

3. Grover, S., & Pea, R. Computational Thinking in K-12: A Review of the State of the Field. "Educational Researcher", 2013. 38-43 p.

4. Papert, S. "Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas". Basic Books. 1980. 41-45 p.

5. Resnick, M. Scratch: Programming for All. Communications of the ACM, 2009. 60-67 p.

6. Кузнецов, А.В. "Обучение программированию как способ развития алгоритмического мышления". Вопросы образования, 2019. 67-76 с.

7. Иванов, П.И. "Проблемно-ориентированное обучение в формировании алгоритмического мышления". Современные проблемы науки и образования, 2020. 12-20 с.

8. Лебедев, С.А. "Влияние проектной деятельности на развитие алгоритмического мышления". Журнал педагогических исследований, 2023. 50-58 с.

9. Zaripov, N.N. "Fano usuli yordamida axborotlarni kodlash metodikasi". *News of the NUUz*, *1*(1.5. 2), 2024. 74-77 b.

EMOTSIONAL XAVFSIZLIKNING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI

Shahlo Salimova,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada emotsional xavfsizlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida xavfsiz ta'lim muhitini joriy qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili keltirilgan va mahalliy va xorijiy olimlar asarlari o'rganilgan. O'qituvchilarning emotsional xavfsizlik darajasi va emotsional xavfsizlikning ta'lim jarayoniga ta'sirining tahlili amalga oshirilgan. Pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida emotsional xavfsiz ta'lim muhitini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganilib, mavzu bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *emotsional, xavfsizlik, muhit, o'qituvchi, o'quvchi, samara, ta'lim, huquq, hamkorlik.*

Annotation

This scientific article examines the essence of the concept of emotional safety and its significance in the educational process. An analysis of the regulatory and legal documents on the implementation of a safe educational

environment in the educational institutions of the Republic of Uzbekistan has been conducted. The works of local and foreign scholars have been studied. The level of teachers' emotional safety and the impact of emotional safety on the educational process have been analyzed. The theoretical and practical foundations for creating an emotionally safe educational environment during the training of pedagogical staff have been explored, and conclusions and recommendations on the topic have been developed.

Keywords: *emotional, safety, environment, teacher, student, effectiveness, education, right, collaboration.*

Аннотация

В данной научной статье изучена сущность понятия эмоциональной безопасности и ее значение в образовательном процессе. Проведен анализ нормативно-правовых документов по внедрению безопасной образовательной среды в образовательных учреждениях Республики Узбекистан. Изучены работы местных и зарубежных ученых. Выполнен анализ уровня эмоциональной безопасности педагогов и влияния эмоциональной безопасности на образовательный процесс. Изучены теоретические и практические основы формирования эмоционально безопасной образовательной среды в процессе подготовки педагогических кадров, а также разработаны выводы и рекомендации по данной теме.

Ключевые слова: *эмоциональный, безопасность, среда, учитель, ученик, эффективность, образование, право, сотрудничество.*

Kirish. Emotsional xavfsizlikni ta'minlovchi pedagogik muhitni yaratish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bunday muhit o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, xavflarga munosib javob berish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi. Emotsional xavfsizlikning ta'minlanishi o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi, bu esa o'zaro samarali muloqot va hamkorlikni ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir.

Tadqiqotlarga ko'ra, bunday muhitda o'quvchilar ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb qilinadi, tanqid va masxara qilishdan qo'rqmasdan savollar beradi, hamda yuzaga kelgan qiyinchiliklarga nisbatan bardoshlilikni rivojlantiradi. Emotsional xavfsizlikning ahamiyati faqat o'quv xonasidagi holatlar bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning umumiy psixologik farovonligi va akademik yutuqlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bunday xavfsiz muhitni shakllantirish ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishi va XXI asrning murakkab ta'lim talablariga moslashuvchanligini ta'minlash uchun fundamental ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlar emotsional xavfsizlikni pedagogik amaliyotning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim har bir fuqaroning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag'batlantirish va unga har tomonlama rioya etilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, zo'ravonlik va nizolarning oldini olishda ham muhimdir. 2020-2024-yillarda inson huquqlari sohasida ta'lim berish orqali yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichi amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta'limni yanada takomillashtirish, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi ijrosini ta'minlash, shuningdek, Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan [2, 3].

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida emotsional xavfsiz pedagogik muhitni shakllantirish masalasi davlatning ijtimoiy siyosati doirasida muhim o'rin tutadi. Amaldagi qonun va qarorlar ushbu yo'nalishda kompleks yondashuvni nazarda tutib, ta'lim muassasalarida qulay va xavfsiz muhitni yaratishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha aniq normalar belgilangan, qonunning 4-moddasida ta'lim olishning insonparvarlik, ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmaslik, ijtimoiy adolat va shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilish tamoyillari mustahkamlangan [1, 1].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini tartibga soluvchi qonun va qarorlar emotsional xavfsiz pedagogik muhitni shakllantirish uchun muhim huquqiy asos yaratgan bo'lsa-da, ushbu normativ-huquqiy

hujjatlar amalda ta'lim muassasalarida emotsional xavfsiz pedagogik muhitni ta'minlashga yetarlicha zamin yarata olmaydi. Bunga huquqiy normalarning umumiyligi, pedagoglar va mutaxassislar uchun emotsional xavfsiz pedagogik muhitni yaratish uchun yetarli malaka oshirish dasturlarining yo'qligi, ta'lim muassasalarida emotsional xavfsizlik darajasini baholash yoki tizimli ravishda monitoring qilish uchun maxsus dastur va indikatorlar ishlab chiqilmaganligi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi psixologik zo'ravonlikning oldini olishga oid maxsus ko'rsatmalar yoki yo'riqnomalar mavjud emasligini sabab sifatida keltirish mumkin.

Shu sababli, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash maqsadida emotsional xavfsiz pedagogik muhitni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish zamonaviy ta'limda nafaqat muhim ilmiy-tadqiqot yo'nalishi, balki dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini olib borishda biz mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va adabiyotlarning chuqur tahlilini amalga oshirdik, shuningdek, ijtimoiy so'rovnomalar, intervyular, kuzatish, jamlash, guruhlash, taqqoslash va psixologik metodlardan keng foydalandik. Ushbu metodlar tadqiqotning ilmiy asoslash va kompleks tahlil qilishni ta'minladi hamda emotsional xavfsiz pedagogik muhitni shakllantirish borasidagi amaliy va nazariy tushunchalarni chuqur o'rganishga imkon yaratdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijlik ilmiy tadqiqotchi D.Goleman fikricha, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida emotsional xavfsiz muhitni yaratishning muhimligini ta'kidlab, o'qituvchilarning emotsional intellekti o'quvchilar bilan munosabatlar o'rnatishda asosiy jihatlardan biri ekanligini asoslaydi [4, 11].

Ta'lim sohasida emotsional noaniqlik tobora dolzarb masalaga aylanib, o'quvchilarning farovonligi va akademik natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlik davri rivojlanishning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda emotsional tajribalar kuchayadi va maktab muhitida emotsional intellektning ahamiyati yanada oshadi [5, 4].

Tadqiqotchi F.M.Qo'chqarova fikricha, pedagogik muhitda ziddiyatlar ta'lim jarayonining emotsional holatiga, kayfiyatiga va shunga mos ravishda psixologik iqlimga ta'sir qiladi. O'qituvchilar talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblari, ma'muriyati bilan muomala qiladilar va har bir bog'lanishda nizolar kelib chiqishi mumkin [3, 17].

Ta'lim muhitida emotsional xavfsizlikni ta'minlash mustaqil maqsad sifatida emas, balki ta'limning asosiy vazifalarini amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga uzatish, o'quvchilar va talabalarning yangi bilim va ko'nikmalarni samarali o'zlashtirishini ta'minlash, shuningdek, ularning shaxsini muvaffaqiyatli va ijtimoiy uyg'un shakllantirishdan iboratdir. Emotsiyalar o'ziga xos mazmun va ahamiyatga ega bo'lib, ularni ijobiy yoki salbiy deb qat'iy tasniflash, xususan, salbiylarini minimallashtirish va ijobiylarini maksimal darajaga yetkazish, oldingi yondashuvlarning noto'g'riligini ko'rsatadi [6, 38].

Tahlil va natijalar. Ta'lim jarayonining bosh maqsadi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlariga mos keluvchi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iborat. Bu jarayon faqatgina o'quvchilarning nazariy bilimlarini oshirish bilan cheklanib qolmay, balki ularning amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, shuningdek, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Ilmiy tomondan yondashilganda, ta'limning asosiy maqsadi shaxsning intellektual salohiyatini kengaytirish, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish, hamda insoniyatning barqaror rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadigan ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni tayyorlashdan iborat. Emotsional xavfsiz pedagogik muhitni tashkil qilish ushbu sanab o'tilgan natijalarga erishish samaradorligining oshishiga, akademik natijalarning yaxshilanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarda o'zaro ijtimoiy munosabatlar, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirib, ta'lim ishtirokchilarining ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta'minlashga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar "Bolaning eng yaxshi manfaatlari" prinsipini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda [7].

Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, emotsional noaniqlik yoki emotsional barqarorlik va xavfsizlikning sezilarli darajada yetishmasligi o'quvchilarning maktab muhitiga moslashishi va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Oila yoki maktab muhitida emotsional noaniqlikni boshdan kechirgan o'quvchilar odatda emotsional va xulq-atvor muammolari bilan ko'proq kurashadi, bu esa oxir-oqibatda ularning akademik muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Biz Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Muborak va Shahrisabz tumanlari ta'lim muassasalarida tanlama kuzatuv asosida so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnomada qatnashgan o'qituvchilarning 61 foizi emotsional xavfsiz muhitda psixologik charchoqni his etishmaganliklarini, bu esa ularning darslarni samarali tashkil qilishiga imkon yaratganligini qayd etishdi. O'qituvchilarning emotsional xavfsizligi va barqarorligi ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda biz so'rovnoma o'tkazgan 117 nafar respondentlarning emotsional xavfsizligini baholash natijalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

O'qituvchilarning emotsional xavfsizlik darajasi va emotsional xavfsizlikning ta'lim jarayoniga ta'sirining tahlili[1].

Ko'rsatkichlar	Fikr bildirgan o'qituvchilar soni	Dars samaradorligi (so'rovnomalar asosida) (%)	Emotsional xavfsizlik omillari	Tahliliy izoh
Emotsional xavfsizlik darajasi yuqori	71	92	- psixologik qulay muhit; - rivojlantiruvchi munosabatlar; - rahbariyat ko'magining yetarliligi.	Bu guruhda o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'zini ishonchli his qilishdi, bu esa yuqori samaradorlikka olib keldi.
Emotsional xavfsizlik darajasi o'rta	37	74	- qisman qulay muhit; - ba'zan yuzaga keladigan konfliktlar; - resurslarning yetarli emasligi.	Ushbu guruhda o'qituvchilar stress omillarini sezdi, lekin ularga moslashib, dars samaradorligini qisman saqlab qolishdi.
Emotsional xavfsizlik darajasi past	9	48	- qattiq stress holatlari; - o'zaro munosabatlarda muammolar; - qo'llab-quvvatlov yetishmasligi.	Bu guruhdagi o'qituvchilar ta'lim jarayonida o'zini xavfsiz his qilishmadi va bu ularning dars jarayonidagi faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Emotsional xavfsizlik o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. So'rovnomada qatnashgan o'quvchilarning 64 foizi o'zini xavfsiz his qilgan darslarda o'qishga bo'lgan

[1] Muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

qiziqishlarini yanada kuchaytirganliklarini ta'kidlashdi. O'quvchilarning yangi ma'lumotlarni o'rganishga bo'lgan moyilligi 28 foizga oshdi. Ta'lim jarayonida emotsional xavfsizlik stress va qo'rquvni kamaytiradi, bu esa o'quvchilarga o'quv faoliyatiga to'liq e'tibor qaratish imkonini beradi.

Emotsional xavfsizlik ta'limi jarayonlarining turli o'lchamlarini o'z ichiga oladi, jumladan, ijtimoiy-emotsional xavfsizlik, jismoniy xavfsizlik va umumiy ta'lim muassasasi muhiti, bularning barchasi o'quvchilarning ruhiy va emotsional farovonligiga ta'sir qiladi. Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, ijobiy ta'lim muassasasi muhiti o'quvchilarning xavfsizlikni his qilishlariga va akademik natijalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'z ta'lim muassasasini xavfsiz deb hisoblaydigan o'quvchilar yaxshiroq ruhiy farovonlikka ega bo'lishadi va zo'ravonlik hamda salbiy illatlardan foydalanish holatlari kamroq bo'ladi

Bundan tashqari, emotsional xavfsizlik ijtimoiy-emotsional o'rganish dasturlari bilan chuqur bog'langan bo'lib, u o'quvchilarning o'zini anglash, munosabatlar ko'nikmalari va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Tadqiqotlar samarali ijtimoiy-emotsional o'rganish dasturlari salbiy xulq-atvorni kamaytirish va o'quvchilarning xavfsizlikni his qilishlarini yaxshilashga olib kelishini ko'rsatdi. Shuningdek, emotsional xavfsizlikning ta'siri faqat shaxsiy farovonlik bilan cheklanmaydi, u akademik yutuqlarga ham ta'sir qiladi. Emotsional xavfsizlikni his qilmaydigan o'quvchilar bilim olishdan chetda qoladi va ularning xulq-atvorida muammolar shakllanadi, bu esa ularning akademik taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar emotsional holatining barqarorligi o'zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirib, ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Emotsional xavfsiz pedagogik muhit yaratish o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini namoyon qilish hamda o'qituvchilarning esa, o'z pedagogik mahoratini to'liq namoyon etishga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimida emotsional barqarorlikni ta'minlash milliy an'ana va qadriyatlarga mos tarzda amalga oshirilishi lozim. Bunday muhitni yaratish orqali o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi motivatsiyasi oshirilishi ta'minlanadi, shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi va ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga erishiladi. Ta'lim muassasalarida emotsional xavfsiz muhit yaratish nafaqat pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, balki milliy ta'lim tizimining zamonaviy xalqaro standartlarga moslashuvchanligini ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2023 yildagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46-son qarori.

3. Qo'chqarova F.M.. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 216 b.

4. Goleman, D. P. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ for character, health and lifelong achievement. New York: Bantam Books. P. -34.

5. Jurado, M. d. M. M., Pérez-Fuentes, M. d. C., Martínez, Á. M., Martín, A. B. B., Márquez, M. d. M. S., & Linares, J. J. G. (2021). Emotional intelligence as a mediator in the relationship between academic performance and burnout in high school students. Plos One, 16(6), e0253552. P.-17. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0253552

6. Березина Т.Н. Эмоциональная безопасность образовательной среды и ее влияние на субъективное состояние здоровья у студентов // Alma mater (Вестник высшей школы). 2014. № 2. С. 36-40.

7. Elektron resurs. http://nhrc.uz/oz/menu/bola-huquqlari.

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KOOPERATIV YONDASHUVNING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Otabek Raxmatov,
Navoiy davlat universiteti, Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda kooperativ yondashuvning ahamiyati, ularda amaliy kompetentlikni rivojlantirishning shaxsiy, ijtimoiy, umumkasbiy, maxsus, introspeksiya komponentlarini aniqlashtirish, amaliy kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish, turli ta'lim shakllari orqali informal o'qitishda foydalanishga doir texnologiyalarini takomillashtirish, qo'llash algoritmini an'anaviy va elektron ta'lim integratsiyasi asosida takomillashtirish, amaliy kompetentlik rivojlanganligining baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlashga oid maqsad va vazifalar, ilgari surilgan ilmiy g'oya va qarashlar, takliflar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *kooperativ, yondashuv, kompetentlik,* rivojlantirish, texnologiya, ta'lim, *bilim, malaka, faoliyat, mutaxassis.*

Аннотация

В данной статье рассматривается значение кооперативного подхода в подготовке специалистов спортивной деятельности, уточнение личностных, социальных, общепрофессиональных, специальных, самоанализных компонентов развития у них практической компетентности, разработка модели развития практической компетентности, совершенствование технологий применения в информационном обучении через различные формы обучения, совершенствование алгоритма применения на основе интеграции традиционного и электронного обучения, речь идет о целях и задачах, выдвинутых научных идеях и взглядах, предложениях, касающихся научно-педагогического определения критериев и показателей оценки развития практической компетентности.

Ключевые слова: *кооператив, подход, компетентность, развитие, технология, образование, знания, квалификация, деятельность, специалист.*

Annotation

This article examines the importance of a cooperative approach in the training of sports specialists, clarifying the personal, social, general professional, special, introspective components of their practical competence development, developing a model for the development of practical competence, improving application technologies in information education through various forms of learning, improving the algorithm of application based on the integration of traditional and electronic learning, it is about about the goals and objectives, advanced scientific ideas and views, proposals, concerning the scientific and pedagogical definition of criteria and indicators for assessing the development of practical competence.

Keywords: *cooperative, approach, competence, development, technology, education, knowledge, qualification, activity, specialist.*

Kirish. (Introduction). Mamlakatimizdagi yangi davr shiddati bugun ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani har qachongidan ham ko'ra dolzarb ahamiyatga ega ekanligini, joriy etilayotgan qaror va farmonlar ijrosi ilm-fan sohasi rivojida davlat boshqaruv tizimining ustuvorligini aniq, qat'iy asoslamoqda.

Globallashuv davrida yurtimizda yangilanish jarayonlari va islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda mamlakatizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida tub o'zgarishlarga erishish, va uning kelajagini ta'minlash uchun, avvalo, yosh avlodlarning dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadryatlarimizga tayangan holda yangi

O'zbekistonda yangicha dunyoqarashni shaklantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu boisdan, yoshlarimizda vatanga muhabbat ruhini uyg'otishda, avvalambor, ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Bugun yurtimizda yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o'z o'rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo'lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga va g'oyaga ega bo'lgan zamonaviy yoshlarni tarbiyalashda ta'limni rivovlantirishning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmoqda.

Ushbu mas'uliyatni zimmamizga olgan holda biz ham navbatdagi tadqiqotimiz doirasida quyidagi mulohazalarni yuritishni lozim topdik.

Mulohazamiz mazmuni esa ilmiy tadqiqot mavzuimizga daxldor ilmiy izlanishlarimizga hamohang ravishda "Sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda kooperativ yondashuvning amaliy kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati"ga bag'ishlanadi.

Kooperativ o'quv faoliyati talabalarni qo'shma loyihani bajarish uchun kichik guruhlarda ishlashni talab qiladiganlardir. Talabalar faqatgina materiallarni o'rganish uchun emas, balki bir-birining muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berish uchun birgalikda ishlashadi.

Koopertativ yondashuvning asosi-hamkorlikdir. Hamkorlikda o'qitish har bir ta'lim oluvchini kunlik qizg'in aqliy mehnatga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Kooperativ yondashuvli o'qitish texnologiyasi talabalarning ta'lim olishlaridagi muvaffaqiyati, guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"[1], 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[2], 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"[3] farmonlari, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[4], 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"[5] qarorlari biz mushohada va mulohaza yuritmoqchi bo'lgan sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda kooperativ yondashuvning amaliy kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati masalalariga huquqiy asos bo'ladi.

Kooperativ yondashuv asosida sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda amaliy kompetentlikni rivojlantirish orqali oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, professional sharoitda, real ta'lim berish muhitida o'z malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, shaxsning kasbiy muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim modellari amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda.

Sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda kooperativ yondashuvning amaliy kompetentlikni rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosi sifatida oliy ta'lim muassasasi "Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi talabalarining mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol subyektlari tarzida namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda ularning subyekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini shakllantirishi uchun sharoit yaratadi.

Kooperativ yondashuvli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil qilishda: "talaba-auditoriya", "talaba-kichik guruh", "talaba-katta guruh", "o'qituvchi-talaba", "talaba-talaba" (juftlikda ishlash), "kichik guruh-kichik guruh", "kichik guruh-auditoriya" va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi.

Kooperativ yondashuvli o'qitish - bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida "talabalar guruhi", "yakka lider talaba" hamda "butun auditoriya" bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, talabalarning ham o'zaro qo'llab – quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktiv va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'qituvchining vazifasi - darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg'unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir. O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondashishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi ta'limning maqsadlaridan biridir. [6, 123]

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda eng ilg'or korporatsiyalar o'z personallarini zamonaviy bilimlar asosida o'qitishga, ularni qayta tayyorlashga, malakasini oshirishga, mehnatlariga qulay, munosib sharoitlar yaratishga va bir butun jamoa bo'lib ishlashiga alohida ahamiyat bermoqdalar.

Shu jumladan, bugun yoshlarimiz oliy ta'lim muassasalarida "Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)" ixtisosligi yo'nalishida ta'lim olib, tegishli mutaxassislikni egallab, ta'lim maskanlarida faoliyat yuritish, sport turlarini ommalashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lomlashtirish maqsadida ishga kirib kelmoqdalar. Ammo ularning malaka ko'rsatkichlari, bilimlari, iqtidori mos ravishda yuksalishi uchun uzoq muddatli amaliy jarayonlarni talab etmoqda ham.

Jismoniy tarbiya yuzasidan ishlab chiqilgan dasturlar va darsliklar o'zgarmaydigan narsa emas. Ularning mundarijasi hamisha o'zgarib takomillashib boradi. Dasturlarni takomillashtirish uchun jismoniy tarbiya yuzasidan olib boriladigan ilg'or ish tajribalari asos bo'ladi, bu ilg'or ish tajribalarini jismoniy tarbiya, pedagogika, ilmiy-tadqiqot va o'quv institutlari, shuningdek, amaliyotchilar – o'qituvchilar va murabbiylar muntazam ravishda o'rganib, umumlashtira boradilar. Jismoniy tarbiya yuzasidan qilingan ishlarning natijalari ilmiy jihatdan asoslangan normativlar tizimi - maktabgacha bo'lgan bolalar uchun tuzilgan dastur talablaridan boshlab to kattalar uchun tuzilgan dastur talablarigacha, malakali sportchilar uchun sport klassifikatsiyasiga qadar izchillik bilan hamisha ortib borayotgan talablarga muvofiq hisobga olinadi va baholanadi [7, 32]

Kooperativ yondashuv asosida sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda amaliy kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, informatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta'minlash, kooperativ yondashuvga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirishga doir texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda individual rivojlanish trayektoriyalari asosida amaliy-kasbiy rivojlantirish, uzluksiz ta'lim jarayoniga informal ta'lim shakllarini tatbiq etishga erishish, o'qitishning metodik ta'minotini yaratish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida kooperativ yondashuv asosida sport faoliyati mutaxassislarini tayyorlashda amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha:

- o'qitishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish asosida o'qituvchilarning samarali pedagogik faoliyat olib borishga kasbiy motivatsiyasini shakllantirish;
- individual ta'lim muhitiga moslashuvchanligini ta'minlash;
- pedagogik amaliyot va kasbiy rivojlantirish kombinatsiyasi asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;
- kooperativ yondashuv asosida o'zini o'zi amaliy-kasbiy rivojlantirish jarayoni va uning sifatini baholash mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish, kasbiy kompetentligi va o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishning zamonaviy shakllari E.Baker, P.Chambers, P.Fongkanta, H.Gandhi, N.Hauck, X.Karamanos, S.E.Lee, A.J.Medina, V.Montoro, F.Osmin, P.Peerthy, M.K.Trehearn, T.L.Vega, R.T.Williams, Ch.R.Wright, K.Yoonlar kabi bir qator xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilganligini kuzatishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Kooperativ yondashuvli o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni talaba shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sport mutaxassislarini tayyorlash jarayonida kooperativ yondashuvli o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, sport mashg'ulotlarida amaliy vazifalar birgalikda bajarish va o'zaro taqqoslash, ta'limiy masalalarni birga yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, quyidagi vazifalarni belgilab olishni nazarda tutdik:

- kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning shaxsiy, ijtimoiy, umumkasbiy, maxsus, introspeksiya komponentlarini aniqlashtirish;
- kollaborativ texnologiyalar vositasida kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish:
- kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning turli ta'lim shakllari orqali informal o'qitishda foydalanishga doir texnologiyalari va akmetexnologiyalarini takomillashtirish;
- kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini qo'llash algoritmini an'anaviy va elektron ta'lim integratsiyasi asosida takomillashtirish.
- kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlik rivojlanganligining baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlash.

Ushbu belgilab olgan vazifalar asosida quyidagi ilmiy qarashlarni ilgari surishni va qo'llab – quvvatlashni maqsad qilib oldik:

Birinchidan: kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish komponentlari mutaxassisning jarayonli-tashkiliy bosqichlarni idrok etish, translyasiya, kasbiy monitoring yo'nalish dinamikligi refleksiv pozitsiyasining intellektual rivojlanish darajasi bilan ichki integratsiyasini adekvat faollashtirish asosida takomillashtirish;

Ikkinchidan: kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishni kooperativ va kollaborativ texnologiyalar vositasida uzluksiz kasbiy rivojlantirish modeli mustaqil va uzluksiz kasbiy rivojlanishning ko'p vektorli sharoitini ta'minlash hamda boshqarish imkoniyatlarini pedagogik, metodik, texnik, tashkiliy shart-sharoitlarni real ta'limiy muhitga moslashtirish orqali takomillashtirish;

Uchinchidan: kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarni turli ta'lim shakllari orqali informal o'qitishda foydalanishga doir kooperativ ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlariga jismoniy tarbiya va sport mahg'ulotlari bilan shug'ullanish ko'nikmalarini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirish;

To'rtinchidan: amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini qo'llash algoritmini pedagogik faoliyat va kasbiy rivojlantirish kombinatsiyasi imkoniyatlari hamda qayta aloqani ta'minlovchi majmuani mujassamlashtirgan obyekt va subyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimi funksiyalarini kiritish asosida takomillashtirish;

Beshinchidan: kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari uzluksiz kasbiy rivojlantirishning reproduktiv, talqiniy, ijodiy va akme darajalarini individual ta'lim trayektoriyasiga funksional uyg'unlashtirish asosida takomillashtish.

Kooperativ yondashuv asosida bo'lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning maqsadi – kelajakda egallab turishi mumkin bo'lgan lavozimlari, mutaxassisligi bo'yicha

kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravishda o‘sib borishni, ilg‘or innovatsion texnologiyalar, o‘qituvchining interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borilishini ta‘minlash, shuningdek davlat ta'lim standartlari va talablari asosida, sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat.

Kooperativ yondashuvli o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- talabalarning kasbiy bilimlarni o‘rganish jarayonini boyitadi;
- talabalarga beriladigan o‘quv vazifalari ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv axborotlar to‘plamini beradi;
- talabalarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;
- talabalarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- talabalarga mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi.

Kooperativ yondashuvli o‘qitish usullariga asoslangan mashg‘ulotlarni o‘ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo‘llash tizimi mavjud bo‘lib, quyida shu mashg‘ulotlardan ayrim namunalarni ko‘rsatib o‘tamiz:

- uch pog‘onali intervyu;
- uslubiy-asosli davra suhbati;
- pog‘onali ro‘yxat tuzish;
- muammolarga yechim topishni tashkil qilish;
- “life timer”li ishlar;
- kooperativ izohlari;
- lider kuzatuvi;
- baholash trayektoriyasi;
- kam uchraydigan birlik;
- jamoa kutuvi;
- o‘zaro savol yo‘llash.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kooperativ yondashuv asosida bo‘lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari, uni amaliyotga tatbiq etishning qulay shart-sharoitlari, mexanizmlari hamda ishlab chiqilgan takliflardan foydalanish bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-metodik yondashuvlar va tavsiyalar kooperativ yondashuv asosida bo‘lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kooperativ yondashuv asosida bo‘lajak sport faoliyati mutaxassislarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishning ehtiyojlarni o‘rganish va tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish, amaliyotga joriy qilish, yo‘naltirish, aloqa o‘rnatish, baholash-analitik (tahlil), takomillashtirishdan iborat bosqichlari kooperativ yondashuvga asoslangan bo‘lajak sport faoliyati mutaxassislarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish algoritmini takomillashtirishga asos bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi takliflarni nazarda tutishni lozim topdik:

- oliy ta'limda o‘qiyotgan bo‘lajak sport mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish;
- kooperativ yondashuvining amalga oshirilishi asosida talabalar o‘rtasida munosabat o‘rnatishda paydo bo‘luvchi to‘siqlarni olib tashlash.
- talabalarning psixologik holati va aqliy salohiyatini hisobga olgan holda ular o‘rtasida sog‘lom munosabatni tashkil etish;
- talaba-yoshlar o‘rtasida yaratilgan hamkorlikning holatini yaxshilash orqali ular o‘rtasida do‘stona sog‘lom raqobatni yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori.
6. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2018, 528 bet.
7. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: "ITA-PRESS", 2014. 296 бет

IMOM AL-BUXORIY HADISLARI VOSITASIDA ILM EGALLASH VA MA'RIFATGA ERISHISH YO'LLARI

Azizbek Xaitov,
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk muhaddis, hadis ilmida amirul-mo'minin Imom al-Buxoriy ma'naviy merosida inson hayotining barcha bosqichlari, ayniqsa, yoshlikda ta`lim olish, ilm egallash, ilm-bilim, o'qish va o'rganish asosida hosil bo'lishi ta'kidlangan. Shuningdek muhaddisning hadislar vositasida insonning solih bo'lishi, ma'rifatli shaxs bo'lib yetishi, avvalo uning yoshlikda olgan odob-axloq va ta'lim tarbiyasiga bog'liqligi, axloqiy tarbiyaviy ahamiyatga egaligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *Imom Buxoriy, Qur'oni karim, hadis, muhaddis, ta'lim-tarbiya, ilm, ma'rifat, ma'rifatli shaxs, ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, milliylik, islom dini, amal, manfaat, barkamol avlod, farzand tarbiyasi.*

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что в духовном наследии великого мухаддиса, амируль-мумина Имама аль-Бухари, в науке хадисов, все этапы жизни человека, особенно в молодости, формируются на основе получения образования, приобретения знаний, обучения и обучения. Также посредством хадисов мухаддиса изучается праведность человека, его становление просветленным человеком, прежде всего его зависимость от воспитания нравственности и образования, полученного в юности, его нравственно-воспитательная значимость.

Ключевые слова: *Имам Бухари, Коран, хадис, мухаддис, образование-воспитание, наука, просвещение, просвещенная личность, духовность, просвещение, ценность, национальность, исламская религия, практика, интересы, гармоничное поколение, воспитание детей.*

Annotation

This article emphasizes that in the spiritual legacy of the great Muhaddith, amirul-mumin Imam al-Bukhari, in the science of hadith, all stages of human life, especially in youth, are formed on the basis of education, acquisition of knowledge, education and training. Also, through the hadiths of muhaddith, a person's righteousness is studied, his becoming an enlightened person, first of all, his dependence on moral education and education received in his youth, his moral and educational significance.

Keywords: *Imam Bukhari, Quran, hadith, muhaddith, education-upbringing, science, enlightenment, enlightened personality, spirituality, enlightenment, value, nationality, Islamic religion, practice, interests, harmonious generation, parenting.*

Kirish. Yangi O'zbekistonda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - bu ma'naviy jihatdan marifatli shaxsni tarbiyalash hisoblanadi.Yosh avlodni ma'nan barkamol, yetuk salohiyatli qilib ulg'aytirishda ta'lim-tarbiyaning roli muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" - deya ta'kidlab o'tdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalamboryuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z-zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq. Eng asosiysi,ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi. Bizbarchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun,mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol etkazish uchun birdek mas'ulmiz[1].

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygach, ko'hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e'tibor kuchayib, ulug' ajdodlarimiz–o'lmas asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini puxta o'rganish va ulardan keng xalq ommasini bahramand qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu tarixiy jarayonda, ayniqsa, muborak dinimizga bo'lgan munosabatning batamom o'zgarganini alohida ta`kidlashimiz o'rinlidir. Azaldan umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviyat va ma`rifatning mustahkam poydevori sanalgan diniy ilmlarga katta e'tibor berilayotgani, Qur'oni karim va payg'ambarimiz alayhissalomning muborak hadislari o'zbek tiliga tarjima qilinib, keng ko'lamda o'rganilayotgani va ularning ruhiy, ijtimoiy-madaniy hayotimizga tobora singib borayotgani fikrimizning dalilidir.

Islom dunyosining eng mashxur kishilardan biri buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriydir. U kishini "Muhaddislar imomi" deydilar. Muhaddis-"hadis biluvchi, hadis aytuvchi" degani. Hadis esa payg'ambarimiz so'zlaridir. Hadislarni yig'ish payg'ambarimiz davrlaridan boshlangan. Lekin vaqt o'tishi bilan ularni saralash, ishonchlilarini ishonchsizlaridan ajratib olish murakkablashib qiyinlashib borgan. Hadisshunoslik degan fan hadislarning "sahih" (ishonchli)larini, "nosahih" (ishonchsiz)laridan ajratish bilan shug'ullangan. Imom Buxoriy mana shunday hadis ilmining Buxorodan yetishib chiqqan va butun dunyoga shuhrat taratgan allomasi edi

Tadqiqot ob'yekti va qo'llaniladigan metodlar. Tadqiqotning obyekti sifatida muhaddislar sultoni Imom al Buxoriyhadislari vositasida ilm egallash va ma'rifatga erishish yo'llaritanlab olingan. Maqoladatarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik, germenevtik tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Imom Buxoriyning tarbiyaviy-axloqiy, ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy qarashlariga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va ilmiy pedagogik jihatdan asoslash.

Muhokama va natijalar. Yurtimiz nomini jumlai jahonga mashhur qilgan shunday buyuk allomaga mansub avlodlar, munosib vorislar bo'lish bizlar uchun ham ulkan sharaf, ayni vaqtda katta mas'uliyatdir.

Insoniylik, insonparvarlik, millatparvarlik, ummuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik,yuksak vatanparvarlik, erkparvarlik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, tinchliksevarlik, ma'rifatparvarlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson, o'zlikni anglash, shaxs tarbiyasi, ilm egallash va unga amal qilish, kasb-hunar o'rganish va o'rgatish, o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish va uni hayotga tatbiq etish kabiaxloqiy xislat va fazilatlarni talaba-yoshlarda shakllantirish,

rivojlantirish va mustahkamlashda "Tarbiya", "Pedagogika", "Umumiy pedagogika", "Pedagogika tarixi va nazariyasi", "Falsafa", "Dinshunoslik" fanlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Imom al- Buxoriy to'plagan sahih hadislar Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatda ma'rifatli shaxsni tarbiyalashda, mehr-oqibat, saxiylik, ota-ona va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, mehnatsevarlik, halollik, vatanga muhabbat, turli xalqlarning o'zaro do'st, tinch-totuv yashashlari barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Imom Buxoriyning musulmonlar uchun Qur'oni karimdan keyingi maqomda hisoblangan "Al-Jome' as-sahih" asari arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Imom Ismoil Buxoriyning "Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari)", „Al Jome' as-sahih" (Ishonchli to'plam),kabi ko'plab axloq-odobga oid asarlari mavjuddir.

Quyida Imom Buxoriy kitoblaridan olingan ilmning fazilati to'g'risidagi hadislaridan keltirib o'tamiz. Alloh taolo Qur`oni karimda:" Alloh taolo sizlarning orangizdagi imon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir",-deyilgan. Yana boshqa oyati karimasida esa: "Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb ayt!"-deyilgan.Rasullulloh sollallohu alayhi vassallam aytganlar: "Alloh taolo menga yuborgan hidoyat singari ilm ham ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi. Ba`zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har-xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba`zi yer qurg'oq qattiq bo'lib, suvni emmasdan, o'ziga to'playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalantiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarni va ekinlarni sug'oradi. Ba`zi yer esa, tekis bo'lib suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kartirmaydi. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran o'rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi. Va Alloh buyurgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadi. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga ham o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq va uchinchisi kofirdir".

Imom al- Buxoriy "Al-Jome' as-sahih" asarining "Ilm kitobi": 10-bobida Bir ishni qilishdan ham, so'zlashdan ham avval ilm darkorligi to'g'risida gapirib: "Ilmga faqat ta'lim olish bilan erishiladi"[2, 40].deb aytgan. Mazkur hadisdan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilm izlamoq har bir musulmonga farzdir.

Islom ta'limotida bilmagan narsasini bilishga harakat qilish, har bir musulmon erkak va ayolga buyuk vazifadir.

Demak, hadis kitoblarida ilm yo'liga kirgan kishining niyati xolis bo'lishi, kishi botinini to'g'rilashi,ilm ko'zi ojizlar uchun qalbning hayoti, zulmatda ko'zning nuri bo'lishi, ilm bilan fikr qilmoq ro'zaga barobarligi, ilm darsi kechalari qilingan ibodatga tengligi, u tufayli halol va haromning farqlanishi, baxtli insonlar unga erishishi, badbaxtlar esa undan mahrum bo'lishi haqida yozilgan. Muhaddislar ilmning ofati unutish, uni loyiq bo'lmagan kishiga so'zlash uni zoye qilishdir deb o'rganilgan ilmni unutmaslik va loyiq bo'lmagan odamlarga so'zlashdan saqlanish zarur deb yetkazganlar.

Imom al- Buxoriy "Ilmni yozish bilan qayd qilinglar"[3, 22].degan hadisni keltirib, ilmni saqlash uchun uni yozib, qayd qilib qo'yish yaxshi ekan, shuning uchun ham o'quvchilarni, talabalarni o'zi bilan birga yon daftari va yozuv qurollari olib yurishga odatlantirish kerak.

Imom al- Buxoriy "Al-Jome' as-sahih" asarining "Ilm kitobi": 15-bobida "Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilish joiz emas, biri- kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersayu, uni haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi- kishiga Alloh taolo ilmu hikmat bersa va shu bilan hukm qilib, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa" deganlar.[3, 42].

Imom al- Buxoriy "Sahihul Buxoriy"[4, 216].da uyatchan ham, dimog'dor ham ilm o'rgana olmaydi deb aytganlar. Demak, talaba yoshlarni ilmli qilish, barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglardan alohida e'tiborni talab qiladi.Barkamol avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida xalqimiz tomonidan, ularning milliy urf-odatlaridan, an'analaridan tajribalar xalq tomonidan yaratilgan ijod namunalaridan va ilmiy amaliy asarlari va qoldirgan boy meroslarida o'z ifodasini topgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki ilm -fanda hadis ilmining amiri deb tan olingan Imom Al-Buxoriy hadislari ko'p aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko'proq

o‘zlashtirilishi bugungi Yangi O‘zbekiston ehtiyojlariga mos kelib, axloqiy fazilatlarni o‘rganish, ya’ni pedagogika, psixologiya fanlarini o‘qitishda yoshlarda ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Xullas, Imom al-Buxoriy hadislari yoshlarni mehnatsevarlik va erksevarlik, har qanday og‘ir vaziyatda ham mustahkam iroda, vazminlik bilan ish tutish va omilkorlik, kelajakka, insonga doir udum va an’analar ruhida shuningdek shaxsda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga katta imkoniyat beradi.Yuqorida keltirilgan ma`lumotlarga tayangan holda Imom Buxoriy hayot tarzi, ilm uchun fidoiyligi, e`tiqodining pokligi bilan barchaga ibrat bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin. Demak, ilm-ma`rifatni jam qilgan, ilm egallagan kishining ikki dunyosi oboddir.

Imom al- Buxoriy hadisalaridan ilm egallash va ma’rifatga erishish yo‘llariko‘zlangan maqsad:

1. Yoshlarni ilmu ma’rifatga chorlash hadis kitoblarining xizmati bo‘lib, ularda ilm talab qilish har bir musulmon va muslima uchun bir umrga farz qilingan;Har bir sog’lom fikrlovchi insonni ijodiy faoliyatga, kasbu-korni halol olib borishiga, vatanparvar bo‘lishiga ya’ni hadisi shariflar barchani to‘g’ri yo‘lga boshlashga xizmat qilishini yetkazish;

2. Hadislarning jamiyatimiz a’zolarini axloqiy tarbiyasi bo‘yicha ahamiyati beqiyos, insonni tarbiyalash ayniqsa bolalarga, talabalarga odob va axloqdan puxta ta’lim va tarbiya berish uning muhim vazifalaridan biridir. Chunki jamiyat a’zolarining yaxshi xulqli, halol va pok bo‘lishini orzu qilsak-u, ammo o‘sha jamiyatning kelajagi bo‘lmish bolalar, talabalar tarbiyasi haqida qayg’urmasak niyatlarimiz sarobligicha qolaveradi;

3. Hadislarda jamiyat a’zolari iqtisodiy tarbiyasi uchun keltirilgan foydalar benazir, ularda halol kasb, halol luqma, haromdan hazar qilish, tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan hadislar ma’rifatli shaxs tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi;

Xulosa. Hadisi shariflarda bugungi kunimizda jamiyat uchun zarur bo‘lgan barcha ezguliklarga chaqiriq va jamiyatga zarar keltiradigan barcha razilliklardan qaytariqlar yetarlicha. Imom al-Buxoriy hadislari o‘z Vatanini sevuvchi uning ravnaqi va istiqboli uchun fidoiy yoshlarimiz, barkamol avlod uchun albatta dastrulamal bo‘lib qolishishubhasizdir.[5, 123].

Shu sababli ma’naviy merosimizni tiklash,o’rganish va hayotga tatbiq etish, jahon andozalari darajasiga ko’tarish va o‘quvchilarni ajdodlarimiz asarlari bilan tanishtirish, maktablarda, litsey va kasb hunar maktablarida, texnikum va oliy ta'lim muassalarida ham shu asarlar asosida tarbiyaviy soatlar, ilmiy amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari, ochiq darslar, Imom al-Buxoriy ziyoratgohiga (Samarqand), Imom al Buxoriy muzeyiga sayohat (Buxoro) o‘tkazilishiga alohida e’tibor qaratish darkordir. [6, 218-223]

Imom al-Buxoriy ta’limotlarni o’rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarasosida Yangi O’zbekiston yoshlarining ma’naviy barkamol jihatdan kamolotgaerishishlari, egallagan bilim va malakalarni o’z faoliyatlarida, jamiyatimiz taraqqiyoti yo’lida to’la namoyonetish imkoniyatiga ega bo’ladigan darajada tarbiyalash muhim vazifalardandir. Albatta, bu ezgu vazifani ijobiyhal etishda xalqimiz ma’naviy merosining ahamiyati kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси (хттпс://сонституцион.уз/уз/пагес/президент_марузаси_25йил)

2. Саҳиҳи-Бухорий: диний маърифий /Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий.- Тошкент: “Munir” нашриёти, 2021.40-б

3. 101 ҳадис: диний-маърифий/ Анвар Аҳмад.- Тошкент: “Боок Медиа Шоп” МЧЖ қошидаги “Munir” нашриёти, 2022. Б-22.

4. Олтинсилсила: СаҳиҳулБухорий, 1-жуз-Тошкент: Hilol-nashr, 2023.- 216-b.

5. УватовУ. МовароуннаҳрваХуросонолимларинингҳадис илмиривожидатутганўрни. – Т., 2004, 123-бет

6. Xaitov Azizbek Azamatovich IMOM AL – BUXORIY MEROSI ASOSIDA TALABA YOSHLARGA MA'RIFATPARVARLIK FAZILATLARINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH. Ta'limda istiqbolli izlanishlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 6. 2024. 222-b.

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА ПРЕЖДЕВРЕМЕННЫХ РОДОВ У ЖЕНЩИН С НАРУШЕНИЕМ ФУНКЦИИ МАТКИ

Сохиба Наркулова,
Самаркандский государственный медицинский университет кафедра акушерство и гинекологии N:3, Ассистент-стажер.

Annotatsiya

Rivojlangan mamlakatlarda erta tug'ilish holatlari 5-7%, neonatal o'lim 28% ni tashkil qiladi. Har yili dunyo bo'ylab 15 million erta tug'ilgan chaqaloqlar tug'iladi. Erta tug'ilish (PB) - muddatidan oldin tug'ilgan bolalarning keyingi hayot sifatini yaxshilash va ular bilan bog'liq moddiy va iqtisodiy xarajatlar muammolarini hal qilish bilan bog'liq murakkab tibbiy-ijtimoiy muammo. Erta tug'ilish bilan bog'liq asoratlarning og'irligi erta tug'ilishning homiladorlik yoshiga mutanosibdir.

Kalit so'zlar: *erta tug'ilish; bashorat qilish; biomarkerlar; relaksin.*

Аннотация

Частота преждевременных родов в развитых странах составляет 5-7%, неонатальная смертность - 28%. Ежегодно в мире рождается 15 миллионов недоношенных детей. Преждевременные роды (ПР) являются комплексной медико-социальной проблемой, связанной с решением задач по улучшению качества последующей жизни детей, родившихся недоношенными и сопряженными материально-экономическими затратами. Тяжесть осложнений, связанных с недоношенностью, пропорциональна гестационному сроку преждевременных родов.

Ключевые слова: *преждевременные роды; прогнозирование; биомаркеры; релаксин.*

Annotation

The incidence of premature births in developed countries is 5-7%, neonatal mortality is 28%. Every year, 15 million premature babies are born worldwide. Preterm birth (PB) is a complex medical and social problem associated with improving the quality of subsequent life of children born prematurely and associated material and economic costs. The severity of complications associated with prematurity is proportional to the gestational age of the premature birth

Keywords: *preterm birth; prognosis; biomarkers; relaxin.*

Введение. Преждевременные роды — одна из наиболее важных проблем современного акушерства, поскольку они являются ведущей причиной детской заболеваемости и смертности. Ежегодно в мире более миллиона недоношенных детей погибает от различного рода осложнений (О.В.Косякова, Беспалова О.Н. 2018). Высокая распространенность преждевременных родов является серьезной клинической проблемой, влекущей за собой значительные социально-экономические и медицинские последствия, ставящей перед акушерами-гинекологами задачу поиска новых их предикторов (Карахалис Л.Ю., Ли Н.В. 2021).

Актуальность. Имеющиеся на сегодня методы диагностики не позволяют в полной мере оценить риски наступления преждевременных родов ввиду низкой прогностической ценности. Это обусловливает необходимость поиска предикторов преждевременных родов, способных повысить точность диагностики. Искомые маркеры должны иметь патогенетическую основу и, что наиболее важно, способствовать ранней

идентификации угрожающих преждевременных родов. Таким предиктором может стать гормон релаксин, так как его роль в патогенезе преждевременных родов доказана, определение содержания в крови не представляет сложностей и возможно уже на ранних сроках гестации.

Как было показано в экспериментальных исследованиях, на ранних сроках беременности релаксин стимулирует биохимические изменения в клетках стромы эндометрия, принимая участие в его децидуализации, а также модулирует активность матриксных металлопротеи-наз, повышает локальную концентрацию иммунокомпетентных клеток, усиливает ангиогенез и тем самым благоприятствует имплантации эмбриона (Mozgovaya EV, Dedul' AG, Oparina TI, Tkachenko NN.2010). На поздних этапах гестации релаксин способствует созреванию шейки матки путем регуляции последовательных процессов деградации и ремоделирования коллагена, вызывает расслабление связок лонного сочленения тазовых костей, таким образом осуществляя оптимальную подготовку материнского организма к физиологическим родам (Шпаков А.О. 2010).

Релаксин один из гормонов надсемейства инсулина, в которое включены семейства инсулина, инсулиноподобного фактора роста и релаксина. Само семейство релаксина состоит из семи гормонов: релаксина-1, -2, -3 и инсулиноподобного пептида-3, -4, -5, -6. За кодирование белков релаксинового семейства в геноме человека отвечают три гена — *RLN1*, *RLN2* и *RLN3*. Пептид, кодируемый геном *RLN2*, представляет основную циркулирующую в крови форму релаксина — релаксин-2 (R2). По структуре релаксин — полипептидный гормон с молекулярной массой около 5–6 кДа. Состоит из двух пептидных цепей А и В, связанных дисульфидными мостиками. Цепь релаксина имеет 22 аминокислотных остатка (у инсулина 21), а цепь В — так же, как у инсулина, 30 аминокислотных остатков. Несмотря на общий план строения, первичная структура цепей релаксина и инсулина существенно отличается, что и обусловливает различную направленность их биологических эффектов. При этом синтез релаксина, так же как и инсулина, осуществляется в форме предшественника препрорелаксина (*preprorelaxin* (*ppRLX*)), который превращается в зрелый гормон в результате отщепления конвертазами сигнального пептида и соединения двух цепей.

В 2003 г. международным медицинским сообществом организована рабочая группа по изучению этиологии и патогенеза досрочного прерывания беременности PREBIC (www.prebicglobal.org). Результаты исследований по-

следних лет серьезно изменили представления о механизмах развития преждевременных родов, что определило необходимость поиска новых диагностических стратегий для их свое временной идентификации. С этой целью разработан проект, основная задача которого заключалась в выявлении возможных предикторов преждевременных родов (проект «Биомаркеры преждевременных родов» (PBP))

Первые данные об обнаружении в крови беременных женщин гормона релаксина были опубликованы W. Pommerenke, D. Abramson в 1934–1937 гг. (в предыдущих исследованиях уровни релаксина оценивались только у животных). Одной из первых определила уровни релаксина на различных сроках беременности группа ученых медицинского университета Южной Каролины (E.M. O'Byrne, B.T. Carriere, L. Sorensen et al.) в середине 80-х гг.

Оценка концентраций релаксина методом радиоиммунного анализа (RIA) в крови 493 беременных показала, что самый высокий уровень релаксина был отмечен в первом триместре беременности (0,55 нг/мл) в сравнении со вторым (0,44 нг/мл) или третьим (0,39 нг/мл) (табл. 1). Полученные данные были для авторов неожиданными, поскольку при исследовании содержания релаксина при беременности у различных видов животных (крыс, мышей, морских свинок и хомяков) такой закономерности выявлено не было.

В 1986 г. австралийские ученые A.H. MacLennan, R. Nicolson, R.C. Green также определяли концентрацию релаксина в сыворотке крови у 379 женщин: 340 беременных в различные сроки гестации, 17 рожениц, 11 родильниц, 11 небеременных. При анализе полученных данных и переводе единиц измерения в нг/мл уровни релаксина при беременности составили

0,61–1,58 нг/мл. Авторы данного исследования впервые высказали предположение об отрицательном влиянии на течение беременности отклонений концентрации релаксина от средних значений. Они отметили увеличение частоты преждевременных родов у беременных с более высоким уровнем релаксина.

Последствия гипо- и гиперсекреции релаксина при беременности

Релаксин является важным участником многих биологических процессов на всех этапах беременности. При этом как его недостаток, так и его избыток может иметь негативные последствия для беременности.

В 2009 г. американские исследователи L. Goldsmith и G. Weiss продемонстрировали отрицательное влияние гипорелаксинемии на метаболизм углеводов. Оценка толерантности к глюкозе у 151 женщины с одноплодной беременностью и нормальным уровнем релаксина (0,92 ± 0,08 нг/мг), его недостатком (менее 0,35 нг/мл), а также избытком (более 1,79 нг/мл) показала, что уровни релаксина отрицательно коррелируют с уровнями инсулина натощак. Низкая концентрация релаксина в крови ассоциируется с повышенной резистентностью к инсулину. В группе же с гиперрелаксинемией чувствительность к инсулину оказалась значимо выше.

В ходе этого исследовании авторы установили и негативную роль повышенного уровня релаксина в отношении развития преждевременных родов. Для изучения влияния гиперрелаксинемии как фактора преждевременных родов были выбраны женщины с одноплодной беременностью при сроке гестации 6–12 недель, которые были разделены на две группы по уровню релаксина: с повышенным уровнем (n = 114) и норморелаксинемией (n = 37).

Гиперрелаксинемия определялась как уровень, превышающий три стандартных отклонения от нормального значения при 6–12 неделях бере-

менности (1,18 нг/мл и более). Анализ данных показал выраженную положительную связь между повышенным уровнем материнского релакси-

на и частотой преждевременных родов. Наличие связи между гиперрелаксинемией во время беременности и риском преждевременных родов в дальнейшем было подтверждено и другими исследователями.

Широкий спектр биологических действий релаксина позволяет небезосновательно полагать существование патофизиологической основы

для реализации релаксин-индуцированного пути развития преждевременных родов.

В 1988 г. австралийские ученые R.J. Bell, L.W. Eddie, A.R. Lester et al. совместно с американскими коллегами одними из первых показали, что беременные, у которых в дальнейшем происходили преждевременные роды, в течение беременности имели более высокие уровни релаксина с сравнении с теми, которые родили своевременно. Далее в 1992 г. датские ученые L.K. Petersen, K. Skajaa, N. Uldbjerg опубликовали результаты когортного исследования, в которое были включены 64 женщины с одноплодной беременностью при сроке гестации 30 недель. В группе пациенток с преждевременными родами средний уровень релаксина был значительно выше — 455 пг/мл против 327 пг/мл в группе срочных родов. В 2001 г. I. Vogel, J. Salvig, N. Secher, N. Uldbjerg при оценке уровней релаксина у 165 беременных в 18 недель гестации получили сходные с предыдущими исследователями результаты. Они установили, что высокие концентрации сывороточного релаксина ассоциируются с 11-кратным увеличением частоты очень ранних преждевременных (22–26 недель) и 6-кратным увеличением ранних преждевременных родов (27–32 недели).

В 2006 г. эта же группа авторов опубликовала результаты исследования, где уровни релаксина определялись еженедельно у 257 пациенток с одноплодной беременностью. В группе с преждевременными родами среднее содержание релаксина в сыворотке крови у женщин составило 1214 пг/мл, что статистически не отличалось от группы срочных родов (1100 пг/мл).

При этом динамическая оценка содержания релаксина в крови показала, что при увеличении срока гестации у женщин, у которых в дальнейшем произошли преждевременные роды, были более низкие показатели релаксина на ранних сроках беременности, чем у женщин, родивших в срок. Но поскольку в группе преждевременных родов снижение релаксина было более медленным, в итоге на поздних сроках у них были определены более высокие концентрации релаксина в сравнении с группой срочных родов.

У родивших досрочно женщин уровень релаксина снижался на 0,9 % в неделю, в то время как в контрольной группе — на 1,9 % в неделю, и эта разница была статистически значимой. На основании полученных данных авторами были сделаны выводы, что только динамическое, а не однократное определение уровня релаксина в течение беременности может быть эффективным для идентификации женщин групп высокого риска по преждевременным родам.

В 2017 г. российские ученые Н.Ю. Каткова, О.И. Бодрикова провели исследования по определению уровня релаксина у женщин с различными вариантами развития спонтанных преждевременных родов (начавшихся с регулярной родовой деятельности или преждевременного излития околоплодных вод).

Выводы. Было установлено, что более высокие значения сывороточного релаксина характерны для пациенток со спонтанными преждевременными родами по сравнению с женщинами, родившими в срок.

Та же закономерность прослеживалась и при сравнении данного показателя в каждом из вариантов преждевременных родов с группой срочных родов. При этом существенной разницы в содержании сывороточного релаксина при сравнении групп с различными вариантами преждевременных родов зафиксировано не было, что, по мнению исследователей, подтверждает роль релаксина в патогенезе каждого из вариантов преждевременных родов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Howson CP, Kinney MV, McDougall L, et al. Born too soon:preterm birth matters. *Reprod Health.* 2013;10 Suppl 1:S1.doi: 10.1186/1742-4755-10-S1-S1.

2. Committee on Practice Bulletins-Obstetrics TACoO, Gynecologists. Practice bulletin No 130: prediction and prevention of preterm birth. *Obstet Gynecol.* 2012;120(4):964-973.doi: 10.1097/AOG.0b013e3182723b1b.

3. Беспалова О.Н., Саргсян Г.С. Эффективность применения акушерского пессария при угрожающих преждевременных родах и короткой шейке матки // Медицинский совет. — 2017. — № 13. — С. 118–126. [Bespalova ON, Sargsyan GS. The effectiveness of the obstetric pessary for threatening preterm birth and short cervix. *Meditsinskiy sovet.* 2017;(3):118-126. (In Russ.)]

4. World Health Organization. WHO Recommendations on Inter ventions to Improve Preterm Birth Outcomes. Geneva:WHO; 2015.

5. Gyamfi-Bannerman C, Menon R, Bonney EA, et al. Novel thoughts on preterm birth research proceedings of the

13th annual preterm birth international collaborative (PREBIC) meeting. *Semin Perinatol.* 2017;41(7):438-441.

doi: 10.1053/j.semperi.2017.07.015.

6. Menon R, Torloni MR, Voltolini C, et al. Biomarkers of spontaneous preterm birth: an overview of the literature in the last four decades. *Reprod Sci.* 2011;18(11):1046-1070. doi:10.1177/1933719111415548.

7. Stone ML, Sedlis A, Zuckerman M. Relaxin — a critical evaluation. *Am J Obstet Gynecol.* 1958;76(3):544-552. doi:10.1016/0002-9378(58)90069-3.

8. Bathgate RA, Halls ML, van der Westhuizen ET, et al. Relaxin family peptides and their receptors. *Physiol Rev.*

2013;93(1):405-480. doi: 10.1152/physrev.00001.2012.

9. Hayes ES. Biology of primate relaxin: a paracrine signal in early pregnancy? *Reprod Biol Endocrinol* 2004;2:36. doi:10.1186/1477-7827-2-36.

10. Halls ML, Bathgate RA, Sutton SW, et al. International Union of Basic and Clinical Pharmacology. XCV. Recent advances in the understanding of the pharmacology and biological roles of relaxin family peptide receptors 1-4, the receptors for relaxin family peptides. *Pharmacol Rev.* 2015;67(2):389-440.

doi: 10.1124/pr.114.009472.

11. Weiss G, Goldsmith LT. Mechanisms of relaxin-mediated premature birth. *Ann N Y Acad Sci.* 2005;1041:345-350. doi:10.1196/annals.1282.055.

12. Bryant-Greenwood GD, Yamamoto SY, Lowndes KM, et al.Human decidual relaxin and preterm birth. *Ann N Y Acad Sci.* 2005;1041:338-344. doi: 10.1196/annals.1282.054.

13. Vrachnis N, Grigoriadis C, Siristatidis C, et al. The Janus face of maternal serum relaxin: a facilitator of birth, might it also induce preterm birth? *J Matern Fetal Neonatal Med.*2015;28(18):2187-2191. doi: 10.3109/14767058.2014.981804.

14. Мозговая Е.В., Дедуль А.Г., Опарина Т.И., Ткаченко Н.Н.Новый взгляд на причины развития симфизиопатии у беременных и поиск эффективных методов лечения // Журнал акушерства и женских болезней. — 2010. — Т. 59. —№ 1. — С. 71–83. [Mozgovaya EV, Dedul' AG, Oparina TI,Tkachenko NN. New look at the causes of the deve lopment of symphysiopathy in pregnant women and searching for effective methods of treatment. *Zhurnal akusherstva i zhenskikh boleznei.* 2010;59(1):71-83. (In Russ.)]

15. Bell RJ, Sutton B, Eddie LW, et al. Relaxin levels in antenatal patients following *in vitro* fertilization. *Fertil Steril.*1989;52(1):85-87. doi: 10.1016/S0015-0282(16)60794-X.

16. Iams JD, Goldsmith LT, Weiss G. The preterm prediction study: maternal serum relaxin, sonographic cervical length, and spontaneous preterm birth in twins. *J Soc Gynecol Investig.*2001;8(1):39-42. doi:10.1177/107155760100800107.

17. Bain E, Heatley E, Hsu K, Crowther CA. Relaxin for preventing preterm birth. *Cochrane Database Syst Rev.*2013;(8):CD010073. doi: 10.1002/14651858.CD010073.

pub2.

18. Kuznetsova L, Plesneva S, Derjabina N, et al. On the mechanism of relaxin action: the involvement of adenylyl cyclase signalling system. *Regul Pept.* 1999;80(1-2):33-39. doi:10.1016/S0167-0115(99)00007-5.

19. Шпаков А.О. Структурно-функциональная организация рецепторов полипептидных гормонов, содержащих LRR повторы, и их взаимодействие с гетеротримерными G-белками // Цитология. — 2009. — Т.51. — № 8. —С. 637–649. [Shpakov AO. Structural-functional organization of polypeptide hormones receptors containing LRR-repeats and their interaction with heterotrimeric G proteins. *Cell tissue biol.* 2009;51(8):637-649. (In Russ.)]

20. Щербаков В.И., Еремеева Л.И. Преждевременные роды и новые стратегии их коррекции: обзор литературы //Бюллетень СО РАМН. — 2008. — Т. 28. — № 3. —С. 38–44. [Shcherbakov VI, Eremeeva LI. Preterm delivery and new strategies of their correction. *Siberian scientific medical journal.* 2008;28(3):38-44. (In Russ.)]

ZAMONAVIY OILALAR BOLALARIGA NISBATAN ZO'RAVONLIK MUAMMOSI: IJTIMOIY PSIXOLOGIK TAHLIL

Barna Koshakova,
Urganch RANCH texnologiya universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlikning psixologik ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda oilaviy zo'ravonlikning bolalar psixologiyasiga, ularning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Maqolada, dunyo bo'ylab olib borilgan statistik tadqiqotlarga asoslanib, oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalarda yuqori darajada tashvish, depressiya, agressivlik, va o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotish kabi psixologik muammolar rivojlanishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy zo'ravonlik nafaqat bolalar ruhiyatiga, balki ularning maktabdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy aloqalari va kelajakdagi shaxsiy hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada oilaviy zo'ravonlikning bolalar psixologiyasiga ta'sirini kamaytirish uchun ijtimoiy yordam, psixoterapiya va profilaktika choralari ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqot oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va bolalar psixologiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada statistik prognozlar orqali kelajakda bu sohadagi rivojlanish va tasirchan chora-tadbirlar kutilayotgan ijobiy o'zgarishlar haqida bashorat qilinadi. Maqola, oilaviy zo'ravonlikning psixologik oqibatlari haqida chuqur tahlil olib borib, bolalar va jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun keng qamrovli chora-tadbirlarni qo'llash zarurligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: *oilaviy zo'ravonlik, bolalar psixologiyasi, emotsional salomatlik, agressivlik, tashvish, depressiya, psixoterapiya, ijtimoiy aloqalar, profilaktika, kognitiv rivojlanish, psixologik ta'sir, ijtimoiy yordam, reabilitatsiya, oilaviy terapiya, bolalar rivojlanishi, psixologik muammolar.*

Аннотация

Данная статья посвящена изучению психологических последствий домашнего насилия в отношении детей. В исследовании проанализировано, как насилие в семье влияет на психологию детей, их эмоциональное, когнитивное и социальное развитие. В статье на основе статистических исследований, проведенных по всему миру, дети, подвергшиеся домашнему насилию, имеют более высокий уровень тревоги, депрессии, агрессии и самооценки. выявлено развитие таких психологических проблем, как потеря доверия. Исследования показывают, что насилие в семье влияет не только на психическое здоровье детей, но и на их успеваемость в школе, социальные отношения и будущую личную жизнь. имеет отрицательный эффект. В статье подчеркивается необходимость развития социальной поддержки, психотерапии и профилактических мероприятий для снижения влияния семейного насилия на детскую психологию. Данное исследование служит научной основой для разработки эффективных стратегий предотвращения насилия в семье и поддержки детской психологии. Также в статье посредством статистических прогнозов прогнозируются позитивные изменения, ожидаемые в дальнейшем развитии, и эффективные меры в этой области. В статье проводится углубленный анализ психологических последствий семейного насилия и необходимости применения комплексных мер, положительно влияющих на развитие детей и общества. доказывает.

Ключевые слова: *насилие в семье, детская психология, эмоциональное здоровье, агрессия, тревога, депрессия, психотерапия, социальные отношения, профилактика, когнитивное развитие, психологическое воздействие, социальная поддержка, реабилитация, семейная терапия, развитие ребенка, психологические проблемы.*

Annotation

This article is devoted to the study of the psychological effects of domestic violence against children. The study analyzed how family violence affects children's psychology, their emotional, cognitive and social development. In the article, based on statistical studies conducted around the world, children exposed to domestic violence have higher levels of anxiety, depression, aggression, and self-esteem. the development of psychological problems such as loss of

confidence has been identified. Research shows that family violence affects not only children's mental health, but also their school success, social relationships and future personal lives. has a negative effect. The article emphasizes the need to develop social support, psychotherapy and preventive measures to reduce the impact of family violence on children's psychology. This study serves as a scientific basis for the development of effective strategies to prevent family violence and support children's psychology. Also, the article predicts positive changes expected in the future development and effective measures in this area through statistical forecasts. The article provides an in-depth analysis of the psychological consequences of family violence and the need to apply comprehensive measures to positively affect the development of children and society. proves.

Keywords: *family violence, child psychology, emotional health, aggression, anxiety, depression, psychotherapy, social relations, prevention, cognitive development, psychological impact, social support, rehabilitation, family therapy, child development, psychological problems.*

Kirish. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik — zamonaviy jamiyatdagi eng og‘ir ijtimoiy va psixologik muammolardan biri bo‘lib, uning bolalar psixologiyasiga ta’siri tobora chuqurlashib bormoqda. Biroq, oilaviy zo‘ravonlikning bolalar ruhiyatiga bo‘lgan salbiy ta’siri faqatgina jismoniy shikastlanish bilan cheklanmaydi, balki ularning emotsional va kognitiv rivojlanishiga ham katta zarar yetkazadi. BMT tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 275 milliondan ortiq bola oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi, bu esa bolalarda psixologik kasalliklarning, jumladan, depressiya, tashvish va agressiv xatti-harakatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Zo‘ravonlikning bolalar ruhiyatiga ta’siri faqat jismoniy zararlar bilan cheklanib qolmaydi; oilada ta’sirchan bolalar ongida o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik, umidsizlik, shuningdek, ijtimoiy va emotsional moslashuvdagi qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bolalar psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bolalar kelajakda o‘zlarining shaxsiy hayotida zo‘ravonlikni modellashtirishlari mumkin, bu esa jamiyatda zo‘ravonlikning takrorlanishiga olib keladi. Tadqiqotlar, shuningdek, oiladagi zo‘ravonlikning bolalarda o‘zini past baholash, ijtimoiy izolyatsiya va agressiv xatti-harakatlarning rivojlanishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Dunyo bo‘yicha amalga oshirilgan statistik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan bolalarning 70%-i 18 yoshga to‘lishidan oldin ruhiy va jismoniy travmalarni boshdan kechirishadi. Bundan tashqari, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan bolalar o‘zlarining ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladi, ularning ko‘plari maktabda yomon o‘qishadi va hamkorlikda ishlashda muammolarga duch kelishadi. Ushbu muammo nafaqat o‘sha oiladagi bolalar uchun, balki kengroq jamiyat uchun ham jiddiy xavf tug‘diradi, chunki bu bola kelajakda ijtimoiy barqarorlikka zarar yetkazishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning psixologik ta’sirini chuqur tahlil qilish, uning sabablarini aniqlash va oldini olish uchun samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish jamiyatning sog‘lom rivojlanishi uchun nihoyatda muhimdir. Yaqin kelajakda oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va psixologik yordamni kuchaytirish bolalar psixologiyasini yaxshilashga, ularning xavfsiz va sog‘lom rivojlanishiga yordam berishi kutilmoqda.

Huquqshunos Q.A. Saitqulovning tadqiqotlarida, shaxsda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolining mavjudligini ko‘rsatuvchi va jabrlanishini taqozo etuvchi omillarga: a) axloqsizlik (15 foiz); b) ishonuvchanlik (13 foiz); v) huquqiy savodsiz (12 foiz); g) soddalik (5 foiz); d) beparvolik va loqaydlik (10 foiz); ye) qo‘rqoqlik (1 foiz); bilimsizlik (5 foiz); j) ochko‘zlik (7 foiz); z) qiziqqonlik (14 foiz); i) yolg‘onchilik (8 foiz); k) insonlarni mensimaslik (4 foiz); l) himoyalanishni bilmaslik (12 foiz) kabi individual viktim xususiyatlarni kiritish mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, tadqiqotlarda huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari zanjirida jabrlanuvchi shaxsiga va hayot tarziga xos individual viktim (yoshga doir) xususiyatlar o‘mi yuqoriligini inobatga olgan holda mazkur xislatlarga xos bo‘lgan toifadagi shaxslar bilan viktimologik profilaktik ishlarni muntazam amalga oshirib borish zarurligini kuzatish mumkin. Agar mahkum jarima miqdorini olti oy muddat mobaynida to‘lashdan bo‘yin tovlasa, sud mazkur jazo turini majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtiradi. Bunda

sud to‘lanmagan jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimani majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga tenglashtirgan holda hisoblab, majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi yoki bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarimani axloq tuzatish ishlarining bir oyiga tenglashtirgan holda hisoblab, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning psixologik ta’siri sohasidagi adabiyotlar kengayib bormoqda va ilmiy doiralarda ushbu muammoning turli aspektlari, jumladan, uning ta’siri, sabablar, va profilaktika usullari bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Ko‘plab psixologik tadqiqotlar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning emotsional va kognitiv rivojlanishga salbiy ta’sirini ta’kidlaydi. Masalan, Barker va Morris (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotda oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarning 50% dan ortig‘i o‘zida ruhiy muammolarni, jumladan, depressiya va tashvishni qayd etishgan. Shuningdek, Cicchetti va Toth (2005) tomonidan olib borilgan tadqiqotda oilaviy zo‘ravonlikdan aziyat chekkan bolalarning psixologik muammolari va agressiv xatti-harakatlarining kelajakdagi ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’siri ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqotlar zo‘ravonlikning bolalar psixologiyasiga uzoq muddatli va jiddiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. Zo‘ravonlikning psixologik ta’siriga doir statistik tadqiqotlar, xususan, BMTning 2016-yildagi hisobotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 275 milliondan ortiq bola turli shakllarda oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi, bu esa ularning psixologik holatini yomonlashtiradi va ularning kelajakdagi salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (APA) tomonidan 2019-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda oilaviy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalarda 70% hollarda tashvish, depressiya va agressivlik simptomlari aniqlangan. Bu esa, bolalar psixologiyasini o‘rganishda zo‘ravonlikning ulkan ta’sirini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar: Bolalar psixologiyasini o‘rganishda zo‘ravonlikka qarshi kurashishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun bir qancha yondashuvlar mavjud. Bowlby va Ainsworth (1978) tomonidan ilgari surilgan bog‘lanish nazariyasi oilaviy zo‘ravonlikning bolalarning ota-onaga bo‘lgan ishonchi va bog‘lanishiga ta’sirini tahlil qilgan. Ular oilaviy zo‘ravonlikni bolalarning emotsional salomatligi uchun xavfli omil deb bilishadi.

Hughes va Graham (2002) esa, o‘z tadqiqotlarida oiladagi zo‘ravonlikdan aziyat chekkan bolalarga psixologik yordam ko‘rsatishning zarurligini ta’kidlab, terapiya va reabilitatsiya yondashuvlarini o‘rganishgan.

Ushbu maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning psixologik ta’sirini o‘rganish maqsadida sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari kombinatsiyasi qo‘llanilgan. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy metodologiyalar quyidagilardan iborat:

Anketalar va so‘rovnomalar: Zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan bolalar psixologiyasini o‘rganish uchun ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalar va anketalar to‘plangan. Tadqiqotda foydalanilgan so‘rovnomalar bolalarning emotsional holatini, o‘z-o‘zini baholash darajasini, tashvish va agressivlik darajalarini aniqlashga qaratilgan. So‘rovnomalar, shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bolalar va ularning oilalari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish imkonini berdi. Misol uchun, Connor-Davidson Resilience Scale (CD-RISC) kabi metodlar bolalar psixologiyasida chidamlilik va stressga qarshi kurashish ko‘nikmalarini o‘lchashda ishlatilgan.

Eksperimentlar va klinik intervyular: Tadqiqotda zo‘ravonlikka uchragan bolalar bilan klinik intervyular o‘tkazildi, bu orqali ularning ruhiy holati, oilaviy muhitdagi vaziyatni tushunish imkoniyati yaratildi. Eksperimentlar asosida, bolalarning stressga qarshi qanday muomala qilishlari, ular qanday hissiy reaktsiyalar ko‘rsatganligi o‘rganildi.

Zo‘ravonlik natijasida kelib chiqadigan turli kasalliklar. Rivojlanish va kognitiv faoliyatdagi buzilishlar. Agar bola yig‘lagani va baqirgani uchun ko‘pincha jazolangan bo‘lsa, bu bolalarda nutq va nutq funktsiyalari buzilishi hamda bu funktsiyalarni tormozlanish holatlari kuzatiladi.

Shuning uchun bu bolalar ko‘pincha yaxshi gapirmaydilar. Ularning his-tuyg‘ularini tasvirlash uchun ishlatadigan so‘z boyligi juda kam. O‘z fikrini yetkazishda qiyinchiliklarga duch keladi. Stress holatida ular hissiy jihatdan yopiq bo‘lib qoladilar. Stress holatida ular hissiy jihatdan yopilib qoladilar. Ular va raqiblari o‘rtasida janjal kelib chiqqanda o‘zlarini qanday his qilganlarini tasvirlash so‘ralganda, ular buni qila olmaydilar yoki

gapirish jarayonida juda hayajonlanishadi. Ulardan mojaroga olib kelgan aniq sabablar va hodisalarni tasvirlash so‘ralganda, ular o‘zlarini ancha qulay his qilishadi.

Markaziy asab tizimidagi buzilishlar. Aniq belgilangan bosh jarohatlari bo‘lmasa, bu bolalar markaziy asab tizimining faoliyatida buzilishlarning "yengil simptomlari" ni boshdan kechirishlari mumkin. Biroq, bunday alomatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan bolalik davridagi tarbiya, chaqaloqlik davridagi e'tiborsizlik, oziqlanish yetishmovchiligi va to‘liq bo‘lmagan hissiy stimulyatsiya kabi ko‘plab holatlar. Ko‘pincha bolalarda aybdorlik hissi bo‘ladi. Xafagarchilik va og‘riqdan tashqari, bola g‘azab va og‘ir ruhiy stressni boshdan kechiradi. Natijada, u o‘z his-tuyg‘ularini inkor qila boshlaydi.

Har xil turdagi zo‘ravonlik bolaning rivojlanishi uchun turli xil oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kaltaklash, jazolash, jinsiy zo‘ravonlik va zo‘ravonlik bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga turli xil, ko‘pincha qarama-qarshi ta'sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘zlarini haqorat qilish holatlarining xususiyatlari bolaga turli yo‘llar bilan ta'sir qiladi.

Kasalliklar zo‘ravonlikning ma'lum bir turiga xos bo‘lishi mumkin: masalan, jismoniy zo‘ravonlik paytida tananing qismlari va ichki a'zolarining turli og‘irlikdagi shikastlanishlari, suyaklarning sinishi. Jinsiy zo‘ravonlik bilan jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar paydo bo‘lishi mumkin: jinsiy a'zolarning yuqumli va yallig‘lanish kasalliklari, sifilis, gonoreya, OITS, siydik yo‘llarining o‘tkir va surunkali infektsiyalari, travma, jinsiy a'zolar va to‘g‘ri ichakdan qon ketish, to‘g‘ri ichak va qinning yorilishi.[4]

Zo‘ravonlikning turidan qat'i nazar, bolalar psixosomatik bo‘lgan turli kasalliklarni boshdan kechirishlari mumkin: semirish yoki aksincha, oshqozon buzilishi tufayli to‘satdan vazn yo‘qotish. Ruhiy zo‘ravonlik uchragan bola, ko‘pincha teri toshmasi, allergik patologiya, oshqozon yarasi, pastki qorinda og‘riqlar mavjud. Ko‘pincha bolalarda duduqlanish, enurez (siydikni ushlab tura olmaslik), enkoprez (najasni ushlab tura olmaslik) kabi nevropsixi atrik kasalliklar rivojlanadi.[5]

Turli xil zo‘ravonliklarga duchor bo‘lgan bolalarning o‘zlari g‘azabni boshdan kechirishadi, bu ko‘pincha zaif bolalarga: yosh bolalarga, hayvonlarga g‘azabini ko‘rsatadi. Ko‘pincha ularning tajovuzkorligi o‘yinda namoyon bo‘ladi, ba'zida ularning g‘azablanishlari aniq sababga ega emas.

Ulardan ba'zilari, aksincha, haddan tashqari passiv, o‘zini himoya qila olmaydi. Ikkala holatda ham, tengdoshlar bilan muloqot buziladi. Tashlab ketilgan, hissiy jihatdan mahrum bo‘lgan bolalarda har qanday yo‘l bilan o‘zlariga e'tiborni jalb qilish istagi ba'zan o‘zini bo‘ysundiruvchi, noodatiy xatti-harakatlar shaklida namoyon qiladi.

Jinsiy zo‘ravonlikdan omon qolgan bolalar jinsiy aloqalar haqida yoshiga mos bilimlarga ega bo‘lishadi, bu ularning xatti-harakatlarida, boshqa bolalar bilan o‘yinlarda yoki o‘yinchoqlarda namoyon bo‘ladi. Hatto maktab yoshiga yetmagan va jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan yosh bolalar ham keyinchalik jinsiy zo‘ravonlikning tashabbuskori bo‘lib, ularga ko‘plab ishtirokchilarni jalb qilishlari mumkin.

Har qanday zo‘ravonlikka uchragan bola o‘z-o‘zini hurmat qilmaslik, o‘zini past baholash, aybdorlik hissi, uyat tuyg‘ularini boshdan kechiradi, u o‘zining eng yomoni ekanligiga doimiy ishonadi. Natijada, bolaga boshqalarning hurmatiga erishish, muvaffaqiyat, tengdoshlar bilan muloqot qilish qiyin bo‘ladi.[6]

Zamonaviy oilalar bolalariga nisbatan zo‘ravonlik muammosi, ijtimoiy psixologik tahlil nuqtai nazaridan, jiddiy va dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda, ijtimoiy muhitning o‘zgarishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, shaxsiy munosabatlar va boshqa ko‘plab omillar oilalar ichida zo‘ravonlikning oshishiga olib kelmoqda. Bu holat, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatib, ularning psixologik va emosional rivojlanishiga zarar yetkazadi. Oiladagi zo‘ravonlik, ko‘pincha, ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar natijasida paydo bo‘ladi. Ota-onalar o‘rtasidagi tushunmovchiliklar, iqtisodiy qiyinchiliklar va stress, oilaviy muhitni keskinlashtirib, bolalar uchun xavfli sharoitlarni yaratadi. Bolalar, bunday muhitda o‘sib, zo‘ravonlikni normal holat deb qabul qilishlari mumkin. Bu esa, ularning keyingi hayotida, ijtimoiy munosabatlarida va o‘z-o‘zini anglashida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan, bolalar oiladagi zo‘ravonlikni o‘zlariga qabul qiladilar va bu holat ularning psixologik holatiga ta'sir qiladi. Ular, o‘zlarini xavfsiz his qilmaydilar, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Bunday bolalar, ko‘pincha, maktabda ham

muammolarga duch keladilar, chunki ular o‘zaro munosabatlarda tajovuzkor yoki o‘zini himoya qilishga intiluvchi bo‘lib qolishlari mumkin. Bu holat, ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Zo‘ravonlikning bolalar psixologiyasiga ta'siri juda chuqur. Ular, oiladagi zo‘ravonlikni ko‘rganlarida, o‘zlarida xavf va qo‘rquv hissini his qiladilar. Bu hissiyotlar, ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi va depressiya, tashvish va boshqa psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, bunday bolalar, o‘zaro munosabatlarda ishonchni yo‘qotadilar va do‘stlik, sevgi kabi hissiyotlarni to‘g‘ri anglay olmaydilar.

Zamonaviy oilalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosini hal qilish uchun, ijtimoiy psixologik yondashuvni qo‘llash zarur. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ota-onalar o‘rtasidagi kommunikatsiyani rivojlantirish va bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish muhimdir. Shuningdek, jamiyatda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish uchun targ‘ibot va ta'lim ishlari olib borish lozim. Bu orqali, bolalar xavfsiz va sog‘lom muhitda o‘sib, o‘zlarini to‘liq rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Zamonaviy oilalarda bolalariga nisbatan zo‘ravonlik muammosi ijtimoiy psixologik jihatdan jiddiy muammo bo‘lib, uning yechimi uchun ko‘p tomonlama yondashuv zarur. Oila, jamiyat va davlat birgalikda harakat qilib, bolalarning xavfsizligini ta'minlash va ularning psixologik rivojlanishiga yordam berishlari lozim. Bu esa, kelajak avlodning sog‘lom va baxtli hayot kechirishiga zamin yaratadi.[7]

Xulosa va takliflar: Tadqiqotlar va tahlillar ko‘rsatdiki, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy sohalarda ham jiddiy oqibatlarga olib keladi. Shunday qilib, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish, bolaning ruhiy va emotsional holatini yaxshilash, shuningdek, oilaviy va jamoaviy yondashuvlar orqali ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha samarali chora-tadbirlar zarur. Bu yo‘lda amalga oshiriladigan strategiyalar jamiyatning rivojlanishi va bolalarning sog‘lom kelajagini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy oilalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosining asosiy sabablari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ota-onalarning stress darajasi va ta'lim tizimidagi kamchiliklar ko‘rib chiqilishi kerak, chunki bu omillar bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish uchun oilalarda sog‘lom muloqot va hissiy qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish zarur, bu esa ota-onalarning psixologik bilimlarini oshirish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlar natijalari asosida, bolalar uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan oilalarga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish vizani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli qarori.

2. Ismailov N.T. Bolalar jinoyatchiligini oldini olishning individual profilaktikasi. Yurid. fan. nomz. ilm. dar. olish uchun diss... avtoref. - Toshkent: TDYU, 2006.

3. Rustambaev M.H. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. T.2. Umumiy qism. Jazo to‘g‘risida ta'limot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO, 2000

4. Mamatqulov, I. (2021). "Oilaviy zo‘ravonlik va uning bolalarga ta'siri". Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.

5. Qodirova, N. (2022). "Bolalar va o‘smirlar orasida zo‘ravonlik: sabablari va oqibatlari". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.

6. Ismoilova, D. (2023). "Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan oilada zo‘ravonlik". Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.

7. Rahmonov, A. (2022). "Zamonaviy oilalarda bolalar tarbiyasida zo‘ravonlik muammolari". Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE TRANSLATION OF HYPERBOLIC EXPRESSIONS

Nilufar Bafoyeva,
Navoi state university, teacher

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz giperbola ni tillararo samarali tarzda ifodalash uchun zarur bo'lgan tarjima ko'nikmalarini o'rganamiz. Ushbu figurativ til elementi matnlarni boyitishda muhimdir, ammo uning madaniy noaniqliklari va kontekstual ma'nolari tufayli tarjimonlar uchun noyob qiyinchiliklar tug'diradi. Giperbola, o'zining ortiqcha ifodalari bilan, asl tonni saqlab qolish uchun mo'ljallangan emosional ta'sirni chuqur tushunishni talab qiladi. Turli misollar va strategiyalarni tahlil qilib, ushbu maqola madaniy kontekst, tilning moslashuvchanligi va ijodiy muammolarni hal qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi, oxir-oqibat bu ko'nikmalarning qanday qilib tarjima qilingan matnlarning to'g'riligi va boyligiga hissa qo'shishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *Oksimoronlar (oxymorons), Giperbola (hyperbole), Taqqoslash (simile), Uilyam Shekspir (William Shakespeare), Oskar Uayld (Oscar Wilde), Kurt Vonnegut (Kurt Vonnegut).*

Annotation

In this article, we explore the translation skills required to effectively convey hyperbole across languages. These figurative language element is essential in enriching texts, yet it pose unique challenges for translators due to its inherent cultural nuances and contextual meanings. Hyperbole, with its exaggerated expressions, demands a keen understanding of the intended emotional impact to maintain the original tone in translation. By analyzing various examples and strategies, this article highlights the importance of cultural context, linguistic flexibility, and creative problem-solving in the translation process, ultimately emphasizing how these skills contribute to the fidelity and richness of translated texts.

Keywords: *oxymorons, hyperbole, similie, William Shakespeare, Oscar Wilde, Kurte* **Vonnegut.**

Аннотация

В этой статье мы исследуем навыки перевода, необходимые для эффективной передачи гиперболы на разных языках. Этот элемент фигуративного языка является важным для обогащения текстов, но он ставит перед переводчиками уникальные задачи из-за своих культурных нюансов и контекстуальных значений. Гипербола, с её преувеличенными выражениями, требует глубокого понимания предполагаемого эмоционального воздействия, чтобы сохранить оригинальный тон в переводе. Анализируя различные примеры и стратегии, эта статья подчеркивает важность культурного контекста, языковой гибкости и креативного решения проблем в процессе перевода, в конечном итоге подчеркивая, как эти навыки способствуют точности и богатству переведенных текстов.

Ключевые слова: *Оксюмороны (oxymorons), Гипербола (hyperbole), Сравнение (simile), Уильям Шекспир (William Shakespeare), Оскар Уайльд (Oscar Wilde), Курт Воннегут (Kurt Vonnegut).*

Introduction. Hyperbole (hi-PURR-boh-lee), derived from the ancient Greek word huperbolē meaning "to throw beyond," is a form of exaggeration used for dramatic, poetic, or humorous purposes. It's a common literary device that enhances writing. For example, if Fatima is extremely hungry and her favorite snack is wheat crackers, she might say to a friend, "I'm so hungry, I could eat the whole cracker aisle at the supermarket!" This statement is obviously an exaggeration; even a competitive eater couldn't consume an entire aisle of food. Fatima is simply trying to convey to her friend that she feels much hungrier than usual.

Examples of Hyperbole in Literature

1. Bhartrihari, "A Man May Tear a Jewel"

Composed in Sanskrit, this short but dense poem uses superhuman exaggerations to illustrate how difficult it is to change the mind of an ignorant person who believes they are right:

According to the poet, one would have an easier time fighting a sea monster for a treasure or wrapping an aggressive snake around their head than convincing someone that they're wrong.

2. William Shakespeare, Macbeth

After killing King Duncan in Act II, Scene 2, Macbeth realizes there is no way to absolve himself of his sin:

A man may tear a jewel
From a sea monster's jaws,
Cross a tumultuous sea
Of raging tides,
Or twine garlandwise
A wrathful serpent on his head.
But no man can alter
The thoughts of an obstinate fool.

Neptune's ocean wash this blood
Clean from my hand? No. This my hand will rather
The multitudinous seas incarnadine,
Making the green one red.

The guilt makes Macbeth feel as though his hands will never again be clean—a hyperbolic sentiment in itself. He emphasizes this by saying that if he attempted to "wash his hands," he would turn the green sea red. This powerful hyperbole, which marks the apex of the play's rising action, underlines the guilt and disgust Macbeth experiences after killing King Duncan.

3. Judith Ortiz Cofer, "Quinceañera"

In this poem that explores the challenges of growing up, family dynamics, and societal pressures regarding womanhood, Cofer employs vivid imagery and figurative language to express her feelings of discomfort and confusion:

My hair has been nailed back with my mother's black hairpins to my skull. Her hands stretched my eyes open as she twisted braids into a tight circle at the nape of my neck. …

In this stanza, Cofer illustrates her mother's hairstyling method as if she were literally fastening the hair to her head. This exaggerated expression highlights the discomfort she experiences from the use of hairpins and the process of having her hair braided.

Joseph Conrad, *Heart of Darkness*

In his famous novella, Conrad seems to praise and criticize imperialism at once. After 30 days at sea, Marlow, Conrad's narrator/protagonist, encounters a group of Africans who have worked themselves sick to build a railroad and have been left for dead.

I had to wait in the station for ten days—an eternity.

While 10 days is much shorter than an eternity, Conrad is using hyperbole to describe his protagonist's discomfort. Perhaps Marlow, a willing participant in exploitative colonialism, feels guilty when seeing this system in action. Thus, his time at the station seems to drag on.

5. Kurt Vonnegut, *Slaughterhouse Five*

This deeply ironic comedy draws from the author's actual experiences during World War II. Vonnegut was a prisoner in Dresden, Germany, and lived through the bombing of the city, which resulted in the deaths of approximately 25,000 civilians.

There was a fire-storm out there. Dresden was one big flame. The one flame ate everything organic, everything that would burn.

It wasn't safe to leave the shelter until noon the following day. When the Americans and their guards finally emerged, the sky was filled with smoke. The sun appeared as a small, angry dot. Dresden resembled the moon, reduced to nothing but minerals. The stones were warm to the touch. Everyone else in the area was gone.

Famous Examples of Hyperbole in Literature

Hyperbole is commonly used in literature, and there are many well-known examples. In this regard, our coursework writing service experts provide an overview of some famous instances.

William Shakespeare's Romeo and Juliet:

'For never was a story of more woe than this of Juliet and her Romeo.' - This line exaggerates the tragedy and sadness of Romeo and Juliet's love story.

Jonathan Swift's Gulliver's Travels:

'I'm dying with hunger!' - Gulliver exaggerates his hunger to emphasize his desperation.

Ray Bradbury's Fahrenheit 451:

'The sun burnt every day. It burnt Time.' - This line expresses the extreme heat and the personal toll it takes on the characters.

F. Scott Fitzgerald's The Great Gatsby:

'So we beat on, boats against the current, borne back ceaselessly into the past.' - This line exaggerates the struggle and futility of trying to change the past.

Ernest Hemingway's The Old Man and the Sea:

'He was full of resolution, but he had little hope.' - This line presents the character's determination while highlighting the challenges he faces.

These examples demonstrate how hyperbole can be used to enhance imagery, convey intense emotions, and make a lasting impact on the reader [3, 14].

Navoi, the great Uzbek poet, a representative of Uzbek literature, had been a master of using figurative language. In his Khamsa's (Quintuple) second epic poem (called "Farhad and Shirin"), he described children like***: "Gradually, the boy became so handsome and strong that he could lift a bull in one hand, pull out a tree by its roots, and move it from one place to another".***

Research methodology. Hyperbole, an exaggerated statement not meant to be taken literally, is a common figure of speech in many languages. Translating hyperbole can be challenging due to its reliance on cultural context and emotional impact. Here are some effective methods for translating hyperbole:

1. Cultural Equivalence. Sometimes, a direct translation of a hyperbolic expression may not resonate with the target audience. Look for culturally equivalent expressions that convey a similar sense of exaggeration. For instance, the English expression "I'm so hungry I could eat a horse" might be translated into a local saying that expresses the same sentiment.

2. Maintaining the Exaggeration. If a direct equivalent is unavailable, aim to preserve the exaggerated effect. You might use a different but similarly strong hyperbolic expression in the target language. For example, translating "I've told you a million times" could become "I've told you a thousand times" to keep the hyperbolic nature intact.

3. Using Literal Translation Sparingly. While some hyperbolic phrases can be translated literally, this is often not the best approach. Always assess whether a literal translation will maintain the intended impact. If it falls flat, consider rephrasing.

4. Audience Consideration. Tailor your translation to the target audience. What works in one context may not work in another. For example, a youthful audience may appreciate modern slang hyperboles, while a more formal audience might require a more traditional approach.

In summary, translating hyperbole requires an awareness of context, culture, and audience. By employing these methods, translators can effectively convey the humor, drama, or intensity that hyperbole brings to language.

The function of hyperbole as a literary device is to enhance the brightness, emotional depth, and credibility of a text. It is frequently utilized by humorous writers to craft satirical portrayals of their characters, allowing readers to vividly imagine these images in their minds. Identifying hyperbole in a text is quite straightforward, as it often manifests in pronounced phrases that stand out due to their exaggerated nature. For instance, expressions like "the girl's eyes were as large as saucers" or "the dog was the size of an elephant" serve as clear examples of hyperbole. These phrases represent an obvious embellishment of reality, as one does not encounter girls with such large eyes or dogs that are elephant-sized in real life. These examples illustrate a basic use of this stylistic device within Russian literature.

Both metaphor and hyperbole are widely recognized literary techniques. A writer employs metaphor to draw comparisons between different people or things, often resulting in unusual associations. While some metaphors may appear exaggerated, they aren't always intended to be taken literally. In contrast, hyperbole is specifically designed to exaggerate and should not be interpreted literally. For example, saying "his words are music" might be an overstatement and thus a metaphor. However, claiming that "his words are the greatest melody ever heard" is a clear exaggeration and exemplifies hyperbole, which inherently aims to amplify the subject in question.

Analysis and results. Hyperbole, as a tool for exaggeration, is often used to inject humor into writing. In satire, it serves to amplify or diminish characters, ideas, or situations through overstatement or even understatement. Satirical works typically hinge on two main elements, one of which involves a narrative that employs exaggeration, much like Jonathan Swift does in "Gulliver's Travels." Hyperbole proves effective in various ways; by dramatically overstating aspects such as a character's traits, the author's tone, themes, or ideas, it can engage readers' attention. Moreover, it can prompt readers to question the reliability of a narrator, reflect on the author's true intentions, or simply provide absurd humor for entertainment.

Swift's satirical essay exemplifies his critique of the oppressive policies and attitudes of the British aristocracy toward Ireland and its impoverished citizens in the early eighteenth century. One of the most notable hyperbolic passages in literature occurs when Swift suggests the outrageous idea of selling Irish children as a food source to alleviate the economic struggles of the Irish population. This suggestion is clearly hyperbolic and not meant to be taken literally; rather, it serves as an extreme exaggeration. The almost nonchalant tone with which Swift presents this hyperbole shocks readers just as much as the proposal itself. In his essay, hyperbole functions as both a literary and rhetorical device, creating a serious and ironic impact for the audience.

Classical literature often relies on conveying the author's emotions to the reader within the context created by the author. Many renowned writers have effectively used hyperbole among other literary techniques to articulate their viewpoints. Consequently, when studying classic works, students seek out epithets, similes, and personifications, striving to understand why authors chose specific techniques. Among these artistic devices, hyperbole is also examined. Below are examples that illustrate what hyperbole is. This is a special deliberate exaggeration, which allows the author to achieve the desired effect. This term is very ancient, the technique began to be used in ancient times [4, 327].

Conclusion. In conclusion similes, oxymorons, and hyperboles are powerful literary devices that can add vivid imagery, emotional depth, and humor to writing. Translating these figures of speech requires careful consideration to preserve their intended meaning and impact in the target language. By employing strategies such as maintaining the essence of the comparison, adapting to cultural context, and using equivalent expressions, translators can effectively convey the nuances and expressive power of these literary devices across linguistic barriers. Through skillful translation, the richness and complexity of the original text can be preserved, allowing readers to fully appreciate the beauty and impact of these literary devices in a new language.

REFERENCES:

1. Alpomish – uzbek epic poem.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin/ A. Hojiahmedov. - Toshkent; Akademnashr, 2015

3. Prof. Wesley Spencer. Min Read. Last updated: Jul 6, 2023. Published: Jul 6, 2023
4. Urazbaeva Dilnoza Ruzimbaevna. Hyperbole as a Stylistic Device. Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 https://zienjournals.com. Date of Publication: 25-04-2022 Urazbaeva Dilnoza Ruzimbaevna. Hyperbole as a Stylistic Device. Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 https://zienjournals.com. Date of Publication: 25-04-2022

O'ZBEK ADIBLARI ASARLARIDA UCHRAYDIGAN STILISTIK USLUBLAR TARJIMASI HAMDA ULARNING LINGVOMADANIY JIHATARI (O'XSHATISH, MUBOLAG'A MISOLIDA)

Nasiba Iskanova,
Navoiy davlat universiteti, dotsent v.v.b

Annotatsiya

O'xshatish va mubolag'a elementlarining tarjima jarayonida, ularning ma'nosini to'g'ri ifodalash, badiiy va stilistik jihatlarni saqlash o'ta muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada o'zbek adiblari asarlaridagi stilistik uslublar, xususan, o'xshatish (simile) va mubolag'a (hyperbole) kabi stilistik vositalarning tarjimasi va ularning lingvomadaniy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada o'xshatish va mubolag'aning tarjimasi o'rganiladi, chunki bu stilistik vositalar adabiy tarjimada ko'p hollarda tilning o'ziga xos xususiyatlari va izohlarni talab qiladi. Ushbu maqolada tarjima jarayonida madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olish, tarjimonning kreativ yondashuvi, hamda o'xshatish va mubolag'a kabi stilistik vositalarning to'g'ri va mazmunli tarzda aks ettirilishi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: *o'xshatish, mubolag'a, stilistik uslublar, tarjima, lingvomadaniy jihatlar, o'zbek adiblari, badiiy ifoda.*

Аннотация

В процессе перевода элементов сравнения и гиперболы крайне важно правильно передать их смысл, сохранив художественные и стилистические аспекты. В данной статье анализируются стилистические приемы в произведениях узбекских писателей, в частности, перевод сравнения (simile) и гиперболы (hyperbole) и их лингвокультурные аспекты. В статье рассматривается перевод сравнения и гиперболы, поскольку эти стилистические средства в литературном переводе часто требуют учета особенностей языка и дополнительных пояснений. В статье также обсуждаются культурные и лингвистические различия, которые необходимо учитывать в процессе перевода, креативный подход переводчика и правильная и содержательная передача таких стилистических приемов, как сравнение и гипербола.

Ключевые слова: *сравнение, гипербола, стилистические приемы, перевод, лингвокультурные аспекты, узбекские писатели, художественное выражение.*

Annotation

In the process of translating elements of simile and hyperbole, it is extremely important to correctly convey their meaning while preserving the artistic and stylistic aspects. This article analyzes the stylistic devices in the works of Uzbek writers, specifically the translation of simile and hyperbole, and their linguocultural aspects. The article examines the translation of simile and hyperbole, as these stylistic devices in literary translation often require consideration of the specific features of the language and additional explanations. The article also discusses the cultural and linguistic differences that must be taken into account during the translation process, the creative approach of the translator, and the correct and meaningful rendering of stylistic devices such as simile and hyperbole.

Keywords: *Simile, hyperbole, stylistic devices, translation, linguocultural aspects, Uzbek writers, artistic expression.*

Kirish. Xorijiy tillarni o'rgatish hamda o'rganishda tarjimaning o'rni juda muhimdir. Tarjima — bu til o'rganish jarayonining samarali va muhim qismidir, chunki u nafaqat tilning grammatik tuzilishini, balki uning

madaniy, ijtimoiy va emotsional aspektlarini ham o‘rganishga yordam beradi. Tarjima qilish orqali til o‘rganuvchilar yangi so‘z, ibora va grammatik tuzilmalarni tezda o‘zlashtiradilar. Ular nafaqat so‘zma-so‘z tarjima qilishni, balki so‘zlarning kontekstda qanday ishlatilishini ham o‘rganadilar. Shu bilan birga, talaba xorijiy tilning o‘ziga xos madaniy kontekstini tushunishga ham muvaffaq bo‘ladi. Har bir til o‘ziga xos ifodalar, urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy me‘yorlarga ega bo‘lib, tarjima bu elementlarni o‘zida aks ettiradi.

Masalan, biror madaniyatda ishlatiladigan maqol yoki stilistik vositalar boshqa madaniyatda to‘liq tushunilmasligi mumkin, tarjima bu farqlarni aniqlash va til o‘rganuvchiga madaniyatlararo til birliklarini o‘rganishga, mazkur millatni o‘ziga xos milliylik darajasini tushunishga yordam beradi. Filolog talabalarning tarjima jarayonida mantiqiy va ijodiy fikrlashi rivojlantiradi. Har bir ibora yoki so‘zning kontekstga qarab mos keladigan tarjimasini topish zarurati til o‘rganuvchini tildan foydalanishning yangi usullarini o'rganishga undaydi. Tarjima qilish nafaqat tilning grammatik aspektlarini, balki uning stilistik va emotsional elementlarini ham o‘rganishga yordam beradi. Tarjimon matnning ohangini, uslubini va xatti-harakatlarini saqlab qolishga harakat qiladi, bu esa o‘rganuvchining tilni chuqurroq tushunishini ta‘minlaydi.

Tarjima jarayonida talabalar ko‘pincha xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Bu xatoliklarni tahlil qilish va to‘g‘ri variantni tanlash, tilni o‘rganishda muhim qadamdir. Bu jarayon orqali o‘rganuvchi o‘z bilimlarini sinab ko‘radi va ularni takomillashtiradi. Shu tarzda, tarjima til o‘rganish jarayonida faqat tilning texnik jihatlarini emas, balki lingvomadaniy va psixologik jihatlarini ham o‘rganishga yordam beradi. Bu esa o‘rganuvchiga tilni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishda muhim omil bo‘ladi.

Tarjimada asl nusxaning shakl va mazmun birligini, yaxlitligini bejirim ifoda etish uchun tarjima tilida muqobil ifoda vositalari qidirib topish zarurati tug‘ildi. Bu jarayon asl nusxa mazmunini o‘zga tilda ifoda etishning qator imkoniyatlari orasidan eng maqbulini tanlab olishni taqazo etadi [1, 90].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. V. Maslova fikricha, o‘xshatish etalonlari, xalqning dunyoqarashi va idrokini aks ettirgan, til va madaniyatni anglashda muhim rol o‘ynaydi. O‘xshatishlar, ayniqsa, bir predmetning boshqa predmetga o‘xshatilishi orqali, xalqlarning o‘ziga xos tili, madaniyati va mentalitetini ko‘rsatadi. Bu jarayonda, bir predmet bir xil o‘xshatish orqali turli millatlarda o‘ziga xos tarzda ifodalanishi mumkin, bu esa xalqlar o‘rtasidagi farqlarni va o‘xshashliklarni yuzaga chiqaradi.

“Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-biriga teng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlaribir-biriga “ekvivalentlik” holatida bo‘lmaydi. Shu sababdan ko‘r-ko‘rona tarjima qilish mumkin emas. So‘zlaring aniq mazmuni bilan estetik sifatlari o‘zaro bir-birining o‘rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham matnning tili qanchalik serma‘no, badiiy tarafdan serjilo bo‘lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi” [2, 33].

Tarjimada eng katta muammo – madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklarni aniqlashdir. Ma‘lum bir madaniyat vakillari biror narsaga o‘z nuqtai nazaridan qaraydi. Tenglashtirilgan so‘zlar haqiqatan ham teng bo‘lmasligi mumkin. Turli madaniyatlar turli yo‘nalishlarga ega. Masalan, bog‘dorchilik, qishloq xo‘jaligi, uy hayvonlari va kundalik hayot o‘zbek madaniyatida katta ahamiyatga ega bo‘lsa, ingliz va amerika madaniyatlarida daromad, bayramlar, moliyaviy suhbatlar, sport va foydalar katta e‘tibor qaratiladigan mavzulardir. Ba‘zi jamiyatlar texnik jihatdan rivojlangan, boshqalari esa kamroq texnik jihatdan rivojlangan. Biz uchta tilda stilistik vositalarni tarjima qilib, taqqoslash uchun ba‘zi adabiy matnlarni tanladik. O‘xshatishlar adabiyotda yozishni jonli va kuchli qilish uchun ishlatiladi. Kundalik nutqda esa ular ma‘noni tez va samarali yetkazish uchun, ko‘plab ishlatiladigan iboralar yoki idiomalar sifatida ishlatiladi.

Masalan, ingliz tilida *"He is as busy as a bee,"* tarjimada esa "*U xuddi asalaridek tinmaydi"* deb tarjima qilinsa, bu uning juda mehnatkashligini anglatadi, chunki asalariilar juda tinib-tinchimaydigan, mehnatkashligi bilan tanilgan. Ammo bu tarjimani o‘zbek tiliga taqqoslasak, ular asalari o‘rniga *“chumoli”*ni ishlatadilar. Rus tilida esa kundalik hayotlarida xuddi inglizlarga o‘xshab, “asalaridek mehnatkash” deb ishlatishadi. Qo‘yida, biz talabalar bilan tarjima qilish jarayonida birgalikda bajargan tarjimalarimizdan misol tariqasida keltirib o‘tmoqchimiz. Talaba, asl matnning uslubini saqlab qolgan holda, yangi tilga mos ravishda uni tushunarli va estetik jihatdan to‘g‘ri ifodalashni maqsad qilishi kerak edi. Bu jarayonda tarjimonning til va adabiyotga bo‘lgan chuqur bilimlari zarur hisoblanadi. Mazkur misollarda ona tilidan ingliz tili so‘zma-so‘z tarjima qilish jarayoni

aks etgan. Ammo, tovus o'zbek tilida go'zallik rang-baranglik timsoli hisoblasa, ingliz tilida esa kibr, mag'rurlik sifatida tushuniladi [3, 27].

-Birinchi kursda o'qib yurganida, Elmira guldek qiz edi. Hech kimni pisand qilmasdi [4, 126].

-*When she was a freshman, she was so beautiful* ***like a flower****. She was vain* ***as a peacock****.*

…Osmonda katta-kichik varraklar shunaqangi ko'pki, biri shoh tashlab, boshqasi havolab, chiroyli uchyaptiki, bepoyon osmonda xuddi qush bozori bo'layotganga o'xshaydi [5, 11].

…In the sky, there are so many big and small kites, some of them are soaring, and the other are flying gracefully, and that it seems as if the endless sky is turning into a bird market.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar badiiy tarjimani tarjima qilishda o'xshatish hamda mubolag'ani tarjima jarayonida quyidagi asosiy muammolarni his qilishadi:

Har bir til o'ziga xos stilistik elementlarga ega bo'lib, ularni boshqa tilga to'liq ko'chirish ba'zida qiyinligini universitetimiz talabalari tarjima jarayonida duch kelishdi. Ayniqsa, tarjimonda madaniy farqlarni hisobga olish zarurligi, o'zbek tilidagi ba'zi iboralar boshqa tillarda mavjud bo'lmasligini angladilar.

Stilistik uslublar ba'zan oddiy so'zma-so'z tarjima orqali ifodalanmasligini, matnning asl ruhiyatini va uslubini saqlab qolgan holda, chet tilga moslashtirish lozimligini tarjima jarayonida anglab yetdilar va tarjima qoidalariga amal qilish lozimligini angladilar. Tarjima jarayonida uchragan misollarni qo'yida berib o'tamiz.

-Gapni oldi-orqasiga qarab gapiring! Men sizni yomon bo'ling demayapman.

… Bo'ldiradigan ham xotin, o'ldiradigan ham xotin [6].

- *Be careful with your words! I do not wish you badness! An excellent wife is the crown of her husband, but she who brings shame is like rottenness in his bones.*

-Shu bilan uyimiz xuddi qabristonday jimjit bo'ldi-qoldi [7, 221).

- *With that, our house became as silent as a grave.*

Bo'lg'usi filolog talabalar o'zbek xalq adabiyotidagi ba'zi tasvirlar yoki o'xshatish, mubolag'a boshqa tillarda noaniq yoki tushunarsiz bo'lishi mumkinligini tarjima jarayonida chuqur anglab yetdilar. Qo'yida misol keltirib o'tmoqchimiz:

-*Buning ustiga, shunaqangi ozg'inki, xuddi tandirga olov yoqadigan kosovga o'xshaydi.*

-*Besides, she is so thin, she is as thin as a rake like skin and bone.*

Muammo va Muvaffaqiyatli Yondashuvlar

Tarjima va tarjimonlik jarayonini rivojlantirish uchun ba'zi muvaffaqiyatli yondashuvlar kiritilishi kerak:

1. Resurslarning yaxshilanishi: Bu yerda o'qituvchi o'zining ijodkorlik va yaratuchanlik qobiliyatini ishga solib barcha talabalarni darsga qiziqtirishga va jalb qilishga harakat qilishi kerak. Darslarda eskirgan metod va strategiyalardan emas balki talabalarning qiziqish va hohishlariga qarab badiiy asarlarni tanlash va resurslarni yangilashi, yaratishi kerak.Talabalarga zamonaviy ta'lim resurslari va kutubxona, tarjima qilingan badiiy asarlarni solishtirish, qiyoslash bilan talabalarni tarjima san'atiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, imkoniyatlar yaratish, onlayn lug'atlar, ensiklopediya, tilshunoslik manbalaridan foydalanish kerak bo'ladi.

2. Tarjima jarayonida faqat so'zlarni almashtirish yetarli emasligini anglagan holda, asl matnning mazmunini, ruhini va uslubini saqlash zarurligini bilgan holda , matn ma'nosini va tuzilishini aniq ifodalashga harakat qilish lozim bo'ladi. Bunda O'zbekistondagi yetuk tarjimonlar tarjima asarlaridan namunalar keltirish, qiyoslab o'rganish, tahlil qilish, tarjimonlik uslublarini tushunish uchun solishtirma metodidan unumli foydalalnish kerak bo'ladi. Bunda esa, tarjimonlarning qanday yondashuvlar qo'llaganini, muammolarni qanday hal qilganini ko'rib chiqilishi va o'zimizga foydali bo'lgan usullarni o'zlashtirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarjima darslarida qo'llaniladigan zamonaviy metodlar til o'rganuvchilarga tilni samarali o'rganish va tarjima qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Quyida tarjima darslarida qo'llaniladigan ba'zi zamonaviy metodlar keltirib o'tamiz:

Kommunikativ metod talabalarga tilni muloqot vositasi sifatida ishlatish ko'nikmalarini oshirishga yordam bersa, *kontekstual yondashuv* orqali o'rganiladigan matnlarning konteksti, madaniy va ijtimoiy muhitlari o'rganiladi. Transmadaniy metod yordamida talabalarga madaniy tafovutlarni tushunish va to'g'ri moslashtirish ko'nikmalari o'rgatilsa, ijodiy va interpretativ metodda talaba tarjima qilayotgan matnning asliyatini saqlab qolgan holda, o'z tilida ijodiy yondashuvni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Zamonaviy tarjima metodlarida internetda mavjud bo'lgan videodarslar, onlayn kurslar va interaktiv mashg'ulotlar ham qo'llanilsa, simulyatsiya va rolli o'yinlar yordamida esa talabalar real hayotdagi tarjima vaziyatlarini amalda bajarishsa, biz kutgan natijalarga erishgan bo'lamiz.

Onlayn lug'atlar va terminologiya bazalari tarjimondan olingan maxsus terminlarni to'g'ri va bir xil tarzda tarjima qilishni ta'minlaydi. Bunday resurslar talabalarga so'zlar va iboralarning aniq va to'liq ma'nolarini aniqlashda yordam beradi. Misol tariqasida Lingvo, WordReference, Reverso, ProZ.com terminologiya bazalari hamda multimedia vositalari (video, audio va vizual materiallar) tarjima darslarida tilni va madaniyatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu texnik vositalar talabalarga matnning kontekstini yaxshiroq anglash, stilistik jihatlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Masalan, video va filmni tarjima qilish (subtitrlash), darslarda audio materiallar va intervyularni tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Onlayn o'quv platformalari va interaktiv kurslar yordamida talabalar tarjima darslarini yanada interaktiv va samarali tarzda o'rganishlari mumkin. Coursera, Udemy, edX, Memrise, Duolingo platformalar video darslar, mashqlar, testlar va topshiriqlarni o'z ichiga oladi va albatta, dars samaradorligini oshiradi.

Mobil ilovalar, ya'ni Google Translate, iTranslate, Reverso, SayHi Translator ilovalar yordamida talaba istalgan joyda va vaqtda tarjima qilishni o'rganishi mumkinligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda tashqari, onlayn forumlar va jamoaviy ProZ.com (tarjimonlar uchun forum), Reddit, Quora kabi jamoaviy platformalaplar talabalarga tarjima bo'yicha fikr almashish va bir-birining tarjimalarini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Onlayn resurslar, avtomatik tarjima vositalari, CAT tizimlari va multimedia vositalari kabi texnologiyalar tarjima jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi. Bu vositalar talabalar uchun tarjima qilishda tezlikni oshirish va malakasini yaada rivojlantirishga ko'mak beradi.

Albatta bu qulayliklar dars jarayonini, til o'rganishni, tarjima qilishni yengillashtiradi, shu bilan bir vaqtda shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bizni nazarimda mazkur qurilmalar tafakkurimizni o'tmaslashtirib qo'yayotgandek. Masalan, dars mashg'ulotlarida tarjima uchun juda sodda topshiqlar berilganda ham talaba yoshlarimiz o'ylab o'tirmay, izlanmasdan turli qidiruv vositalari jumladan, sun'iy intellektga murojaat qilishadi. Ammo tarjimon-o'qituvchi misolida, biz ularni o'zlari ongli tarzda fikrlashlarini, yod olgan leksik birliklarni, stilistik vositalarni, grammatikaga asoslagan holda inson faktorini ishga solishlarini xohlaymiz.

Xulosa. Mazkur maqolada o'zbek adiblari asarlarida uchraydigan stilistik uslublar, xususan, o'xshatish (simile) va mubolag'a (hyperbole) kabi stilistik vositalarning tarjimasi va ularga xos lingvomadaniy jihatlar tahlil qilindi. Ushbu stilistik uslublar adabiy asarlarda badiiy tasvirlar yaratishda, voqealarni jonlantirishda va hissiy ifodalarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning tarjimasi jarayonida til va madaniyat farqlari, shuningdek, tilning o'ziga xos xususiyatlari va konteksti hisobga olinishi zarur. O'xshatish va mubolag'a kabi elementlarni tarjima qilishda, ularning ma'nosini to'g'ri va mazmunli tarzda aks ettirish uchun tarjimonning kreativ yondashuvi va madaniyatlararo tafovutlarni tushunishi muhimdir.

Maqolada keltirilgan misollar va tahlillar orqali, o'zbek adabiyotidagi stilistik uslublarning tarjimasi nafaqat til o'rganuvchilari, balki tarjimonlar uchun ham ko'plab qiyinchiliklar va imkoniyatlarni ochib beradi. To'g'ri tarjima, badiiy ifodaning hamda adabiy asarlarning asl ruhiyatini saqlashga xizmat qiladi, shu bilan birga, madaniyatlararo muloqot va tushunishni chuqurlashtiradi. Demak, stilistik uslublar tarjimasi nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy tushunchalarni ham anglashga zamin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musayev Qudrat. Tarjima nazariyasi asoslari. O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti-2005
2. Ochilov Ergash. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent-2012

3. Iskanova Nasiba. The interplay between language, literature and culture. *Monograph. Navoiy-2022.*
4. Hoshimov O'tkir. "Ikki eshik orasi" «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2012
5. To'xtaboyev Xudoyberdi. "Besh bolali yigitcha", Sarguzasht roman. Toshkent "Yangi asr avlodi", 2009-yil
6. Hoshimov O'tkir, "Dunyoning ishlari" Qissa. Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2018
7. Qahhor Abdulla. Sinchalak qissa., www.ziyo.uz.com kutubxonasi
8. Qahhor Abdulla. "O'tmishdan ertaklar" (qissa) Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988-yil
9. Qambarov N. Universal Lug'at - ma'lumotnoma, Universal handbook and dictionary for English learners and translators, Toshkent, "Turon-Iqbol", 2014.
10. Zoya Proshina. (2008) Theory of Translation, (English and Russian) Vladivostok Far Eastern University Press.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "KREATIVLIK" KONSEPSIYASI

Sohiba Abduraimova,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada muallif tomonidan "Kreativlik" konsepsiyasi, kreativlik kompetentlikka ega pedagog va talabalarning malakalari, bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarning yo'nalishlari, talabalarning kreativligining namoyon bo'lish shakllari, talabalar kreativlik qobiliyatining rivojlanishi bog'liq bo'lgan omillar va tamoyillarga alohida to'xtalib o'tilgan.
Kalit so'zlar: *"Kreativlik" konsepsiyasi, bo'lajak pedagog, omillar va tamoyillar, malaka.*
Annotation
This article discusses the concept of "creativity," the competencies of teachers and students with creative skills, the directions of lessons aimed at developing the creativity of future educators, the forms of manifestation of students' creativity, and the factors and principles related to the development of students' creative abilities.
Keywords: *concept of "creativity," future educator, factors and principles, competency.*
Аннотация
В данной статье рассматривается концепция «креативности», компетенции педагогов и студентов, обладающих креативными навыками, направления занятий, направленных на развитие креативности будущих педагогов, формы проявления креативности студентов, а также факторы и принципы, связанные с развитием креативных способностей студентов.
Ключевые слова: *концепция «креативности», будущий педагог, факторы и принципы, компетенция.*

Kirish. "Kreativlik" konsepsiyasi XX asrning oxirida keng tarqaldi. Ushbu yo'nalishda xorijiy olimlar, jumladan, L. Terson, J. Gilford, B. Gizelin, S. Mednik, V. Smit, P.Torrens, K.Teylor, X. Trik va D. Halpern muhim tadqiqotlar olib borishgan. So'nggi yillarda kreativlik L.N. Alekseeva, A.N. Vinogradov, I.N. Semenov, T.A. Rebekova, N.V. Kipiani, V.R. Pyatrulis kabi olimlar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilmoqda.

Kreativlikni rivojlantirish nafaqat o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati, balki ta'lim jarayonining samaradorligi uchun ham muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim jarayonida kreativ kompetentlikka ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- Vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish.

○Masalaning qo'yilishini tahlil qilish.

○Masalani hal qilish rejasini tuzish.

○Masalani hal qilishda samarali metodlarni qo'llash (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqalar).

○Masalani hal qilish usullarini tanlay olish.

○Qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish.

○Masalani hal qilishda kichik tadqiqot yoki izlanish olib borish.

○Masalani hal qilish sharoitlari, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Talabaning kreativ kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi:

1. Maqsadli-motivli yondashuv — ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida namoyon bo'ladi.

2. Mazmunli yondashuv — pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi bilimlar va malakalarni o'z ichiga oladi.

3. Tezkor-faoliyatli yondashuv — fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy faoliyat usullarini ifodalaydi.

4. Refleksiv-baholash— shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

Talabaning ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy loyihalarni amalga oshirishi kreativlik kompetentligini yanada rivojlantiradi. Natijada talaba: kreativ fikrlashga odatlanadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi. Pedagogika yoki mutaxassislik fanidagi yutuqlarni hamda ilg'or tajribalarni mustaqil tahlil qiladi. Jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi.

Bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga o'rgatish va ularda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi kreativ va ijodkor shaxs bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga rag'batlantira olmaydi. Shunday qilib, o'qituvchining o'zi kreativ bo'lishi va ijodiy fikrlashga rag'batlantiruvchi imkoniyatlarni yaratishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kreativ o'qituvchi darslarni ijodkorlik va kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi kerak. O'qituvchining kreativligini namoyon etadigan va bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan darslar quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanishi zarur:

Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish – O'qituvchi o'z darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun turli xil metod va strategiyalarni qo'llab, talabalarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga harakat qiladi.

Bo'lajak pedagoglarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish – O'qituvchi o'quvchilarni faollik bilan o'qishga undovchi, yangi va qiziqarli o'quv metodlari va materiallarini taqdim etishi zarur.

Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish – Pedagog o'quv jarayonida yuzaga kelgan masalalarni innovatsion usullar bilan hal etishga intiladi, shu bilan birga, talabalarga kreativ yondashuvlar bilan muammolarni yechishga o'rgatadi.

Kutiladigan natija – Darslarning natijalarini oldindan belgilab, o'qituvchi talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali yo'l-yo'riqlarni taqdim etadi. Kreativ yondashuvlar va innovatsion strategiyalar orqali darslar natijasida talabalarda ijodiy fikrlash va o'zgarishga qodir bo'lishlik shakllanadi.

Talabalarning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu shakllar o'zaro bog'liq bo'lib, talabalar individual xususiyatlari, bilim darajasi va qiziqishlariga qarab har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Quyida talabalarning kreativligi namoyon bo'ladigan asosiy shakllar keltirilgan:

1. Ijodiy fikrlash:

- Masalalarga noan'anaviy yondashuvlar va g'ayrioddiy yechimlarni taklif etish.

- Oddiy muammolarga yangi va o‘ziga xos yechim topish qobiliyati.
- Analogiyalar va metaforalardan foydalanib, yangi g‘oyalarni ifoda etish.

2. Ijodiy yozuv va ifoda:
- Hikoyalar, esse, she'rlar yoki boshqa badiiy asarlar yaratish orqali o‘zini ifoda qilish.
- Fikrlash jarayonidagi yangi g‘oyalarni yozma shaklda tasvirlash va ularga mantiqiy asos berish.

3. Innovatsion yondashuv:
- Texnologik jarayonlar yoki amaliy masalalarda yangi usul va vositalar joriy etish.
- Ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash yoki yaratish orqali o‘zining ijodiy qobiliyatlarini ko‘rsatish.

4. Jamoaviy ijodkorlik:
- Guruh yoki jamoada ishlash jarayonida yangi g‘oyalar taklif qilish va ularni amalga oshirish.
- Boshqalarning fikrlariga tayanib, yangi yechimlar yaratishga hissa qo‘shish.

5. San'at va dizayn
- Rasm chizish, tasviriy san'at, musiqa, sahna chiqishlari yoki dizayn orqali ijodkorlikni namoyon qilish.
- Vizual va estetik jihatdan o‘ziga xos ishlanmalar yaratish.

6. Muammolarni hal qilishda ijodkorlik:
- Real hayotiy yoki o‘quv jarayonidagi murakkab vazifalarga ijodiy yechimlar topish.
- Muammoni tahlil qilish va alternativ yechimlar taklif qilish.

7. Loyiha va tashabbuskorlik:
- Ijtimoiy, ilmiy yoki texnologik loyihalarda yangi g‘oyalarni amalga oshirish.
- Mustaqil tashabbus va ijodiy ishlarni boshlash.

8. Kognitiv kreativlik (aql ijodi):
- Mavhum tushunchalar va murakkab nazariyalarni ilgari surish.
- Yangi ilmiy g‘oyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqish.

9. Imitatsiya va transformatsiya:
- Mavjud modellarni, g‘oyalarni yoki ishlanmalarni o‘zgartirish va yangi qiyofa berish.
- Turli sohalar bo‘yicha bilimlarni o‘zaro birlashtirib, yangi natijalar olish.

10. Ekspressiv kreativlik:
- O‘z his-tuyg‘ulari, nuqtai nazarlari va qarashlarini san'at, musiqa yoki so‘z orqali ijodiy shaklda ifoda etish.
- Hissiy va emotsional yondashuvni yaratgan ishlarga singdirish.

Ushbu shakllar talabalarning kreativligi namoyon bo‘lishining asosiy yo‘llarini ifodalaydi. Har bir shakl talabalarni qiziqish va iqtidorlariga qarab rivojlantirilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Talabalar kreativlik qobiliyatining rivojlanishi ko‘plab omillar va tamoyillarga bog‘liq. Ular orasida quyidagi ustuvor tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

a) *Mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash:* Talabalarga o‘z fikrlarini ochiq va mustaqil ravishda bildirish imkoniyatini berish. Turli masalalarga turlicha yondashuvlarni o‘rganish va rag‘batlantirish.

b) *Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:* Muammolarni chuqur tahlil qilish va muhim savollarni o‘rtaga tashlash qobiliyatini rivojlantirish. Tanqidiy fikr yuritishda dalillar va mantiq asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

c) *Muammolarni yechish qobiliyatini mustahkamlash:* Real hayotiy masalalar yoki amaliy muammolar asosida ijodiy yechimlar topishga yo‘naltirish. Yechimlarni yaratishda noan'anaviy yondashuvlarni qabul qilish va rag‘batlantirish.

d) *Erkin va ijodiy muhit yaratish:* Stress va qo‘rquvdan xoli, ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Shaxsiy qiziqishlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish.

e) *Turli sohalararo integratsiyani rivojlantirish:* Bir necha fan va sohaga oid bilimlarni birlashtirish orqali yangi g‘oyalar yaratish. Talabalarni ko‘p sohalarda malaka va bilim olishga rag‘batlantirish.

f) *O'z-o'zini rivojlantirishga undash:* Doimiy o'rganish va o'z ustida ishlash muhimligini anglashga yordam berish. Shaxsiy maqsadlar va intilishlarni aniq belgilashga ko'maklashish.

g) *Jamoaviy ishni qo'llab-quvvatlash:* Jamoaviy loyiha va mashg'ulotlarda ishtirok etish orqali o'zaro hamkorlikni kuchaytirish. Birgalikdagi ishda turli g'oya va fikrlarni birlashtirish.

h) *Motivatsiyani oshirish:* Talabalarni qiziqtiruvchi va rag'batlantiruvchi vazifalar berish. Ularning muvaffaqiyatlari va ijodiy g'oyalarini tan olish va qadrlash.

i)*Texnologiyalardan foydalanish:* Innovatsion texnologiyalar va vositalar yordamida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Raqamli platformalar va ilovalar orqali yangi bilimlar va g'oyalarga yo'l ochish.

j) *Tajriba va eksperimentlarga imkoniyat yaratish:* Turli eksperimentlar va yangi usullarni sinab ko'rishga ruxsat berish. Xatolardan o'rganish jarayonini normal va zaruriy holat sifatida ko'rsatish.

Ushbu tamoyillar ijodkorlikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va talabalarning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Talabalarning kreativlik darajasini aniqlashda foydalaniladigan mezonlar ularning ijodkorlik qobiliyatlarini turli jihatlarda baholash imkonini beradi. Quyida asosiy mezonlar keltirilgan, shuningdek, manbalar ko'rsatilgan.

1. O'ziga xoslik (originality): Talabaning o'zgacha, noodatiy g'oyalar va yechimlarni yaratish qobiliyati [8,444-454].

2. Moslashuvchanlik (flexibility): Talabaning bir muammoning bir necha yechimini taklif qila olishi, turli nuqtai nazardan qaray bilishi[14,24].

3. Muammolarni hal qilish qobiliyati (problem-solving ability): Talabaning murakkab vaziyatlarda ijodiy va samarali yechimlarni taklif etish qobiliyati [1,23].

4. G'oya ko'pligi (fluency): Talabaning ma'lum bir masala bo'yicha ko'plab fikr va g'oyalarni tez va samarali yaratish imkoniyati [13, 345].

5. Detallash qobiliyati (elaboration): G'oyalarni yanada batafsil ishlab chiqish va amalda qo'llash uchun zarur tafsilotlarni qo'shish qobiliyati [10, 92-96].

6. Tanqidiy fikrlash (critical thinking): Talabaning o'z g'oyalari va boshqalar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati[3,24].

7. Emotsional ijodkorlik (emotional creativity): Talabaning o'z hissiyotlarini ijodiy tarzda ifoda etish va boshqarish qobiliyati[2, 331-371].

8. Sohalararo bilimlar (domain-specific knowledge): Talabaning ijodiy jarayonda zarur bo'lgan maxsus bilim va ko'nikmalari [3,24].

9. Motivatsiya va qiziqish (motivation and interest): Talabaning ijodiy faoliyatga nisbatan ichki qiziqishi va ishtiyoqi[6,89].

10. Jamoaviy kreativlik (collaborative creativity): Jamoada ishlashda yangi g'oyalar yaratish va ularni amalga oshirishda faol ishtirok [12, 87].

Ushbu mezonlar talabaning ijodiy qobiliyatini baholashda keng qo'llaniladi. Mezonlardan foydalanish natijasida talabaning kuchli va rivojlanishi zarur bo'lgan tomonlari aniq ko'rinadi.

Talabalarning kreativlik qobiliyati odatda bir necha darajaga bo'linadi, bu darajalar ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va baholashda muhim ahamiyatga ega. Quyida talabalarning kreativlik qobiliyatining darajalari va ularni tasvirlovchi manbalar keltirilgan:

1. Elementar daraja (Elementary Level): Talaba ijodiy faoliyatni boshlang'ich bosqichda namoyon qiladi, masalalarga asosiy yondashuvni qo'llaydi va oddiy g'oyalarni taklif qiladi. Asosan taqlid va mavjud bilimlarga asoslanadi [9,341].

2. Reproduktiv daraja (Reproductive Creativity): Talaba mavjud g'oyalarni qayta ishlab chiqish va ularni o'z sharoitiga moslashtirish qobiliyatini namoyish etadi.

Innovatsiya kam, ammo mavjud yechimlarni takomillashtirishga harakat qiladi[13, 345].

3. Produktiv daraja (Productive Creativity): Talaba o‘z g‘oyalarini shakllantiradi va yangi yechimlarni yaratadi, biroq bu jarayon ko‘proq amaliy bo‘ladi. O‘zining ijodiy salohiyatini muayyan kontekstlarda samarali qo‘llaydi[15, 7-97].

4. Innovatsion daraja (Innovative Creativity): Talaba o‘ziga xos, noodatiy va samarali yechimlarni taklif qila boshlaydi. Bir muammoni turli nuqtai nazardan hal qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi [1,24].

5. G‘oyalarni sintez qilish darajasi (Synthesis Level): Talaba turli sohalar bo‘yicha bilim va tajribalarni birlashtirib, bir-biridan mutlaqo farq qiladigan g‘oyalar orasida bog‘lanish yaratadi. Yaratilgan yechimlar innovatsion va ko‘p qirrali bo‘ladi [11, 1-31].

6. Yaratilgan mahsulotning ijtimoiy ahamiyati (Transformational Creativity): Talabaning kreativligi nafaqat yangi mahsulot yaratishga, balki butun tizimni yoki jamiyatga ta’sir ko‘rsatadigan o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratiladi. Bu darajadagi ijodkorlik yuqori darajada samarali va keng ko‘lamli bo‘ladi[3,24].

Ushbu darajalar talabaning ijodiy qobiliyatlarini baholashda ko‘p hollarda qo‘llaniladi. Talabalar qaysi darajada bo‘lishidan qat’i nazar, har bir bosqich rivojlantirilishi va rag‘batlantirilishi mumkin.

Ushbu darajalar talabalarning kreativ kompetentlik darajasini baholashda yordam beradi, va ularga ko‘ra ta’lim jarayonida talabaning kreativlik darajasini rivojlantirish uchun turli usullar va strategiyalarni qo‘llash mumkin.

Xulosa va takliflar. Talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida ish olib borish, ta’lim jarayonida samaradorlikni ta’minlash uchun muhimdir. Malaka oshirish kurslari va amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalarning kreativlik imkoniyatlari aniqlanishi, darajalar bo‘yicha baholanishi va mavjud yutuqlarni boyitish hamda kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanishi mumkin.

Kreativlik shaxs faoliyatida birdaniga shakllanmaydi. Bu sifat muayyan bosqichlarda izchil rivojlanadi va har bir kishi ijodiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonidan o‘tadi. Bo‘lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishda e’tibor qaratish zarur bo‘lgan asosiy jihatlar:

a) Savollar berish: Talabalarga ko‘p savollar berishni rag‘batlantirish, ularda kritikal fikrlashni rivojlantiradi va ularni ijodiy faoliyatga olib keladi.

b) Mustaqillikni rag‘batlantirish: Talabalarning mustaqil ishlashiga yordam berish va ularda javobgarlikni oshirish, o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishga turtki bo‘ladi.

c) Mustaqil faoliyatni tashkil etish: Pedagoglar talabalarga mustaqil faoliyatni tashkil etish imkoniyatlarini yaratishlari kerak, bu esa kreativlikni yanada oshiradi.

d) Qiziqishlarga e’tibor qaratish: Talabalar qiziqishlarini aniqlash va ularni o‘sha sohalarda faoliyatga jalb qilish ham kreativ tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amabile, T. M. (1996). Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. Westview Press.
2. Averill, J. R. (1999). Individual differences in emotional creativity: Structure and correlates. Journal of Personality, 67(2), 331-371.
3. Abduraimova, S. (2024). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MATHEMATICAL CREATIVITY IN EDUCATION. Modern Science and Research, 3(11), 575-579.
4. Csikszentmihalyi, M. (1996). Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. Harper Perennial.
5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Springer Science & Business Media.
6. Fayzullayeva N. “Pedagogik bilimlar - o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi” / Uzluksiz ta'lim jurnali. - T.: 2006. 6- son. -102-b.
7. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444-454.
8. Piaget, J. (1972). The Principles of Genetic Epistemology. Routledge.

9. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92-96.

10. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1991). An Investment Theory of Creativity and Its Development. Human Development, 34(1), 1-31.

11. Sawyer, R. K. (2012). Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. Oxford University Press.

12. Torrance, E. P. (1974). The Torrance Tests of Creative Thinking.

13. Torrance, E. P. (1966). The Torrance Tests of Creative Thinking-Norms Technical Manual Research Edition-Verbal Tests, Forms A and B-Figural Tests, Forms A and B

14. Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and Creativity in Childhood. Journal of Russian and East European Psychology, 42(1), 7-97.

MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYASI ORQALI BOLANING KOGNITIV BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Moxigul Kurbanova,
Qarshi davlat universiteti, Sanatshunoslik fakulteti dotsenti

Annotatsiya

O'yin hayotning ajoyib hodisalaridan biri, foydasiz va ayni paytda zarur bo'lib ko'rinadigan faoliyatdir. Beixtiyor jozibali va hayotiy hodisa sifatida o'ziga jalb etuvchi o'yin ilmiy tafakkur uchun juda jiddiy va qiyin muammoga aylandi. O'yin texnologiyalari maktabgacha yoshda keng qo'llaniladi, chunki bu yoshdagi o'yin bu davrda etakchi faoliyat hisoblanadi. O'yin texnologiyalari yordamida mashg'ulotlarda bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanadi.

Erta bolalik davrida bola boshqa faoliyatda emas, balki o'yinda mustaqil bo'lish, tengdoshlari bilan o'z xohishiga ko'ra muloqot qilish, o'yinchoqlarni tanlash va turli xil narsalardan foydalanish, mantiqiy ravishda syujet bilan bog'liq bo'lgan muayyan qiyinchiliklarni engish uchun eng katta imkoniyatga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: *texnologiya, o'yinlar; o'yin uskunalari, ish stoli, kompyuter, teatr, rol o'ynash, fantastika, pedagogik jarayon, frontal o'yin, hamkorlik, ijobiy muhit, motivatsiya.*

Аннотация

Игра — одно из чудесных явлений жизни, занятие, которое кажется бесполезным и необходимым одновременно. Неволно, как увлекателное и жизненное явление, игра превратилас в очен серезную и трудную проблему для научного мышления. Игровые технологии широко исползуются в дошколном возрасте, так как игра в этом возрасте является ведущей деятелностю в этот период. Психические процессы детей развиваются во время обучения с помощю игровых технологий.

В раннем детстве ребенок неуправляем, но самостоятелен в игре, общаясь со сверстниками по собственной игре, меняя игрушки и загружая из разных предметов, связанные с логичным и ясным сюжетом, имеет наибольшие возможности справиться. поставленные задачи.

Ключевые слова: *технологии, игры; игровое оборудование, рабочий стол, компьютер, театр, ролевая игра, художественная литература, педагогический процесс, фронтальная игра, сотрудничество, позитивная среда, мотиватsiя.*

Annotation

The game is one of the wonderful phenomena of life, an activity that seems useless and necessary at the same time. Involuntarily, as a fascinating and vital phenomenon, the game has become a very serious and difficult problem for scientific thinking. Game technologies are widely used at preschool age, since the game at this age is the leading

activity during this period. The mental processes of children develop during learning with the help of gaming technologies.

In early childhood, the child is uncontrollable, but independent in the game, communicating with peers in his own game, changing toys and loading from different objects, associated with a logical and clear plot, has the greatest opportunity to cope with the tasks set.

Keywords: *technology, games; gaming equipment, desktop, computer, theater, role-playing game, fiction, pedagogical process, frontal play, cooperation, positive environment, motivation.*

Kirish. O‘yin texnologiyasining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyat ko‘rsatish shartlariga va bolalarning rivojlanish darajasiga qarab faoliyat ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun to‘liq motivatsion asosni yaratishdir. Yuqori motivatsiyaga, bolaning o‘z faoliyati orqali bilim va ko‘nikmalarni egallashga ongli ehtiyojga erishiladi [1; 45-b].

O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalangan holda bolaning xayrixohligidan ko‘p foydalaniladi. Bolaga hissiy yordam berishga, quvonchli muhit yaratishga, bolaning har qanday fantastika va fantaziyalarini rag‘batlantirishga harakat qilinadi. Faqat bu holatda, o‘yin bolaning rivojlanishi va kattalar bilan hamkorlikning ijobiy muhitini yaratish uchun foydali bo‘ladi. Aslida o‘yin texnologiyalaridan o‘yin daqiqalari sifatida foydalaniladi. Pedagogik jarayonda, ayniqsa, bolalar muassasasida bolalarning moslashish davrida o‘yin momentlari juda muhimdir. To‘rt yoki besh yoshli bolalar bilan ishlash tarbiyachi uchun asosiy vazifa - hissiy aloqani shakllantirish, bolalarning tarbiyachiga bo‘lgan ishonchi, tarbiyachida mehribon, har doim yordam berishga tayyor, o‘yinda qiziqarli sherikni ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi. Hech bir bola e'tibordan mahrum bo‘lmasligi uchun frontal o‘yin vaziyatlaridan foydalaniladi. Bular "Dumaloq raqs", "Qo‘lga olish" kabi o‘yinlar [5; 77-b].

O‘yin texnologiyalari yordamida faoliyatda bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanadi. Ular qo‘yidagilar: - idrok etish, - Diqqat, - xotira, - tasavvur, - o‘ylash. Tavsiya sifatida tarbiyachi har kungi bolalarning erkin mashg‘ulotlarida, sayrlarda, turli o‘yinlarda o‘yin daqiqalaridan foydalanishi lozim. Masalan she'riy va o‘yin shaklida barmoq gimnastikasi va artikulyatsiya gimnastikasi, rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, ochiq o‘yinlar, o‘yinlar past harakatchanlik, nutq o‘yinlari va vazifalar bolaning nutqini yaxshi rivojlantiradi va muvaffaqiyatli maktabga tayyorlaydi. Erta bolalik davrida bola boshqa faoliyatda emas, balki o‘yinda mustaqil bo‘lish, tengdoshlari bilan o‘z xohishiga ko‘ra muloqot qilish, o‘yinchoqlarni tanlash va turli xil narsalardan foydalanish, mantiqiy ravishda syujet bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan qiyinchiliklarni engish uchun eng katta imkoniyatga ega bo‘ladi. Masalan: "Kim tezda o‘z figurasini o‘yinchoq darvozasiga aylantiradi?" texnologiyasida bolalarni qiziqarli o‘yin - musobaqaga jalb qilishda figuralar to‘p va kub, kvadrat va aylanadan keng foydalaniladi. Bolalar o‘tkir burchaklar kub va kvadratning aylanishiga to‘sqinlik qiladi degan xulosaga kelishadi: "To‘p aylanadi, lekin kub aylanmaydi." Buni kvadrat va aylana chizish bilan tuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mazkur tadqiqot ishimizda bunday o‘yin texnologiyalari idrokni rivojlantirishga qaratilgan. O‘yinlarni ishlab chiqish texnologiyasiga B.P. Nikitin: “O‘yin faoliyati dasturi barcha xilma-xilligi bilan umumiy g‘oyadan kelib chiqqan va xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘quv o‘yinlari majmuasidan iborat” deb ta'rif beradi [7; 67-b].

O‘yin pedagogik texnologiyasi - bu pedagogik jarayonni turli pedagogik o‘yinlar shaklida tashkil etishdir. Bu tarbiyachining izchil faoliyati:

o‘yinlarni tanlash, ishlab chiqish, tayyorlash;

bolalarni o‘yin faoliyatiga jalb qilish;

o‘yinning o‘zini oshirish;

o‘yin amalga faoliyati natijalarini umumlashtirish kabi vazifasidir.

O‘yin texnologiyalari bolalar bog‘chasining ta'lim va tarbiya ishlarining barcha jihatlari va uning asosiy vazifalarini hal qilish bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘yin texnologiyasi quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak:

didaktik maqsad bolalar uchun o'yin vazifasi shaklida qo'yiladi;

faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysunadi;

o'quv materiali uning vositasi sifatida ishlatiladi;

Faoliyatga didaktik vazifani o'yinga aylantiradigan raqobat elementi kiritiladi; didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o'yin natijasi bilan bog'liq. Uyushtirilgan o'quv faoliyatining o'yin shakli bolalarni o'rganishga undash, rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan o'yin motivatsiyasi bilan yaratiladi. O'yin - bu insonning real yoki (xayoliy) voqelikka uni o'rganish, o'z "men" ni, ijodkorlik, faollik, mustaqillik, o'z-o'zini anglash maqsadida singdirilishining eng yorqin shakli [7; 134-b].

O'yin quyidagi funksiyalarga ega: kuchlanishni engillashtiradi va hissiy dam olishga yordam beradi; bolaning o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga, muloqot qilish usullarini, ruhiy farovonlikni o'zgartirishga yordam beradi.

O'yin texnologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ob'ektlarning xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish qobiliyatini shakllantiradigan o'yinlar va mashqlar;

ob'ektlarni ma'lum xususiyatlarga ko'ra umumlashtirish uchun o'yinlar guruhlari;

o'yinlar guruhlari davomida maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy hodisalarni haqiqiy bo'lmagan narsalardan ajratish qobiliyatini rivojlantiradilar;

o'zini nazorat qilish qobiliyatini, so'zga reaksiya tezligini, zukkolikni va boshqalarni tarbiyalaydigan o'yinlar guruhlari;

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'yin faoliyati ishtirokchilarining psixologik jarayonlarini - diqqat, yodlash, qiziqish, idrok va fikrlashni faollashtiradi. O'yin jarayonida intellektual passiv bola oddiy vaziyatda unga to'liq erishib bo'lmaydigan ish hajmini erkin bajaradi. Psixologlar maktabgacha yoshdagi o'yinni bolaning aqliy rivojlanishini belgilovchi faoliyat, etakchi faoliyat sifatida ko'rib chiqadilar, bu jarayonda aqliy neoplazmalar paydo bo'ladi [6;56-b].

Pedagogik o'yinlarning turlari juda xilma-xildir. Ular quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

faoliyat turi bo'yicha –

motorli,

intellektual,

psixologik va boshqalar;

pedagogik jarayonning tabiatiga ko'ra –

o'qitish,

nazorat qilish,

kognitiv,

tarbiyaviy,

rivojlantiruvchi,

diagnostik.

O'yin texnikasining tabiati bo'yicha - qoidalar bilan o'yinlar; o'yin uskunalari uchun - ish stoli, kompyuter, teatr, rol o'ynash va boshqalar. O'yin texnologiyasining asosiy komponenti tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri, tizimli aloqadir. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati quyidagilarga bog'liq: o'yin faoliyati metodologiyasini bilish; tarbiyachining har xil turdagi o'yinlarni tashkil etish va boshqarishdagi kasbiy mahorati; yosh va individual imkoniyatlarni hisobga olish jarayoni. Har bir o'yin - bu bola kublar, g'ishtlar, karton yoki plastmassadan yasalgan kvadratchalar, mexanik dizaynerning qismlari va boshqalar yordamida hal qiladigan vazifalar to'plamidir.

Ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstmktor-mexanik majmualarida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ulrni osondan qiyinga tomon,

aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat. Interfaol usul: 1. Pedagogik texnologiyaning ajralmas bir qismi sifatida ta'lim tarbiyaning umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yahlit jarayondir . 2. Ta'lim tarbiya jarayonini takommilashtiruvchi, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj. 3. Didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim tarbiya jarayonini samarali mohorat tarza tashkil etishdur. 4. Yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, yani shaxsni rivojlantirish tarbiyalash shakillantirish uchun xizmat qiladi. 5. Shaxsiylik xususiyatga ega bo'lib muayyan ta'lim tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, meyorlar talab etilmaydigan jarayon.

Interfaol usullar o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarda quidagi psixologik xususiystlarini shakillantirish bilan ajralib turadi, ya'ni:

-Fikrlash: - mantiqiy tafakkur ko'rgazmali, tasvirli jarayon asosida rivojlanadi.

-Nutq: - ichki nutqning rivojlanishiga ma'lum tasir etadi.

-Ixtiyoriy bilish jarayoni; - o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy ravishda o'z fiktini jamlashga kirishadi.

-Fiziologik sezgirlik: - individual ravishda aksariyat, xolda past darajada.

-Bilim orttirish obyekti: - predmet va hodisalar o'rtasidagi sabab – oqibatli bog'liqlik.

-Bilim ortirish usuli: - mustaqil faoliyat, kattalar va tengdoshlar bilan bilim orttirish muloqot qilish.

-Muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari: - shaxsiy dunyoqarashning kengligi, xar bir ishda bilimdonlik.

-Muloqot yuritish sharti:- vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqot.

-Tengdoshlari bilan munosabatlar: - hissiy ko'mak manbai.

-His-hayajonlar: - yuqori darajadagi his-tuyg'ularga egalik.

Tadqiqotchi Nikitin o'z kitoblarida kublar, naqshlar, montessori ramkalari va qo'shimchalari, rejalar va xaritalar, kvadratlar, taxmin to'plamlari, nuqtalar, soatlar, termometr, g'ishtlar, kublar, konstruktorlar bilan o'quv o'yinlarini taklif qiladi. Bolalar to'plar, arqonlar, rezina bantlar, toshlar, yong'oqlar, tiqinlar, tugmalar, tayoqlar va boshqalar bilan o'ynashadi. Mavzuli o'quv o'yinlari qurilish, mehnat va texnik o'yinlarning asosi bo'lib, ular bevosita intellekt bilan bog'liqdir. O'yin texnologiyalari xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Bunda bolalarga "Do'kon", "Xola-xolasi", "Rasmni eslab qoling" kabi o'yinlar yordam beradi. O'yin texnologiyalari bolaning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Ma'lumki, bola tafakkurining rivojlanishi uchta asosiy shaklini: vizual-samarali, vizual majoziy va mantiqiylikni o'zlashtirganda sodir bo'ladi.

Vizual samarali - bu harakatdagi fikrlashdir. Harakatlar, narsalar va o'yinchoqlar bilan o'yinlar jarayonida o'yin texnikasi va o'qitish usullaridan foydalanish jarayonida rivojlanadi.

Tasviriy fikrlash - bola solishtirishni, ob'ektlardagi eng muhim narsalarni ajratib ko'rsatishni o'rganganida va vaziyatga emas, balki majoziy tasvirlarga e'tibor qaratib, o'z harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Ko'pgina didaktik o'yinlar majoziy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Mantiqiy tafakkur bolani mulohaza yuritish, sabab-natija munosabatlarini topish, xulosa chiqarish qobiliyatini o'rgatish jarayonida shakllanadi [4;42-b].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni aytish lozimki, o'yin bolalar hayotining ajoyib hodisalaridan biri. O'yin texnologiyalari boshqa metod va texnologiyalar qatorida maktabgacha yoshda keng qo'llanilsa, o'z o'zidan bu yoshdagi o'yin bu davrda etakchi faoliyat hisoblanadi. O'yin texnologiyalari yordamida mashg'ulotlarda bolalarda aqliy jarayonlar rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 163 b.

2. Qo'ysinov O.A. va b. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish. – T.: "Yusuf yangi nashr", 2012. – 60 b.

3. Chicherina Ya., Nurkeldieva D.,.Bondareva Ye. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. T.: "Fan va texnologiyalar, 2013 y 144 b.

4. Занков Л.В. Наглуадность и активизатсиуа учащихсуа в обучении - М.: Знание, 1960 г.

5. Зотов Yu.Б. / Под редаксией Пидкасистого П.И./ Организация современного урока М.: Просвещение, 1989 г.

6. Кротова Н.В. Новые образователные технологии в формировании интеллектуалного человеческого капитала культуры - М., 2000 г.

7. Никитин Б.П. «Ступенки творчества или развиваущие игры» Подробнее на livelib.ru:https://www.livelib.ru/author/442064-boris-nikitin.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI TA'LIMIDA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA KASB-HUNAR, ILM-FAN VA ILMSIZLIK HAQIDAGI FIKRLARDAN FOYDALANISH

Azamat Umirov,
Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat va kasb-hunarni tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimizning asarlaridan keng foydalanish, mutafakkirlarning merosiga chuqur hurmat bilan qarash va ular yaratgan asarlarni ko'z qorachig'iday saqlash kerakligi haqida va Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan tarixiy shaxslar - mutafakkirlar, olimlar, shoiru adiblarning ilm-fan, kitob, ma'rifat haqida fikrlari o'rganilgan.

Shuningdek, o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o'rgatuvchi omillarga tayanib, o'quvchilarni kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratish maqsadga muvofiqligi tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: *Ilm-fan, hunar, rizq, mutafakkir, zamin, qadr-qiymat, mehnat, qaram, kasb-hunar, oqsoqol va boshqalar.*

Аннотация

В данной статье речь пойдет о широком использовании трудов наших великих мыслителей в воспитании учащихся начальных классов к труду и профессии, о глубоком уважении к наследию мыслителей и о необходимости беречь созданные ими произведения как зеницу ока, а также о мнениях исторических личностей-мыслителей, ученых, поэтов и мудрецов, живших и творивших в Центральной Азии, о науке, книге, просвещении. изучено.

В ней также описывается целесообразность воспитания у учащихся интереса к профессии, опирающейся на факторы, обучающие истории трудовой деятельности человечества, заложить огромный фундамент для будущего выбора учащимися правильной профессии.

Ключевые слова: *наука, ремесло, пропитание, мыслитель, земля, достоинство, труд, зависимость, профессия, старейшина и т. д.*

Annotation

This article explores the widespread use of the works of our great thinkers in the education of Primary School students in labor and the profession, the deep respect for the heritage of thinkers and the need to keep the works they create in the dark eye, and the opinions of historical figures living in Central Asia-thinkers, scientists, poets and writers about science, books,

It is also described that in educating students for their interest in the profession, it is advisable to build a huge ground for students to choose the right profession in the future, relying on factors that teach the history of human labor activity.

Keywords: *Science, trade, sustenance, thinker, ground, value, labor, dependence, profession, elder, etc.*

Kirish. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'limtarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik,ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarni mehnat turlariga qiziqishini oshirish, kasb tanlash va o‘zlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga o‘quvchilarga yoshligidan boshlab ta'lim, tarbiya berish bilan birga kasb-hunarga qiziqish ishlarini to‘gri yo‘lga qo‘yishda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kasb-hunar to‘g‘risidagi tushunchalarni singdirish;
2. O‘quvchilarni yoshiga, jinsiga mos kasb-hunar tanlashga ularga pedagogik-psixologik yondashish;
3.Kasb-hunarga qiziqtirishda o‘quvchilarning yoshi va qobiliyatlarini hisobga olish;
4. Mahalla oqsoqollari, mehnat faxriylar bilan muntazam aloqalar o‘rnatish;
5. Mehnat ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tashkil etish;
6. Darslarda mutafakkirlar merosidan foydalanib kasb-hunarga oid fikrlari bilan tanishtirish[1,132].

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Insoniyat jamiyati taraqqiyotida yetuk insonlarning faoliyati, sa'yharakatlari natijalari muhim o‘rin tutadi. Bunday insonlar davlat va xalq arboblari (shohlar, podsholar, amirlar, beklar), ma'naviyat-ma'rifat darg‘alari (allomalar, mutafakkirlar, donishmandlar), din peshvolari (payg‘ambarlar, ulamolar, shayxlar, imomlar) siymosida jamiyat taraqqiyotida sezilarli o‘rin tutganlar. Bunday shaxslarning surat va siyratlari, bajargan ishlari to‘g‘risida turli xil manbalarda yozib qoldirilgan va kelajak avlod ana shunday xislat-fazilatlarga ega bo‘lishga undalgan. Mashoyixlarning aytishlaricha: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”. Shuningdek, taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deya ta'kidlagan edi. Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo‘lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o‘rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o‘rgatish oilaning diqqat markazida bo‘lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o‘rgatishga bog‘lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan. Ulug‘ mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishini sinchkovlik bilan o‘rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan. Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘atit turk” asarida – “Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so‘zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o‘rganib, amalga oshirdi” deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e'zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Bugungi kunda yosh avlodni milliy ma`naviy axloq-odob ananalari yordamida tarbiyalash, komil inson qilib o‘stirishda sharqona odob-axloqqa tayanish borasida boshlangich sinflar dasturida ham alohida takidlanadi[2,133].

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbek xalq tarbiyashunosligining o‘tmishdagi mashhur mutafakkirlar, xalq maorifi arboblari va ma'rifatparvar shoirlarning, mehnat kasb-hunar to‘g‘risidagi qimmatli fikrlarini biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnarsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Bizga ma'lumki o‘zbek xalqining qadimiy kasb-kori asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo‘lgan. Ushbu kasb-korlar yuzlab yillar davomida shakllanib har biri o‘z ichida o‘nlab tarmoqlarga ajralgan va gullab yashnagan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining kasb-hunar, mehnatsevarlik haqidagi fikrlari bizga meros bo‘lib qolgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al- Xorazmiy (783-850) ning insoniylik va mehnatsevarlik haqidagi dono fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mutafakkirning fikricha, har bir kishi qilgan ishlari bilan hech ham mag‘rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozim[3,86].

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). X asrdagi sharq ijtimoiy tarbiyashunoslik bo‘yicha fikrlarning eng yirik vakili Abu Nasr Al-Farobiy (870-950)ning o‘z davri uchun katta xizmatlaridan biri shundaki u insonlarni ilm-marifatli bo‘lishga, mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi.

Farobiy kasb-hunar va ahloqiy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo‘li bilan paydo bo‘lishini uqtiradi. Mutafakkir har bir kishi o‘zi yoqtirgan kasbni egallaganidan so‘ng, o‘ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak mas'uliyatni his etishi va o‘z “kasb-hunarini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq atvor fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak” deb takidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy (978-1048) ham mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolati uning halol mehnat qilishida va kasb-hunar o'rganishida deb biladi. U kasb-hunar, ixtirolashga, turli asboblarni yasashga bag'ishlab 9 ta asar yozgan. Asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli malumotlar berilgan.

Mehnatni va kasb-hunarni sharaflash, mehnat ahlining qadr-qimmatini uning manfati uchun astoydil kurashni Beruniyning zamondoshi qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning ilmiy faoliyatida ham ko'rishingiz mumkin.

Ibn Sino "Odam ijtimoiy jondir" degan fikrni olg'a surdi. Shunung uchun ham olim odamning yashashi uchun eng zarur narsa foydali mehnat ekanligini tahkidlaydi. O'rta Osiyoda ko'plab shoirlarning ustozi bo'lgan Abulqosim Firdavsiy (934-1020)ning "Shohnoma"sida mehnat ahliga mehr-muhabbat bilan yog'dirilgan va kasb-hunarni egallash malakasiga bag'ishlangan misralarini ko'plab uchratish mumkin:

Mehnat tagidadir, ey oqil, har ganj,
Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj.

Firdavsiyga yaqin davrda yashagan shoirlardan yana biri Nosir Xisrav (1004-1088)dir. Uning fikricha, dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar mehnatkashlar-jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlardir.

Kasbdan jodu hurram yo'q jahonda,
Hunardin yaxshidur ham yo'q jahonda.
Butun kun rizqining bog'boni bo'lg'ay,
Kishin o'z uyining mehmoni bo'lg'ay.
Arzir uning bo'lsa boshi osmonda,
Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

Yuqorida tilga olingan ulug' mutafakkirlarning mehnat tarbiyasi va kasb-hunar tarbiyasi borasida shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, inson dunyoga kelar ekan o'z hayoti maboynida insoniy qadr-qiymatga ega bo'lishi kerak[4,168].

Zero mehnat qilgan, kasb-hunarli inson birovga qaram bo'lmaydi, ya'ni mehnat qilish orqali inson o'zining uch ehtiyojini qondiradi. Moddiy ehtiyojini, ma'naviy ehtiyojini, mehnat ehtiyojini qondiradi. Moddiy ehtiyoj qondirilishi natijasida ma'naviy va mehnat ehtiyojlari ham qondiriladi. Mutafakkirlarimizning asarlarida mehnat, kasb-hunar va ilm,ilmsizlik haqida bir qancha fikrlarlar yuritilgan hamda ular aytib o'tgan maqollar,hikmatli so'zlar iboralar,pand nasihatlar adabiyotlarda o'z o'rnini topgan.

Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik haqida maqollar: *Avval bil, keyin qil; Bilgan bitirar,Bilmagan yitirar; Aql ko'pga yetkazar, Hunar — ko'kka; Barakat mag'izda, Hunarli qo'l — og'izda; Baxt belgisi — bilim; Behunaming hunari — yalqovlik; Bilak bilan bitmagan-Bilim bilan bitar; Bilgan bilganin ishlar, Bilmagan barmog'in tishlar; Bilgan o'zar, Bilmagan to'zar; Bilgan o'qir, Bilmagan to'qir; Bilim — aql chirog'i; Bilim baxt keltirar; Bilim — davlatdan qimmat; Bilim — kuchda, Kuch-bilimda; Bilimliga dunyo yorug', Bilimsizga — qorong'u; Bilimlining bilimi yuqar, Bilimsizning nimasi yuqar.*

Shuningdek, Sharq allomalarining ilm fan va kitob mutolaasi haqidagi ma'rifiy fikrlari tahlil qilindi. Jahon ilm- fan olamida go'zal "izlar qoldirgan" Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnaki, Maxmud Qashqariy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning ilm-fanga, kitobat olamiga mehr-muhabbat uyg'otuvchi, ma'rifiy fikrlari o'rganildi. Ularning asarlarida keltirilgan ilmga, mutolaga oid ijtimoiy- falsafiy fikrlarining ahamiyati ochib berilgan.

Buyuk Sharq allomalarining ijtimoiy-madaniy hayotda qoldirgan ilmiy merosilari avvalo gumanistik mohiyatga ega bo'lib, ularda ilmu fan, mutolaa, ma'rifat haqidagi qarashlari o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, kitob mutolaasining, buyuk tarixiy shaxslarning ilm-fan va ma'rifat haqidagi fikrlarining ahamiyati genezisi uzoq o'tmishga, qadimgi bitkilarga borib taqalashini ta'kidlash joiz. Qadimgi hind xalqining "Mahabxorat" va "Ramayana", qadimgi sharqning "Geomifologik" eposi, Lao Szi va Konfutsiyning hikmatnomalari, Buddaning "Dxamapadda" to'plami, Zardushtiyning "Avesto" matnlari antik davrdan bizgacha yetib kelgan durdona

asarlardir. Ularning kitob holidagi nusxalari tufayli biz insoniyat tarixiga, o'tmish madaniyatiga taalluqli artefaktlardan xabardormiz[5,214].

Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino (850-1037) 300dan ortiq ilmiy asarlar yozgan, ulardan 58tasi bevosita falsafaga, 20tasi tibbiyotga, qolganlari boshqa ilm sohalariga taalluqlidir. Ibn Sino: jon salomi ilmdadir, ilmdandur so'lu sog'. Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm bir yonuvchi sham deydi. Ularning genosiologik qarashlari, insonning borliqni bilishiga oid sifatlari maxsus adabiyotlarda yoritilgan.

Insonning bilim-quvvati va aqliy imkoniyatlarini ulug'lagan Yusuf Xos Hojibning "Qutatg'u bilik" ("Qutga, ya'ni baxt-saodatga erishturuvchi bilim") asari juda ko'p fikrlarni o'ziga jo etgan, jamlagan: "O'quv qut beradi, bilim sharaf-shon, Shu ikkov tufayli ulug'dir inson" "Hazrati odam- Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram" "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar. Bilim qayda bo'lsa, buyuklik olar". Yusuf Xos Hojib kitob o'qib bilim orttirishga erishishi insonning baxtli yashashini bilimdadir, deb biladi. "O'z bolam o'rganing kitob tengsizdir, Tengsiz bilim bilan cho'lug' dengizdir".

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy (973-1051.)ning butun umri, ijodiy izlanishlari kitob mutolasining betakror va ibratli namunasidir. U boshqa joyga ko'chsa avvalo yiqqan kitoblarini o'zi bilan olib ketgan. Uning "Qadimiy xalqlardan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya" kabi 153ta asarlar yozgan, shoir, faylasuf, olim, tarixchi, ensiklopedik olimdir. Alloma deydi: "Ilm ko'pdir. Ular zamon iqboli bo'lib, turli fikr va xotiralar qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilinishi ilmlarni va ilm axllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir". Beruniy inson aqlu idroki, boshqalarga mehribonlik, hurmat, samimiyat ko'rsatilishi, tinmay bilim izlashi bilan hayvonlardan ajralib turishini ta'kidlaydi. Hukmdorlarning ilm ahlini, kitobni sharaflashga, qo'llab-quvvatlashga undaydi. Alloma o'zidan kitoblar qolishini, har bir asari bilimning asali bo'lishini bilgan va o'z ilmidan faxrlangan.

Axmad Yugnaki o'lkamizda yashagan va ijod qilgan yirik donishmanddir. U kelgusi avlodlarga qoldiriladigan meros, boylik kitob, deb biladi. Kitob inson nomini mangu esdalik qiladi, uni avlodlar o'qib, "xaqqiga duo qiladi", unda "ajoyib tansiq so'zlar" bo'ladi. Kitob o'qiydigan, ilmli kishini o'ziga yaqin tutishiga undaydi. "Bilimli kishining o'zi o'lsa ham nomi o'lmaydi", deydi donishmand[6,91].

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'lkamizda yashab, ijod etgan, jahon tafakkuriga betakror hissa qo'shgan mutafakkirlar, olimu fuzalolar, shoir, adib, arboblar yetarlichadir. Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini barpo etish ular merosini chuqur o'rganishni zamonaviy ilmiy bilimlar nuqtai nazaridan tadqiq etishni taqazo etadi.

Xullas, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat va kasb-hunarni tarbiyalashda ulug' mutafakkirlarimizning asarlarida keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mutafakkirlarning merosiga chuqur hurmat bilan qarash va ular yaratgan asarlarni ko'z qorachig'iday saqlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K.Hoshimov, S.Ochil. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" "O'qituvchi". Toshkent, 1995 yil. -162 b.
2. K.Munavvarov. "Pedagogika" "O'qituvchi". Toshkent, 1996 yil. -218 b.
3. K.Hoshimov, M.Nishonova, R.Inomova "Pedagogika tarixi" "O'qituvchi", Toshkent, 1996 yil. -282 b.
4. A.Zunnunov "O'zbek pedagogikasi tarixi" "O'qituvchi",Toshkent 1997 y. -290 b.
5. R.Mavlonova, K.To'raeva, A.Xoliqberdiev. "Pedagogika" "O'qituvchi" Toshkent 2001 yil. -270 b.
6. N.G'aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulov. "Pedagogika", "Sharq", Toshkent, 2005 yil. -192 b.
7. B.Ziyomuhammedov "Pedagogika" "To'ron-Iqbol", Toshkent, 2006 yil. -234 b.

BO'LAJAK INFORMATIKA FANI O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI BO'YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING TIZIMLI TAHLILI

Dilshod Sohibov,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy omillar, shuningdek, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishning innovatsion va an'anaviy yo'llari, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayonlarining o'rni va ahamiyati, ta'lim muhitini shakllantirishda bo'lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining mazmuni, ularning natijalari, pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi va ushbu tadqiqotlarning ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga qanday hissa qo'shayotgani haqida tizimli tahlil keltirilgan.

Kalit so'zlar: *informatika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellect, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, ta'limda axborot texnologiyalari.*

Аннотация

В статье глубоко проанализированы ключевые факторы, направленные на повышение качества и эффективности педагогической деятельности, а также инновационные и традиционные пути достижения успеха в педагогической деятельности, роль и значение образовательного процесса в подготовке будущих учителей информатики и информационных технологий к педагогической деятельности, актуальные вопросы развития профессионального потенциала будущих педагогов в формировании образовательной среды. Кроме того, приведен системный анализ содержания выполненных научно-исследовательских работ, их результатов, внедрения в педагогическую практику и вклада этих исследований в изменения в сфере образования.

Ключевые слова: *информатика, информационные технологии, цифровые технологии, искусственный интеллект, автоматизация, цифровизация, информационные технологии в образовании.*

Annotation

The article provides an in-depth analysis of the key factors aimed at improving the quality and effectiveness of pedagogical activity, as well as innovative and traditional ways to achieve success in pedagogical practice. It examines the role and significance of the educational process in preparing future teachers of computer science and information technologies for pedagogical work, along with pressing issues related to developing the professional potential of future educators in shaping the educational environment. Additionally, a systematic analysis of the content of completed research works, their results, implementation in pedagogical practice, and the contribution of these studies to changes in the field of education is presented.

Keywords: *computer science, information technologies, digital technologies, artificial intelligence, automation, digitalization, information technologies in education.*

Dunyo hamjamiyatida globallashuv, avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari tez sur'atlarda rivojlanayotganligi tufayli, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini har tomonlama yetuk pedagok sifatida tayyorlash katta ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik foliyatga tayyorlashda ilm-fan va innovatsiyalar yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon, mamlakatning munosib kelajagini qurishning muhim omili sifatida yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydi. Ta'limda axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'qitishda zamonaviy, interaktiv va ijodiy usullarni keng tatbiq etish orqali bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarning motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi ko'rsatkichlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan

qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonlarini innovatsion shaklda tashkil etish, o'quv rejalarini zamon talablari bilan doimiy muvofiqlashtirib borish, talabalarning fanlarga qiziqishini oshiruvchi tizim yaratish, ta'limni zamonaviy yondashuvlar orqali tashkil etish, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining innovatsion bilimlarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini o'rganish va ularni tizimlashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim o'quv jarayonlarining sifatini yaxshilash, pedagog-kadrlarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirish, oliy ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, qolaversa zamonaviy dunyo tobora globallashib, axborot almashinuvi tezlashib borayotgan bir vaqtda yoshlarni axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishga yo'naltirish, ularga yuqori darajada bilim berish uchun bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini kasbiy mahoratini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish oliy ta'lim tizimining dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bo'lajak "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash Respublikamizda rivojlanayotgan uzluksiz ta'lim tizimining ijtimoiy talablarga mos holda takomillashtirilayotgan o'qitish metodikasida alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda, avvalo, kunduzgi ta'lim shaklida o'qitish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash va zaruriy axborot infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning dasturlash, tarmoq texnologiyalari, ma'lumotlarni tahlil qilish kabi sohalardagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan faol dars usullari bilan boyitish talab etiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022- yil 14-aprel kuni Axborot texnologiyalari vazirligining faoliyati va 2022-yildagi rejalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda "Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirib, IT xizmatlarini 2,5 barobar oshirish va eksportni 500 million dollarga yetkazish"[1] kabi muhim vazifalar belgilangan bo'lib, axborot texnologiyalari sohasining dolzarbligi va bu borada qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'pligi, shu bilan birga ushbu soha rivojlanmasa, boshqa tarmoqlarning ham rivoji qiyinlashishi, axborot texnologiyalari har bir jabhada qo'llanilishi va odamlarga qulayliklar yaratilishiga asosli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu esa jamiyatning umumiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabalarining asosiy kasbiy faoliyat ob'yekti bu umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'lib, uning o'quv rejasidagi "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining bo'lajak o'qituvchilari hisoblanadi. Informatika va axborot texnologiyalari fani – zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'rganish, axborotlarni samarali boshqarish va ulardan to'g'ri foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning axborot madaniyatini, raqamli savodxonligini, ilmiy va matematik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish va ta'lim jarayoni bo'lib, bu jarayon pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, axborot tizimlarini yaratish va ular orqali ta'lim samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Bu fan, shuningdek, axborot texnologiyalari vositalarini o'zlashtirish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llash, pedagogik mahoratni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy moslashuvchanlik, raqobatdoshlik va shaxsiy rivojlanish kabi kasbiy faoliyatni ta'minlovchi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Informatika va axborot texnologiyalari fanining asosiy maqsadi talabalarga zamonaviy axborot tizimlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni o'z pedagogik faoliyatida integratsiyalash imkoniyatlarini o'rgatishdir. Ta'lim tizimida bu fan, talabalarning o'quv-uslubiy tayyorgarligini kuchaytirish, ularning innovatsion pedagogik yondoshuvlarni o'zlashtirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlaridan Sh.U. Usmonqulovning "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish" nomli ilmiy-tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligi mazmuni va tarkibiy qismlari kurslar ichida optimallashtirilgan. Integrativ yondashuv asosida kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari aralash ta'lim muhitida

adaptiv didaktik topshiriqlar orqali takomillashtirilgan bo'lib, kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish usullari grafikli topshiriqlarni qayta ishlash va produktiv-dizaynli yondashuvlar orqali talabalarning akademik faoliyatida qo'llanilgan. Kompetentlikni baholash mezonlari axborotni tahrirlashga oid pragmatik mashqlar va individual-refleksiya orqali ishlab chiqilgan [2].

Tadqiqodchi F.Sh. Shirinovning "Bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi ("Kompyuter grafikasi" fani misolida)" nomli ilmiy-tadqiqot ishida bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish uchun elektron ta'lim resurslaridan foydalanishga oid uslubiy-didaktik ta'minot tizimi takomillashtirilgan. Bu jarayon kompetensiyaviy, metodologik va ijodiy yondashuvlar, loyihalash, izchillik, ko'rgazmalilik, ta'limda onglilik va faollik tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'qituvchilarning metodik-didaktik, pedagogik-psixologik va texnik-konstruktiv ko'nikmalari takomillashtirilib, "Case study", "Blended learning", "Classic couple strategy" metodlari orqali uzluksizlik, tizimlilik va innovatsionlik tamoyillariga ustuvorlik berilgan. Jarayonni baholash mezonlari rivojlantiruvchi parametr va indikatorlar asosida strategik prognozlash va tizimlashtirish orqali takomillashtirilgan [3].

M.T. Mambetniyazovning "Web-texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi" nomli ilmiy-tadqiqot ishida Web-texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi yosh xususiyatlari va didaktik maqsadlarning ta'sirini taqqoslash hamda vizual ma'lumotlar, animatsiyalar va Web-resurslarni alohida ehtiyojli talabalarga moslashtirish orqali takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli onlayn platformalar, telekonferensiyalar, blog texnologiyalari va integrativ topshiriqlarni bosqichma-bosqich o'rganish motivatsiyalari bilan mukammallashtirilgan. Kasbiy tayyorgarlik bosqichlari o'quvchilarni mustaqil qidiruv-ijodiy faoliyatga, sayt yaratish va Web-resurslarni ishlab chiqishga yo'naltirish orqali ijodiy fikrlashga oid jarayonlar asosida yaxshilangan. Shuningdek, Web-texnologiyalar orqali ta'lim mazmunining moslashuvchanligi va texnologik holatlari diagnostik modellashtirish orqali rivojlantirilgan [4].

Tadqiqotchi N.N. Zaripovning "Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda dasturlash muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)" nomli ilmiy-tadqiqot ishida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida dasturlash muhiti bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun motivatsion, hamkorlikda o'qitish, integratsiya va o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini rivojlantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan. Delphi dasturlash muhitini o'rgatishda dars tuzilmasi Access, Excel, Word kabi dasturlar bilan integratsiya qilinib, ma'lumotlarni eksport va import qilish orqali yaxshilangan. Dasturlash muhitini o'qitish modeli o'yin dasturlari, trenajerlar, multimedia vositalari va ilovalar yaratish orqali takomillashtirilgan. O'quvchilarning dasturlashdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun "Komponentalar bilan ishlash texnologiyasi" va "Mustaqil murakkab dasturlarni virtual ishlanmalar" kabi elektron resurslar asosida mashqlar to'plami ishlab chiqilgan [5].

D.B. Sulaymanovaning "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish (5-sinf misolida)" nomli ilmiy-tadqiqot ishida, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitish metodikasi axborot savodxonligi, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va hamkorlik ko'nikmalarini algoritmik tafakkur bilan uyg'unlashtirish orqali takomillashtirilgan. Ta'lim jarayoni hamkorlikda o'qitish, teskari sinf, o'yinlashtirish va VAK usullarini aralash ta'lim formatida qo'llash orqali boyitilgan. Mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodika taym menejment va raqamli kompetensiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Mediatexnologik resurslar "Web-quest+Mediatools" interfaol usuli yordamida o'quv jarayoniga adaptiv qo'llanilib, ta'lim samaradorligi oshirilgan [6].

Shu bilan birga bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirish va o'quvchilarga samarali ta'lim berish usullarini o'rgatish kabi muhim masalalar yurtimizning bir qator taniqli olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar asosida chuqur o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida o'qituvchilarning pedagogik samaradorligini oshirish, ularning innovatsion

yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo'yicha yangi metodik yechimlar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda Respublikamizning ta'lim jarayonida yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim tizimiga oid qonunlar ayniqsa Oliy ta'lim tizimiga oid qaror va farmonlar hamda konsepsiyalar qabul qilinmoqda. So'nggi yillarda Respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, ta'lim tizimida universitetlarning o'zaro raqobatbardoshliligini oshirish, ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni tijoratlashtirish, shuningdek, korporativ sektorga iqtidorli kadrlar tayyorlash borasida amaliy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasida bunday tub islohotlar, albatta, yurtimizning kelajakda rivojlanishiga va xalqaro miqyosda ta'lim va ilm-fan sohalarida o'z o'rnini topishiga katta hissa qo'shadi [7].

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida Respublikamizda 2003-2024-yillarda 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiyalarining umumiy soni to'qson yetti (97) ta ekanligi va pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni to'qson uchta (93) ta hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni to'rt (4) ta ekanligi ushbu tanlangan mavzuning dolzarbligini esa, o'qitish metodikasiga oid bajarilgan tadqiqod ishlaridan bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni uchta (21) ta bo'lib, u ham bo'lsa aynan 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya tadqiqotlari amalga oshirilmaganligini ko'rish mumkin (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan hamda Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni

2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan dissertatsiyalarining umumiy soni		2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) va (DSc) dissertatsiyalaridan Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni	
97		21	
Shundan 13.00.02– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan 13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim) ixtisosligidan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni	Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalar umumiy soni
93	4	21	0



2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan dissertatsiyalarining umumiy soni

2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) va (DSc) dissertatsiyalaridan Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni

Shundan 13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni

Shundan 13.00.02– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalar umumiy soni

1.1-rasm. 2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02–Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan hamda Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining foizda ko'rsatgichlari

Yuqoridagi 2003-2024-yillarda Respublikamiz miqyosida olib borgantadqiqot ishlarining tahlili bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijasida samarali metodlar, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Bu esa pedagogik jarayonning sifatini oshirish hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Axborot texnologiyalari vazirligining faoliyati va 2022 yildagi rejalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish nutqi. 14 aprel, 2022 - yil.
2. Usmonqulov Sh.U. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq, 2023 – yil, 52 b.
3. Shirinov F. Sh. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi ("Kompyuter grafikasi" fani misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2023-yil. 58 b.
4. Mambetniyazov M.T. Web-texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2023 – yil. 43 b.
5. Zaripov N.N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda dasturlash muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati Buxoro, 2022- yil. 56 b.
6. Sulaymanova D.B. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish (5-sinf misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati Chirchiq, 2022 – yil. 41 b.
7. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. -Toshkent: O'zDPITI, 2006. –212 b.
8. Lutfillaev M.H. Axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida ta'lim samaradorligini oshirish // Kasb hunar ta'limi. –Toshkent, 2004. -№5. –B. 28-29.
9. Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda webfreelance faoliyati //sentr nauchnых publikatsiy (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
10. Sohibov, D. (2023). О квадратичном стохастическом операторе с неподвижной точкой. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(10), 747-752.
11. Mamurov, B. J., Sharipova, M. Sh., & Soxibov, D. B. (2021). О неподвижных точках одного квадратичного стохастического оператора в С. *Problemы nauki*, (4 (63)), 13-16.

6-SINFLARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINI INTEGRATSIYA QILISH

Madina Tashpulatova,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada 6-sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda o'zbek xalq ertaklarini qo'llashning samaradorligi o'rganiladi. Tadqiqot o'quvchilarning lug'at boyligi, tinglab tushunish va darslarga bo'lgan qiziqish darajasini oshirishga qaratilgan. Aralash usul qo'llanilib, sinov va mashg'ulotlar asosida ma'lumotlar yig'ildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, xalq ertaklari o'quvchilarni o'zlashtirish jarayoniga jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, o'qituvchilarga ertaklar orqali o'qitish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *xalq ertaklari, ingliz tili, madaniyat, 6-sinflar, til o'rgatish, motivatsiya, interaktiv metodlar, kommunikativ yondashuv.*

Аннотация

В данной статье исследуется эффективность использования узбекских народных сказок при обучении английскому языку учащихся 6-х классов. Исследование направлено на расширение словарного запаса,

развитие навыков аудирования и повышение интереса к урокам. Применялся смешанный метод, включающий эксперименты и учебные занятия. Результаты показывают, что народные сказки являются эффективным инструментом для вовлечения учащихся в процесс изучения языка. На основе полученных данных даны рекомендации для учителей по интеграции народных сказок в обучение английскому языку.

Ключевые слова: *народные сказки, английский язык, культура, 6-е классы, обучение языку, мотивация, интерактивные методы, коммуникативный подход.*

Annotation

This article explores the effectiveness of using Uzbek folk tales in teaching English to 6th-grade students. The study focuses on improving students' vocabulary, listening comprehension, and engagement in lessons. A mixed-method approach was applied, collecting data through experiments and classroom activities. The results indicate that folk tales serve as an effective tool for enhancing students' learning process and motivation. Based on the findings, recommendations are provided for teachers on integrating folk tales into English language instruction.

Keywords: *folk tales, English language, culture, 6th graders, language teaching, motivation, interactive methods, communicative approach.*

Kirish. Bugungi kunda ingliz tilini o‘rgatish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy yondashuvni ham talab qiladi. O‘zbek xalq ertaklari orqali ingliz tilini o‘rgatish madaniy kontekstni inobatga olgan holda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va tilga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga yordam beradi. O‘zbekistonda ingliz tili o‘qitishning an’anaviy usullari ko‘pincha grammatikaga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning faol muloqot qilishiga yetarlicha imkoniyat yaratmaydi. Shu sababli, xalq ertaklarini darslarga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarni til o‘rganishga rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – xalq ertaklarini ingliz tili darslariga integratsiya qilishning o‘quvchilarning lug‘at boyligi va tinglab tushunish ko‘nikmalariga ta’sirini o‘rganishdir.

Tadqiqot savollari

1. O‘zbek xalq ertaklari o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda qanday rol o‘ynaydi?
2. Ushbu metod o‘quvchilarning tinglab tushunish va muloqot ko‘nikmalarini qanday rivojlantiradi?
3. Xalq ertaklarini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasiga qanday ta’sir qiladi?

Adabiyotlar sharhi. Xalq ertaklarini til o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish turli ta’limiy kontekstlarda keng o‘rganilgan. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hikoyalar va narrativlardan foydalanish til o‘qitishda so‘z boyligini kengaytirish, tinglab tushunish va o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshirishda sezilarli darajada samarali bo‘lishi mumkin [1]. Xususan, xalq ertaklari boy madaniy kontekstni taqdim etib, mazmunli o‘rganishni ta’minlaydi hamda chet tilini o‘zlashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Nation so‘z boyligini oshirishda kontekstual ta’limning ahamiyatini ta’kidlaydi, ya’ni mazmunli kontekstda o‘rganilgan so‘zlar yaxshiroq yodda qoladi [2]. Bu esa ingliz tilini o‘qitishda o‘zbek xalq ertaklaridan foydalanish bilan uyg‘un keladi, chunki ular o‘quvchilar uchun tanish bo‘lgan hikoya tuzilmasini taklif etib, tushunish va yodda saqlashni osonlashtiradi. Shu bilan birga, Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi til o‘rganishda ijtimoiy muloqotning rolini ta’kidlaydi, bu esa xalq ertaklarining interaktiv dars faoliyatlarida qo‘llanilishi orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishiga yordam beradi [3].

So‘nggi yillarda til o‘qitish sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham xalq ertaklarining lingvistik va madaniy ongni rivojlantirishdagi samaradorligini o‘rganmoqda. TESOL Quarterly va Applied Linguistics Journal kabi ilmiy nashrlarda chop etilgan tadqiqotlar hikoyalarning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashini hamda yangi so‘z va grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirishga yordam berishini ko‘rsatmoqda [4, 347]. Shuningdek, tajriba asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, hikoyalash metodlari, jumladan, rolli o‘yinlar va dramatizatsiya, o‘quvchilarning gapirish va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Shunga qaramay, xalq ertaklarini ingliz tili dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish bo‘yicha yana qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur, ayniqsa g‘arbiy bo‘lmagan ta’lim tizimlarida. Hozirgi tadqiqotlarning

aksariyati g'arbiy kontekstlarga asoslangan bo'lib, mahalliy xalq ertaklaridan ikkinchi tilni o'qitishda foydalanish bo'yicha yetarlicha ma'lumot yo'q. O'zbekistonda xalq ertaklaridan til o'qitishda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar juda kam uchraydi, bu esa ushbu yo'nalishda yanada ko'proq izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Qisqacha aytganda, adabiyotlar tahlili xalq ertaklarining til o'rganish jarayonida so'z boyligi, tinglab tushunish va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samaradorligini tasdiqlaydi. Biroq, xalq ertaklarining uzoq muddatli ta'sirini o'rganish hamda ularni ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha aniq metodologiyalar ishlab chiqish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqlarni to'ldirish va o'zbek xalq ertaklarining 6-sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishdagi o'rnini aniqlash hamda o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Navoiy shahridagi umumta'lim maktablaridan birining 6-sinfida tahsil olayotgan 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ularning ingliz tilini bilish darajasi boshlang'ichdan o'rta darajagacha edi. Tadqiqotda uchta o'zbek xalq ertagi tanlab olindi: Aqlli quyon, Oltin baliq, Dangasa dehqon

Mazkur ertaklar ingliz tiliga tarjima qilinib, dars davomida interaktiv metodlar orqali o'qitildi.

Tadqiqot bosqichlari:

Dastlabki sinov (pre-test): O'quvchilarning lug'at boyligi va tinglash ko'nikmalari aniqlandi.

Aralashuv bosqichi: 4 hafta davomida haftasiga 2 marta ertak asosida mashg'ulotlar o'tkazildi.

Yakuniy sinov (post-test): Natijalar dastlabki sinov bilan solishtirildi.

So'rovnomalar va intervyular: O'quvchilarning fikrlari va darslarga bo'lgan qiziqishi tahlil qilindi. Statistik tahlil metodlari qo'llanilib, test natijalari foiz hisobida taqqoslandi. Shuningdek, sifatli tadqiqot usullari orqali o'quvchilarning fikr-mulohazalari umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Post-test natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning so'z boyligi o'rtacha 25% ga oshdi. Ayniqsa, ertaklar asosida o'rgatilgan so'zlar yaxshiroq eslab qolindi.

O'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari 30% ga yaxshilanganligi kuzatildi. Ular ertaklarni tinglash va qayta hikoya qilish orqali yangi iboralarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 85% ushbu metodikani qiziqarli deb topdi va darslarda faol ishtirok etdi. O'qituvchilar kuzatuviga ko'ra, rolli o'yinlar va guruh ishlari o'quvchilarning o'zaro muloqotini yaxshilashga yordam bergan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq ertaklarini ingliz tili darslariga integratsiya qilish o'quvchilarning lingvistik va madaniy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning til o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

Tadqiqot qisqa muddatli bo'lib, uzoq muddatli ta'siri o'rganilmagan.

Ishtirokchilar soni cheklangan bo'lgani sababli natijalarni barcha maktablarga umumlashtirish qiyin.

Ingliz tili darsliklariga xalq ertaklarini kiritish, o'qituvchilarni ertaklar asosida interaktiv metodlarni qo'llashga o'rgatish, ertaklar asosida maxsus ta'lim materiallarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalq ertaklarini ingliz tili darslariga integratsiya qilish o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida xalq ertaklari asosida o'tilgan darslar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga, tinglab tushunish ko'nikmalarini yaxshilashga va darslarga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga yordam berdi. Ayniqsa, ertaklar asosida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar va rolli o'yinlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq ertaklaridan foydalanish faqat til o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning madaniy ongini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ertaklardagi qahramonlar, voqealar rivoji va xulosa chiqarish imkoniyati o'quvchilarga nafaqat til, balki axloqiy va ma'naviy tushunchalarni ham singdiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Darslik va ta'lim materiallariga xalq ertaklarini kiritish – Ingliz tili darsliklariga o'zbek xalq ertaklarining mos tarjimalari va ular asosida tuzilgan mashqlar qo'shilishi o'quvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin.

2. O'qituvchilar uchun maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish – O'qituvchilar xalq ertaklaridan samarali foydalanishi uchun metodik qo'llanmalar va dars ishlanmalarini ishlab chiqish zarur.

3. Madaniyatlararo ta'limni rivojlantirish – Xalq ertaklarini ingliz tilida o'qish va tahlil qilish orqali o'quvchilar nafaqat o'z madaniyatini, balki ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati bilan ham tanishishi mumkin.

4. Interfaol o'qitish metodlarini keng qo'llash – Rolli o'yinlar, dramatizatsiya va muhokama usullaridan keng foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot qisqa muddatli bo'lib, faqat bir guruh o'quvchilar ishtirokida o'tkazilganligi sababli, kelajakda kengroq miqyosda, uzoq muddatli monitoring orqali xalq ertaklarining ingliz tilini o'rgatish jarayoniga ta'sirini chuqurroq o'rganish lozim. Bundan tashqari, turli yosh guruhlari bilan ham sinovlar o'tkazish va natijalarni taqqoslash tavsiya etiladi.

Umuman olganda, xalq ertaklarini ingliz tili ta'limiga integratsiya qilish an'anaviy o'qitish usullariga boy alternativ bo'lib, til o'rganish jarayonini yanada samarali va mazmunli qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ellis, R. (2009). Task-based language teaching. Cambridge University Press.
2. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press.
3. Vygotsky, L. (1978). Mind in society. Harvard University Press.
4. Smith, J., & Johnson, K. (2020). Cultural storytelling and language acquisition. TESOL Quarterly, 54(3), 345-360.
5. Brown, H. D. (2018). Principles of language learning and teaching. Pearson Education.

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA "FLIPPPED CLASSROOM" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Fotima Sattorova,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annontatsiya

Ma'lumki, bugungi kunda jamiyatimizda ilm-fan taraqqiyotiga alohida e'tibor berilmoqda. Yosh-avlodni jamiyat hayotida o'z o'rinini topishi uchun har bir o'quvchiga e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf ona tili darslarida "Flipped Classroom" texnologiyasidan foydalanish o'quvchilar bilimini oshirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunisi aniqki, maktablarda o'tilayotgan 45 daqiqali darslarda o'qituvchilar bolalarga ko'p narsalarni tushuntirishga, mavzuni hayotdagi ahamiyatini yoritishga, kundalik hayotdagi muommoli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini izlashga yoki to'la anglatishga ulgurmay qoladi. Shu sababli boshlang'ich sinf ona tili darslarida "Flipped Classroom" texnologiyasidan foydalanish ushbu muommolarni yechishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *mashq, teskari ta'lim, uyda o'rganish, mustahkamlash, vaqtni tejash, samaradorlik, "Flipped Classroom" texnologiyasi.*

Аннотация

Известно, что развитию науки в нашем обществе сегодня уделяется особое внимание. Внимание уделяется каждому студенту, чтобы подрастающее поколение могло найти свое место в жизни общества. В настоящее время использование технологии «Перевернутый класс» на занятиях по родному языку в начальных классах служит повышению и укреплению знаний учащихся. Понятно, что на 45-минутных уроках, проводимых в школах, учителя не успевают многое объяснить детям, подчеркнуть важность темы в жизни, найти пути выхода из проблемных ситуаций в повседневной жизни или полностью понять. Поэтому

использование технологии «Перевернутый класс» на занятиях по родному языку в начальных классах помогает решить эти проблемы.

Ключевые слова: *упражнения, перевернутое обучение, обучение дома, закрепление, экономия времени, эффективность, технология «Перевернутый класс».*

Annotation

It is known that special attention is paid to the development of science in our society today. Attention is paid to each student so that the younger generation can find their place in the life of the society. Currently, the use of "Flipped Classroom" technology in primary-grade mother-tongue classes serves to increase and strengthen students' knowledge. It is clear that in the 45-minute lessons held in schools, teachers do not have time to explain many things to children, highlight the importance of the topic in life, search for ways out of problematic situations in everyday life, or fully understand. Therefore, the use of "Flipped Classroom" technology in primary-grade mother-tongue classes helps to solve these problems.

Keywords: *exercise, flipped education, learning at home, reinforcement, time saving, efficiency, Flipped Classroom technology.*

Kirish (Introduction). Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanish juda samarali bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya darslikdagi an‘anaviy o‘qitish usullarini o‘zgartirib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rganish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu texnologiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga nisbatan qiziqtirish orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta’minlashga qaratilgan. Ko‘plab professor, olimlar aytishicha, bola 10 yoshgacha bilimlarni egalashi mumkin bo‘lgan 60% ini o‘zlashtiradi.[2,1] Aynan bu yoshdagi bolalar boshlang‘ich sinf o‘quchilari hisoblanasi. Shu maqsadda bolalarga ta’lim va tarbiyani uni kichik yoshidan berish zarur. Bu texnologiyadan foydalanish dastlab samara bermasligi mumkin. Lekin bolalar asta-sekin bu texnologiyadan foydalanishni o‘zlashtirgandan so‘ng Flipped classroom texnologiyasi har tomonlama samarali natija beradi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida Flip (Flipped Classroom) texnologiyasidan foydalanish samarali ta’lim berish usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar darsni oldindan tayyorlab keladi, sinfda esa o‘rganganlarini mustahkamlaydi va amaliyot bilan bog‘laydi.

Flip Classroom (aksincha sinf yoki teskari dars) texnologiyasi – bu ta’lim jarayonini an’anaviy modeldan farqli ravishda tashkil etish metodikasi bo‘lib, bunda nazariy materiallarni uyda o‘rganish, dars vaqtida esa amaliy mashqlarni bajarish asosiy o‘rinni egallaydi. “Flipped Classroom” - bu nima? Flipped Classroom texnologiyasi. Ushbu texnologiyaning shiori "onlayn o‘rganish, oflayn dastur" [5,3].

“Flipped Classroom” — bu o‘quvchilarni o‘zaro faolroq jalb qilish va o‘rganishni kuchaytirishga qaratilgan o‘quv strategiyasi va aralash o‘qitish turi. Bu texnologiyada o‘quvchilar uyda o‘qib chiqishlari kerak bo‘lgan materialni sinfda amaliyot va kundalik hayot solishtiradi hamda olgan bilimini mustahkamlaydi. An’anaviy tarzda uyga beriladigan topshiriqlar sinf ichida bajariladi. Bugun jahon ta’lim tizimida keng qo‘llanayotgan Flipped classroom («teskari sinf») texnologiyasi ham ana shu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ajralib turadi va u oliy ta’lim va maktan dars tizimiga kirib kelmoqda. Flipped classroom («teskari sinf») texnikasi ta’limni tashkil etishga zamonaviy yondashuv bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchilar o‘quv materialini o‘zlashtirishining asosiy qismi darsdan tashqaridagi dars tayyorlashga to‘g‘ri keladi. “Teskari sinf” deb nomlangan o‘quv jarayonining bu texnologiyasi aralash ta’limning bir turidir[4,2]. Bu yondashuvda o‘quvchilarlar onlayn darslarni ko‘radi, onlayn muhokamalarda qatnashadi yoki uyda bilim orttirib izlanishlar olib boradi. Sinfda esa murabbiylar ko‘magida mavzularni faolroq o‘rganishga kirishadilar. Flipped Classroom texnologiyasini an’anaviy dars bilan solishtirib ko‘ramiz

An’anaviy darsda odatda o‘qituvchi darsni boshqaradi, asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi va diqqat markazida bo‘ladi. O‘quvchi yoshlar esa ko‘pincha mustaqil yoki kichik guruhlarda ishlaydilar, ammo ular asosan o‘qituvchi tomonidan belgilanadigan topshiriqlarni bajaradilar. Sinfda savol-javoblar o‘qituvchi orqali boshqariladi, bu esa bolalarning ishtirokini cheklaydi.

"Flipped Classroom" texnologiyasida esa dars jarayonini o'quvchi asosiy markazga aylanadi. O'quchilar yangi mavzular bilan maktabdan tashqarida tanishadi va dars vaqtida o'quv materiallarini chuqurroq o'rganishadi. Bunda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan qisqa videodarslar asosiy o'rin tutadi. Ushbu videolar ideal ravishda 8-12 daqiqadan oshmasligi tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinf darslarida Flipped Classroom texnologiyasi orqali sinfdagi faoliyatlar muhiti tubdan o'zgarishi mumkin. Flipped Classroom texnologiyasida sinfdagi darslar o'ziga xos tarzda qayta tashkil etiladi. Bunda quyidagi faoliyat turlari o'rin olishi mumkin:



1-rasm. Flipped Classroom texnologiyasida faoliyat turlari

Bu kabi faol o'rganish usullari o'qituvchilarga yuqori darajadagi differensial ta'lim berish imkonini yaratadi. Sinfdagi vaqtni yanada samarali foydalanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bular: muammolarni aniqlash, hamkorlik qilish, dizayn yaratish va ularni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature reviyew). Flipped Classroom texnologiyasi tarixi. Bu texnologiya 1984-yilda Sobiq Ittifoqning Pedagogika Fanlari Akademiyasi a'zosi Militsa Nechkina tomonidan bu model taklif qilingan. 1980-90 yillarda Rossiyada ushbu yondashuvni sinab ko'rishgan. Nechkina bu model haqida shunday yozgan edi: "O'quvchilarga darslikni mustaqil o'qib, yangi bilimlarni olishga ruxsat bering. Ularni sinfda o'qituvchi bilan muhokama qilib, yakuniy xulosa chiqarishga yo'l qo'ying". Shundan so'ng 1993-yilda Alison King "From Sage on the Stage to Guide on the Side" nomli maqolasini chop etdi. Unda dars vaqtida ma'lumotni o'zlashtirishdan ko'ra, mazmunni shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. 1997-yilda esa Garvard professori Erik Mazur "Peer Instruction" (o'zaro o'rganish) metodikasini ishlab chiqdi. Mazurning bu modeli ma'lumotni o'zlashtirish jarayonini sinfdan tashqariga olib chiqib, sinfda esa ma'lumotni qo'llash imkoniyatini yaratdi.

Flipped Classroom texnologiyasining rivojlantirishdagi qo'shimcha yutuqlar quyidagilardan iborat.

2000-yilda Lage, Platt va Treglia "Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment" (Sinfni Aylantirish: Inklusiv Ta'lim Muhiti Yaratishga Yo'l) nomli maqolalarini chop etishdi. Bu tadqiqot kollej darajasidagi iqtisodiyot faniga oid ikki darsni o'rgandi va ma'lumotni sinfdan tashqariga chiqarib, dars vaqtini o'quvchilarning turli o'quv uslublariga moslashish uchun ishlatish mumkinligini ta'kidladi.

1990-yillarda Cedarville Universitetida J. Uesli Beyker "classroom flip" (sinfni aylantirish) usulini sinab ko'rdi. U bu haqda 2000-yilda ta'lim konferensiyasida ma'ruza qildi, bu atamaning birinchi rasmiy qo'llanilishi edi. Salmon Xon ham Flipped Classroom yondashuvining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. 2004-yilda Xon

o'zining kichik qarindoshiga yordam berish maqsadida video darsliklar tayyorlay boshladi. Bu darsliklar murakkab joylarni qayta ko'rib chiqish yoki tushunilgan bo'limlarni o'tkazib yuborish imkonini berardi. Ushbu tajriba asosida u Xon Akademiyasiga asos soldi, bu esa Flipped Classroom texnologiyasining mashhur shakllaridan biriga aylandi.

2011-yilda Michigan shtatidagi Clintondale High School maktabi barcha sinflarini Flipped Classroom modeliga o'tkazdi. Ushbu yondashuv natijasida talabalarning muvaffaqiyati oshganligi kuzatildi, chunki darslar sinfda faol o'zlashtirishga qaratilgan edi. Flipped classroom ("Teskari sinf") modelining asoschilari bo'lgan Jonathan Bergman va Aaron Sams 2007-yilda darslarni tez-tez o'tkazib yuboradigan sportchilarga o'z ma'ruzalarini taqdim etish, ularni o'zlashtirishini nazorat qilish maqsadida o'z ma'ruzalarini va talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimini elektron shaklda ishlab chiqish uchun dasturiy mahsulotlarni izlab topishadi[4,2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Boshlangich sinf ona tili darsida Flipped Classroom texnologiyasini qo'llash. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Misol uchun 3-sinf 3-kitob 3-chorak ona tili darsligini tanlab olamiz. Uyga bajarish uchun yangi mavzu yuzasidan topshiriq beramiz. Kelgusi dars (yangi dars) mavzusi "So'z turkumlari" bo'lsin.

1.1 Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ustida ish olib borib tayyorlov bosqichini amalga shiradi. Ya'ni

Dars mavzusiga oid materiallarni tayyorlashdi: qisqa va tushunarli videodarslar, interaktiv slaydlar yoki matn shaklidagi materiallar.

Internet platformalar (Google Classroom, Edmodo, yoki YouTube) yoki offline materiallar orqali o'quvchilarga ma'lumotni taqdim etadi.

1.2 Uchinchi sinf o'quvchilariga uyda bajarish uchun: "So'z turkumlari" mavzusi bo'yicha qisqa video yoki slaydni tomosha qilish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar ushbu uyga vazifani uyda ota-onasi yoki aka-opalari ko'magida birgalikda bajarishadi. Bolalar kelgusi darsga "So'z turkumlari" mavzusi yuzasidan yangi bilimlarga ega bo'lib kelishadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mavzu oson yoki murrakkabligiga qarab turli topshiriqlar berishi mumkin. Masalan

* Video darslar: O'qituvchi mavzuni tushuntirish uchun qisqa video darslarni ota- onalarga onlayn ko'rish uchun taqdim etishi mumkin.

* Interaktiv mashqlar: O'quvchilar o'z bilimlarini sinab ko'rish uchun onlayn interaktiv mashqlarni bajarishi mumkin.

* Onlayn muhokamalar: O'quvchilar mavzuni muhokama qilish uchun onlayn forumlar yoki chat xonalaridan foydalanishlari mumkin.

* Guruh ishlari: O'quvchilar onlayn tarzda guruh bo'lib ishlab, o'z bilimlarini qo'llash va bir-birlariga yordam berish imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

Har bir dars mavzusiga mos keladigan oddiy tushunchalar yoki qoidalarni uyda o'rganish uchun topshiriq berish.

1.3 O'quvchilar yangi mavzuni darsgacha bo'lgan muddatda o'zlashtirgandan so'ng qolgan topshiriqlar sinfda bajaradi va mustahkamlan oladi. Sinfda uyda ota-onasi va yaqinlari bilan olgan yangi mavzuga oid ma'lumotlarni ustozi bilan birga amaliyotga tatbiq etadi. Bu mashqlar, rolli o'yinlar, munozaralar yoki guruhda ishlash orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari sinfda amaliy mashg'ulotlar o'tkazishadi. Bu esa o'quvchining bilim va nazariy ma'lumotlarini mustahkamlaydi, so'z boyligini oshirishdi. Mavzuga oid turli so'zlarni o'yinlar orqali yangi mavzuni mustahkamlashdi, matnlar tuzishadi. Ustozi tomonidan o'quvchilarga uyda o'rgangan mavzusiga oid topshiriqlar berib, ularning bilimini tekirib olib va muhokama qiladi.

O'qituvchi tomonidan yangi mavzu yuzasdan bolalarni savol javob qiladi va topshiriqlar beradi.

1.Shaxs-narsaning belgi, sanog'ini va harakatini bildiruvchi so'zlarga bittadan misol ayting.

2. So'z turkumi deb nimaga aytiladi?

3.Nechta so'z turkumi bor?

4.Sanoqni bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumi?

Shaxmat

Shaxmat-san'at, falsafa, mantiq, hisob ilmlarini jamlagan sport turi. U intellektual o'yinlar ichida eng mukammal va murakkabi hisoblanadi. Xabaringiz bor, avgust oyida Hindistonning Chennay shahrida o'tkazilgan olimpiadasida 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida terma jamoamiz Olimpiada chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldilar.

1-topshiriq. Shaxmat so'ziga sinkveyn tuzing.

- Nima?
- Qanday?
- Nima qiladi?
- Gap
- Ma'nodosh so'z

So'zlarga so'roq berishni o'rgatish. Darslikdagi " Qorli tog' " matni orqali buni qiziqarli o'rgatish mumkin.

Qorli tog'

Biz yakshanba kuni sinfimiz bilan birgalikda Chimyon tog'iga bordik. Tog'ga qalin qor yog'gan, kun sovuq edi. Tog' cho'qqisi oppoq qor va bulutlar bilan qoplanganini ko'rib zavqlandik. Tog' etaggida bolalar chana uchishardi. Jamshid, Sarvar va Ravshan tog' manzaralarining rasmini chizishdi. Javlon va Salim qorbobo yasashdi. Biz maza qilib dam oldik.

2-topshiriq. Qorli tog' matnidagi tagiga chizib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Bu topshiriqni o'qituvchi o'quvchilar bilan birga bajarish ko'proq samaradorlik va natijani oshiradi.

Chimyon tog'iga –(qayerga?) Qor-(nima?) v.ho.zo

Yangi mavzuni yanada mustahkamlash uchun maslahatlar.

1. O'quvchilarga video darslarni ko'rish uchun vaqt ajratish: O'quvchilar video darslarni ko'rish uchun yetarli vaqt ajratishi kerak.
2. Video darslarni qisqa va qiziqarli qilish: Video darslar qisqa va qiziqarli bo'lishi kerak, shunda o'quvchilarning diqqatini jalb qilish mumkin.
3. O'quvchilarga o'zlarining o'rganish jarayonini boshqarishga imkon berish: O'quvchilarga o'zlarining o'rganish jarayonini boshqarishga imkon berish, ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Bu bosqichda o'quvchilar sinfda o'rganilgan nazariyani amaliyot orqali mustahkamlaydi – muhokamalar, guruh ishlari, rolli o'yinlar yoki masalalar yechadi.

1.4 O'qituvchi bu bosqichda kuzatuvchi va yordamchi rolida aks etadi. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarga yo'naltiruvchi maslahatlar beradi, bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Uyda o'rganilgan mavzu bo'yicha qisqa test o'tkazishdi. O'quvchilar guruhlarga bo'linib, berilgan topshiriqlarni bajaradi (matn tuzish, jumlalarni tahlil qilish, interaktiv o'yinlar).

3-topshiriq. O'quvchilarga mustaqil yakka o'zlari so'z turkumlaridan foydalanib matn tuzish berish.

O'quvchilar bu bosqichda o'zaro bir biriga o'rgatishadi va shunda yangi mavzuda hech qanday bo'shliq paydo bo'lmaydi. Bolalar bir-birlariga mavzuni tushuntirib beradi, bu orqali bilim mustahkamlanadi.

1.5.Ushbu bosqichda o'quvchilar baholanadi. Dars oxirida o'quvchilarning ishlari tahlil qilinadi, xatolari ko'rsatiladi va umumiy xulosalar chiqariladi. Bu jarayon davomida o'qituvchi o'quvchilarning bilimini individual yondashuv bilan tekshirib, baholaydi.

Flipped clasroom texnologiyasidan foydalanish uchun quyidagi komponentlarga ega bo'lish talab qilinadi:

-Masofaviy ta'lim olish uchun barchaga ochiq bo'lgan platforma;

-Matnli audioli va videoli o'quv materiallari;

-Power point taqdimotlari;

-o'quvchilar va talabalar uchun olayn muloqotni taminlab beruvchi kontent va boshqalar.[10,3]

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Boshlang'ich sinf ona tili darslarida dars samaradorligini oshirishda Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanish qolaversa, innovatsion texnologik

ussullardan, zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning ko'plab sifatlarni oshiradi. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari va amaliy qo'llanilishi keltirilgan.

- ✓ Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligini oshiradi.
- ✓ O'quchilar darsgga oldinroq tayyorgarlik ko'radi.
- ✓ Bolalar darsga faolroq qatnashadi va yaxshi tayyorgarlik ko'rib keladi.
- ✓ Uyda o'rgangan bilimlarini muhokama qilish vaziyati paydo bo'ladi va o'quvchilar o'z bilimlarini ko'rsata olishadi.
- ✓ Ota-ona tomonidan bolasiga mehr va e'tibor kuchayadi. Yangi mavzuni ota- ona bilan o'rganish kelajakdagi qiyin vaziyatlardan chiqib ketish uchun asos bo'ladi.
- ✓ O'quvchilarning o'rganishga va yuksalishga bo'lgan qiziqishini oshiradi: O'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda, o'zlariga yoqadigan usulda ma'lumotlarni o'rganishlari mumkin. Bu ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.
- ✓ Dars vaqtida faol o'rganishni ta'minlaydi: O'quvchilar darsga oldindan tayyorgarlik ko'rib kelganlari uchun, dars vaqtida ular o'zlarining bilimlarini qo'llash, muhokama qilish, guruh ishlari va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratishlari mumkin.
- ✓ O'qituvchilarga individual yondashuvni qo'llashga imkon beradi: O'quvchilarning o'rganish darajasi turlicha bo'lgani uchun, o'qituvchilar ularga individual yondashuvni qo'llashi mumkin. Flipped Classroom texnologiyasi o'qituvchilarga o'quvchilarni o'zlarining o'rganish ehtiyojlariga qarab guruhlarga ajratish va ularga moslashtirilgan o'quv materiallari va mashqlarni taqdim etish imkonini beradi.
- ✓ O'qituvchilarga o'quvchilarni baholash uchun ko'proq imkoniyat yaratadi: O'quvchilar darsga oldindan tayyorgarlik ko'rib kelganlari uchun, o'qituvchilar ularning bilimlarini baholash uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladilar. Bu ularga o'quvchilarning o'rganish jarayonini yaxshiroq kuzatib borish va kerakli yordamni taqdim etishga imkon beradi.
- ✓ Har bir o'quvchi o'z tempiga va xohish, istaklarig ega bo'ladi.
- ✓ Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun vaqt tejaladi. Asosiy qoidalar darsdan tashqari holatda o'rganildi.
- ✓ Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darsiga bo'lgan shaxsiy yondashuvini oshiradi: Har bir o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra mavzuni o'rganadi.
- ✓ Dars samaradorligini va natijasini oshiradi.
- ✓ O'quvshilar texnologiyadan foydalanishni o'rganishadi. Raqamli vositalar yordamida darsni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish mumkin.

Umuman olganda, Flipped classroom texnologiyasi boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, dars vaqtida faol o'rganishni ta'minlash, o'qituvchilarga individual yondashuvni qol'lashga imkon berish va o'quvchilarni baholash uchun ko'proq imkoniyat yaratishga yordam beradi. Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanish, ayniqsa, texnologiyaga qiziquvchan va faollikni oshirishni xohlagan o'quvchilar uchun samarali. Bu texnologiya ta'lim jarayonini qiziqarli, mazmunli va interaktiv qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ishoniladiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va boshqa darslarda Flipped texnologiyasi orqali o'quvchilarning uyda o'tayotgan bo'sh vaqtlarni dasrdan tashqari paytida yangi mavzu yuzasidan qisman bilimlar oladi dars jarayonida ularni mustahkamlaydi. Ushbu texnologiyadan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, o'z ustida mustaqil ishlashni o'rganishga, qobiliyatini oshirishga, axborot texnologiyalarga nisbatan ko'nikma hosil qilishga, mashqlarga va o'yinlarda ijodiy yondashishga, ularni bajarish jarayonida bir nechta mashqlarni bajarishda qu'lay usullarni topib, ular orasidan optimal, eng yaxshi bajarish usulini va yo'llarni topishga o'z bilimlarini oshirishga, asosiysi ta'lim samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida va darsdan tashqari

to‘garaklarida Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanish tavsiya beriladi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida va darsdan tashqari to‘garaklarida Flipped Classroom texnologiyasidan foydalanish tavsiya beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baker, J.W. “The Classroom Flip”: Using Web course management tools to become the Guide by the Side." In J. A. Chambers (Ed.), Selected papers from the 11th International Conference on College Teaching and Learning (2000), pp. 9–17. Jacksonville, FL: Florida Community College at Jacksonville.

2. Rashidova.O. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning zamonaviy metodlari tahlili” Innovations in Science and Technologies Volume-1, №1, 2024-yil fevral (71-77-betlar)

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik, Ona tili, III qism, Toshkent-2023.

4. Jumaniyozova.M. “Oliy ta'lim jarayonida Flipped classroom texnikasidan foydalanishning o‘ziga hos xususiyatlari” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar №5, 2023-yil (148-153-betlar)

5. Murodaliyeva.M. “Flipped Classroom modeliadan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasi”, Scientific aspects and trends in the field of Scientific research, (339-342-betlar)

6. Tucker B. The Flipped Classroom. Education Next, retrieved from: http:// educationnext.org/the-flipped-classroom/ (accessed September 17, 2018). 129 2012-y

7. Lage. M, Platt G. & Treglia M. Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment, The Journal of Economic Education, 31(1), 2000, 30p

8. Bergmann J., Overmyer J., & Wilie B. The Flipped Class: Myths vs. Reality – THE DAILY RIFF–Be Smarter. About Education. Thedailyriff.com, 2015, retrieved from: http://www.thedailyriff. com/articles/the-flipped-class-conversation-689.php (accessed September 23, 2018).

9. Sara Arnold-Garza. Towson University. “The Flipped classroom teaching model and its USE for information literacy instruction” -2014.

10. Xudoyshukurova. I. “O‘qitishning Flipped Classroom modeli: mazmuni, qo‘llash talablari va imkoniyatlari”, Academic research in educational sciences, Volume-2, Issue-9, 2021-yil.(1145-1150-betlar)